

Avtomobildan
foydalanish bo'yicha
qo'llanma
CHANGAN UNI-T.

UNI-T

MUQADDIMA

Hurmatli xaridor! **CHANGAN UNI-T** avtomobilini tanlaganingiz bilan tabriklaymiz.

CHANGAN Automobile kompaniyasi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida uzluksiz ravishda o'z mahsulotlarini rivojlantirish va yaxshilash, shuningdek, foydalanuvchi qo'llanmasini yaxshilash jarayonini amalga oshiradi. Biz har bir ishlab chiqarilayotgan CHANGAN avtomobilining ilg'or texnologiyalari va yuqori sifatli konstruksiyasi bilan faxrlanamiz.

Ushbu qo'llanma sizni yangi CHANGAN avtomobilingizdan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish xususiyatlari bilan tanishtiradi. Qo'llanmani diqqat bilan o'qish tavsiya etiladi, chunki undagi ma'lumotlar yangi avtomobilingizdan foydalanish zavqini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Biz foydalanuvchi qo'llanmasi va avtomobil konfiguratsiyasini zaruratga qarab va oldindan ogohlantirmasdan qayta ko'rib chiqish huquqini o'zimizda saqlab qolamiz. Avtomobilingiz konfiguratsiyasi va xususiyatlarini boshqa qo'llanmalar bilan solishtirmang va ular o'rtasidagi farq asosida kompensatsiya talab qilmang. Agar mahsulot yoki foydalanuvchi qo'llanmasining mazmuni haqida savollaringiz bo'lsa, CHANGAN Automobile kompaniyasining vakolatli dileriga murojaat qiling.

CHANGAN Automobile Co., Ltd. foydalanuvchi qo'llanmasiga mualliflik huquqiga ega va ushbu qo'llanmani izohlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Kompaniyaning yozma ruxsatisiz foydalanuvchi qo'llanmasining hech qanday qismi har qanday matnda, shu jumladan qisman iqtiboslar yoki boshqa adabiy maqolalar yoki materiallardagi iqtiboslar sifatida foydalanilishi yoki aks ettirilishi mumkin emas.

Avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatish CHANGAN Automobile kompaniyasining vakolatli dileri tomonidan amalga oshirilishi qat'iy tavsiya etiladi. Agar avtomobildan foydalanishda savol yoki takliflaringiz bo'lsa, CHANGAN Automobile rasmiy dilerining qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qiling.

Chongqing Changan Automobile Co., Ltd.

Feb 2023

© Changan Automobile Co., Ltd., All Rights Reserved.

AVTOMOBIL TASHQI ELEMENTLARI



- ① Kombinatsiyalangan faralar;
- ② Dvigatel kapoti;
- ③ Old oyna tozalagichlar;
- ④ Tashqi orqa ko'rish oynasi;
- ⑤ Elektr uzatmali oyna;

- ⑥ Kombinatsiyalangan orqa chiroqlar;
- ⑦ Kameronasiz shinali g'ildiraklar;
- ⑧ Tashqi tutqichlar va eshik qulfi;
- ⑨ Yoqilg'i quyish lyuki;
- ⑩ Bagaj bo'limi qopqog'i;

※ Ushbu belgi tavsifda ko'rsatilgan funksiya yoki uskuna avtomobilning standart komplektatsiyasiga kiritilmasligi va ma'lumot sifatida taqdim etilishini anglatadi. Aniq konfiguratsiya avtomobilingizga qarab belgilanadi.


AVTOMOBIL SALONI ELEMENTLARI



- ① Eshik qulfi;
- ② Yoritishni boshqarish tutqichi;
- ③ Asboblarni majmuasi;
- ④ Oyna tozalagichni boshqarish rul osti tutqichi;
- ⑤ Multimedia boshqaruvi;
- ⑥ Yorug'lik avariya signalizatsiyasini yoqish tugmasi;
- ⑦ Konditsionerni boshqarish paneli;
- ⑧ Elektr oyna ko'targichlarni boshqarish tugmalari;
- ⑨ Eshik qulflarini boshqarish moduli;
- ⑩ Rul g'ildiragi;
- ⑪ "START ENGINE STOP" dvigatelni ishga tushirish tugmasi
- ⑫ AUO'Q boshqarish selektori;
- ⑬ Haydash rejimini tanlash selektori
- ⑭ Simsiz zaryadlash qurilmasi


※ Ushbu belgi tavsifda ko'rsatilgan funktsiya yoki uskuna avtomobilning standart komplektatsiyasiga kiritilmasligi va ma'lumot sifatida taqdim etilishini anglatadi. Aniq konfiguratsiya avtomobilingizga qarab belgilanadi.

KO'P FUNKSIYALI ASBOBLAR PANELI DISPLAYI



※ Ushbu belgi tavsifda ko'rsatilgan funksiya yoki uskuna avtomobilning standart komplektatsiyasiga kiritilmasligi va ma'lumot sifatida taqdim etilishini anglatadi. Aniq konfiguratsiya avtomobilingizga qarab belgilanadi.

MOTOR BO'LIMI ELEMENTLARI



- ① Dvigatel sovutish suyuqligi rezervuari (Yuqori haroratli kontur);
- ② Moy quyish bo'g'zi qopqog'i;
- ③ Tormoz suyuqligi baki;
- ④ Akkumulyator batareyasi;
- ⑤ Asosiy saqlagichlar bloki;
- ⑥ Havo filtri;
- ⑦ Dvigatel sovutish suyuqligi rezervuari (past haroratli kontur);
- ⑧ Dvigatel moy sathi o'lchagichi;
- ⑨ Old oyna yuvish suyuqligi idishi.

※ Ushbu belgi tavsifda ko'rsatilgan funksiya yoki uskuna avtomobilning standart komplektatsiyasiga kiritilmasligi va ma'lumot sifatida taqdim etilishini anglatadi. Aniq konfiguratsiya avtomobilingizga qarab belgilanadi.

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI HAQIDA

- **Foydalanish**
- **Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish**
- **Texnik xususiyatlari**

Ushbu Foydalanuvchi qo'llanmasidagi ma'lumotlar chop etilgan vaqt uchun amal qiladi. Biroq, mahsulot sifatining doimiy ravishda yaxshilanishi sababli, CHANGAN Automobile avtomobil dizayniga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Ushbu qo'llanma seriyadagi barcha modellarga tegishli bo'lib, standart va qo'shimcha uskunalarining tavsiflari va talqinlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu qo'llanmada siz o'z avtomobilingizga tegishli bo'lmagan materiallarni topishingiz mumkin.

QO'LLANMADAN FOYDALANISH

Foydalanishdan oldin avtomobil haqida batafsil ma'lumot olish uchun foydalanuvchi qo'llanmasi bilan tanishib chiqing. Ushbu qo'llanma avtomobildan to'g'ri foydalanish va unga xizmat ko'rsatishda hamda xavfsiz haydashdan maksimal darajada zavqlanishda yordam beradi.

Shikastlanish, jarohatlanish va o'lim xavfini minimallashtirish uchun **"DIQQAT"**, **"OGOHLANTIRISH"** va **"ESLATMA"** bo'limlaridagi ma'lumotlarga alohida e'tibor bering.

Avtomobildan foydalanishni yaxshiroq tavsiflash uchun qo'llanmadagi matn rasmlar bilan to'ldirilgan. Qo'llanma bilan tanishib, avtomobilning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilib olishingiz, shuningdek, xavfsizlik texnikasi va turli yo'l sharoitlarida haydash bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Qo'llanmaning umumiy tarkibi mundarijada keltirilgan.

Kerakli ma'lumot yoki funksiyani qidirishda alifbo ko'rsatkichidan foydalaning. Unda qo'llanmada keltirilgan barcha ma'lumotlarning ro'yxati alifbo tartibida keltirilgan.

Bo'limlar: qo'llanma sakkiz bob va alifbo ko'rsatkichidan iborat. Har bir bo'lim qisqacha mazmun bilan boshlanib, unda kerakli ma'lumotlar berilganligini darhol ko'rish mumkin.

Qo'llanmada sizning xavfsizligingizni va atrofda qilarning xavfsizligini ta'minlash uchun ehtiyot choralari va foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Bu ma'lumotlar sizga yoki atrofda qilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ehtimoliy xavflar, shuningdek, avtomobilning shikastlanishi haqida ogohlantiradi. Avtomobil yorlig'ida va ushbu qo'llanmada mavjud bo'lgan xavfsizlik texnikasi bo'yicha ko'rsatmalar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni va ularni oldini olish yoki kamaytirish uchun zarur harakatlarni tavsiflaydi.

Ushbu qo'llanmadagi ogohlantirishlar va

tavsiyalar sizning xavfsizligingiz uchun mo'ljallangan.

Xavfsizlik texnikasi bo'yicha ogohlantirishlar va ko'rsatmalarga rioya qilmaslik jiddiy jarohatlar yoki o'limga olib kelishi mumkin.

Qo'llanmada **"DIQQAT"**, **"OGOHLANTIRISH"**, **"ESLATMA"** belgilari va **XAVFSIZLIK HAQIDAGI OGOHLANTIRISH BELGISI** qo'llanilgan.



DIQQAT! Bu belgi ehtimoliy xavf haqida ogohlantiradi.

U ehtimoliy xavf va mumkin bo'lgan jismoniy jarohatlar haqida ogohlantirishda qo'llaniladi. Ehtimoliy jarohatlar yoki o'limning oldini olish uchun ushbu belgi ortidan keladigan barcha xavfsizlik texnikasi ko'rsatmalariga rioya qiling. Xavf haqida ogohlantirish belgisi XAVF, OGOHLANTIRISH va EHTIYOT CHORALARI signal so'zlaridan oldin keladi.

DIQQAT: CHANGAN AVTOMOBILLARI GA KONSTRUKTIV O'ZGARISHLAR KIRITISH VA MODIFIKATSIYALASH

Avtomobil konstruksiyasiga biror o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Bu avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlarining yomonlashishiga, uning xavfsizligi, ishonchliligi va chidamliligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda avtomobil konstruksiyasining o'zgartirilishi amaldagi davlat standartlari va qoidalarini buzilishiga va avtomobilga kafolat shartlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayrim o'zgartirishlar Transport vazirligi va mintaqadagi boshqa hukumat idoralari tomonidan o'rnatilgan avtomobillardan foydalanish qoidalarini buzishi mumkin.

Changan Automobile Co. kompaniyasining kafolat majburiyatlari avtomobilning konstruksiyasiga mustaqil ravishda o'zgartirishlar kiritish natijasida yuzaga keladigan har qanday nosozliklar, shikastlanishlar yoki foydalanish xususiyatlarining yomonlashishiga taalluqli emas.

IKKI TOMONLAMA RADIOALOQA YOKI MOBIL ALOQA TIZIMLARINI O'RNATISH

Avtomobil elektron yonilg'i purkash tizimi va boshqa yuqori sezgir elektron komponentlar bilan jihozlangan. Ikki tomonlama radioaloqa yoki mobil aloqa

uskunalarining noto'g'ri o'rnatilganligi yoki sozlanmaganligi elektron tizimlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qurilma ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalariga diqqat bilan amal qiling hamda tavsiya va ehtiyot choralariga rioya qiling. Mobil yoki ikki tomonlama simsiz aloqa tizimlarini o'rnatishdan oldin CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

XAVFSIZLIK VA AVTOMOBILNING SHIKASTLANISHI TO'G'RSIDA OGOHLANTIRISH

Foydalanuvchi qo'llanmasini diqqat bilan o'qing. Jarohatlanish, shikastlanish va o'lim xavfini kamaytirish uchun "DIQQAT", "OGOHLANTIRISH" va "ESLATMA" bo'limlaridagi ma'lumotlarga alohida e'tibor bering. Bu nomlar quyidagilarni anglatadi:



DIQQAT

DIQQAT! - Bu belgi inson salomatligiga ziyon yetkazish yoki avtomobilga shikast yetkazish ehtimoli bo'lgan holatlar haqida ogohlantiradi. Jarohatlanish yoki insonlarning o'limi xavfini oldini olish yoki kamaytirish uchun keltirilgan ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish kerak.

OGOHLANTIRISH

Agar ushbu **"OGOHLANTIRISH"** bo'limining ma'lumotlari e'tiborsiz qoldirilsa, avtomobil va/yoki uning jihozlari shikastlanishi mumkin.

Avtomobil va/yoki uning jihozlariga zarar yetkazish xavfini oldini olish uchun **"OGOHLANTIRISH"** bo'limidagi ko'rsatmalarga amal qiling.

ESLATMA

Ushbu bo'limda avtomobildan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatishni osonlashtirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha foydali ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Quyidagi rasmdagi ogohlantirish belgisi biror harakatni taqiqlashni bildiradi.



Quyidagi rasmdagi ogohlantirish belgisi "XAVFLI, yuqori kuchlanish" degan ma'noni anglatadi. Ehtiyot bo'ling, elektr toki bilan shikastlanish ehtimoli yuqori. Maxsus ruxsatsiz uskunalariga tegmang va ularni demontaj qilmang.



AKSESSUARLAR, EHTIYOT QISMLAR VA AVTOMOBIL KONSTRUKSIYASIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

Haydovchi va yo'lovchilar xavfsizligi avtomobil detallarining sifatiga bog'liq. Asl ehtiyot qismlar va aksessuarlar Changan Automobile Co. tomonidan yoki uning nazorati ostida ishlab chiqariladi. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan faqat asl ehtiyot qismlardan foydalanish majburiy hisoblanadi.

Changan Automobile Co. kompaniyasining kafolat majburiyatlari faqat asl ehtiyot qismlar va aksessuarlarga taalluqlidir. Avtomobil konstruksiyasiga biror o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Bu avtomobilning foydalanish xususiyatlarining yomonlashishiga, uning xavfsizligi, ishonchliligi va chidamliligining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda avtomobil konstruksiyasini o'zgartirish amaldagi davlat standartlari va qoidalari buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Avtomobilning istalgan qismini almashtirish kerak bo'lsa, faqat kompaniya yetkazib beruvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan asl ehtiyot qismlar va aksessuarlardan foydalaning. Aks holda, asl bo'lmagan ehtiyot qismlardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan nosozliklar kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Mobil aloqa tizimlarini o'rnatish

Avtomobilga ikki tomonlama simsiz

mobil aloqa tizimlarini o'rnatish avtomobilning elektron tizimlari, masalan, ABS, barqarorlashtirish tizimi, yuqoriga ko'tarilishda harakatlanishni boshlashda yordam tizimi, yordamchi xavfsizlik tizimi va xavfsizlik kamarlarini tortish tizimiga ta'sir qilishi mumkin. O'rnatishdan oldin tegishli ehtiyot choralari va tavsiyalar uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Kalitsiz kirish tizimi (PEPS)

Elektron tibbiy qurilmalar (masalan, kardiostimulyator) bo'lgan foydalanuvchilar bunday tibbiy qurilmalarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan elektromagnit nurlanish yoki radioto'lqinlarning ta'siri haqida ishonchli ma'lumot olish uchun qurilma ishlab chiqaruvchisi bilan maslahatlashishlari kerak.

Shosse va yo'lsizlikda haydash xususiyatlari

Ushbu avtomobil modeli umumiy foydalanishdagi yo'llarda ham, yo'lsizlikda harakatlanishga ham mo'ljallangan universal transport vositasi hisoblanadi. Ushbu avtomobilning boshqariluvchanligi va harakatchanlik qobiliyati oddiy yo'lovchi transport vositalaridan farq qiladi, chunki uning yo'l oralig'i va og'irlik markazi oddiy yengil avtomobillarga qaraganda yuqori. Ushbu modelning o'ziga xos konstruktiv xususiyatlari ushbu avtomobil modellarining

oddiy yo'lovchi tashuvchi transport vositalariga nisbatan ag'darilish ehtimolini oshiradi. Baxtsiz hodisa va noto'g'ri foydalanish natijasida jarohatlanishning oldini olish uchun "Yo'ltanlamas avtomobili uchun ehtiyot choralari" va "Yo'lsizlikda harakatlanishda ehtiyot choralari" bo'limlari bilan tanishib chiqing.

Belgilar

Ushbu qo'llanma **CHANGAN UNI-T** avtomobillari uchun mo'ljallangan.

Foydalanuvchi qo'llanmasida keltirilgan qisqartmalar va harfli belgilar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Belgi	O'lchov Birligi
l	Litr
ml	Millilitr
km	Kilometr
m	Metr
sm	Santimetr
mm	Millimetr
daq	Daqiqa
s	Soniya
kg	Kilogramm
A	Amper
B	Volt
Km/soat	Kilometr/soat

Belgi	O'lchov Birligi
kGs	Kilogers
kPa	Kilopaskal
ayl/daq	Aylanish / daqiqa
Vt	Vatt
kVt/ayl/daq	Kilovatt/aylanish/daqiqa
°C	Selsiy darajasi
%	Foiz
N·m	Nyuton-metr
(°)	Daraja
(')	Burchak daqiqa
Gbayt	Gigabayt
Mbayt	Megabayt
MUO'Q	Mexanik uzatmalarni o'zgartirish qutisi
AUO'Q	Avtomatik uzatmalarni o'zgartirish qutisi
EBB	Elektron boshqaruv bloki

Belgi	O'lchov Birligi
YMM	Yonilg'i-moylash materiallari
GLONASS	Global navigatsiya sputnik tizimi
GPS	Global pozitsiyalash tizimi
GSM	Vaqt (TDMA) va chastota (FDMA) bo'yicha kanallarni ajratgan holda

	raqamli mobil aloqa global standarti
GPRS	Ma'lumotlarni paketli uzatishni amalga oshiradigan GSM mobil aloqa texnologiyasiga qo'shimcha tuzilma

Belgi	O'lchov Birligi
UMTS	Universal Mobil Telekommunikatsiya tizimi
TV	Transport vositasi
MMT	Minimal ma'lumotlar to'plami
FTX	Favqulodda tezkor xizmat
ERA-GLONASS	Rossiya avariya holatlarida favqulodda harakat qilish davlat tizimi
DT	Dasturiy ta'minot
FIB	Foydalanuvchi interfeysi bloki
YTH	Yo'l-transport hodisasi

Belgi	O'lchov Birligi
XHYT BB	Xavfsizlik havo yostiqchalari tizimini boshqarish bloki
FTXChT	Favqulodda tezkor xizmatlarni

	chaqirish tizimi
ICCID	SIM-chipning maxsus seriya raqami
YHQ	Yo'l harakati qoidalari

Avtomobildan foydalanish bo'yicha tavsiyalar

Avtomobildan uzoq va ishonchli foydalanish uchun uning texnik holatini diqqat bilan kuzatib borish va ekologik toza texnologiya va materiallardan foydalangan holda tavsiyalarga muvofiq avtomobildan foydalanish kerak. Quyidagi ehtiyot choralariga amal qiling: Yuqori tezlikda uzluksiz yoki takroriy tormozlash shinalar, tormoz diskleri va tormoz kolodkalari haroratining keskin ko'tarilishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida tormoz nakladkalarining ortiqcha eskirishiga va ularning xizmat qilish muddatining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Shinalar eskirish nuqtasiga yetganda yoki tormozlash paytida begona metall tovush eshitilsa, darhol diagnostika o'tkazish yoki tormoz kolodkalarini almashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

MUNDARIJA

I. AVTOMOBIL KO'RINISHI.....13

YOQILG'I VA QAYTA ISHLANGAN GAZLAR AJRALMALARI DARAJASI

..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**ZAVOD YORLIG'I VA AVTOMOBIL IDENTIFIKATSIYA RAQAMI (VIN).. **ОШИБКА!****ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**MIKROTO'LQIN UCHUN OYNA **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**DVIGATEL MODELI VA RAQAMI..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ****ОПРЕДЕЛЕНА.**

II. AVTOMOBIL XAVFSIZLIK TIZIMLARI.....19

EHTIYOT CHORALARI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**O'RINDIQLAR **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**XAVFSIZLIK KAMARLARI..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**BOLALAR XAVFSIZLIGI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**AIRBAG XAVFSIZLIK YOSTIQLARI..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ****ОПРЕДЕЛЕНА.**

III. AVTOMOBIL FUNKSIYALARI45

MASOFADAN BOSHQARISH FUNKSIYASIGA EGA KALIT..... **ОШИБКА!****ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**KALITLAR..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

KALITSIZ KIRISH TIZIMI (PEPS) ✕49

IMMOBILAYZER..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**ESHIKLAR QULFI..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**ELEKTR OYNAKO'TARGICHLAR **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**ORQA KO'RISH OYNALARI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

TOMDAGI LYUK ✕ 58

BAGAJ BO'LIMI ESHIGI..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**AVTOMOBIL KAPOTI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**YOQILG'I QUYISH OG'ZI LYUKI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**RUL G'ILDIRAGI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

KO'P FUNKSIYALI ASBOBLAR PANELI DISPLAYI..... 69

YORITISHNI BOSHQARISH **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**OYNA TOZALAGICH VA YUVISH VOSITASI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ****ОПРЕДЕЛЕНА.**

IQLIM NAZORATI TIZIMI ✕ 86

MULTIMEDIA TIZIMI ✕ 89

TO'XTASHDA YORDAM TIZIMI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**AVTOMOBIL XAVFSIZLIGI BO'YICHA YORDAMCHILAR..... **ОШИБКА!****ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

SHINALAR BOSIMINI NAZORAT QILISH TIZIMI (TPMS)✕ 124

KRUIZ NAZORATI **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**BOSHQA USKUNALAR..... **ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

IV. AVTOMOBILNI BOSHQARISH.....148

AVTOMOBILDAN FOYDALANISHDA EHTIYOT CHORALARI **ОШИБКА!****ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.**

TRANSMISSIYA.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
TORMOZ TIZIMI.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
HAYDASH BO'YICHA TAVSIYALAR	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

V. FAVQULODDA VAZIYATDA HARAKATLAR165

AVTOMOBIL NOSOZLIKLARI VA BORT ASBOBLARI	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
G'ILDIRAKLARNI ALMASHTIRISH.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AKKUMULYATOR BATAREYASI QUVVATI KAM BO'LGANDA DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
TIQILIB QOLGANDA YORDAM	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILLAR	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
FAVQULODDA USKUNALAR ✕	174

VI. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH.....176

VA TA'MIRLASHОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

MAJBURIY TEKSHIRUVLAR RO'YXATI.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
-------------------------------------	--

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH BO'YICHA EHTIYOT CHORALARI	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
SHINLAR VA DISKLAR.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AVTOMOBIL KUZOVINI TOZALASH VA BO'YOQ QOPLAMASINI PARVARISH QILISH.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
CHIROQLAR VA FARALAR.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AKKUMULYATOR BATAREYASI	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
OYNA TOZALAGICH VA OYNA YUVISH TIZIMI SUYUQLIGI	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
SAQLAGICHLAR	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH ..	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

VII. AVTOMOBILNING TEXNIK XUSUSIYATLARI.....195

AVTOMOBIL O'LCHAMLARI ...	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
DVIGATEL.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AVTOMOBIL XUSUSIYATLARI .	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
AVTOMOBIL MASSASI.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
TO'LDIRISH SUYUQLIKLARI VA HAJMLARI.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
G'ILDIRAK VA SHINALAR XUSUSIYATLARI, TAVSIYA ETILGAN SOVUQ SHINALAR BOSIMI.....	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
G'ILDIRAKLARNI O'RNATISH BURCHAKLARI (YUKSIZ)	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.
QISQARTMALAR RO'YXATI	ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.

VIII. MUNTAZAM TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH.....**204**

I. AVTOMOBIL KO'RINISHI

YOQILG'I VA QAYTA ISHLANGAN GAZLAR AJRALMALARI DARAJASI

Rossiya bozori uchun CHANGAN UNI-T modellarida chiqindi gazlar emissiyasi darajasi standart talablariga javob beradi va Euro VI (b) talablariga mos keladi.

Oktan soni 92 dan kam bo'lmagan yuqori oktanli etillanmagan benzindan foydalanish tavsiya etiladi.

Faqat tavsiya etilgan yoqilg'i avtomobilingiz quvvati, dinamikasi, tejamkorligi va toksikligining nominal qiymatlariga erishishga imkon beradi va o't oldirish svechalarida chiqindi gaz va qurum miqdorini minimallashtiradi.

OGOHLANTIRISH

Faqat etillanmagan benzindan foydalaning. Sifatsiz yoqilg'idan foydalanish dvigatel tizimlarining shikastlanishiga va/yoki yoqilg'ining oqishiga olib kelishi mumkin. Bu dvigatelning shikastlanishiga va hatto buzilishiga, shuningdek, katalitik o'zgartirgichda alanganishga olib keladi, bu esa dvigatelning chiqindi gazlarini tozalash jarayoni samaradorligini pasaytiradi va uning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Etillangan benzin tarkibidagi qo'rg'oshin kislorod konsentratsiyasi datchiklari va chiqindi gazlarning uch komponentli neytrallagini ishdan chiqaradi.

Yoqilg'i tizimining tozalagichi va boshqa qo'shimchalardan foydalanish taqiqlanadi.

Yonilg'i tozalagichdan foydalanish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa kafolat majburiyatlari tomonidan qoplanmaydi.

ESLATMA

Agar yoqilg'i quyish vaqtida yonilg'i pistoleti avtomatik o'chsa, yonilg'i baki to'lgan bo'ladi. To'ldirishni davom ettirmang. Bu yoqilg'i to'kilishiga yoki yoqilg'i tizimining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avariya yuz berganda yonilg'i sizib chiqmasligi uchun doimo yonilg'i quyish og'zi qopqog'ining zichligini tekshiring.

Tarkibida spirt va metanol bo'lgan benzin

Gazoxol - benzin va etanol (don spirti deb ataladi), shuningdek tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazoxol (yog'och spirti deb ataladi) aralashmasi bo'lib, etillangan yoki etillanmagan benzin bilan birga yoki uning turi sifatida sotilishi mumkin.

Tarkibida 10% dan ortiq etanol bo'lgan gazoxoldan va tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazoldan foydalanmang. Ushbu yoqilg'i turlarining har biri avtomobilning ishlash qobiliyati bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi va yoqilg'i tizimi, dvigatelni boshqarish tizimi va chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimining shikastlanishiga olib kelishi

mumkin.

Avtomobilning ishlashi bilan bog'liq muammolar paydo bo'lsa, har qanday turdagi gazoxoldan foydalanishni to'xtating. Avtomobilning shikastlanishi yoki u bilan bog'liq nosozliklar, agar ular quyidagilardan foydalanish natijasi bo'lsa, ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi:

1. Tarkibida 10% dan ortiq etanol bo'lgan gazoxol;
2. Tarkibida metanol bo'lgan benzin yoki gazoxol;
3. Etillangan yoqilg'i yoki etilangan gazoxol.

OGOHLANTIRISH

Avtomobilga yonilg'i quyishda tarkibida metanol bo'lgan gazoxoldan, shuningdek, IYoD ishlashiga ta'sir qiladigan va/yoki avtomobil qobiliyatini pasaytiradigan har qanday benzospirtidan foydalanmang.

Yoqilg'i va qo'shimchalar muqobil turlari

Yonilg'iga quyidagi qo'shimchalardan foydalanish:

- Yoqilg'i silikon qo'shimchasi;
- MMT yoqilg'i qo'shimchasi (tarkibida marganes, Mn bo'lgan);
- Ferrotsen (temir) asosidagi yoqilg'i qo'shimchasi;
- Metall asosli boshqa yonilg'i qo'shimchalari dvigatel silindrlarida alanganish o'tishiga, yomon dinamikada harakatlanishga,

dvigatelning to'xtab qolishiga, katalizatorning shikastlanishiga yoki korroziyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida dvigatelning buzilishiga va/yoki kuch agregatining xizmat qilish muddatini qisqarishiga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

Ushbu turdagi yoqilg'idan foydalanish natijasida kelib chiqqan yoqilg'i tizimining shikastlanishi yoki ish unumdorligi va dvigatelning ishlashi bilan bog'liq muammolar avtomobil kafolati bilan qoplanmaydi.

MTBE metil-tret-butil efiri

CHANGAN Automobile kompaniyasi avtomobil uchun tarkibida 15,0% (hajm bo'yicha) MTBE - metil-tret-butil efiri (kislorod miqdori 2,7% massa bo'yicha) bo'lgan yoqilg'idan foydalanishni tavsiya etmaydi. Tarkibida 15,0% dan ortiq (hajm bo'yicha) MTBE bo'lgan yoqilg'i avtomobil unumdorligini pasaytirishi, to'yingan bug'larning yuqori bosimi esa dvigatelni blokirovka qilishga yoki qiyin ishga tushirishga olib kelishi mumkin.

ESLATMA

Changan Automobile Co. kompaniyasining kafolat majburiyatlari yoqilg'i tizimining shikastlanishi va tegishli sifatga ega bo'lmagan yoqilg'idan - tarkibida metanol bo'lgan yoki

tarkibida 15,0% dan ortiq (hajm bo'yicha) MTBE - Metil-uchlamchi butil efiri (kislorod miqdori 2,7%) bo'lgan yoqilg'idan foydalanish bilan bog'liq har qanday buzilish, shikastlanish yoki avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlarining yomonlashishiga nisbatan amal qilmaydi.

Metanoldan foydalanmang

Tarkibida metanol (yog'och spirti) bo'lgan yoqilg'idan foydalanmang. Ushbu turdagi yoqilg'i avtomobil quvvatini pasaytirishi va yoqilg'i tizimining tarkibiy qismlariga, dvigatelni boshqarish tizimiga va chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda foydalanish

Avtomobildan boshqa mamlakatda foydalanganda:

- Ushbu hudud uchun barcha qoidalar, yo'l harakati, ro'yxatga olish, hayotni sug'urta qilish va javobgarlikka rioya qilish;
- Avtomobil uchun tavsiya etilgan tegishli yoqilg'i mavjudligini aniqlang.


ZAVOD YORLIG'I VA AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSIYA RAQAMI (VIN)

Yorliq

Avtomobilning VIN (identifikatsiya raqami) va maksimal ruxsat etilgan umumiy og'irligi ko'rsatilgan zavod taxtasi chap old eshik bo'shlig'ida qulf ostida joylashgan.



Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN)



Avtomobil VIN kodi (VEHICLE IDENTIFICATION NUMBER) quyidagi o'rinlarda yozilgan:

- Dvigatel orqasidagi motor bo'limidagi plastinkada shtamplangan;
- Asboblar paneli va oyna tutashgan joyda, pastki chap burchakda;
- Old (haydovchi) eshikning chap tomonidagi bo'shlig'idagi zavod ma'lumot taxtasida;
- Bagaj bo'limi eshigi qopqog'ida.

Elektron boshqaruv blokidan EBB (ECU) avtomobilning VIN ma'lumotlarini o'qish:



1. KT710 diagnostika skanerini haydovchi tomonidagi konsolning pastki chap qismida joylashgan OBD diagnostika interfeysiga ulang;
2. Diagnostik skaner interfeysida avtomobil modelini tanlang va dvigatelni boshqarish EMS tizimiga kiring;
3. "Read Version Information" (Versiya haqidagi ma'lumotni o'qish) bandini EMS interfeysida tanlang va avtomobilning VIN raqamini solishtiring.


ESLATMA

- OBD CHANGAN diagnostik interfeysi CAN yoki K-line orqali ma'lumot uzatishni qo'llab-quvvatlaydi. Dastlab diagnostika skanerini CAN shina bo'yicha ma'lumot almashish imkoniyatini tekshiring. Agar u EMS

bilan o'zaro aloqaga kirishmasa, K-line aloqasini qo'llab-quvvatlaydigan boshqa usulni sinab ko'ring;


- Agar skaner EMS bilan aloqa o'rnata olmasa yoki VIN raqamini hisoblay olmasa, CHANGAN Automobile vakolatli dileriga murojaat qiling.

MIKROTO'LQIN UCHUN OYNA



Mikroto'lqinlar uchun oyna tashqarida, old oynaning yuqori o'ng qismida joylashgan. Uni yomg'ir datchigi yoki harakat yo'lagidan og'ishni kuzatish datchigi tayanchlari to'sib qo'ymasligi kerak.

DVIGATEL MODEL VA RAQAMI



Dvigatel modeli va dvigatelning zavod raqami dvigatel silindri bloki va dvigatel silindri bloki boshining qopqog'iga yozilgan.

TURBONAGNETATELLI DVIGATEL

1. Dvigateldan uzoq vaqt davomida (1 soat va undan ortiq) neytral rejimda foydalanish tavsiya etilmaydi, bu turbokompressordan moy oqishining oldini oladi;

Harorat -20°C dan past bo'lganda uzoq vaqt to'xtab turgandan so'ng, dvigatel ishga tushgandan keyin 6 soniya davomida akselerator pedalini to'liq bosmang.

2. Turbonagnetateldan moy oqishini oldini olish uchun avtomobildan "tezlashtirish – to'xtatish - neytral uzatma" rejimida foydalanish tavsiya etilmaydi.



DIQQAT

Yuqorida ko'rsatilgan ehtiyot choralariga rioya qilmaslik turbokompressorning shikastlanishiga yoki moyning oqishiga olib kelishi mumkin, bu esa kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

AVTOMOBILLAR TUZILMASIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

Avtomobil konstruksiyasiga qandaydir o'zgartirishlar kiritish mumkin emas. Bu avtomobilning ekspluatatsion xossalari yomonlashishiga, uning xavfsizligi, ishonchiligi va chidamliligining kamayishiga olib kelishi mumkin. Qator hollarda avtomobil konstruksiyasining o'zgarishi amaldagi xavfsizlik va chiqindilar bo'yicha davlat standartlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Changan Automobile Co. kompaniyasining kafolat majburiyatlari avtomobilning konstruksiyasiga mustaqil ravishda o'zgartirishlar kiritish tufayli yuzaga kelgan har qanday nosozliklar, shikastlanishlar yoki ekspluatatsion tavsiflarining yomonlashuviga nisbatan amal qilmaydi.

Qo'shimcha elektron qurilmalarni mustaqil o'rnatish avtomobilning nosoz ishlashiga, o'tkazgichlar shikastlanishiga, akkumulyator zaryadsizlanishiga va/yoki yong'inga olib kelishi mumkin. Avtomobilingiz xavfsizligini ta'minlash maqsadida qo'shimcha elektron qurilmalar va aksessuarlarni o'rnatmang va ulardan foydalanmang.

AVTOMOBILNI CHINIQTIRISH

Avtomobilning dastlabki 1000 km ekspluatatsiyasi davomida (obkatka davrida) avtomobil xususiyatlarini yaxshilash, yoqilg'ini tejash va xizmat muddatini uzaytirish uchun quyidagi ehtiyot choralariga rioya qilish tavsiya etiladi

- Dvigatelni ishga tushirilgandan so'ng darhol yuqori tezlikda ishlatish tavsiya etilmaydi. Harakatni boshlashdan oldin dvigatelni sekin va ehtiyotkorlik bilan qizdiring. Keskin tezlikni oshirish qat'iy man etiladi.

- Avtomobil harakatlanayotganda dvigatelning aylanish tezligini 2000 - 4000 rpm oralig'ida ushlab turing.

- Avtomobil tezligidan qat'i nazar, dvigatelning doimiy aylanishini uzoq vaqt ushlab turmang. Avtomobil obkatka davrida, dvigatelni to'liq ishga tushirish uchun dvigatelning turli xil tezlikda ishlashi tavsiya etiladi.
- Tormoz disklari va tormoz kolodkalari dastlabki 500 km masofa davomida ishqalanadi. Eng yaxshi natija uchun keskin favqulodda to'xtashlardan saqlaning, ayniqsa birinchi 300 km ichida.
- Dastlabki 2000 km masofada tirkamani shatakka olishdan saqlaning.

II. AVTOMOBIL XAVFSIZLIK TIZIMLARI

EHTIYOT CHORALARI

Ushbu bo'limda asosiy va eng muhim xavfsizlik choralari va xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar to'plangan va tavsiflangan.

Har doim xavfsizlik kamarini mahkamlang

Xavfsizlik kamarlari haydovchi va yo'lovchilarni yo'l-transport hodisalarida og'ir jarohatlardan himoya qilishning samarali vositasidir.

Xavfsizlik yostiqdori (SRS tizimi) xavfsizlik kamarlariga qo'shimcha bo'lib, ularni to'liq almashtirmaydi. Avtomobil xavfsizlik yostiqdori bilan jihozlangan bo'lsa ham, avtomobil harakatlanayotganda har doim xavfsizlik kamarini mahkamlang. Harakatni boshlashdan oldin o'rindiqning holatini to'g'ri sozlang.

Bolalarni tashish qoidalari

12 yoshgacha yoki bo'yi 150 sm gacha bo'lgan bolalarni orqa o'rindiqda bolani ushlab turish moslamasidan majburiy foydalanish bilan tashish tavsiya etiladi. Agar bola bolani ushlab turish moslamasidan o'sgan bo'lsa, kuchaytirgichli o'rindiq bo'lmaganda xavfsizlik kamaridan to'g'ri foydalana olmaganingizcha, bel/yelka kamar kuchaytirgichli o'rindiqdan foydalanganingizga ishonch hosil qiling.

Xavfsizlik yostiqdori

Xavfsizlik yostiqdori hayotni saqlab qolishi mumkin bo'lsa-da, ular juda yaqin o'tirgan yoki to'g'ri mahkamlanmagan yo'lovchilarga jiddiy yoki halokatli shikast yetkazishi mumkin. Chaqaloqlar, yosh bolalar va bo'yi past kattalar xavfsizlik yostig'ini ochishdan jarohat olish xavfi yuqori. Ushbu qo'llanmada keltirilgan barcha ko'rsatmalar va ogohlantirishlarga amal qiling.

Haydovchi e'tiborining chalg'ishi

Haydovchi e'tibori chalg'ishi, ayniqsa, haydash tajribasi kam bo'lgan haydovchilar uchun jiddiy xavf va ehtimoliy o'limga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va haydash paytida diqqatni jamlash haydashda asosiy qoidadir. Haydovchilar turli xil chalg'itadigan narsalardan xabardor bo'lishlari kerak: uyquchanlik, haydash paytida turli xil buyumlarni qidirish va ularni olishga urinish, harakat paytida ovqatlanish va shaxsiy maqsadlarda chetlashish, boshqa yo'lovchilarni chalg'itish va uyali telefonlardan foydalanish. Haydovchilar ko'zlarini va e'tiborini yo'ldan uzganda yoki haydashdan boshqa narsaga e'tibor qaratish uchun qo'llarini ruldan olganda chalg'ishi mumkin.

Chalg'ish xavfini va baxtsiz hodisa ehtimolini kamaytirish uchun:

- Mobil qurilmalaringizni (masalan, MP3 pleyerlar, telefonlar, navigatsiya qurilmalari va boshqalar) FAQAT to'xtash joyida yoki

avtomobil to'xtash joyida sozlang.

- Mobil qurilmalardan faqat xavfsizlik shartlariga rioya qilgan holda qonunlar ruxsat berganda foydalaning.
- Haydash paytida HECH QACHON SMS yoki boshqa matnli xabarlar va/yoki elektron pochta xabarlarini yubormang. Bir qator mamlakatlarda haydovchilarga haydash paytida mobil qurilmalardan foydalanishni taqiqlovchi qonunlar mavjud.
- Haydash paytida HECH QACHON mobil qurilmadan foydalanmang, chunki bu avtomobilni boshqarishda chalg'itishi mumkin. Haydovchi yo'lovchilar va boshqa yo'l foydalanuvchilari oldida javobgardir. Xavfsiz harakatlanish uchun qo'llaringizni rulda tuting va diqqatni yo'lga qaratib.

Avtomobil tezligini kuzatib boring

Belgilangan tezlikdan oshish to'qnashuvlarda shikastlanish va o'limning asosiy omillaridan biridir. Tezlikning oshishi bilan bu xavf ortadi, ammo past tezlikda harakatlanganda ham jiddiy jarohatlar olish mumkin. Ruxsat etilgan maksimal tezlikdan qat'i nazar, avtomobilni joriy sharoitlar uchun xavfsiz bo'lganidan yuqori tezlikda boshqarmang.

Avtomobilning texnik holatini kuzatib boring

Shinaning shikastlanishi yoki boshqa mexanik buzilish favqulodda xavfli bo'lishi

mumkin. Bunday holatlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish uchun shinalardagi bosimni, ularning holatini muntazam tekshirib turing va muntazam ravishda va o'z vaqtida transport vositasiga texnik xizmat ko'rsating.

O'RINDIQ

O'rindiq holatini sozlash

To'qnashuv holatida maksimal himoyaga faqat o'rindiq, bosh tagligi, xavfsizlik kamari va xavfsizlik yostiqchasidan to'g'ri foydalanilganda erishish mumkin.

Harakatni boshlashdan oldin, dvigatelni ishga tushirgandan so'ng, o'rindiq holatini sozlang:

- O'rindiq holatini sozlang. O'rindiq va suyanchiq to'g'ri holatda ekaniga ishonch hosil qiling. Suyanchiqni haddan tashqari egmang;
- Bosh tagligi balandligini shunday sozlangki, uning markazi quloqning yuqori qismi sathida bo'lsin. Sozlashdan so'ng, bosh tagligi kerakli holatda o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling;
- Haydovchi o'rindig'ini shunday sozlangki, u rul g'ildirigidan yetarlicha xavfsiz masofada bo'lsin. Rul g'ildiragining qiyaligini shunday sozlangki, xavfsizlik yostig'i bevosita haydovchining ko'krak qismi qarshisida bo'lsin;
- Suyanchiq holatini sozlang: o'tirish to'g'ri, tana bel qismi suyanchiqqa to'liq

tiralib turishi kerak;

- Xavfsizlik kamarini mahkamlang. ("Xavfsizlik kamarlari" bo'limiga qarang).



DIQQAT

- Barcha yo'lovchilar o'z joylarini egallamagunlaricha harakatni boshlamang.
- o'lovchilarni taxlangan o'rindiq suyanchiq'ida, yukxonada yoki bagajda tashimang.
- Transport vositasining avariyaaviy tormozlanishi yoki to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan jarohatlanish yoki o'limning oldini olish uchun harakat vaqtida avtomobil o'rindiqlari orasida turish yoki harakatlanish taqiqlanadi.
- Og'ir yoki o'tkir narsalarni (masalan, ignalar yoki mixlarni) o'rindiqqa qo'ymang.



DIQQAT

- Yon xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan o'rindiqlarga g'ilof o'rnatmang, ularni ta'mirlamang. O'rindiqlarni va o'rindiq qoplamalarini mustaqil ravishda almashtirmang. Aks holda yon xavfsizlik yostiqlarining faoliyati buziladi yoki tasodifan ularning ishga tushishi kuzatiladi, bu esa jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Favqulodda to'xtatish yoki to'qnashuv sodir bo'lganda, noto'g'ri o'tirgan yoki

xavfsizlik kamarini taqmagani yo'lovchilar jarohat olishi mumkin.

• Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda o'rindiq holatini sozlashga yo'l qo'yilmaydi. Bu avtomobilni boshqarish nazoratining yo'qolishiga yoki o'rindiqning tasodifiy harakati tufayli jarohatlarga olib kelishi mumkin.

• O'rindiqni sozlash paytida qo'llarni o'rindiq ostiga yoki boshqa harakatlanuvchi qismlarga joylashtirmang, aks holda siz qisilib qolishingiz va jarohat olishingiz mumkin.

• O'rindiq suyanchiq'ini juda qattiq bukmang. Noto'g'ri o'rnatilganda, xavfsizlik kamarining bel segmenti qoringa bosim ko'rsatishi mumkin va/yoki kamarning yelka segmenti bo'yinga tegadi. To'qnashuv holatida - bu jiddiy jarohatlar yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.

• Xavfsizlik yostig'i katta kuch bilan ochiladi. Xavfsizlik kamarlarini noto'g'ri joylashtirish yoki noto'g'ri foydalanish haydovchi va/yoki avtomobil yo'lovchilari bosh, bo'yin va tanasining boshqa zaif qismlariga shikast yetkazishi mumkin. Bunday jarohat, ayniqsa, bolalar uchun o'limga olib kelishi mumkin.



DIQQAT

• O'rindiq ostiga begona buyumlarni joylashtirmang. Ular o'rindiqni mahkamlash mexanizmiga zarar yetkazishi va/yoki o'rindiq holatini sozlash richagini tasodifan bosishga sabab bo'lishi, natijada o'rindiq surilib,

avtomobil boshqaruvini yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu o'rindiqlarni sozlash mexanizmi zararli etkazadi.

- O'rindiq yostig'iga qo'shimcha g'iloflar yoki astarlarni joylashtirmang. O'rindiq yuzasida joylashgan taglikning noto'g'ri o'lchami va shakli old o'rindiqlarning SBR nosozligiga olib kelishi mumkin (xavfsizlik kamarini taqmaslik haqida eslatma).

Old o'rindiqlarni mexanik sozlash ✖



1. O'rindiq holatini bo'yлама sozlash

O'rindiq ostida joylashgan sozlash dastagi ① o'rta qismini yuqoriga torting va uni ushlab turib, o'rindiqlarni kerakli holatga suring. Sozlash richagini qo'yib yuboring.

2. O'rindiq balandligini sozlash tutqichi ✖

O'rindiq balandligini sozlash tutqichini ② yuqoriga yoki pastga torting.

3. Suyanchiq burchagini sozlash

Orqa suyanchiq qiyalik burchagini sozlash dastasini ③ yuqoriga torting va uni kerakli burchak ostida sozlash uchun orqaga sal eging, so'ngra dastani qo'yib yuboring.

Old o'rindiqlarni elektromexanik sozlash ✖



1. O'rindiqlarni holati va balandligi bo'yicha sozlash

Boshqaruv kalitini ① kerakli yo'nalishda (holat va balandlikda) siljiting va qo'yib yuboring. O'rindiq to'xtab, mahkamlanadi. Faqat haydovchi o'rindig'i balandlikni rostlash funksiyasi bilan jihozlangan.

2. Old o'rindiq suyanchig'i qiyaligini sozlash

Boshqaruv kalitini ② kerakli yo'nalishga buring va kerakli qiyalik burchagiga yetganda qo'yib yuboring. O'rindiqlarning

suyanchig'i to'xtaydi va mahkamlanadi.

3. Bel tayanchini sozlash ✖

Bel tayanchini sozlash tugmasi ③ old chetini bosib va ushlab turing va haydovchi o'rindig'i bel tayanchi oldinga siljiydi; sozlash tugmasi ③ orqa chetini bosib turing, va bel tayanchi bo'shashadi (orqaga siljiydi). Bel tayanchi kerakli holatga yetganda, tugmani qo'yib yuboring.

O'rindiqlarni isitish ✖



Haydovchi va old yo'lovchi o'rindiqlarini isitish funksiyasi ko'p funksiyali multimedia displeyi interfeysi yordamida yoqilishi/o'chirilishi mumkin.

Displey ekranida konditsionerni boshqarish tugmasi bosilgandan so'ng, avtomobilning ichki qismidagi iqlimni boshqarish tizimining interfeysi ochiladi, bu yerda o'rindiqlarni isitishni boshqarish interfeysini tanlashingiz mumkin.

Isitish tugmasini bir marta bosganingizda, ikkita indikator chirog'i yonadi va o'rindiqlarni isitish funksiyasi maksimal quvvat (High) rejimida faollashadi. Isitish tugmasini qayta bir marta

bosganingizda, indikatorning bitta bo'limi yonadi va o'rindiqlarni isitish funksiyasi minimal (Low) isitish quvvatiga o'tadi.

Isitish tugmasini 3 marta bosganingizda, chiroq o'chadi va isitish funksiyasi o'chiriladi.

Haydovchi o'rindig'i va old yo'lovchi o'rindig'ining isitish rejimini bir vaqtning o'zida va bir-biridan mustaqil ravishda yoqish va sozlash mumkin.



DIQQAT

O'rindiqni isitish funksiyasidan uzoq vaqt foydalanganda haddan tashqari issiqlik yoki olovni qo'zg'atishingiz mumkin. Ayniqsa, isitish funksiyasidan uzoq vaqt foydalanganda ehtiyot bo'ling. Sozlashda, hozirgi vaziyatga mos keladigan isitish tugmasidan foydalaning. O'rindiqlarni isitish funksiyasidan foydalanganda quyidagi yo'lovchilarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi:

- Keksa odamlar, chaqaloqlar, bolalar, bemorlar, nogironlar va homilador ayollar;
- Teri sezgirliги yuqori bo'lgan yo'lovchilar;
- Yuqori darajadagi charchoq holatidagi, mastlik holatidagi yoki dori vositalarining (masalan, uyqu dori vositalari yoki shamollashga qarshi dorilar) ta'siri tufayli uyqu holatidagi odamlar.



DIQQAT

O'rindiqlarni isitish funksiyasi yoqilganda, o'rindiqni adyol, yostiq yoki boshqa issiqlik

izolyatsiyasi buyumlari bilan yopmang.

O'rindiqlarni shamollatish ✖



Haydovchi va old yo'lovchi o'rindig'ini shamollatish funksiyasi [Vehicle center (Avtomobil sozlamalari)] - [Air conditioning (Konditsioner)] - [Comfortable seat (Qulay o'rindiq)] multimedia interfeysi orqali yoqilishi/o'chirilishi mumkin.

Shamollatish tugmasi bir marta bosilganda uch segmentli indikator yonadi va maksimal quvvat rejimida (High) o'rindiqlarni shamollatish funksiyasi faollashtiriladi;

Shamollatish tugmasi qayta bosilsa, indikator ikki bo'linmasi yonadi va o'rindiqlarni shamollatish funksiyasi o'rtacha quvvatli shamollatish (Medium) rejimiga o'tadi;

Shamollatish tugmasi 3 marta bosilganda bitta indikator yonadi va o'rindiqlarni shamollatish funksiyasi minimal shamollatish quvvati (Low) rejimiga o'tadi;


Shamollatish tugmasi 4 marta bosilsa, indikator o'chadi va shamollatish funksiyasi o'chiriladi.

Haydovchi va old yo'lovchi o'rindig'i isitish rejimini bir vaqtning o'zida va

bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yoqish va sozlash mumkin.

O'rindiqlarni shamollatish va isitish bir vaqtda ishlamaydi: agar o'rindiqlarni shamollatish ishlayotganda o'rindiqlarni isitish yoqilsa - o'rindiqlarni shamollatish o'chiriladi; agar o'rindiqlarni isitish ishlayotganda o'rindiqlarni shamollatish yoqilsa - o'rindiqlarni isitish o'chiriladi.

Bosh tagliklarini sozlash



Bosh tagliklarini ko'tarish: bosh tagligini kerakli holatgacha yuqoriga torting..

Bosh tagliklarini tushirish: fiksatorni bosing ① va uni ushlab turgan holda, bosh tagligini kerakli holatgacha pasga tushiring.

Bosh taglikni chiqarib olish: ① va ② fiksatorni bosing, va uni ushlab turgan holda, bir vaqtning o'zida bosh tagligini yuqoriga ko'taring va uni chiqarib oling.

**DIQQAT**

- Avtomobil harakatlanayotganda hech qachon bosh tagligini sozlamang.
- Bosh tagligining himoya funksiyalari boshga maksimal yaqin bo'lganda samaraliroq hisoblanadi. Yostiqlarni o'rindiq suyanchig'iga qo'ymang.
- Avtomobilning harakatlanishiga faqat tagligi kerakli holatda o'rnatilgandagina ruxsat beriladi.

Orqa o'rindiqlarni sozlash ✖**Bagaj bo'limini kengaytirish**

Orqa suyanchiq fiksatorini yuqoriga ko'taring va ikkinchi qator o'rindiqlarining orqa suyanchig'ini buklash va bagaj bo'limining hajmini oshirish uchun orqa suyanchiqni oldinga eging.

Orqa o'rindiq tirsakqo'ygichlari ✖

Tirsakqo'ygichni chiqarib olish uchun orqa o'rindiq suyanchig'ining o'rta qismini pastga torting.

**DIQQAT**

Agar avtomobil harakatlanayotganda tirsakqo'ygichdan foydalanishga hojat bo'lmasa, keskin tormozlanish yoki avariya paytida jarohatlanish xavfini kamaytirish uchun tirsakqo'ygichni yopiq holatda saqlang.


XAVFSIZLIK KAMARLARI

Xavfsizlik kamarlari - yo'l-transport hodisalarida haydovchi va yo'lovchilarni og'ir jarohatlardan himoya qilishning samarali vositasidir.

Avtomobil to'qnashganda yoki keskin tormozlanganda katta inersiya kuchi vujudga keladi. Bunday vaziyatda xavfsizlik kamarlari haydovchi va yo'lovchilarni o'rindiqlarda ushlab turishi mumkin, bu esa avtomobil salonining ichki elementlariga urilishning oldini oladi va katta miqdordagi kinetik energiyani yutadi, haydovchi va yo'lovchilarning jarohat olish xavfini kamaytiradi.

Xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish xavfsizlik yostiqlarining to'g'ri ishlashi uchun muhim shartdir.

Xavfsizlik kamarlaridan noto'g'ri foydalanish va noto'g'ri to'xtash haydovchi va yo'lovchining favqulodda vaziyatda favqulodda tormozlanishi va/yoki xavfsizlik yostiqlari bir zumda ochilishi natijasida bosh, bo'yin va tananing boshqa himoyalanmagan qismlarida jarohatlanishga olib kelishi mumkin..



Xavfsizlik darajasini oshirish uchun harakatlanishdan oldin xavfsizlik kamarlaridan foydalanishda quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

- Xavfsizlik kamarini to'g'ri va ishonchli mahkamlash;
- O'rindiqli to'g'ri holatda sozlash.

DIQQAT

Xavfsizlik kamarlari va uning qismlarining holatini muntazam tekshirib turing. Xavfsizlik kamarlarining shikastlangan yoki nosoz elementlarini darhol almashtiring. Har bir o'rindiqdagi xavfsizlik kamaridan faqat bitta odam foydalanishi mumkin.

Yo'l-transport hodisasi natijasida kritik yuklanishdan keyin yedirilishlar, shikastlanishlar paydo bo'lsa, kamarlar almashtirilishi shart.

Xavfsizlik kamarlarini o'zingiz yechmang va/yoki almashtirmang! Ta'mirlash yoki almashtirish kerak bo'lsa - CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga

murojaat qiling.

ESLATMA

Mahkamlangan xavfsizlik kamarlarini qismang, deformatsiyalamang, buramang yoki o'tkir jismlar ta'siriga duchor qilmang; Kamarni shikastlamalik uchun, o'tkir yoki mo'rt buyumlarni mahkamlash uchun xavfsizlik kamaridan foydalanmang; Juda katta hajmli kiyim xavfsizlik kamarining to'g'ri ishlashini buzishi mumkin; Xavfsizlik kamarlarini toza saqlang. Ifloslangan kamarlar avtomatik tortish qurilmasining ishini qiyinlashtiradi;

Xavfsizlik kamarining qulfiga qog'oz, kiyim yoki boshqa begona buyumlarning tushmaganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, kamarni to'g'ri bog'lash va mahkamlash mumkin emas.

Mahkamlanmagan xavfsizlik kamari eslatmasi

Asboblar panelidagi xavfsizlik kamarining indikatori haydovchi va old yo'lovchiga xavfsizlik kamarlarini taqish zarurligini eslatib turadi.



Agar haydovchi yoki old yo'lovchi xavfsizlik kamarini taqmasa, xavfsizlik kamari ogohlantirish chirog'i yonadi.

Agar haydovchi va/yoki oldingi yo'lovchi harakatlanish paytida xavfsizlik kamarlari bilan mahkamlangan bo'lsa, xavfsizlik kamari indikatori ogohlantiruvchi tovush signali bilan yonishda davom etadi.

Agar haydovchi yoki oldingi yo'lovchi 5 daqiqa davomida xavfsizlik kamarini taqmasa, ogohlantiruvchi tovush signali o'chiriladi.

ESLATMA

Agar xavfsizlik kamari taqilmaganligi haqidagi eslatma yuqoridagi mantiqqa muvofiq ishlamasa, bu uning nosozligini ko'rsatadi. CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Orqa qator o'rindiqlari mahkamlanmagan xavfsizlik kamari eslatmasi ✖

Asboblar panelidagi orqa xavfsizlik kamarining mahkamlanmaganligi indikatorini orqa yo'lovchilar xavfsizlik kamarini taqishlari kerakligini eslatib turadi.



Agar avtomobil harakatlana boshlaganda ikkinchi qator o'rindiqlari yo'lovchilarining xavfsizlik kamarlari mahkamlanmasa, xavfsizlik kamarining tegishli indikatorini yonadi va taxminan 1 daqiqadan keyin o'chadi.

Orqa o'rindiqlar mahkamlanmagan xavfsizlik kamari eslatmasi funksiyasini interfeysda ko'p funksiyali ko'ngilochar tizimni tanlash orqali o'chirish mumkin [Vehicle center (Avtomobil sozlamalari)] - [Body (Kuzov)] - [Seat (O'rindiq)] - [Seat belt (Xavfsizlik kamari)]. Yo'lovchilarni ikkinchi qator o'rindig'ida tashishda ikkinchi qator o'rindig'i mahkamlanmagan xavfsizlik kamari eslatmasi funksiyasini o'chirmaslik tavsiya etiladi.

ESLATMA


Agar xavfsizlik kamari taqilmaganligi haqidagi eslatma yuqoridagi mantiqqa muvofiq ishlamasa, bu uning nosozligini ko'rsatadi. CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamarini mahkamlash

Uch nuqtali kamarning bel qismini imkon qadar belga emas, balki sonlarga pastroqda joylashtiring; kamarning yelka qismini ko'krak bo'limi orqali tananing ustki qismi bo'ylab joylashtiring. Xavfsizlik kamarini qo'ltiq yoki tananing orqasidan o'tkazmang.

Xavfsizlik kamarini mahkamlash

1. Kamarni qisqichdan bir tekisda torting;
2. Kamarning yelka qismini yelkadan, bel qismini esa sonlardan o'tkazing;
3. Xavfsizlik kamarining to'qasidagi ilgakni kamar mahkamlanganini tasdiqlovchi chertkigacha kiriting. Kamarning buralishiga yo'l qo'ymang..



Kamarni yechib olish

Xavfsizlik kamarini yechib olish uchun qizil qulf tugmasini bosing. Bunda kamar tili prujina bilan qulf uyasidan itariladi. Kamarning to'liq tortilishini ta'minlash uchun uni tilchasidan ushlab, yo'naltiring.



Bolalar uchun xavfsizlik kamaridan foydalanish

Ushbu avtomobilning xavfsizlik

kamarlari kattalar uchun mo'ljallangan. 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun milliy xavfsizlik standartlariga muvofiq bo'lgan maxsus bolalar xavfsizlik moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi ("Bolalar xavfsizligi" - "Bolalar xavfsizlik moslamasi" bo'limiga qarang).

Agar bola xavfsizlik moslamasi uchun katta bo'lsa, uni xavfsizlik kamarini taqqan holda orqa o'rindiqda olib yuring.

Homilador ayollar uchun xavfsizlik kamaridan foydalanish

Homilador ayollar xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak, kamarning bel qismini iloji boricha qulayroq va sonlardan pastroqda joylashtiring.

Kamarning yelka qismini yelkadan o'tkazing va kamar tasmasini qorindan suring.



DIQQAT

Xavfsizlik kamarlaridan foydalanishdan oldin ehtiyotkorlik choralari haqida shifokor bilan maslahatlashing. Homilador ayol va uning bolasi xavfsizligi uchun - xavfsizlik kamarlaridan foydalanishda ehtiyot choralariga rioya qilish bo'yicha shifokor tavsiyalariga qat'iy rioya qiling..


Jarohatlanganlar va nogironlar uchun xavfsizlik kamaridan foydalanish

Shifokor tavsiyalariga amal qiling. Haqiqiy vaziyatga mos ravishda xavfsizlik kamaridan foydalaning.

Haydovchi va old yo'lovchining xavfsizlik kamari

Xavfsizlik kamarining yuqori mahkamlash nuqtasini sozlash ※

Xavfsizlik kamarini mahkamlashning yuqori nuqtasini balandligi bo'yicha sozlash mumkin. Uchta mavjud holatdan birini tanlash uchun xavfsizlik kamarini mahkamlash balandligini sozlash tugmasini bosib turing. Balandlik, o'tirish holati va fiziologik xususiyatlarga qarab eng qulay holatni sozlang.



DIQQAT

Harakatni boshlashdan oldin xavfsizlik kamarlarini mahkamlash kerak. Haydash paytida xavfsizlik kamarlarini mahkamlamang.

Xavfsizlik kamarining tortilishini cheklash

Old o'rindiqlar xavfsizlik kamarlarining taranglagichlari kuchni boshqarish qobiliyatiga ega.

Agar kuchli old to'qnashuvda kamarning ko'krakdagi bosimi belgilangan qiymatdan oshsa, xavfsizlik kamarini taranglash mexanizmi kamarning ko'krakdagi bosimini kamaytirish uchun kamar lentasining ma'lum uzunligini bo'shatadi.

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari ✖

Old o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari old o'rindiqda yo'lovchilar bo'lmaganda ham ishlaydigan oldindan tortish moslamasi bilan jihozlangan.

Old tomondan kuchli to'qnashuv sodir bo'lganda taranglagich ishga tushadi va xavfsizlik kamarining erkin tasmasi avtomatik ravishda chiqadi.

Xavfsizlik kamari ol yo'lovchining tanasini ishonchli mahkamlab, uning maksimal himoyasini ta'minlashiga ishonch hosil qiling.

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlarining ishga tushishi paytida kuchli ovoz eshitiladi va biroz tutun va chang ajralib chiqadi, bu normal va zararsiz. Biroq, bu moddalar terida allergik reaksiyani keltirib chiqarishi yoki nafas olishni qiyinlashtirishi mumkin. Old taranglagichlar ishlagandan keyin terini yaxshilab tozalash va salonni shamollatish

tavsiya etiladi.



DIQQAT

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari tizimi ishga tushgandan so'ng yoki 10 yildan keyingi foydalanish natijasida ularni almashtirish kerak bo'lsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.


Taranglagichlar tizimini tekshirish va ularga xizmat ko'rsatishni bevosita CHANGAN Automobile vakolatli servis stansiyasida amalga oshirish tavsiya etiladi.

SRS tizimini qayta jihozlash yoki demontaj qilish, kontroller va xavfsizlik yostig'i datchiklariga zarba berish, SRS boshqarish sxemasiga mustaqil ravishda o'zgartirishlar kiritish qat'iyan man etiladi. Aks holda bu taranglagichning o'zboshimchalik bilan ishga tushishiga yoki ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Quyidagilar taqiqlanadi: taranglagichning tarkibiy qismlarini qayta jihozlash, yechish, urish yoki ochish, shuningdek, ulanishni uzish yoki tizimga ta'sir qilish. Aks holda bu taranglagichning o'zboshimchalik bilan ishga tushishiga yoki ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Orqa o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlari

Orqa o'rindiqlar qatori uch nuqtali xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan. Xavfsizlik kamarining to'qasi o'rindiq yostig'ida, suyanchiq yonida

joylashgan. Orqa qator yo'lovchilari xavfsizlik kamarlarini to'g'ri taqishlari kerak. Avtomobil to'xtagach, xavfsizlik kamarini yechib, qo'yib yuboring va xavfsizlik kamari to'qasini saqlash joyiga olib qo'ying. Taqadan foydalanishda uni yostiqdan olib, taxminan 30° ga burish kerak. Ba'zi modellardagi o'rindiqlarning orqa qatoridagi xavfsizlik kamarlari kuchlanishlarni cheklash funksiyasi va xavfsizlik kamarlari taranglagichlari bilan jihozlangan.



Orqa o'rindiq xavfsizlik kamarlari kuchlanishini cheklash funksiyasi ✖

Chap orqa qator o'rindiqlar xavfsizlik kamarlari taranglagichlari bilan jihozlangan bo'lib, u hatto chap orqa o'rindiqda yo'lovchi bo'lmaganda ham ishga tushadi.

Kuchli old to'qnashuvda taranglagich ishga tushadi va xavfsizlik kamarining erkin tasmasi avtomatik ravishda chiqadi. Maksimal himoya uchun old yo'lovchi

xavfsizlik kamari mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlarining ishga tushishi paytida kuchli ovoz eshitiladi va biroz tutun va chang ajralib chiqadi, bu normal va zararsiz. Biroq, bu moddalar terida allergik reaksiyani keltirib chiqarishi yoki nafas olishni qiyinlashtirishi mumkin. Old taranglagichlar ishlagandan keyin terini yaxshilab tozalash va salonni shamollatish tavsiya etiladi.

yoki tizimga ta'sir qilish. Aks holda bu taranglagichning o'zboshimchalik bilan ishga tushishiga yoki ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.



DIQQAT

Xavfsizlik kamarlari taranglagichlari tizimi ishga tushgandan so'ng yoki 10 yildan keyingi foydalanish natijasida ularni almashtirish kerak bo'lsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Taranglagichlar tizimini tekshirish va ularga xizmat ko'rsatishni bevosita CHANGAN Automobile vakolatli servis stansiyasida amalga oshirish tavsiya etiladi.

SRS tizimini qayta jihozlash yoki demontaj qilish, kontroller va xavfsizlik yostig'i datchiklariga zarba berish, SRS boshqarish sxemasiga mustaqil ravishda o'zgartirishlar kiritish qat'iyan man etiladi. Aks holda bu taranglagichning o'zboshimchalik bilan ishga tushishiga yoki ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Quyidagilar taqiqlanadi: taranglagichning tarkibiy qismlarini qayta jihozlash, yechish, urish yoki ochish, shuningdek, ulanishni uzish

BOLALAR XAVFSIZLIGI

Bolalarni tashish qoidalar

12 yoshgacha bo'lgan yoki bo'yi 150 sm gacha bo'lgan bolalarni orqa o'rindiqda bolalar xavfsizlik qurilmasi yordamida olib yurish tavsiya etiladi. Agar bola ushlab turuvchi moslama uchun katta bo'lsa, xavfsizlik kamaridan foydalaning.

Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang, chunki ular:

- Boshqa odamlar yoki yo'l harakati qatnashchilariga xavf tug'dirib eshikni ochishi;
- Avtomobil harakatlanishiga to'sqinlik qilib yoki o'ziga zarar yetkazgan holda avtomobilni tark etishi;
- Baxtsiz hodisalar va jarohatlar xavfini keltirib chiqarib, avtomobilni harakatlantirishi mumkin.

Yopiq avtomobil qizishi va jiddiy jarohatlarga olib kelishi yoki hatto avtomobilni tark eta olmasa, bolalar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Bola avtomobilga begona odamlar kirishi ehtimoli tufayli boshqa jarohatlarga ham duch kelishi mumkin.



⚠️ DIQQAT

Bolalarni avtomobilda, hatto juda qisqa vaqtga ham yolg'iz qoldirmang.

Avtomobil harakatlanayotganda bolani tizzada yoki qo'lda olib o'tirish taqiqlanadi.


Quyidagilar taqiqlanadi:

- Bitta xavfsizlik kamaridan bola bilan birgalikda foydalanish.
- Ikki va undan ortiq yo'lovchi uchun bitta kamardan bir vaqtda foydalanish.

Vaqtı-vaqtı bilan xavfsizlik kamarining holatini tekshiring, chunki bola harakatlanganda kamar to'g'ri holatdan siljishi mumkin.

Bolalar xavfsizligi uchun eshiklarni qulflash

Orqa yon eshiklardagi bolalar xavfsizlik qulfi orqa yon eshiklarni mustaqil ravishda qulflashi mumkin. Qulfni faollashtirganda, orqa yon eshiklarni ichkaridan ochib bo'lmaydi. Ularni faqat tashqi tomondan ochish mumkin.



Faollashtirish: orqa yon eshik yon tomonidagi bolalar xavfsizlik qulfini ① holatdan ② holatga rasmda ko'rsatilgandek suring. Faollashtirilgandan keyin qulfning to'g'ri ishlayotganini tekshiring.

O'chirish: orqa yon eshikning yon tomonidagi bolalar xavfsizlik qulfini ② holatdan qulfni ochish ① holatiga o'tkazing.

⚠️ DIQQAT

Agar bola avtomobilda bo'lsa, doimo xavfsizlik qulfini faollashtiring. Aks holda, bola o'ziga va/yoki boshqa odamlarga/yo'l harakati qatnashchilariga zarar yetkazgan holda eshikni ochishi mumkin.

Bolalar xavfsizlik tizimi

Milliy xavfsizlik standartlariga javob beradigan bolalar xavfsizlik qurilmasidan foydalanishni qat'iy tavsiya qilamiz.

Tegishli bolalar xavfsizlik qurilmasini tanlash va sotib olish uchun bolaning bo'yi, yoshi va vazni hisobga olinishi kerak.

Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatish va undan foydalanishni qurilma ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan holda bajaring.

Agar bolalar xavfsizlik moslamasi noto'g'ri o'rnatilgan va/yoki foydalanilayotgan bo'lsa, bola hayot bilan mos kelmaydigan jiddiy jarohatlarga uchrashi mumkin.



HECH QACHON old xavfsizlik yostig'i

bilan jihozlangan old yo'lovchi o'rindig'iga harakat yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan bolalar xavfsizlik moslamani o'rnatmang. Oldindagi yo'lovchining xavfsizlik yostig'i ochilsa, bu jiddiy jarohatlar yoki bolaning o'limiga olib kelishi mumkin.



⚠️ DIQQAT

Bolalar xavfsizlik qurilmasini faqat ikkinchi qatordagi o'rindiqlarning chetlariga o'rnatish mumkin.

Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatishdan oldin orqa o'rindiqlarning suyanchig'ini mahkamlang. ISOFIX tizimiga ega xavfsizlik qurilmasini o'rnatishdan oldin ikkinchi qator o'rindiq suyanchig'ining mahkamlanishini tekshiring. Bolalar xavfsizlik qurilmasi o'rnatilgach, uning mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun uni oldinga va orqaga, chapga va o'ngga tebrating. Yo'l qo'yiladigan lyuft 25 mm dan oshmasligi kerak.

Har safar foydalanishdan oldin bolalar xavfsizlik qurilmasi ishonchli

mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

Uch nuqtali xavfsizlik kamari yordamida mahkamlanadigan qurilmalar uchun xavfsizlik kamari buralmasdan qurilmadan o'tishiga, xavfsizlik kamarining qisqichi esa kamar to'qasida mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

Bolalar xavfsizlik qurilmasi ostiga yoki uning orqasiga yostiq yoki boshqa narsalarni qo'yish taqiqlanadi.

⚠️ DIQQAT

Agar bolalar xavfsizlik qurilmasi to'g'ridan to'g'ri quyosh nurlari ta'siriga uchrasa, xavfsizlik kamari va qurilmaning o'zi qizib ketishi va kuyishga olib kelishi mumkin. Foydalanishdan oldin o'rindiq g'ilofi va to'qasining haroratini tekshiring.

Agar bolalar xavfsizlik qurilmasidan foydalanishni rejalashtirmayotgan bo'lsangiz, uni avtomobilga mahkamlash tizimlari yordamida mahkamlang yoki uni chiqarib oling.

Agar xavfsizlik tizimi yoki mahkamlash tizimi avariya natijasida shikastlangan yoki nosoz bo'lsa, diagnostika va/yoki ta'mirlash/almashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

⚠️ DIQQAT

HECH QACHON old xavfsizlik yostig'i bilan

jihozlangan old yo'lovchi o'rindig'iga harakat yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan bolalar xavfsizlik moslamani o'rnatmang. Oldindagi yo'lovchining xavfsizlik yostig'i ochilsa, bu jiddiy jarohatlar yoki bolaning o'limiga olib kelishi mumkin.

⚠️ DIQQAT

Bolaning qomati va vazniga mos keladigan xavfsizlik moslamasidan foydalaning.

ISOFIX mahkamlash tizimidan faqat ISOFIX tizimi bilan jihozlangan bolalar xavfsizlik qurilmalari uchun foydalaning.


ISOFIX mahkamlash tizimiga xavfsizlik kamarlarini, ISOFIX tizimi bilan jihozlanmagan bolalar o'rindig'ini yoki boshqa biror qurilmani mahkamlamang.

Bolalar o'rindig'ining joylashuvi va uni mahkamlash usulini A.1 va A.2 jadvallarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiq hisobga olish kerak.

ISOFIX tizimi

ISOFIX - bu bolalar xavfsizlik qurilmasini ikkinchi qator o'rindig'iga mahkamlash uchun standart tizim.

Bolalar xavfsizlik tizimining ISOFIX standartlariga mos keladigan mahkamlash nuqtalari orqa o'rindiq suyanchig'iga o'rnatilgan. "ISOFIX" belgisi bolalar xavfsizlik tizimining mahkamlanish nuqtalarini tezroq topishga yordam beradi.



ISOFIX mahkamlagichlarining joylashuvi

ISOFIX yuqori mahkamlash nuqtalari

Yuqori mahkamlash nuqtalari orqa o'rindiq suyanchig'ining orqa tomonida joylashgan va "ISOFIX" logotipi bilan belgilangan.



ISOFIX pastki mahkamlash nuqtalari

Pastki mahkamlash nuqtalari ikkinchi

qatordagi yostiq va o'rindiq suyanchig'ining tutashgan joyida va o'rindiq karkasida mahkamlangan.



DIQQAT

Bitta ISOFIX mahkamlagichiga bittadan ortiq bolalar xavfsizlik qurilmasini mahkamlamang. Noto'g'ri taqsimlangan bosim mahkamlagichlarning sinishiga va natijada bolaning jiddiy jarohatlanishiga yoki hatto o'limiga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

Bolalar xavfsizlik qurilmasini avtomobil o'rindig'iga ishonchli mahkamlash uchun bosh tagligini ko'tarish yoki olib tashlash talab qilinishi mumkin.

Agar bolalar xavfsizlik qurilmasi yuqorigi mahkamlash nuqtasida kamar bilan mahkamlansa, u holda kamarni bosh tagligi ikkita yo'naltiruvchilari orasidan o'tkazish

kerak.

Bolalar xavfsizlik qurilmasini o'rnatishdan oldin ISOFIX mahkamlagichlaridan erkin foydalana olishingizga ishonch hosil qiling. ISOFIX mahkamlagichlari to'g'ri o'rnatilgan bolalar xavfsizlik qurilmasining yuklanishiga bardosh beradi. Xavfsizlik kamarlari mahkamlagichlariga arqon va boshqa buyumlar yoki qurilmalarni mahkamlash taqiqlanadi.

Bolalar xavfsizlik qurilmalarining turli holatlarda qo'llanilishi

A.1 jadval Bolalar xavfsizlik qurilmasining qo'llanilishi

Vazn toifasi	O'rindiqlar holati (yoki boshqa holatlar)			
	Old yo'lovchi o'rindig'i	Ikkinchi qator o'rindig'ining yon qismlari	Ikkinchi qator yon o'rindiqlar	Uchinchi qator o'rindiqlari ✕
0 toifa (10 kg dan kam)	X	U/L	X	X
0+ toifa (13 kg dan kam)	X	U/L	X	X
I toifa (9 dan 18 kg gacha)	X	U/L	X	X
II toifa (15 dan 25 kg gacha)	X	U/L	X	X
III toifa (22 dan 36 kg gacha)	X	U/L	X	X
Jadvaldagi harfiy belgilar ma'nosi: U: og'irlik toifasiga muvofiq universal sinfdagi bolalar xavfsizlik tizimi uchun foydalaniladi; OUF: vazn toifasiga muvofiq oldinga qaragan universal sinfdagi bolalar xavfsizlik tizimi uchun foydalaniladi; L: ro'yxatdagi maxsus bolalar xavfsizlik tizimi uchun foydalaniladi. Bunday xavfsizlik moslamalari maxsus, cheklangan yoki yarim universal bo'lishi mumkin; B: vazn toifasiga muvofiq integratsiyalashgan bolalar xavfsizlik tizimi uchun foydalaniladi; X: o'rindiq ommaviy guruhga mo'ljallangan bolalar xavfsizlik tizimi uchun foydalanilmaydi.				

A.2 jadval ISOFIX mahkamlagichli bolalar xavfsizlik qurilmalarini o'rnatish

Vazn toifasi	O'lcham toifasi (*)	Qisish moslamasi (mahkamlash)	ISOFIXning avtomobilda joylashishi			
			Old yo'lovchi o'rindig'i	Orqa o'rindiqning yon o'rinlari	Ikkinchi qator markaziy o'rindig'i	Uchinchi qator o'rindiqlari ✖
Ko'chma karavotcha	F	ISO/L1	X	IL	X	X
	G	ISO/L2	X	IL	X	X
	(1)		X	X	X	X
0 toifa (10 kg dan kam)	E	ISO/R1	X	IL	X	X
	(1)		X	X	X	X
0+ toifa (13 kg dan kam)	E	ISO/R1	X	IL	X	X
	D	ISO/R2	X	IL	X	X
	C	ISO/R3	X	IL	X	X
	(1)		X	X	X	X
I toifa (9 dan 18 kg gacha)	D	ISO/R2	X	IL	X	X
	C	ISO/R3	X	IL	X	X
	B	ISO/F2	X	X	X	X
	B1	ISO/F2X	X	X	X	X
	A	ISO/F3	X	X	X	X
	(1)		X	X	X	X
II toifa (15 dan 25 kg gacha)		(1)	X	X	X	X
III toifa (22 dan 36 kg gacha)		(1)	X	X	X	X

(1): ISO/XX o'lchamlar toifasiga muvofiq markirovkalanmagan (A~G) bolalar xavfsizlik tizimi uchun avtomobil ishlab chiqaruvchisi tegishli og'irlik guruhi asosida har bir og'irlik toifasiga muvofiq har bir o'rindiq uchun tavsiya etilgan ISOFIX maxsus bolalar xavfsizlik tizimini ko'rsatishi kerak.

Jadvaldagi harfiy belgilar ma'nosi:

IUF – mazkur o'lcham sinfining oldinga qaratilgan umumiy ISOFIX bolalar xavfsizlik tizimiga nisbatan qo'llaniladi.

IL – ro'yxatdagi bolalar himoyasi uchun maxsus ISOFIX bolalar xavfsizlik tizimiga tegishli. Bunday xavfsizlik tizimlari maxsus, cheklangan yoki ushbu o'lcham sinfining yarim universal ISOFIX tizimlari bo'lishi mumkin.

X – ISOFIX holati ushbu og'irlik sinfi va/yoki o'lchamlar toifasidagi ISOFIX qurilmalari/bolalar xavfsizlik tizimlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

(*) – ISOFIX o'lcham sinfi ISOFIX bolalar o'rindiqlarida ko'rsatilgan "A" dan "G" gacha bo'lgan katta harflar bilan belgilanadi.

AIRBAG XAVFSIZLIK YOSTIQLARI

Xavfsizlik yostig'i - qo'shimcha saqlash tizimining (SRS) elementi.

SRS tizimi xavfsizlik kamarlariga qo'shimcha bo'lib, ularni to'liq almashtirmaydi.

Avtomobil harakatlanayotganda doimo xavfsizlik kamarini taqing va mahkamlang. Harakatni boshlashdan oldin o'rindiq holatini sozlang ("O'rindiq" bo'limiga qarang).

Jiddiy to'qnashuv sodir bo'lganda xavfsizlik yostig'i haydovchi va yo'lovchilar jarohatlanishini kamaytirish uchun yo'lovchi va avtomobil salonining ichki qoplamasi o'rtasida bufer hosil qiladi.

OGOHLANTIRISH

XAVFSIZLIK YOSTIQLARIDAN FOYDALANISHDA EHTIYOT CHORALARI

HAR DOIM, har safar davomida xavfsizlik kamarlari va bolalar xavfsizlik moslamalardan foydalaning! Xavfsizlik kamarlari taqilmagan yoki noto'g'ri taqilgan holda xavfsizlik yostiqlari bilan to'qnashuv sodir bo'lganda, xavfsizlik yostig'i ochilganda jiddiy jarohatlar yoki o'limga olib kelishi mumkin.

HECH QACHON bolani old o'rindiqda bolalar xavfsizlik moslamasida yoki kreslo-busterda olib yurmang. Xavfsizlik yostig'i bolaga zaba berib, og'ir jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin.

12 yoshgacha bo'lgan bolalarni orqa o'rindiqda tashishda doimo xavfsizlik kamarini

mahkamlang. Bu har qanday yoshdagi bolalarni tashish uchun eng xavfsiz joy. 12 va undan katta yoshdagi bolani old o'rindiqda olib yurish zarur bo'lganda, xavfsizlik kamarini tegishli tarzda mahkamlab, o'rindiqni iloji boricha orqaga surib qo'yish kerak.

Avtomobil to'liq to'xtab, dvigatel o'chirilgunga qadar barcha yo'lovchilar to'g'ri o'tirishi, xavfsizlik kamarlarini mahkamlashi kerak. Oyoqlar qulay cho'zilgan, tovonlar polda, o'rindiqning suyanchig'i o'rindiq yostig'iga nisbatan vertikal holatda o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Agar avariya paytida yo'lovchi boshqa holatda bo'lsa, tez ochiladigan xavfsizlik yostig'i yo'lovchiga qattiq zarba berib, unga jiddiy yoki o'limga olib keladigan jarohat yetkazishi mumkin.

Hech qachon xavfsizlik yostiqlariga juda yaqin o'tirmang va o'rindiq suyanchig'ini juda qattiq bukmang. Eshikka yoki markaziy konsolga suyanmang.

O'rindiqni old xavfsizlik yostiqlaridan iloji boricha uzoqlashtiring, bu avtomobilni qulay boshqarish va nazorat qilish sifatini buzmaydi.



DIQQAT

Xavfsizlik yostiqlari avtomobilning ushbu modeli uchun maxsus konfiguratsiyalangan. Boshqa versiya yoki modelga almashtirishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda bu xavfsizlik tizimining buzilishiga va

shikastlanishlarga olib keladi.

Xavfsizlik yostiqlari ishga tushgandan so'ng yoki avtomobil 10 yil davomida ekspluatatsiya qilgandan so'ng, uning to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun xavfsizlik yostiqlarining butun tizimini almashtirish kerak. CHANGAN Automobile avtorizatsiya qilingan servis markaziga murojaat qiling.

SRS tizimi elementlari, xavfsizlik yostiqlari va tegishli komponentlarni yechish, qismlarga ajratish, almashtirish, ta'mirlash yoki shikastlash (urish, kesish yoki yoqish) taqiqlanadi, chunki bu tizimning ishdan chiqishiga yoki SRS nosozligiga olib kelishi mumkin va natijada haydovchi va yo'lovchilarning zarur xavfsizligi ta'minlanmaydi. Avariya holatida - bu nosozlik yoki tasodifiy ochilishga olib kelishi, jiddiy yo'qotish yoki jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin!

Agar SRS tizimida biror nosozlik aniqlansa, diagnostika va/yoki ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Jarohat olmaslik uchun xavfsizlik yostig'ini o'zingiz tekshirmang va ta'mirlamang!



DIQQAT

Xavfsizlik yostiqlarining joylashuvi AIRBAG belgisi bilan belgilangan. Yostiqlarni to'sib qo'ymang va bu sohaga biror buyumni joylashtirmang.

Yo'lovchi va xavfsizlik yostig'i orasida odamlar, hayvonlar yoki boshqa buyumlarni joylashtirish taqiqlanadi.

Xavfsizlik yostiqlari ishga tushganda kuyish yoki alanganish xavfini oldini olish uchun harakatlanish paytida chekmang.

12 yoshgacha bo'lgan bolalarni maxsus bolalar moslamalari yordamida ikkinchi qator o'rindiqlarda olib yuring.

SRS tizimining ishlash tavsifi

SRS tizimi faqat avtomobil elektr ta'minoti yoqilganda ("ON" holati) faol bo'ladi. Zaruriyat bo'lganda xavfsizlik yostig'i ochiladi. SRS tizimining nazorat lampasi soz bo'lishi kerak ("Asboblar majmuasi" - "Signal lampalari va indikatorlar" bo'limiga qarang).


Avtomobil kuzovining shikastlanish darajasi xavfsizlik yostiqlarining ochilishiga ta'sir qilmaydi. Avtomobilning to'qnashuvi ularning ishga tushishi uchun dastlabki shart hisoblanmaydi. Xavfsizlik yostiqlari har qanday to'qnashuvda ochilmasligi kerak. Ular bir qator omillar yig'indisida ochiladi, jumladan, lekin bular bilan cheklanmaydi: avtomobilning to'qnashuv paytidagi harakat tezligi, to'qnashuv burchagi va to'qnashuv paytidagi sekinlashish tezligi.

Avtomobil harakatlanuvchi yoki deformatsiyalanuvchi obyektlar (himoya to'sig'i yoki yog'och kabi) bilan to'qnashganda, ular zarba kuchini yutadi, xavfsizlik yostig'ining ochilish tezligi qattiq va deformatsiyalanmaydigan obyektlar bilan to'qnashishga qaraganda yuqori bo'ladi.

Agar to'qnashuv favqulodda tormozlash paytida sodir bo'lgan bo'lsa, to'qnashuv paytida zarba kuchi xavfsizlik yostig'ining ishlashi uchun zarur bo'lganidan kamroq bo'lishi mumkin, shuning uchun xavfsizlik yostig'i ochilmasligi mumkin.

Avtomobil bir necha marta to'qnashgan taqdirda, xavfsizlik yostiqlari ishga tushirish

shartlariga rioya qilingan holda faqat bir marta ochiladi. Kichik zarb kuchi bilan bir necha marta to'qnashuvda xavfsizlik yostiqlari ochilmasligi mumkin (①), ammo keyingi jiddiy to'qnashuvda ular ochilish uchun zarur bo'lgan zarb kuchiga yetganda ishga tushishi mumkin (②).



SRS tizimining sozligiga ishonch hosil qiling. Agar tizim indikator chirog'i nosoz bo'lsa, diagnostika va/yoki ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Aks holda, to'qnashuvda xavfsizlik yostig'i ishga tushmasligi mumkin, bu esa jiddiy shikastlanish va/yoki jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Agar avtomobil suv to'sig'idan o'tgan va/yoki avtomobilning saloni suvga to'lgan bo'lsa, xavfsizlik kontrollerining nosoz ishlashi oldini olish uchun uni diagnostika qilish va/yoki

ta'mirlash uchun darhol CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Aks holda, bu xavfsizlik yostiqlarining tasodifiy ishga tushishi yoki ochilish algoritmining buzilishi tufayli avariya va/yoki jarohatlarga olib kelishi mumkin.


SRS tizimining ishlash tamoyili

Har qanday avtomobil xavfsizlik tizimining maqsadi - to'qnashuv yuz berganda yo'lovchilarning harakatini sekinlashtirish va ularga minimal shikast yetkazishdir.

1. Avtomobil to'qnashuvida SRS tizimi datchigi zarba kuchini aniqlaydi. Agar u belgilangan qiymatdan oshsa, xavfsizlik yostig'i kontrolleriga yostiqlarni ochish uchun signal uzatadi;
2. Kontrollerdan signal olinganidan so'ng, xavfsizlik yostig'i shishiriladi va ochilib, inson tanasi va salonning bezak elementlari o'rtasida himoya bo'shlig'ini hosil qiladi;



3. Xavfsizlik kamarlari, yostiqlar bilan birga xavfsizlikni ta'minlaydi, zarba kuchini yutadi, bosh va tananing yuqori qismini ehtimoliy shikastlanish va/yoki jarohatlardan himoya qiladi.



4. Xavfsizlik yostig'i ochilgandan keyin insonga ta'sirini kamaytirish uchun tez asl holiga qaytadi.



Xavfsizlik yostiqlarini ochish qattiq shovqin va tutun bilan birga sodir bo'ladi - bu piropatron (gazogenerator) faollashtirilganda sodir bo'ladigan odatiy jarayon hisoblanadi. Ochiqilganda ajralib chiqadigan tutun va kukun zaharli emas, lekin u nafas olishni qiyinlashtirishi va/yoki terining qichishishiga olib kelishi mumkin. Salonni shamollatish uchun derazalarni darhol oching. Ko'zlarni, barcha jarohat va/yoki chandiqlarni yaxshilab yuving. Xavfsizlik yostiqlari ochilgandan so'ng, SRS

tizimining ba'zi tarkibiy qismlari yuqori haroratda bo'lishi mumkin. To sovimagunlaricha ularga tegmang. Agar tasodifan tekkan bo'lsangiz, zararlanish yoki allergiyaning oldini olish uchun darhol ko'p miqdorda suv bilan yuving. Xavfsizlik yostig'i ochilishi bir zumda, katta kuch bilan amalga oshiriladi, bu esa jarohatlar, shu jumladan tinalish, jarohatlar va suyaklarning sinishiga olib kelishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i - bu bir marta ishlatiladigan element. Agar yostiq ochilgan bo'lsa, uni yangisiga almashtirish kerak.


SRS tizimi nosozlik ko'rsatkichi

Qizil rangdagi SRS tizimining nosozlik indikator.



O't oldirish yoqilganda (ON holati), SRS tizimi indikator va xavfsizlik yostiqlari taxminan 3~6 soniya davomida yonadi, keyin esa o'chadi. Tizim to'g'ri ishlaganda indikator o'chiriladi.

Xavfsizlik yostiqlari komponentlari



- A: Haydovchi xavfsizlik yostig'i;
 B: Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i;;
 C: Yon xavfsizlik yostiqlari ✕;
 D: Xavfsizlik pardalari ✕.

Old xavfsizlik yostiqlari

Old xavfsizlik yostig'i haqidagi ma'lumot old yo'lovchining quyosh soyabonida joylashtirilgan. U bilan yaxshilab tanishib chiqing.


Haydovchi xavfsizlik yostig'i

Haydovchining xavfsizlik yostig'i rul g'ildiragi "AIRBAG" yozuvi tushirilgan nakladka ostiga o'rnatilgan. U old to'qnashuv holatida, ishga tushish uchun barcha shartlarga rioya qilingan holda ochiladi.



Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i

Old yo'lovchi xavfsizlik yostig'i avtomobilning old panelida o'ng tomonda "AIRBAG" yozuvi tushirilgan qo'lqop qutisi ustiga o'rnatilgan. U old to'qnashuv holatida, ishga tushish uchun barcha shartlarga rioya qilingan holda ochiladi.



Old o'rindiqla harakat yo'nalishiga qarama-qarshi yo'naltirilgan bolalar xavfsizlik moslamasini o'rnatish, shuningdek, 12 yoshdan kichik va/yoki bo'yi 150 sm dan past bo'lgan bolani olib yurish taqiqlanadi.

Avtomobil harakatlanayotganda to'g'ri o'tirishni ta'minlang. Asboblar paneliga oyoq qo'ymang.

Saqlash tizimi sifatida old yo'lovchi xavfsizlik yostig'ining dekorativ qoplamasidan foydalanmang.


Buyumlarni asboblar paneli va old yo'lovchi tomonidagi oyna ustiga qo'ymang.

Old yo'lovchi tomonida yostiqlarning ochilish zonasida navigatsiya uskunolari yoki uyali telefon uchun kronshteynlar yoki fiksatorlar, shuningdek, boshqa qurilmalarni o'rnatmang (shu jumladan yopishqoq lenta yordamida).


Old xavfsizlik yostig'ining ochilish shartlari

Quyida keltirilgan shartlar old xavfsizlik yostig'i ochilishi mumkin bo'lgan to'qnashuvni tekshirishda standart laboratoriya sharoitlari hisoblanadi. Biroq, haqiqiy to'qnashuvda xavfsizlik yostig'ining ishga tushirilishi to'qnashuvda hosil bo'lgan sekinlashish ochilish shartiga mos kelishiga bog'liq.


1. Qo'zg'almas va deformatsiyalanmaydigan beton devor bilan 30 km/soatdan ortiq tezlikda old to'qnashuvda:



2. 35 km/soatdan ortiq tezlikda harakatsiz va deformatsiyalanmaydigan beton ustun bilan old to'qnashuvda:




3. Avtomobilning harakat yo'nalishiga perpendikulyar yo'nalishda 30 gradusdan ortiq bo'lmagan burchak ostida joylashgan qo'zg'almas deformatsiyalanmaydigan beton devor bilan old tomondan to'qnashuvda, to'qnashuv nuqtasida harakat tezligi soatiga 35 km dan ortiq bo'lganda:




Old xavfsizlik yostig'i boshqa favqulodda vaziyatlarda, agar avtomobil old yoki yon tomondan kuchli to'qnashuv kabi ta'sirlarga duch kelsa, shuningdek, quyidagi ekspluatatsiya sharoitlarida ham ishga tushishi mumkin:

1. Avtomobil zinalar, bordyurlar, trotuar chetlari yoki boshqa shunga o'xshash ko'tariluvchi to'siqlar bilan to'qnashganda;



2. Avtomobilning old qismi pastga tushish paytida, qiyalik bo'ylab harakatlanayotganda, yuqori bordyur yoki zinadan pastga tushganda yuzaga urilganda;




3. Chuqur o'raga yoki ariqqa tushganda yoki shassining asosiy qismiga shikast yetganda;



Old xavfsizlik yostig'ining ishga tushish ehtimoli avtomobilning to'qnashuv paytida ma'lum bir nisbiy tezlik olishiga erishilganiga, ochilish shartiga bog'liq. Biroq, old xavfsizlik yostig'i quyidagi sharoitlarda zarba tezligi nisbatan yuqori bo'lganda ham ochilmasligi mumkin:

1. Avtomobillarning old to'qnashuvda yoki ma'lum burchak ostida to'qnashganda;



Ikkala transport vositasida ham deformatsiyaning katta energiya yutuvchi zonalari mavjudligi sababli harakat davomida avtomobilga ta'sir kamayadi.

2. Avtomobil yuk mashinasining yon yoki orqa qismiga urilganda;



- ① Yuk mashinasining himoya qurilmasi deformatsiyalanuvchan, mustahkamligi past.
- ② Agar to'qnashuv nuqtasi avtomobil kapoti sohasiga yoki undan yuqoriga to'g'ri


kelsa, u holda avtomobilning salbiy tezlanishi yoki urilish kuchi zarur bo'lganidan sezilarli darajada past bo'lishi mumkin va xavfsizlik yostig'ini ochish shartlariga mos kelmaydi.

3. Avtomobil yog'och yoki kichik deformatsiyalanuvchi ustun bilan to'qnashganda;



To'qnashuvda shikastlangan obyektlar sinishi yoki qulashi mumkinligi sababli old xavfsizlik yostig'i ochilmasligi mumkin.

4. Avtomobil beton devor yoki tezyurar avtomagistral to'sig'i bilan to'qnashganda;



5. Agar avtomobilingizga boshqa avtomobil orqa tomondan kelib urilgan bo'lsa, bunda avtomobilingizning old va yon qismlari mexanik ta'sirga (zarbaga) uchramagan bo'lsa;




6. Avtomobil bir harakat yo'lagida harakatlanayotgan boshqa avtomobilning orqa qismiga urilganda, agar avtomobilning old qismi va yon tomonlari mexanik ta'sirga (zarbaga) uchramasa;



GE03024

7. Avtomobil ag'darilganda;




GE03025

8. Yon tomondan to'qnashuvda, agar zarba motor bo'lmasiga yoki orqa eshiklar/bagaj bo'limining eshigiga to'g'ri kelsa;



GE03026

9. Avtomobil panjara yoki to'siq kabi egiluvchan va deformatsiyalanuvchan obyektlar bilan to'qnashganda.



GE02027

Yon xavfsizlik yostig'i ✖

Old eshiklar bo'shlig'ida yon xavfsizlik yostiqchalari haqida ogohlantiruvchi ma'lumot joylashgan. Unda keltirilgan axborot bilan diqqat bilan tanishib chiqing.

Yon xavfsizlik yostig'i o'rindiqliq suyanchig'iga o'rnatilgan va **"AIRBAG"** yozuvi bilan ifodalangan. Yon xavfsizlik yostig'i yon tomondan to'qnashuv sodir bo'lganda, ishga tushirish shartlariga rioya qilingan holda, yo'lovchi va salonning elementlarini o'rtasida bufer hosil qilib, tananing ko'krak qismini yon tomondan himoya qilishni ta'minlagan holda ochiladi.


DIQQAT

Xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan o'rindiqlarga qo'shimcha g'iloflar yoki yumshoq yostiqlarni o'rnatmang. Bunday g'iloflardan foydalanish tizimning samaradorligini pasaytirishi va hatto uni butunlay neytrallashtirishi mumkin. O'rindiqliq qoplamalarini mustaqil ravishda almashtirmang. Bu xavfsizlik yostig'ining

noto'g'ri ishga tushishiga yoki ishga tushish paytida tasodifiy jarohatlarga olib kelishi mumkin!

Kiyimlarni o'rindiqliq suvanchig'iga ilib qo'ymang.

Yon xavfsizlik pardalari ✕

Himoyalovchi puflanadigan yon xavfsizlik pardalari salon ustunlarida qoplama ostida, tom qoplamasida oldingi va orqa eshiklarning eshik tirqishlaridan yuqorida joylashgan. "B" ustunida "AIRBAG" yozuvi bo'lgan belgi bor. Yon tomondan to'qnashuv sodir bo'lganda yon tomondan xavfsizlik pardalari barcha ishlash shartlariga rioya qilgan holda ochiladi, yo'lovchilar va avtomobil salonining ichki elementlari o'rtasida himoya to'sig'ini hosil qilib, yo'lovchilar boshini himoya qiladi.




Boshingiz yoki tanangizni xavfsizlik pardasi joylashgan joyga suvamang. Pardalarning ochilish sohasi - avtomobil yon oynalarining bo'shliqlari.

O'rindiqliq suvanchig'i va yon eshiklar orasiga hech qanday buyumlarni joylashtirmang.


Yon xavfsizlik yostiqlarining ochilish shartlari

Quyida keltirilgan shartlar yon xavfsizlik yostig'i ochilishi mumkin bo'lgan to'qnashuvni tekshirishda standart laboratoriya sharoitlari hisoblanadi. Biroq, haqiqiy to'qnashuvda xavfsizlik yostig'ining ishga tushirilishi to'qnashuvda hosil bo'lgan sekinlashish ochilish shartiga mos kelishiga bog'liq.

1. Avtomobil og'irligi 950 kg dan ortiq bo'lgan boshqa transport vositasi bilan perpendikulyar yo'nalishda to'qnashganda, to'qnashish paytidagi harakat tezligi soatiga 25 km dan ortiq bo'lganda;;



2. Yon tomondan sirpanish natijasida diametri 254 mm dan ortiq bo'lgan qo'zg'almas va deformatsiyalanmaydigan beton ustun bilan to'qnashganda va to'qnashuv paytida tezlik 35 km/soat dan ortiq bo'lganda;



Haqiqiy avariya paytida xavfsizlik yostig'ining ishlash ehtimoli ma'lum bir nisbiy tezlik olinganligiga bog'liq. Biroq, yon xavfsizlik yostig'i quyidagi foydalanish sharoitlarida ochilishi mumkin:

1. Avtomobil zinalar, bordyurlar yoki boshqa shunga o'xshash bo'rtib chiquvchi to'siqlar bilan to'qnashganda;



2. Avtomobil qiyalik bo'ylab pastga tushib ketayotganda old qismi bilan yuzaga urilganda;



3. Chuqur o'raga yoki chuqurlikka tushganda va/yoki shassining asosiy qismiga shikast yetganda;




4. Zinalar bo'ylab harakatlanganda yoki ular bilan to'qnashganda.




Yon xavfsizlik yostig'ining ishga tushish ehtimoli avtomobilning to'qnashuv paytida ma'lum bir nisbiy tezlik olishiga erishilganiga, ochilish shartiga bog'liq. Biroq, yon xavfsizlik yostig'i quyidagi sharoitlarda zarba tezligi nisbatan yuqori bo'lganda ham ochilmasligi mumkin:

1. Avtomobilning harakat yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan yon tomondan boshqa transport vositasi tomonidan


avtomobilning old (old oyna) yoki orqa qismiga zarba berilganda;




2. Avtomobil boshqa transport vositasi bilan yon tomondan, ma'lum burchak ostida va kichik tezlikda to'qnashganda;



3. Avtomobil ag'darilganda;



4. Avtomobilning kichik massali obyekt (velosiped, mototsikl) bilan yon tomondan to'qnashuvda. Bunday to'qnashuvda zarbaning energiyasi katta bo'lmaydi. Bunday holda zarba cheklangan yuzaga to'g'ri keladi va uning to'liq kuchi datchiklar tomonidan qabul qilinmaydi;



5. Kichik ko'ndalang kesimli kolonnaga yon tomondan to'qnashganda.



Qo'shimcha ehtiyot choralari

Avtomobil harakatlanayotganda, favqulodda tormozlash yoki transport vositasining to'qnashuvi natijasida kelib chiqadigan shikastlanish yoki o'limning oldini olish uchun avtomobil ustiga chiqish, uni tark etish yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chish taqiqlanadi.

Baxtsiz hodisa yoki favqulodda to'xtash holatlarida, xavfsizlik kamarini mahkamlamagan yo'lovchi transport vositasi ichida boshqa yo'lovchilarga urilishi yoki transport vositasidan uchib chiqib ketishi mumkin.

Xavfsizlik kamarlarida aksessuarlar va begona buyumlarni mahkamlamang yoki foydalanmang.

Yo'lovchilarning qulayligini oshirish yoki xavfsizlik kamarining holatini o'zgartirishni talab qiladigan qurilmalar va aksessuarlar xavfsizlik kamarlari himoya darajasini

kamaytirishi va baxtsiz hodisada jiddiy shikastlanish ehtimolini oshirishi mumkin.

Old o'rindiqlar tuzilishiga o'zgartirish kiritmang.

Old o'rindiqlar tuzilishiga o'zgartirish kiritish xavfsizlik tizimi qo'shimcha sezgir elementlari yoki yon xavfsizlik yostiqlarining ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

O'rindiq ostiga begona buyumlarni joylashtirmang.

Old o'rindiqlar ostida begona buyumlarning mavjudligi xavfsizlik tizimi qo'shimcha sezgir elementlari va sim jgutlari ishlashiga xalaqit berishi mumkin.

Eshiklarga zarba bermang.

Avtomobil quvvati yoqilganda ("ON" holati) eshiklarga zarba berish xavfsizlik yostiqlarini ishga tushirishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari va SRS tizimi bilan jihozlangan avtomobil tuzilishini o'zgartirmang yoki avtomobilni qayta jihozlamang.

Avtomobilni qayta jihozlash va uning tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish (masalan, avtomobil romi, bamparlarni, tashqi va ichki old va/yoki yon metall konstruksiyalarni, yer oralig'i balandligini va boshqalarni o'zgartirish) avtomobil xavfsizlik yostig'i tizimining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

III. AVTOMOBIL FUNKSIYALARI

MASOFADAN BOSHQARISH FUNKSIYASIGA EGA KALIT

Simsiz masofadan boshqarish funksiyalari

Simsiz masofadan boshqarish pulti yordamida avtomobildan 30 metrgacha bo'lgan masofada barcha eshiklarni, shu jumladan orqa eshiklarni ochish yoki qulflash mumkin. Eshik oynalarini ham masofadan boshqarish mumkin.

ESLATMA

Kalitni deformatsiya qilmang va tushirib yubormang. Undan boshqa obyektlarga ta'sir qilish uchun foydalanmang. Kalitni uzoq vaqt davomida yuqori harorat ta'sirida qoldirmang (masalan, quyosh nurlari ostida asboblarning paneli yoki dvigatel kapotida).

Kalitning suv yoki boshqa suyuqliklarga tegishiga yo'l qo'ymang. Aks holda tizim ishdan chiqishi mumkin.

Kalitni boshqa elektromagnit qurilmalar (uyali telefonlar, kompyuterlar, planshetlar, navigatorlar va boshqalar) bilan birga saqlamang.

Mudofaadan boshqarish pulti quyidagi holatlarda ishlamasligi mumkin:

- Avtomobilning elektr ta'minoti "OFF" holatida bo'lmasa (O'ch.);
- Masofadan boshqarish pulti ishlashi

uchun masofa ortsa;

- Masofadan boshqarish pultidagi quvvat elementi zaryadining kamligi;
- Signallar boshqa transport vositalari yoki obyektlar tomonidan bloklanganda;
- Atrofdagi havoning juda past yoki juda yuqori harorati;
- Masofadan boshqarish pulti radiosignal manbai (masalan, radiostansiya, harbiy texnika, aeroport yoki radio minora va boshqalar) yonida joylashgan.

Agar masofadan boshqarish pulti ishlamas, eshikni ochish va yopish uchun mexanik kalitdan foydalaning. Kalitsiz kirish tizimi (PEPS) bilan jihozlangan avtomobillar uchun "Dvigatelni favqulodda ishga tushirish" bo'limida tavsiflangan tavsiyalarga muvofiq dvigatelni ishga tushiring. Masofadan boshqarish tizimining ishlashi bilan bog'liq barcha savollar bo'yicha CHANGAN Automobile vakolatli servis markazlariga murojaat qiling.

ESLATMA


Uzatkich quvvatini o'zgartirmang (jumladan, dasturiy sozlamalar yoki quvvat kuchaytirgichlardan foydalangan holda), tashqi antennalar yoki yoritgichlardan foydalanmang.

Turli simsiz aloqa qurilmalarining ishlashiga masofadan boshqarish pulti tomonidan chetdan to'siqlar paydo qilmang. Agar halaqitlar paydo bo'lsa, masofadan boshqarish pultidan foydalanishni darhol to'xtating va

undan qayta foydalanishdan oldin bunday to'siqlarni bartaraf etish choralari ko'ring. Avtomobil pult zonasidan chiqqandan keyin kalit tugmalarini bosmang. Tugmalar 2000 martadan ortiq bosilganda (jami), kalit deaktivatsiyalanadi va endi avtomobil tizimlarini boshqarmaydi. Bunday holda kalitni qayta kodlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

KALITLAR

SMART kalit



A: SMART kalit;

B: Mexanik kalit.

Mexanik kalit SMART kalitda joylashgan. Chiqarib olish uchun "SMART kalitning quvvat elementini almashtirish" bo'limi bilan tanishing.


Bluetooth kalit ✖

Mobil telefon yordamida quyidagi funksiyalarni boshqarish mumkin: dvigatelni ishga tushirish va o'chirish, eshik qulfini ochish/bloklash, orqa eshikni ochish va derazalar holatini tekshirish.

Kalitning individual raqami

Kalitning individual raqami kalitlar to'plami bilan birga yetkazib beriladigan

shtrix-kodli jadvalda joylashgan. Uni saqlab qo'ying.



ESLATMA

Agar kalitlarni yo'qotsangiz, buyurtma berish uchun kalit raqami bilan CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Kalit tugmalari

Blokdan chiqarish

"Blokdan chiqarish" tugmasini bosib,  avtomobilning barcha eshiklarini qulfdan chiqariladi. Buriish ko'rsatkichlari bir marta miltillaydi.

Bloklash

"Bloklash" tugmasini bosib,  avtomobilning barcha eshiklarini qulflanadi. Buriish ko'rsatkichlari bir marta miltillaydi. Agar avtomobilning birorta eshigi (shu

jumladan, orqa eshik) yoki kapot yopilmagan bo'lsa yoki avtomobilning quvvati o'chirilmagan bo'lsa ("OFF" holati), eshiklar bloklash tugmasi yordamida qulflanmaydi.

Yukxona eshigini masofadan boshqariladigan kalit yordamida ochish

Avtomobil ta'minoti o'chirilganda ("OFF" holati) bagaj xonasi eshigini ochish uchun kalitdagi bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini ikki marta 3 soniya davomida bosib



OGOHLANTIRISH

Masofadan boshqarish pultidagi tugmani bosishdan oldin, bagaj eshigi yonida odamlar va/ yoki boshqa to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Dvigatelni masofadan ishga tushirish funksiyasi ✖

Avtomobil bloklangan, barcha eshiklar, jumladan, bagaj xonasi eshigi ham yopiq, yonilg'i sathi minimal qiymatdan yuqori (yonilg'i sathi lampasi yonmaydi) va o'g'irlashga qarshi tizim faollashtirilgan (o'g'irlashga qarshi indikator miltillaydi), dvigatelni ishga tushirish uchun masofadan boshqarish pultidagi ishga tushirish tugmasini



bosib turing va ≥ 2 soniya ushlab turing.

Agar dvigatelni masofadan boshqarish pultidan o'chirish zarur bo'lsa, ishga tushirish tugmasini  taxminan 2 soniya bosib

turing.

Avtomatik to'xtash ✖

Avtomatik to'xtash rejimiga kirish uchun avtomatik to'xtash tugmasini  bosing va ushlab turing.

Eshiklarni blokdan chiqarish rejimlarini almashtirish

Bloklash va blokdan chiqarish tugmalarini 4 soniyadan ortiq vaqt davomida bir vaqtda bosib, ushlab turing. Bloklash rejimi o'zgarganligi haqida xabar beruvchi bitta signal yangraydi. Shu paytda blokdan chiqarish tugmasini bosing. Faqat haydovchining eshigi ochiladi. Qayta bosilsa, qolgan barcha eshiklar ochiladi.

Bir vaqtning o'zida blokirovka va blokdan chiqarish tugmalarini 4 soniyadan ortiq vaqt davomida qayta bosish va ushlab turishda tizim bir vaqtning o'zida to'rtta eshikni blokdan chiqarish rejimiga qaytadi.

Avtomobilning joylashuvini aniqlash

Avtomobilning barcha eshiklari (shu jumladan, bagaj xonasi) yopiq bo'lganda, avtomobilning joylashuvini aniqlash funksiyasini faollashtirish uchun 2 soniya davomida bloklash tugmasini ikki marta bosing. Tovush signali ikki marta yangraydi va burilish signallari lampalari taxminan 10 soniya miltillab, avtomobilning turgan joyini bildiradi. Lampalar miltillayotgan paytda

blokdan chiqarish tugmasi bosilsa, avtomobil eshiklari darhol ochiladi.

Oynalarni masofadan boshqarish

Avtomobil elektr quvvati o'chirilganda ("OFF" holati) va eshiklar yopiq bo'lganda:

1. Bloklash tugmasini bosib turing va barcha oynalar yopila boshlaydi. Tugmani qo'yib yuboring va oynalar yopilishdan to'xtaydi.
2. Blokdan chiqarish tugmasini bosib turing va barcha oynalar ochila boshlaydi. Tugmani qo'yib yuborsangiz, oynalar ochilishdan to'xtaydi.

Agar avtomobil qisilib qolishdan himoya qilish funksiyasiga ega oyna ko'targichlar bilan jihozlangan bo'lsa, blokirovka tugmasini 2 soniyadan ortiq (oyina yopila boshlanganda - tugmani qo'yib yuboring) bosib turing. Deraza oynasi avtomatik ravishda yopiq holatga qadar ko'tariladi; blokdan chiqarish tugmasini 2 soniyadan ortiq vaqt bosib turing, oyna avtomatik ravishda to'liq ochiq holatga o'tadi.

ESLATMA

Zavod parametrlariga muvofiq, oynalarni masofadan boshqarish funksiyasi faol bo'lmaydi. Uni faollashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Lyukni masofadan boshqarish ✖

Agar elektr quvvati o'chirilganda ("OFF" holati) va avtomobildan masofadan boshqarish funksiyasiga ega SMART kalit chiqarilganda,

avtomobilning barcha eshiklari yopiq bo'lganda, lyuk va lyukning quyoshdan himoyalovchi pardasi yopiq bo'lmasa, bloklash tugmasini 2 soniyadan ortiq bosib turing, lyuk va lyukning quyoshdan himoyalovchi pardasi avtomatik ravishda yopiladi.

Oynalar/ lyuk/ lyukning quyosh pardasini masofadan boshqarish ✖

Avtomatik oyna ko'targichlar va lyuk/lyuk pardasi bilan jihozlangan avtomobillar uchun, elektr quvvati o'chirilgan ("OFF" holati) va eshiklar yopiq bo'lganda:

1. Bloklash tugmasini bosib turing. Qisishdan himoya funksiyasiga ega barcha oynalar va lyuk/lyuk pardasi yopiladi. Bloklash tugmasini qo'yib yuboring va qisishdan himoya funksiyasi bilan jihozlanmagan oynalar harakati to'xtaydi; qisishdan himoya funksiyasiga ega bo'lgan oynalar to'liq yopilgunga qadar avtomatik yopilishini davom ettiradi;
2. Qulfni ochish tugmasini bosib turing. Qisishdan himoya funksiyasiga ega barcha oynalar va lyuk/lyuk pardasi ochiladi. Qulfni ochish tugmasini qo'yib yuboring va qisishdan himoya funksiyasi bilan jihozlanmagan oynalar ochilishi to'xtaydi; qisishdan himoya funksiyasiga ega oynalar va lyuk/lyuk pardasi avtomatik ochilishini davom ettiradi.

ESLATMA

Faqat haydovchi tomonida qisishdan himoya funksiyasi bilan jihozlangan avtomobillarda zavod sozlamalarida oyna ko'targichlarni

masofadan boshqarish funksiyasi faolsizlantirilgan holatda bo'ladi. Uni faollashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

KALITSIZ KIRISH TIZIMI (PEPS) ✖

PEPS tizimi quyidagi funksiyalarga ega:

1. Simsiz masofadan boshqarish funksiyasi;
2. "Kalitsiz kirish" funksiyasi;
3. Dvigatelni tugma orqali ishga tushirish/to'xtatish funksiyasi (START ENGINE STOP);
4. Rul boshqaruvini bloklash funksiyasi.

PEPS kalitsiz kirish tizimining ishlashiga ta'sir qiluvchi omillar

PEPS tizimi quyida keltirilgan holatlarda ishlamasligi mumkin. Bunday hollarda bloklash/blokdan chiqarish uchun mexanik kalitdan foydalaning.

- SMART-kalit faollashtirish sohasida aniqlanmagan;
- Avtomobil kuchli elektromagnit to'lqinlar tarqatuvchi obyektlar (televizion minoralar, elektr stansiyalar, benzin kolonkalari, radiostansiyalar, keng ekranli displeylar, aeroportlar yoki boshqa obyektlar) yaqinida joylashgan bo'lsa;
- Avtomobil yonida radioto'lqinlarni tarqatuvchi elektron uskunalarning (uyali aloqa


operatorlari/telefonlar minoralari, shaxsiy kompyuter, quvvat adapteri) mavjudligi;

- SMART-kalit metall buyumga (folga yoki tarkibida metallar bo'lgan plyonka) tegib turadi va/yoki u bilan qoplangan;
- Yaqin atrofda bir vaqtning o'zida ishlayotgan ko'plab SMART kalitlar mavjud;
- SMART kalitda quvvat elementi zaryadining past darajasi.

ESLATMA

Har qanday elektron tibbiy qurilmalardan (masalan, kardiostimulyatorlardan) foydalanuvchilar bunday tibbiy qurilmalarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan elektromagnit nurlanishning ta'siri haqida ishonchli ma'lumot olish uchun qurilma ishlab chiqaruvchisi bilan maslahatlashishlari kerak. Radioto'lqinlar bunday tibbiy qurilmalardan foydalanish jarayonida kutilmagan ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Faollashtirish sohasi




1. Dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish funksiyasini faollashtirish sohasi (ENGINE START STOP) - avtomobil salonida (avtomobil salonida faol). Agar SMART kalit asboblari panelida, polda yoki bardachokda bo'lsa, ENGINE START STOP funksiyasi ishlamasligi mumkin.

2. PEPs kalitsiz kirish tizimining faollashuv sohasi - haydovchi yoki bagaj bo'limi eshigi tutqichida joylashgan PEPs tugmasidan 1 m masofada;

Agar SMART kalit eshik tutqichiga, derazaga yoki orqa bampor markaziga juda yaqin bo'lsa, PEPs funksiyasi ishlamasligi mumkin.

Kalitsiz kirish tizimi

Kalitsiz kirish funksiyasi faqat SMART-kalit tizimining ishlash sohasida joylashgan bo'lsa, faollashtirilishi mumkin.



PEPS yordamida blokdan chiqarish

Barcha eshiklar yopiq va qulflangan holatda bo'lsa, old eshikning tashqi dastasiga teging. Barcha eshiklar bir vaqtda ochiladi, burilish ko'rsatkichlari esa bir marta miltillaydi.

PEPS yordamida bloklash

Avtomobilning qulflanmagan eshiklari yopiq bo'lsa, haydovchi eshigining tashqi dastasiga tegining. Hamma eshiklar bir vaqtda qulflanadi, burilish ko'rsatkichlari esa ikki marta miltillaydi.

Quyidagi holatlarda avtomobil eshiklarini kalitsiz kirish tugmasi (PEPS) bilan qulflash mumkin emas:


- Hamma eshiklar, shu jumladan, bagaj bo'limining eshigi yopiq bo'lmasa;
- Avtomobil quvvati o'chirilmagan ("OFF" holatida emas) bo'lsa;
- SMART kalit avtomobilda bo'lsa;
- SMART kaliti eshik dastasidan 5 sm dan kam masofada yoki bevosita eshikning o'zida

joylashgan bo'lsa.

PEPS tizimining ishlashiga ta'sir qiluvchi, avtomobil eshiklarini qulflash mumkin bo'lmagan boshqa shartlar haro'itlar "III. Avtomobil funksiyalari - Kalitsiz kirish tizimi (PEPS) - Kalitsiz kirish tizimining (PEPS) ishlashiga ta'sir qiluvchi shartlar" bo'limiga qarang.

PEPS yordamida bagaj bo'limi eshigini ochish

1. Yukxona eshigi yopiq bo'lsa, agar SMART kalit orqa eshikning faollashuv sohasida bo'lsa, uni ochish uchun orqa eshik logotipining pastki qismidagi PEPS tugmasini bosing.



2. Agar 4ta yon eshiklar yopiq bo'lsa, SMART kaliti orqa eshikning faollashuv sohasida qolsa, u yopilganda barcha yon eshiklar avtomatik ravishda ochiladi. Ma'lumot berish uchun tovush signali eshitaladi. Agar 30 soniya ichida birorta eshik ochilmasa, yon eshiklar avtomatik ravishda qulflanadi.

ENGINE START STOP tugmasi yordamida dvigatelni ishga tushirish



SMART kalit avtomobil salonida (dvigatelni ishga tushirish tugmasi faollashtiriladigan joyda) bo'lganda, dvigatelni ishga tushirish/to'xtatish yoki avtomobilning elektr quvvat rejimlarini ("ACC," "ON" va "OFF") almashtirish uchun "ENGINE START STOP" tugmasini bosing.

ACC/ON rejimi: "ENGINE START STOP" qo'shimcha yoritgichining rangi sariq rangda yonadi.

«OFF» (O'CHIR.) rejimi: "ENGINE START STOP" tugmasi indikatorini yonmaydi (o'chadi).

Avtomobil quvvat rejimini o'zgartirish (AUO'Q)

1. ormoz pedali bosilmagan va uzatmalar almashish selektori "P" holatida bo'lsa, "ENGINE START STOP" tugmasi bosilsa, elektr quvvat

rejimi "ACC - ON - OFF" ketma-ketligida almashadi.

Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishining oldini olish uchun, "ACC" rejimida 1 soatdan ortiq ishlagandan so'ng, avtomobilning quvvati avtomatik ravishda o'chiriladi ("OFF" holati).

Tormoz pedali bosilmagan va uzatmani almashtirish selektori "P" dan boshqa istalgan holatda bo'lsa, "ENGINE START STOP" tugmasini bosish "ACC - ON" ketma-ketligida quvvatlash rejimini almashtiradi.

Dvigatelni avariyaaviy ishga tushirish

Ushbu jarayon SMART kalitni aniqlash imkonini bo'lmaganda yoki quvvat elementi past quvvatga ega bo'lganda dvigatelni ishga tushirish yoki elektr ta'minoti rejimini o'zgartirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Dvigatelni ishga tushirish: tormoz pedalini bosing va SMART-kalitni stakan tagiga joylashtiring. "ENGINE START STOP" indikator yashil rangda yongach, "ENGINE START STOP" tugmasini bosing va dvigatel ishga tushadi.

Quvvat rejimlarini almashtirish: SMART kalitini stakan tutqichga joylang. "ENGINE START STOP" tugmasi bosilganda, quvvatlash rejimlari "ACC - ON - OFF" ketma-ketligida almashtiriladi.

IMMOBILAYZER

Avtomobil xavfsizlikni ta'minlash uchun PEPS tizimi va dvigatel immobilayzeriga ega zamonaviy o'g'irlashga qarshi tizim bilan jihozlangan. Tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi: SMART kalit, intellektual kontroller va dvigatelni boshqarish bloki.

Avtomobil dvigatelini faqat immobilayzer to'liq identifikatsiyalash jarayonidan o'tgandan so'ng ishga tushirish mumkin.

Qo'riqlash tizimini yoqish

Agar eshiklardan birortasi yoki orqa eshik yopilgan bo'lsa, avtomobilni qo'riqlash mumkin emas.

PEPS tizimi bilan jihozlangan avtomobillarda qo'riqlash tizimini quyidagi tarzda faollashtirish mumkin:

1. Avtomobilni to'xtatib, dvigatelni o'chiring. "ENGINE START STOP" tugmasi yordamida avtomobilning quvvat rejimini "OFF" holatiga o'tkazing. "ENGINE START STOP" indikator o'chadi;
2. Avtomobildan kalitni chiqarib oling;
3. Kapot, bagaj bo'limi eshigi va avtomobilning barcha eshiklari yopiqligiga ishonch hosil qiling;
4. Eshik tashqi tutqichidagi PEPS tugmasi yoki masofadan boshqarish funksiyasiga ega kalitdagi qulflash tugmasi yordamida eshiklarni qulflang. Buriqlash ko'rsatkichlari ikki marta miltillaydi.

Yuqorida tavsiflangan amallar bajarilgach,

immobilayzer ko'rsatkichi  yoqiladi va 1 s oralig'ida bir marta miltillaydi. Biroz vaqt o'tgach, dvigatel immobilayzeri faollashadi va avtomobil qo'riqlash rejimiga o'tadi.

Avtomobilni qo'riqlashdan chiqarish

Kalitsiz kirish tizimi bilan jihozlangan avtomobillar uchun SMART-kalitdagi **"Unlock"** blokdan chiqarish tugmasini yoki haydovchining eshik dastasidagi PEPS tugmasini bosib, avtomobilni qo'riqlash tizimidan chiqaring va avtomobil eshigini oching. Shundan so'ng avtomobil qo'riqlashdan chiqariladi. Quvvatni "ON" holatiga o'zgartiring va immobayzerni identifikatsiyalash muvaffaqiyatli yakunlanadi. Asboblarning panelidagi indikator o'chadi.

Agar avtomobil blokdan chiqarilgandan keyin 30 soniya davomida avtomobilning biror eshigi, shu jumladan, orqa eshik ochilmasa yoki o't oldirish yoqilmasa, eshiklar avtomatik tarzda qulflanadi va tizim yana himoya rejimiga o'tadi.

Xavf-xatar rejimi

Avtomobil qo'riqlanayotganda quyidagi vaziyatlardan biri sodir bo'lsa, xavf rejimi faollashtiriladi:

1. Avtomobilning istalgan eshigi PEPS tugmasi yoki masofaviy kalitdan foydalanmasdan ochilgan bo'lsa (jumladan, himoya rejimida eshikni mexanik kalit bilan ochish);

2. Orqa eshik masofadan boshqarish funksiyasiga ega kalit yoki PEPS tugmasidan foydalanmasdan ochilgan;

3. Avtomobilning quvvat manbai uzilgan yoki avtomobilning elektr quvvati kuchlanishi o'zgargan.

Xavf-xatar rejimiga o'tgandan so'ng asboblarning panelidagi immobilayzer indikator yuqori chastota bilan miltillaydi; ovozi signal eshitaladi, burilish ko'rsatkichlari uzluksiz miltillaydi.

ESLATMA

Agar yo'lovchi transport vositasini tark etsa, tizim favqulodda holatga o'tishining oldini olish maqsadida avtomobilda yo'lovchilar bo'lmagandagina immobilayzerni faollashtiring.

Xavf rejimida dvigatelni ishga tushirmang. U barqaror ishlay olmaydi.

Xavf-xatar rejimidan chiqarish

Eshiklarni quyidagilar yordamida oching: eshik tutqichidagi PEPS tugmalari/masofaviy boshqaruv kaliti/Mobil telefonning Bluetooth kaliti yordamida avtomobilni xavf-xatar rejimidan chiqarish va eshiklarni ochish. Asboblarning panelidagi immobilayzer indikator o'chiriladi; tovush signali eshitaladi; burilish indikatorlari 4 marta miltillaydi.

Qo'riqlash rejimi o'chirilgandan so'ng, asboblarning panelidagi immobilayzer indikator o'chadi, tovush signali eshitaladi va burilish indikatorlari chiroqlari 4 marta miltillaydi.


OGOHLANTIRISH

Avtomobilni qayta jihozlamang va o'g'irlashga qarshi qo'shimcha tizimlarni o'rnatmang, chunki bu markaziy boshqaruv blokiga zarar yetkazishi va boshqa elektr qurilmalariga ta'sir qilishi mumkin.

Mulkdor tashqi elektr tizimlarini qayta jihozlash yoki o'rnatish natijasida yetkazilgan zararlar uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Shu sababdan yetkazilgan har qanday zarar kafolat bilan qoplanmaydi.

ESHIKLAR QULFI


Mexanik kalit yordamida eshik qulflarini tashqi tomondan boshqarish



Ochish: Eshikning tashqi tutqichini torting va mexanik kalit uchini joylashtiring. Mexanik kalitni soat miliga teskari yo'nalishda ② holatidan ① holatiga o'tkazing va eshikni oching.

Qulflash: Eshikning tashqi tutqichini torting va mexanik kalit uchini joylashtiring. Mexanik kalitni soat mili yo'nalishida ② holatidan ③ holatiga o'tkazing va eshikni yoping.


Eshik qulflarini kalitsiz boshqarish tugmasi



Ochish: barcha eshiklar yopiq va qulflangan holatda bo'lsa, old eshik tashqi tutqichi tugmasini bosing. Barcha eshiklar bir vaqtda ochiladi, eshiklarning tashqi tutqichlari oldinga suriladi, burilish ko'rsatkichlari esa bir marta miltillaydi.

Qulflash: barcha eshiklar yopiq va qulflanmagan holatda bo'lsa, old eshik tashqi tutqichi tugmasini bosing. Barcha eshiklar bir vaqtning o'zida qulflanadi, eshiklarning tashqi tutqichlari tortiladi, burilish ko'rsatkichlari esa ikki marta miltillaydi.

Elektr ta'minoti bo'lmaganda eshiklarni qulflash



Agar elektr quvvati bo'lmasa, mexanik kalit yordamida faqat haydovchining eshigini bloklash/bloktan chiqarish mumkin. Qolgan uchta eshikni qulflash uchun mexanik kalitdan foydalaning. Eshik qulfi korpusidagi favqulodda bloklash ilgagini burang. Mexanik qulf ovozi eshitgach, eshikni yoping.

ESLATMA

Sovuq va nam muhitda eshik qulfi va mexanik uzatmalar muzlashi mumkin. Bunday holatda avtomobil eshiklari va qulflaridan foydalanishda qulaylik darajasi pasayishi mumkin.




DIQQAT

Zaxira kalitni avtomobilda qoldirmang. Avtomobil qarovsiz qoldirilganda, kalitni doim

o'zingiz bilan oling. Oldindan barcha oynalarni yoping va barcha eshiklarni qulflang.

Eshik qulflarini ichkaridan boshqarish



Qulfni ochish tugmasi

Ochish: avtomobilning barcha eshiklari qulflanganda, eshik tutqichini bir marta torting va eshik ochiladi. Eshik tutqichini qayta torting va eshik ochiladi.

Haydovchi eshigini qulfdan chiqarishda to'rtta eshik bir vaqtda ochiladi.

Qulflash: avtomobil quvvati yoqilganda ("ON" holati) markaziy qulfni faollashtirish orqali barcha eshiklarni qulflash mumkin; avtomobil quvvati o'chirilganda eshikni mexanik usulda qulflash mumkin. "Mexanik kalit yordamida eshik qulflarini tashqaridan boshqarish" bo'limiga qarang.

Markaziy qulf yordamida eshiklarni bloklash



Barcha eshiklarni qulflash uchun eshikdagi markaziy qulf tugmasini ② bosib, barcha eshiklar qulflanadi;

Barcha eshiklarni ochish uchun eshikdagi markaziy qulf tugmasini bosib ①.

ESLATMA

Markaziy qulf tugmasi eshiklar yopiq bo'lgandagina ishlaydi.



DIQQAT

- Avtomobil harakatlanayotganda barcha eshiklar qulflangan bo'lishi kerak. Harakat paytida eshiklarning kutilmaganda ochilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha eshiklar qulflanganligiga ishonch hosil qiling.
- Eshiklarni ochishdan oldin yaqin atrofda transport vositalari va/yoki piyodalar

yo'qligiga ishonch hosil qiling.

To'qnashuvda eshik qulfini ochish

Agar avtomobilning xavfsizlik tizimi to'qnashuv holatini aniqlasa, avtomobil elektr ta'minoti yoqilgan ("ON" holati) bo'lsa, akkumulyator va eshik qulflari/uzatmalari ishlasa - avtomobilning barcha eshiklari avtomatik ravishda ochiladi.

OGOHLANTIRISH

Qulflar ketma-ket 10 marta dan ortiq uzluksiz qulfdan chiqarilsa/bloklansa, qulflar elektromotori ortiqcha qizishdan himoya qilinadi. Eshik qulflari to'xtatiladi va faqat mexanik qulf orqali ochish/qulflash mumkin. Eshik qulfi 1 daqiqadan keyin ishga tushadi. Har qanday qulflarni ochish ziddiyatida, to'qnashuvda - to'qnashuvda qulflarni ochish funksiyasi ustunlikka ega va qulflar avtomatik ravishda ochiladi.

Harakat vaqtida eshik qulfini avtomatik bloklash

Avtomobil tezligi soatiga 20 km ga yetganda, avtomobilning barcha eshiklari avtomatik ravishda qulflanadi.

ESLATMA

Tezlashganda eshiklarni avtomatik qulflash funksiyasi zavod sozlamalarida o'chirilgan. Ushbu funksiyani faollashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli xizmat

ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

ELEKTR OYNAKO'TARGICHLAR

Oyna ko'targichlarni boshqarish avtomobil elektr ta'minoti ulanganda ("ON" holatida) yoki "ON" holatidan "ACC/OFF" rejimiga o'tkazilgandan keyin 1 min davomida amalga oshiriladi.

Elektr oyna ko'targichlarni boshqarish tugmalari har bir eshikda joylashgan. Haydovchining eshigida barcha oynalarni blokirovka qilish imkoniyati bo'lgan markaziy boshqarish bloki joylashgan.



Elektr oyna ko'targichlarni boshqarish tugmalari:

- ① Old chap eshikning oyna ko'targichi;
- ② Orqa chap eshikning oyna ko'targichi;;
- ③ Orqa o'ng eshikning oyna ko'targichi;
- ④ Old o'ng eshikning oyna ko'targichi;;

⑤ Oyna ko'targichlarni bloklash tugmasi.

Oyna boshqaruviini bloklash

Yo'lovchilar tomonidan oyna boshqaruviini bloklash uchun ⑤ tugmasini bosing. Tugmani qayta bosish yo'lovchilar uchun oyna boshqaruviini blokdan chiqaradi.

Oynalarni ochish va yopish

- **Ochish:** tugmani bosing;
- **Yopish:** tugmani yuqoriga torting.

ESLATMA

Sovuq va nam muhitda eshik elektr oyna ko'targichlarining ishlashi muzlash tufayli qiyinlashishi mumkin.

Saqlagichning xizmat muddatini uzaytirish va oyna ko'tarish tizimining shikastlanishini oldini olish uchun bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq oynalarni boshqarmang.

Bir oynani bir vaqtning o'zida ochishga va yopishga urinmang, aks holda u ishdan chiqadi.

Bir marta bosish orqali ochish/ yopish tugmasi ✖

Oyna ko'targichni avtomatik boshqarish tugmasi 5 ta rejimga ega:

1. Bir marta bosish bilan ochish;
2. Qo'lda ochish;
3. O'rta holat;
4. Qo'lda yopish;;
5. Bir marta bosish bilan yopish.



Oynani ochish yoki yopish uchun tegishli tugmaning old qirrasini kerakli holatgacha yuqoriga suring yoki bosing.

ESLATMA

Avtomatik rejimda oynani ochish/yopishni darhol to'xtatish uchun oyna harakatlanayotganda unga qarama-qarshi yo'nalishdagi tugmani bosing/torting va oyna harakati to'xtaydi.

Oynalarni qo'lda ochish/yopish

Oyna ko'targichni qo'lda boshqarish tugmasi 5 ta rejimga ega

1. Ochish;
2. O'rta holat;
3. Yopish.

Qisishdan himoya funksiyasi ✖

Oyna avtomatik ravishda ochilgan/yopilganda qisib qolishdan himoya funksiyasi bilan ta'minlangan. Agar oyna yopilayotganda qarshilikka duch kelsa, u avtomatik ravishda to'xtaydi va ma'lum masofagacha pastga tushadi. Qisilishdan himoya funksiyasining faollashtirish zonasi oyna romidan 4 ~ 200 mm pastda.

OGOHLANTIRISH

Qisishdan himoya funksiyasi oynaning noto'g'ri yopilishi tufayli o'chishi, bu esa jarohat olish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Qisishdan himoya funksiyasi cheklovi:

Agar qisishdan himoya funksiyasi bir xil holatda ikki marta 10 soniyadan ko'p muddat ishlasa, u faolsizlantiriladi. Oynani bir marta bosish bilan yopish mumkin emas. Bunday vaziyatda oyna ko'targichlarni ochish yoki

yopish uchun faqat qo'l bilan boshqarish mumkin. Funksiya 10 soniyadan keyin to'liq tiklanadi.

ESLATMA

Agar oyna avtomatik rejimda ikki marta yopilganda har qanday to'siq aniqlansa, qisilishdan himoya qilish funksiyasi vaqtincha o'chiriladi. Keyingi safar derazani yopishga uringaningizda to'siq olib tashlanganini tekshiring.

Quyida tavsiflangan holatlar qisishdan himoya funksiyasining qayta initsializatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin:

1. Qisishdan himoya funksiyasi bir holatda uch marta faollashtirilgan va qayta tiklanmagan;
2. Avtomobil akkumulyator batareyasi uzilgan yoki akkumulyator kuchlanishi 6V dan kam;
3. Tashqi ta'sir tufayli deraza romlari deformatsiyalangan, deraza oynasi esa qisilib qolishdan himoya qilish funksiyasining ish sohasidan allaqachon chiqib ketgan.
4. LIN tarmoq signali uzilib qoladi.

Qisishdan himoya funksiyasini qayta initsializatsiya qilish:

1. Tugmani oyna to'liq yopilgunicha ko'taring;
2. Tugmani qo'yib yuboring;
3. Tugmani yana 2 soniyadan ko'proq vaqtga ko'taring va ushbu amalni ikki marta

takrorlang;

4. Oyna to'liq ochilguncha tugmani bosib turing;
5. Tugmani bosib, oynani avtomatik ko'tarishga urining;
6. Oyna to'liq ochilguncha tugmani bosib turing;
7. Tugmani qo'yib yuboring.

Agar oynasi avtomatik ravishda ko'tarilmasa yoki tushirilmasa, yuqorida tavsiflangan sozlash amalini takrorlang yoki CHANGAN Automobile vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.



DIQQAT

Qisishdan himoya funksiyasi mavjudligiga qaramay, qisilib qolish xavfi mavjud. Oynaning harakat trayektoriyasi bloklanmaganligiga ishonch hosil qiling. Qisilishdan himoya funksiyasi quyidagi obyektlar va sharoitlarga qarshilik ko'rsatmaydi:

- Egiluvchan, yengil va nozik predmetlar (masalan, barmoqlar);
 - Tirqishi 4 mm dan kam bo'lganda;
 - Qo'l bilan yopilganda, darhol avtomatik qarama-qarshi harakatdan keyin.
- Qisishdan himoya funksiyasi ushbu sharoitlarda himoyani ta'minlamaydi. Oynani yopayotganingizda tananing hech qanday qismi oynaning harakat zonasida emasligiga ishonch hosil qiling.

ORQA KO'RISH OYNASI

Tashqi orqa ko'rish oynasi

Tashqi orqa ko'rish oynasi kengroq ko'rinishni ta'minlaydigan qabariq ko'zgudan iborat. Harakatni boshlashdan oldin tashqi orqa ko'rish oynalarni to'g'ri sozlang. Avtomobilning elektr ta'minoti yoqilganda ("ACC / ON" holati) tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash mumkin.




DIQQAT

Tashqi orqa ko'rish oynalarda aks ettirilgan obyektlar va bu obyektlargacha bo'lgan masofa ularning haqiqiy o'lchami va ulargacha bo'lgan masofaga nisbatan farq qiladi. Orqadagi avtomobilgacha bo'lgan masofani ko'zgudagi tasvirga qarab baholamang. Avtomobilni kuzatib, ungacha bo'lgan haqiqiy masofani doimo tekshiring. Aks holda, bu halokatga olib kelishi mumkin.

Avtomobil harakatlanayotganda tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlamang. Bu avtomobil boshqaruvini yo'qolishiga va natijada avariya olib kelishi mumkin.

Tashqi orqa ko'rish oynalarini sozlash



1. Sozlash uchun orqa ko'rish oynasini tanlang: ko'zgu tanlash kalitini ① chapga (L - chap) yoki o'ngga (R - o'ng) suring.

2. Orqa ko'rish oynasi holatini sozlang: kalitdagi ② tegishli tugmalarini (yuqoriga, pastga, chapga va/yoki o'ngga) bosib.

ESLATMA

Agar tashqi orqa ko'rish oynalari muzlagan bo'lsa, oyna yuzasini shikastlamaslik uchun ularni qirmang va sozlamang.

Tashqi orqa ko'rish oynasi mumkin bo'lgan maksimal sozlash burchagiga yetganda, ko'zgu elektrodvigateli yoki mexanizmini shikastlamaslik uchun sozlashni to'xtating.

Tashqi orqa ko'rish oynasini kuch bilan qo'lda sozlamang. Aks holda oynaning tarkibiy qismlari shikastlanishi mumkin.

Sozlash tugagandan so'ng, tasodifiy sozlashni oldini olish uchun tugmani o'rta holatga o'tkazing.

Qo'lda sozlash

Ko'zgularni sozlash uzatmasi shikastlangan yoki boshqa elektr nosozligi yuz bergan taqdirda, tashqi orqa ko'rish ko'zgusining tashqi elementining qirralarini yengil bosish bilan ko'zguning holatini ehtiyotkorlik bilan sozlang.

Tashqi orqa ko'rish oynalarini mexanik yug'ish ✖



Orqa ko'rish oynalarini o'qlar yo'nalishi bo'yicha qo'lda bukish va ochish mumkin.

Elektr uzatmali tashqi orqa ko'rish oynalarini bukish ✖

Tashqi orqa ko'rish oynalarini bukish tugmasini ③ bosib va tashqi orqa oynalar  avtomatik ravishda bukiladi yoki ochiladi.

ESLATMA

Agar tashqi orqa ko'rish oynalari muzlagan bo'lsa, oyna yuzasini shikastlamaslik uchun ularni qirmang va sozlamang.

Tashqi orqa ko'rish oynasi mumkin bo'lgan maksimal sozlash burchagiga yetganda, ko'zgu elektrodvigateli shikastlamaslik uchun sozlashni to'xtating.

Tashqi orqa ko'rish oynasini kuch bilan qo'lda sozlamang. Aks holda oynaning tarkibiy qismlari shikastlanishi mumkin.



DIQQAT

Buklangan orqa ko'rish oynalari bilan harakatni boshlamang.

Tashqi orqa ko'rish tashqi oynalarini avtomatik bukish ✖

Avtomobilning elektr quvvati o'chirilganda ("OFF" holati), avtomobil masofadan boshqarish funksiyasiga ega SMART-kaliti yoki "PEPS" tugmasi yordamida bloklanganidan keyin tashqi orqa ko'rish oynasi chap va o'ng ko'zgulari bir vaqtning o'zida avtomatik tarzda yig'iladi.

Avtomobilni masofadan boshqarish funksiyasiga ega SMART kalit yoki PEPS tugmasi yordamida blokdan chiqarishda ikkala tashqi oyna ham avtomatik ravishda ochiladi.

Tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish ✖

Avtomobil elektr quvvati yoqilganda ("ON"

holati) isitish tugmasini bosib  ("III. Avtomobilning funksiyalari - "Iqlim nazorati tizimi") va tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish elementlari avtomatik ravishda oyna elementini isitadi.



DIQQAT

Oynalarni muzdan eritish funksiyasi ishlayotganda oynalarga tegmang, chunki tashqi orqa oynalar qiziydi.

Tashqi orqa ko'rish oynalarida yo'lakni o'zgartirish haqida ogohlantirish ✖

Avtomobil harakatlanayotganda, ayniqsa burilish yoki yo'lak o'zgarganda, tashqi orqa ko'rish oynalarida ogohlantirish chiroqlari yonadi ("Harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish" bo'limiga qarang).


Salondagi orqa ko'rish oynasi

Harakatni boshlashdan oldin orqa ko'rishning maksimal ko'rinishiga erishish uchun salon ichidagi orqa ko'rish oynasini sozlang. Orqa o'rindiqli yoki yuk bo'lmasiga ko'rishga xalaqit beradigan buyumlarni joylashtirmang.

Ko'zni qamashtirishning mexanik oldini oluvchi salon ichidagi orqa ko'rish himoya oynasi ✖

Qorong'i vaqtda haydovchi ko'zini qamashtirmaslik uchun salon ichidagi orqa

ko'rish oynasi ostidagi dastakni rasmda ko'rsatilgan yo'nalishda suring.



C204012

TOMDAGI LYUK ✖

Lyukni faqat elektr quvvati ulanganda ("ON" holati) yoki elektr ta'minoti "ON" rejimidan "ACC/OFF" rejimiga o'tkazilgandan keyin 1 daqiqa davomida boshqarish mumkin.



DIQQAT

Agar lyuk harakatlanayotganda tananing bir qismi unga yaqin joylashgan bo'lsa, jarohatlanish xavfi yoki siqilish ehtimoli mavjud.

Lyuk harakatlanayotganda e'tiborli va ehtiyot bo'ling. Yopilayotganda uning yo'nalishidan begona jismlarni olib tashlang.

Bolalarni avtomobilda yolg'iz qoldirmang. Bolalarga lyukni boshqarishga ruxsat bermang, chunki jarohatlanish va qisilib qolish xavfi bor.

Lyuk konstruksiyasida ochishning ikki usuli mavjud: lyukni orqaga surish yoki lyukning orqa qismini ko'tarish.

Lyuk ochilganda/siljiganda ichki bosimning o'zgarishi shovqinni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holda, shovqinni kamaytirish yoki yo'qotish uchun lyukning holatini o'zgartirish yoki oynani biroz oching.

ESLATMA

Lyukni faqat unda muz, qor yoki boshqa begona buyumlar va axlat yo'qligiga ishonch hosil qilgandan keyingina oching, aks holda,

xatolik yoki nosozlik paydo bo'lishi mumkin. Lyukning quyoshdan himoyalovchi pardasi shunday tuzilganki, u dastlab lyuk ochilganda ochiladi. Lyukni ochishda quyoshdan himoyalovchi pardaning ochilishiga to'sqinlik qilmang. Lyukni boshqarish tugmasini uzoq vaqt (5s dan ortiq) ushlab turmang, chunki elektr dvigatel yoki uzatma tizimining elementlariga zarar yetishi mumkin. Avtomobilni yuvishdan oldin lyukning yopiqligiga ishonch hosil qiling. Lyuk oynasi zichlagichini yoki uning atrofini yuvish uchun bosim ostidagi suv bosimidan foydalanmang. Lyukka muntazam texnik xizmat ko'rsating (har uch oyda). Lyuklarning zichlagichlar va yo'naltiruvchi yuzalaridagi chang va iflosliklarni o'z vaqtida artib tashlang.

Tomdagi lyukni boshqarish ✖

Lyukning ishlash rejimlari:

Qo'lda: lyukni boshqarish tugmasi qisqa bosilsa (<300 ms) - lyuk harakatga keladi;

Avtomatik: uzoq vaqt bosilgandan so'ng (> 300 ms), lyukni boshqarish tugmasini qo'yib yuboring - lyuk avtomatik harakatni boshlaydi. Avtomatik rejimda lyuk harakatlanayotganda, lyukdagi istalgan to'xtash tugmasini bosing.

Lyukni siljitish



Siljitish bilan lyukni ochish uchun tugmani  avtomobilning orqa qismi yo'nalishida bosing;

Siljitish bilan lyukni yopish uchun: tugmani  avtomobilning old qismi yo'nalishida bosing.

Lyuk ochilganda, quyoshdan saqllovchi parda lyuk oynasi bilan bir vaqtda avtomatik ochiladi. Lyuk yopilgandan so'ng, quyoshdan saqllovchi pardani qo'lda ochish yoki yopish mumkin.

Lyukni ko'tarish (shamollatish rejimi)

Lyukning orqa qismini ko'tarish uchun:

yopiq holatda kalitni  avtomobilning old qismi yo'nalishida suring.

Lyukni yopish uchun: lyuk ochiq bo'lganda tugmani  avtomobilning orqa qismi yo'nalishida suring

Lyuk initsializatsiyasi

Akkumulyator batareyasi klemmlarining uzilishi yoki uning zaryadlanish darajasining pastligi lyukning ishlash algoritmining buzilishiga olib kelishi va lyuk noto'g'ri ishlashi mumkin. Akkumulyator batareyasi to'liq zaryadlangan va soz ishlayotgan bo'lsa va avtomobil elektr ta'minoti ("ON" holati) yoniq bo'lsa, quyidagi usulda initsializatsiyani amalga oshiring::

1. Lyuk eng oxirgi holatga o'tguncha tugmani  bosing va ushlab turing, so'ng tugmani qo'yib yuboring;
2. Lyuk oynasi to'xtashdan oldin bir davriy ko'tarish/ tushirish harakati tugatmaguncha, tugmani  yana 3 soniya bosib turing. Tugmani qo'yib yuboring.

Ochish va yopish davrini takrorlang va harakat tugagandan so'ng tugmani qo'yib yuboring. Initsializatsiya tugallandi.

Panoramali lyuk quyosh pardasi ✖

Qo'lda boshqarish: lyukning quyoshdan himoyalovchi pardasini boshqarish tugmasini qisqa bosch (<300 ms) - lyuk harakatni boshlaydi;

Avtomatik boshqarish: avtomatik harakatni boshlash uchun lyukni boshqarish tugmasini bosib turing (>300 ms). Lyuk pardasi avtomatik rejimda harakatlanganda uni istalgan yo'nalishda to'xtatish uchun boshqarish tugmasini bosing.

Lyuk quyosh pardasini ochish/yopish

Lyukning quyosh pardasini ochish uchun

 tugmani avtomobilning orqa qismi yo'nalishida bosib;

Lyukning quyosh pardasini yopish uchun:

tugmani  avtomobilning old qismi yo'nalishida bosib.

Panoramali tom lyukini initsializatsiya qilish

1. Akkumulyator batareyasi to'liq zaryadlangan va soz ishlayotgan va avtomobil elektr ta'minoti ("ON" holati) yoniq bo'lsa, initsializatsiyani quyidagi usulda amalga oshiring: panorama lyuk oynasi va quyoshdan himoyalovchi parda to'liq yopiq bo'lganda, old yo'nalishda tugmani  bosib turing. Panoramali lyukning mexanik siljish tovushi bilan titrashini sezganingizda, tugmani qo'yib yuboring.

2. 3 soniya ichida avtomobil old qismi yo'nalishida tugmani  qayta bosib, panoramali lyuk oynasi va quyosh pardasi avtomatik ravishda ochiladi va yopiladi. Lyukning quyosh pardasi to'liq yopilgandan so'ng, initsializatsiyani yakunlash uchun tugmani qo'yib yuboring.

ESLATMA

Initsializatsiyadan oldin panoramali tom lyuki oynasi va panoramali tom quyosh pardasi to'liq yopilganligiga ishonch hosil qiling.

Kalit yordamida lyukni masofadan boshqarish ✖

Agar avtomobilning elektr quvvati o'chirilganda ("OFF" holati) va o't oldirish kaliti avtomobildan olingan bo'lsa (SMART kalit avtomobilda bo'lmasa), barcha eshiklar yopiq bo'lganda lyuk yoki lyukning quyosh pardasi yopilgan bo'lsa, kalitdagi qulflash tugmasini 2 soniyadan ortiq bosib turing va lyuk avtomatik ravishda yopiladi. "Lyukni masofadan boshqarish ✖" bo'limiga qarang.

ESLATMA

- Avtomobil harakatlanayotganda yoki manfiy haroratda uzoq vaqt to'xtab turganda, lyukni faqat to'liq erigandan keyin oching. Hech qachon lyukni kuch bilan ochmang.
- Avtomobildan notekis yo'lda yoki tog'li joylarda foydalanganda lyukni uzoq vaqt davomida to'liq ochiq qoldirmang.
- Avtomobilning tezligi soatiga 120 km dan oshsa, lyukni ochmang.

Qisishdan himoya funksiyasi

Agar havo harorati -20 °C dan 80 °C gacha bo'lgan harorat oralig'ida lyukni yopish vaqtida lyuk oynasi yoki panoramali tom lyukining quyoshdan himoyalovchi pardasi qarshilik yoki to'siqqa duch kelsa, u holda yopilish jarayoni to'xtaydi va lyuk to'liq ochilgunga qadar qarama-qarshi yo'nalishda harakatlana

boshlaydi.

Lyukning qisishdan himoya funksiyasi faqat lyuk oynasining avtomatik harakatida faollashadi.



DIQQAT

Xavfsizlikni ta'minlash, jarohatlanish va/yoki lat yeyishning oldini olish uchun bosh yoki tananing bir qismini lyukdan tashqariga chiqarmang.

Agar harakat vaqtida lyuk yopilsa, lyuk mexanizmi ozgina qarshilik yoki to'siqni aniqlasa, u holda qisishdan himoya rejimi faollashadi va lyukning harakati to'xtaydi. Lyukning harakat yo'nalishida hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.



DIQQAT


Qisishdan himoya funksiyasi mavjudligiga qaramay, qisilish xavfi mavjud. Lyuk oynasining harakatlanish sohasi bloklanmaganligiga ishonch hosil qiling. Qisishdan himoya funksiyasi quyidagi obyektlar va sharoitlarda ishlaymaydi:

- Egiluvchan, yengil va nozik predmetlar (masalan, barmoqlar);
 - Tirqishi 4 mm dan kam bo'lganda;
 - Qo'l bilan yopilganda, darhol avtomatik qarama-qarshi harakatdan keyin.
- Qisishdan himoya funksiyasi ushbu sharoitlarda himoyani ta'minlamaydi. Oynani yopayotganingizda tananing hech qanday qismi oynaning harakat zonasida emasligiga

ishonch hosil qiling.

BAGAJ BO'LIMI ESHIGI

Bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasi



Eshik qulflari ochilganda, bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini bosib, orqa eshikni qo'lda yuqoriga ko'taring. Muvozanat holatiga erishilganda, bagaj bo'limi eshigi avtomatik ravishda ochiladi va bagaj chiroqlari yonadi.

Bagaj bo'limi eshigini qo'lda yopish

Yukxona eshigini muvozanat holatigacha pastga torting, keyin uni yopish va mahkamlash uchun uni bosib.



DIQQAT


• Bagaj eshigini yopish uchun uni tashqaridan bosib. Qisilishiga yo'l qo'ymaslik uchun eshikni to'g'ridan to'g'ri yopish uchun

yordamchi dastakdan foydalanmang.

- Bolalarga orqa eshik qulfi tugmasidan foydalanishga ruxsat bermang, chunki qisilib qolish xavfi mavjud.
- Bagaj bo'limidan faqat orqa eshik to'liq ochiq bo'lgandagina foydalanish mumkin. Orqa eshik yarim ochiq bo'lganda yukxonadan foydalanish, agar eshik tushib ketsa, jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

Bagaj bo'limi eshigini avariya holatida ochish

Agar bagaj xonasi eshigi bloklangan bo'lsa va bagaj xonasi eshigini ochish tugmasi ishlamasa, orqa eshikni ichkaridan oching: orqa o'rindiqni pastga tushiring, rasmda ko'rsatilgandek, bagaj xonasi eshigining ichki qoplamasini olib tashlang. Orqa eshik qulfining sariq tutqichi nakladka orqasidagi teshikda joylashgan. Dastani soat millari bo'yicha qo'lda yoki asbob yordamida eng chekka holatga buring, keyin bagaj bo'limi eshigini yuqoriga bosib va uni oching.



ESLATMA

Agar bagaj bo'limi eshigini ochish va blokdan chiqarishning favqulodda rejimi talab qilingan bo'lsa, u holda orqa eshik nosoz. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi ✖

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini ochish

Eshik ochilganda - asboblarning panelida ochiq eshik haqida ma'lumot paydo bo'ladi, bagaj bo'limining chiroqlari yoqiladi, avariya signalizatsiyasi chiroqlari bir marta miltillaydi, bagaj bo'limi eshigi maksimal holatga ochilgunga qadar ogohlantirish ovozli signali eshitaladi.

Avtomobil tashqarisidan bagaj bo'limi eshigini ochish

Avtomobilning barcha eshiklari qulflanganda, quvvat o'chirilganda ("OFF" holati) va masofadan boshqarish kaliti bagaj bo'limi eshigining faollashuv sohasida (bagaj bo'limi eshigidan 0,8 m oralig'ida) bo'lganda, elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini quyidagi usullar bilan ochish mumkin:

- Bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini bosib;
- Masofaviy boshqaruv pultidagi bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini  tezda ikki marta bosib.

2. Avtomobil eshiklari ochilganda va avtomobil quvvati o'chirilganda ("OFF" holati), avtomobil tashqarisidan boshqariladigan elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining ochilish rejimi xuddi avtomobil yopiq bo'lgandagi kabi amalga oshiriladi, bagaj bo'limi eshigi yonida masofadan boshqarish kaliti mavjud bo'lishi shart emas.

3. Avtomobil "ACC" holatida bo'lganda, bagaj bo'limi eshigini ochish uchun bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini bosib. Avtomobil quvvati "ON" holatida, uzatmalar tutqichi selektori esa "P" holatida bo'lganda, elektr uzatmali bagaj bo'limining eshigi ochish/yopish tugmasi yordamida ochilishi mumkin.

Avtomobil ichkarisidan bagaj bo'limi eshigini ochish

Avtomobilning elektr quvvati "OFF/ACC" holatida bo'lganda, asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini bosib

turing (1 soniyadan ortiq). Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi avtomatik tarzda ochiladi.

Avtomobil quvvati "ON" holatida, uzatmalar selektori esa "P" holatida bo'lganda, elektr uzatmali bagaj bo'limining eshigi asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini bosish orqali ochilishi mumkin.



Bagaj bo'limi eshigini ochish jarayonini to'xtatish

- Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini ochish jarayonida asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qisqa bosib;
- Bagaj bo'limi eshigining yon tomonidagi tugmani qisqa bosib;
- Masofaviy boshqarish pultli SMART-kalitda bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini ikki marta bosib  (avtomobil "OFF" holatida elektr bilan ta'minlash).

To'xtagandan so'ng bagaj bo'limi eshigini yopish

- asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini bosib turing;
- bagaj bo'limi eshigining yon tomonidagi tugmani qayta bosib.

To'xtagandan so'ng bagaj bo'limi eshigini ochish

- Asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini bosib;
- Masofaviy boshqarish pultli kalitdagi bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini ikki marta bosib  (avtomobil "OFF" holatida elektr bilan ta'minlash);



DIQQAT

Bagaj eshigi qulfdan chiqarilgandan so'ng, uni ochish uchun avval biroz orqaga, keyin yuqoriga torting.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini ochish/yopishda eshikni yopish yo'lida odamlar va/yoki to'siqlar (shu jumladan, begona jismlar) yo'qligiga ishonch hosil qiling, aks holda qisilib qolish xavfi mavjud.


Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini yopish

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini yopishda avariya signalizatsiyasi lampasi ogohlantirish tovushli signali bilan birga bagaj

bo'limi eshigini to'liq yopilgunga qadar ikki marta miltillaydi. Bagaj eshigi to'liq yopilgandan so'ng, bagaj bo'limi chiroqlari o'chiriladi va asboblar panelida bagaj bo'limi eshigining qulflanganligi haqidagi ma'lumot aks etadi.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini avtomobil tashqarisidan yopish

Bagaj eshigining yon tomonidagi bagaj eshigini ochish/yopish tugmasini bosib.



Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini avtomobil ichkarisidan yopish

Avtomobilning elektr quvvatini "OFF/ACC" holatiga o'tkazishda, bagaj bo'limi eshigini yopish uchun asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini taxminan 1,5 soniya bosib turing. Avariya signalizatsiyasi chiroqlari yoqiladi va elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini avtomatik yopish jarayoni boshlanadi. Ogohlantiruvchi

ovozli signal eshik to'liq yopilgunga va qulflangunga qadar eshitaladi. Yopilish jarayonida asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qo'yib yuboring, eshik harakatlanishdan to'xtaydi. Yuqoridagi amallar takrorlansa, bagaj bo'limi eshigi harakatlanishda davom etadi.

Avtomobil elektr quvvati ("ON" holatida) va AUO'Q selektori "P" holatida (To'xtash) bo'lganda, asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini taxminan 1,5 soniya bosib turing. Avariya signalizatsiyasi chiroqlari yoqiladi va elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini avtomatik ravishda yopish jarayoni boshlanadi. Ogohlantiruvchi ovozli signal eshik to'liq yopilgunga va qulflangunga qadar eshitaladi. Yopilish jarayonida asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qo'yib yuboring. Eshik harakatlanishdan to'xtaydi. Yuqoridagi amallarni takrorlashda bagaj bo'limi eshigi harakatlanishda davom etadi.

Bagaj bo'limi eshigini yopish jarayonini to'xtatish

- Asboblar panelidagi tugma yordamida bagaj bo'limi eshigini yopish jarayonida asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qo'yib yuboring.
- Bagaj eshigini yopish jarayonida asboblar panelidagi tugmani asboblar panelidagi tugmadan foydalanmasdan asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini bosib.

- Bagaj bo'limi eshigining yon tomonidagi tugmani qisqa bosish;
- Masofaviy boshqarish pultli SMART-kalitda bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini ikki marta bosish  (avtomobil "OFF" holatida elektr bilan ta'minlash).

To'xtagandan so'ng bagaj bo'limi eshigini ochish

- Bagaj bo'limi eshigining yon tomonidagi tugmani qisqa bosish;
- Asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qisqa bosish;
- Masofaviy boshqarish pultli kalitdagi bagaj bo'limi eshigini ochish tugmasini ikki marta bosish  (avtomobil "OFF" holatida elektr bilan ta'minlash);

To'xtagandan so'ng bagaj bo'limi eshigini yopish

- Asboblar panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish/yopish tugmasini qo'yib yubormasdan bosib turing; bagaj bo'limi eshigi yopiladi.



DIQQAT

- Bagaj eshigini yopish uchun uni tashqaridan bosib. Qisishning oldini olish uchun orqa eshikni to'g'ridan-to'g'ri yopish uchun yordamchi tutqichdan foydalanmang.
- Bolalarga orqa eshik kalitidan foydalanishga ruxsat bermang, chunki bagaj bo'limi eshigini yopishda qisib qolish xavfi mavjud.

- Yuk ortish va tushirish faqat bagaj bo'limining eshigi to'liq ochiq bo'lganda amalga oshirilishi kerak. Bagaj bo'limi eshigi to'liq ochilmaganda kirish, agar u yopilsa, jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Bagaj eshigi avtomatik ravishda yopilganda, elektr uzatmaga yaqinlashmang va orqa eshik harakatini qo'l bilan to'xtatishga urinmang; aks holda, bu qisilganda jarohatlanishga olib kelishi mumkin.
- Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini avtomobil ichkarisidan yopishdan/ochishdan oldin ushbu amalni bajarish uchun yetarli bo'sh joy mavjudligiga, baxtsiz hodisa yoki bagaj bo'limi eshigi va/yoki elektr uzatmali eshik mexanizmining mexanik sinishiga yo'l qo'ymaslik uchun yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari va piyodalar uchun hech qanday to'siq yo'qligiga ishonch hosil qiling.
- Bagaj bo'limi eshigining elektr tayanchini qismlarga ajratmang. Aks holda, tayanch ichidagi yuqori bosim prujinasi jarohatlanishga olib kelishi mumkin.

**DIQQAT**

Elektr uzatmali bagaj bo'limining eshigini yopishda, eshikni yopish yo'lida odamlar va/yoki to'siqlar (shu jumladan, begona jismlar) yo'qligiga ishonch hosil qiling, aks holda qisib qo'yish xavfi mavjud.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini qisishdan himoya funksiyasi ✖

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi jarohatlanish yoki baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun qisishdan himoya funksiyasi bilan jihozlangan.

Agar ochish/yopish jarayonida bagaj bo'limi eshigi to'siq va/yoki katta qarshilikka duch kelsa - qisishdan himoya funksiyasi faollasha - eshik harakati to'xtaydi va ma'lum masofaga qarama-qarshi yo'nalishda harakat boshlanadi, keyin to'xtaydi.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini asboblari panelidagi bagaj bo'limi eshigini ochish va yopish tugmasi yordamida ochish yoki yopish, yoki elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini tugma yordamida ochish va yopish jarayonida qisishdan himoya funksiyasi bevosita ishga tushgandan so'ng faollashadi.

Qisishdan himoya funksiyasi yordamchi funksiya bo'lib, bagaj bo'limi eshigini ochish/yopishda xavfsizlik choralariga rioya qilish va e'tibor berishni talab qiladi.

**DIQQAT**

Qisishdan himoya funksiyasi mavjudligiga qaramay, qisilish xavfi mavjud. Ushbu amalni bajarish uchun zarur bo'sh joy mavjudligiga, baxtsiz hodisaning yoki bagaj bo'limi eshigi va/yoki elektr uzatma mexanizmining mexanik shikastlanishiga yo'l

qo'ymaslik uchun boshqa yo'l harakati ishtirokchilari va piyodalar uchun xalaqit bermasligi kerak.

Qisishdan himoya funksiyasi quyidagi jismlar va to'siqlarda ishlamaydi:

- Egiluvchan, yengil va nozik predmetlar (masalan, barmoqlar);
- Bagaj bo'limi eshigini to'liq yopishda harakatning oxirgi 15 mm sohasida bo'lgan buyumlar;
- Yumshoq, yengil va nozik jismlarning mavjudligi (masalan, sochlar).

Bunday hollarda qisish xavfi yuqori bo'ladi, qisishdan himoya funksiyasi tana qismlarini himoya qilmaydi. Bagaj bo'limi eshigini yopayotganda tananing barcha qismlari bagaj bo'limi eshigining yopilish sohasidan tashqarida ekanligiga ishonch hosil qiling.

Bagaj bo'limi eshigini tasodifiy harakatdan himoya qilish funksiyasi

Agar qisqa vaqt ichida bagaj bo'limi eshigi ketma-ket 5 martadan ortiq ochilgan va yopilgan bo'lsa, elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi tasodifiy harakatdan himoya rejimiga o'tadi va tugmalar bosilganda javob bermaydi. Taxminan 10 soniyadan keyin tizim ushbu rejimdan chiqadi va funksiya normal holatga qaytadi.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini initsializatsiya qilish

Akkumulyatorni qayta o'rnatishda, agar

bagaj bo'limi eshigi ochiq bo'lsa, bagaj bo'limi eshigining elektr uzatmasi funksiyasi ishlamaydi. Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining normal ishlashini tiklash va initsializatsiya jarayonini yakunlash uchun - bagaj bo'limi eshigini to'liq yoping. Agar bagaj bo'limi eshigi yopiq bo'lsa, initsializatsiya talab qilinmaydi.

ECU elektr bloki almashtirilgandan so'ng, elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini ochishni sozlash kerak. Bagaj bo'limi eshigini initsializatsiya qilish va to'g'ri ishlashini tiklash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining ochilish balandligini cheklash funksiyasi



Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigi elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining maksimal ochilish balandligini cheklash uchun foydalaniladigan ochilish balandligini eslab qolish funksiyasi bilan jihozlangan.

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigining maksimal ochilish balandligining chegarasi quyidagicha belgilanadi:

Elektr uzatmali bagaj bo'limi eshigini kerakli balandlikda qo'lda mahkamlang va tutib turing, bagaj bo'limi eshigining chekkasidagi tugmani 3 soniyadan ortiq bosib turing. Buriish signallari 3 marta miltillab, tovush signali yangraganda, bagaj bo'limi eshigining maksimal ochilish balandligini cheklash funksiyasi muvaffaqiyatli o'rnatiladi.

AVTOMOBIL KAPOTI

Motor bo'limi kapotini ochish


1. Chap tomonda, avtomobil salonining old qoplamasida, asboblar paneli ostida joylashgan motor bo'limi kapotini ochish dastasini yuqoriga torting.



2. Old qism markazida joylashgan kapotni qulflash tilini o'ngga suring va kapotni ko'taring.



3. Kapotni ochiq holatda mahkamlash uchun tayanch sterjenni unga mo'ljallangan teshikka o'rnatang.



ESLATMA

Kapotni faqat avtomobilning elektr ta'minoti o'chirilganda ("OFF" holati) va to'xtash tormozi faollashtirilganda oching.

Kapotni ochishdan oldin old oyna tozalagichlar oynaga tegib turganiga ishonch hosil qiling. Aks holda, oyna tozalagichlar yoki dvigatel kapotlari shikastlanishi mumkin.



DIQQAT

Kapotning to'satdan tushishini oldini olish uchun tayanch sterjenning teshiklarga to'liq o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

Kapot ochiq holda harakatlanmang va avtomobilni siljitmang.

Agar motor bo'limidan bug' chiqayotgan bo'lsa, jarohatlanish yoki kuyish xavfi tufayli hech qachon dvigatel kapotini ochmang.

Kuyishning oldini olish uchun tayanch sterjening plastik qismini ushlab turing.

Motor bo'linmasi kapotini yopish

1. Dvigatel kapotini ko'tarib, sterjenni chiqaring. Uni tutqichga mahkamlang.
2. Kapotni pastga tushiring va uni taxminan 30 sm balandlikdan erkin tushishiga imkon bering. Dvigatel kapotining old chekkasini yuqoriga torting va uning yopiq ekaniga ishonch hosil qiling.



DIQQAT

Harakatni boshlashdan oldin, dvigatel kapotini to'satdan ochilishi natijasida yuz berishi mumkin bo'lgan avariylarning oldini olish uchun dvigatel kapotini yopiq va qulflanganligiga ishonch hosil qiling. Avtomobil harakatlanayotganda dvigatel kapotini ochish dastagini tortmang.

YOQILG'I QUYISH OG'ZI LYUKI

Yonilg'i quyish teshigi avtomobilning chap orqa qismida joylashgan.




DIQQAT

Yoqilg'i oson alanganadi. Alanganishning oldini olish uchun uchqun, ochiq olov yoki tutundan saqlaning. Yonilg'i quyishdan oldin dvigatelni o'chiring.


Avtomobilga yoqilg'i quyish

1. Avtomobilning elektr ta'minotini o'chiring ("OFF" holati) va barcha eshik va derazalarni yoping;
2. Yoqilg'i quyish og'zi lyukini ochish dastagini yuqoriga torting va u sal qiya ochiladi. Yoqilg'i quyish og'zi lyukini oching;
3. Yonilg'i quyish og'zining qopqog'ini soat miliga teskari buring va uni chiqarib oling;



4. Yoqilg'i quyish og'zining qopqog'ini yonilg'i quyish og'zining ichki tomoniga

mahkamlang.



5. Yoqilg'i pistoletining uchini yoqilg'i bakiga to'liq joylashtiring, uni mahkamlang va to'ldirishni boshlang.

ESLATMA

- Faqat sifatli etillanmagan avtomobil benzinidan foydalaning. Agar yoqilg'i tizimiga sifatsiz yoqilg'i tushsa, yoqilg'i tizimi va dvigatel shikastlanishi mumkin.
- Yoqilg'ining bo'yalgan yuzaga tushishiga yo'l qo'ymang. Lak-bo'yoq qoplamasi zararlanishi mumkin.
- Agar yoqilg'i quyish lyuki muzlab qolsa va muzlash tufayli uni ochishning iloji bo'lmasa, uni biroz bosing va muzni olib tashlash uchun lyukni arting, keyin lyukni oching.

6. Qopqoqni qaytadan quyish og'ziga o'rnatib va uni soat strelkasi bo'ylab burib yoping. Yoqilg'i quyish og'zi lyukini yoping.



DIQQAT

- Bakdagi ortiqcha bosim tufayli yoqilg'i sachrab chiqmasligi uchun yoqilg'i quyish teshigining qopqog'ini sekin oching.
- Yoqilg'i pistoletining uchini iloji boricha chuqurroq joylashtiring. Aks holda, yoqilg'i bakdan to'kilishi mumkin, bu esa yong'inga va/yoki portlashga olib kelishi mumkin.
- Agar yoqilg'i pistoleti avtomatik o'chsa, u holda yoqilg'i baki to'lgan bo'ladi. To'ldirishni davom ettirmang. Bu yoqilg'i to'kilishiga yoki yoqilg'i tizimining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Yoqilg'i quyish o'g'zi qopqog'ini ochish yoki yoqilg'i pistoletiga tegishdan oldin statik elektr tokini olish uchun avtomobil korpusiga teging. Statik elektr zaryadining oldini olish maqsadida yonilg'i quyish paytida avtomobilga o'tirmang.

ESLATMA

Yoqilg'i quyish moslamasining qopqog'i zich yopilganligiga ishonch hosil qiling. Yopiq bo'lmasa, bu dvigatelning nosozlik indikatorini ishga tushishiga olib kelishi mumkin.

RUL G'ILDIRAGI



DIQQAT

Rulda to'g'ri o'tirishni ta'minlang. Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda rul g'ildiragining holatini sozlash taqiqlanadi. Rul kolonkasini mahkamlashning to'satdan ishdan chiqishi tufayli avariya sodir bo'lishi mumkin.

Rul g'ildiragi holatini sozlash

1. Rul g'ildiragi sozlash mexanizmini ochish uchun rul g'ildiragining sozlash dastagini pastga torting;




2. Rul g'ildiragini (yuqoriga/pastga/oldinga/orqaga) kerakli holatga o'rnatish;
3. Rul g'ildiragini mahkamlash dastagini dastlabki holatga o'tkazish va rul g'ildiragini mahkamlang.

ESLATMA

Harakatni boshlashdan oldin rul g'ildiragining

ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish uchun uni yuqoriga va pastga silkiting.

Rul g'ildiragidagi boshqaruv tugmalari ✖



Kruiz nazoratini faollashtirish: ACC (adaptiv kruiz nazorati) ni faollashtirish yoki IACC yoki ACCga o'zgartirish ✖;



Kruiz nazorati rejimidan chiqish ✖.



Harakatga hech qanday to'siq bo'lmaganda oldinda ketayotgan avtomobilgacha bo'lgan vaqt/masofa intervalini sozlash ✖;



IACC faollashtirish (intellektual adaptiv kruiz nazorati) ✖.

RES+: Kruiz-nazoratning ilgari belgilangan kreyser tezligini tiklash yoki belgilangan tezlikni oshirish;

SET-: Joriy tezlikni kruiz nazorati kreyser

tezligi (ACC) sifatida o'rnatish yoki belgilangan tezlikni kamaytirish.



: Multimedia ijro rejimlarini almashtirish.



: menyu tugmasi - asboblari panelidagi, avtomobil haqida ma'lumot, sozlamalar va navigatsiya interfeysi va boshqa ma'lumotlarni ketma-ket almashtirish.



: Ovoz balandligini oshirish;



: Qisqa bosish - ovozni pasaytirish; 2 soniya davomida uzoq bosish: ovozni o'chirish.



- Qisqa bosish: qo'ng'iroqqa javob berish/ keyingi radiostansiyani qidirish va ijro etish/ keyingi kompozitsiyani ijro etish.

- Uzoq bosish: keyingi oldindan saqlangan radiostansiyani tanlash/ tez oldinga aylantirish.



- Qisqa bosish: qo'ng'iroqni tugatish/ oldingi radiostansiyani qidirish va ijro etish / oldingi kompozitsiyani ijro etish.

- Uzoq bosish: oldingi saqlangan radiostansiyani tanlash/ orqaga aylantirish.

OK:


- Qisqa bosish: menyu tanlanganligini tasdiqlash;

- Uzoq bosish: oraliq masofa qiymatlarini va uzoq masofa ma'lumotlarini tozalash.



Almashtirish: masofani ketma-ket almashtirish, oraliq masofani bosib o'tish, qisqa muddatli safar haqida ma'lumot, uzoq muddatli safar haqida ma'lumot, shinalar haqida ma'lumot, kreysler tezligi (※) va boshqalar.


Asboblari panelini boshqarish tugmalari



Ko'p funksiyali rul g'ildiragida kombinatsiyalangan asboblari panelini boshqarishning to'rt pozitsiyali tugmalari joylashtirilgan.




: Menyu - Asboblari panelidagi displeyda chap yoki o'ngga bosish orqali menyuni ketma-ket almashtirish tugmasi.




O'zgartirish tugmasi (yuqoriga/ pastga): tanlangan menyudan ma'lumotni ketma-ket almashtirish. Tugma bosilsa, asboblari paneli displeydagi ma'lumotlar

almashadi. Masalan, harakat haqidagi ma'lumotlar interfeysida shinalardagi bosimni aks ettirish, qisqa muddatli, uzoq muddatli, oraliq masofani, umumiy masofani, o'rtacha tezlikni va boshqalarni tanlash mumkin.



: «OK» tugmasi (tasdiqlash): tanlangan ma'lumotlarni tasdiqlash uchun "OK" tugmasini bosing.

ASBOBLAR PANELINING KO'P FUNKSIYALI DISPLAYI



① Spidometr;

② Yorug'lik indikatorlari;

③ Axborot displeyi;

④ Dvigatel taxometri;

⑤ Sovutish suyuqligi harorati ko'rsatkichi;

⑥ Yoqilg'i darajasi ko'rsatkichi.

Spidometr

Avtomobilning tezligini km/soat da ko'rsatadi.

Dvigatel taxometri

Dvigatel tirsakli valining joriy aylanish tezligini ko'rsatadi (ayl/min). Ko'rsatilgan qiymat $\times 1000$ ayl/min ga teng. Dvigatelning maksimal aylanish tezligida uzoq vaqt harakat qilish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yoqilg'i sathi datchigi

Yonilg'i bakidagi yonilg'ining taxminiy qolgan hajmini ko'rsatadi. Agar yonilg'ining past darajasi indikatorni yoqilsa yoki yonilg'ining darajasi juda past bo'lsa, iloji boricha tezroq avtomobilga yonilg'i quying.

Dvigatel sovutish suyuqligi harorat datchigi

Dvigatelning sovutish suyuqligi haroratini ko'rsatadi. Agar sovutish suyuqligining harorati me'yor chegarasida bo'lsa, ko'rsatkich shkalaning o'rtasida turadi. Agar ko'rsatkich qizil diapazonda bo'lsa, bu dvigatel qizib ketganini bildiradi.

Dvigatelni darhol o'chirib, sovigandan keyin qizish sababini aniqlang va CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

**DIQQAT**

Dvigatelni qizishiga sabab bo'lgan nosozlik sabablari bartaraf etilgunga qadar qayta ishga tushirish taqiqlanadi.

Signal lampalari va indikatorlari

Avtomobil quvvati yoqilganda ("ON" holati) quyida keltirilgan ogohlantiruvchi lampalar va indikatorlar qisqa vaqtga yonadi va taxminan 3 soniyadan keyin o'chadi:

- Xavfsizlik yostig'i indikator;
- ABS indikator;
- Moy darajasi pastligi nazorat lampasi;
- Shinalardagi bosim o'zgarishi indikator;
- Tormoz suyuqligining pastligi indikator;
- Moy bosimi nazorat chirog'i;
- EPB (elektromexanik to'xtash tormozi) nosozlik indikator;
- To'qnashuv haqida ogohlantirish indikator ✖;
- ESC (elektron yo'nalish barqarorligi tizimi) indikator;
- Elektron yo'nalish barqarorligi tizimini o'chirish indikator (ESC_OFF);
- EPS (rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi) indikator;
- Dvigatel sovutish suyuqligi harorati indikator;
- Transmissiya nosozligi indikator ✖;
- Dvigatelni ishga tushirish – to'xtatish tizimining holati (START – STOP) indikator ✖
- Dvigatel nosozlik indikator;

- Kruiz nazorati tizimi indikator ✖;
- HDC tizimi indikator ✖.

Agar avtomobilning ta'minoti ("ON" holati) yoqilganda yoki dvigatel ishga tushirilgandan keyin biror-bir ogohlantirish lampasi yoki indikator dvigatel ishga tushirilgandan keyin yonmasa yoki o'chmasa, bu tizimning nosozligini ko'rsatadi. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

**Uzoqni yoritish faralarini yoqish indikator**

Indikator uzoqni yoritish faralari yoqilganligini bildiradi.

**Yaqinni yoritish faralarini yoqish indikator**

Indikator yaqinni yoritish faralari yoqilganligini bildiradi.

**Orqa tumanga qarshi chiroqlar**

Indikator orqa tumanga qarshi chiroqlari yoqilganligini ko'rsatadi.

**Gabarit chiroqlar**

Indikator gabarit chiroqlar yoqilganligini ko'rsatadi.



Burilish signallari ko'rsatkichi indikator

Chap/o'ng burilish ko'rsatkichining ishlash indikator;

Burilish ko'rsatkichining yashil indikator bir tomondan miltillaydi: tegishli burilish signali yonadi;

Har ikki tomondan yashil indikatorlar miltillaydi: avariya signalizatsiyasi chiroqlari yonadi.



Moy bosimi indikator

Avtomobil quvvatini yoqishda ("ON" holati) moy bosimi indikator yonadi va 3 soniyadan keyin o'chadi - moy bosimini o'z-o'zidan diagnostika qilish me'yorda.

Agar moy bosimi indikator dvigatel ishga tushirilgandan keyin yonishda davom etsa yoki avtomobil harakatlanayotganda yonsa, bu moy bosimi pastligini yoki moylash tizimi nosozligini ko'rsatadi. Bunday vaziyat yuzaga kelganda, iloji boricha tezroq avtomobilni xavfsiz joyga to'xtating, dvigatelni o'chiring va dvigateldagi moy darajasini tekshiring.

Agar dvigateldagi moy darajasi me'yorga mos kelsa va dvigateldagi moy bosimining nazorat lampasi yonishda davom etsa, tizimni tekshirish va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Akkumulyator batareyasi zaryad indikator

Agar akkumulyator batareyasi zaryad indikator dvigatel ishlayotgan paytda qizil rangda yonishda davom etsa, bu generator yoki akkumulyator batareyasi zaryadlash tizimining nosozligini ko'rsatadi. Ortiqcha elektr iste'molchilarini o'chirib qo'ying va imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Xavfsizlik yostig'i indikator

Avtomobil ta'minoti ulanganda ("ON" holati) xavfsizlik yostig'i indikator yonadi va 3 s dan keyin o'chadi. Bu SRS tizimini o'z-o'zini diagnostika qilish va nazorat lampasining ishlash qobiliyatini tekshirishni ko'rsatadi.

Agar xavfsizlik yostig'i indikator miltillasa, avtomobil ishlayotganda yonsa yoki o'z-o'zini diagnostika qilish jarayonida yonmasa, bu SRS tizimining nosozligini ko'rsatadi.

Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Mahkamlanmagan xavfsizlik kamari indikator

Avtomobil ta'minoti ulanganda ("ON" holati),

agar haydovchi va/yoki old yo'lovchi o'rindig'idagi yo'lovchi xavfsizlik kamarlari mahkamlanmagan bo'lsa, mahkamlanmagan xavfsizlik kamarining indikator darhol yonadi. Indikator haydovchi va old yo'lovchi xavfsizlik kamarlarini taqib olganidan keyin o'chadi.



Ikkinchi qator o'rindiqlari yo'lovchilari mahkamlanmagan xavfsizlik kamari indikator ✖

Indikator qizil rangda yonadi: ikkinchi qator o'rindig'ida xavfsizlik kamarini taqmagani yo'lovchilar bor.

Indikator kulrang rangda yonadi: ikkinchi qator o'rindig'ida yo'lovchilar yo'q.



Dvigatel nosozlik indikator

Avtomobil ta'minoti yoqilganda ("ON" holati) dvigatelning nosozlik indikator 3 soniyaga yonadi va o'chadi: dvigatelning o'z-o'zini diagnostika qilishi yakunlandi.

Agar dvigatelning nosozlik indikator dvigatel ishga tushirilgandan keyin sariq rangda yonishda davom etsa, bu dvigatelni boshqarish moduli yoki chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimining nosozligini ko'rsatadi. Dvigatelga tushadigan yukni kamaytiring va avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating va dvigatelni imkon qadar tezroq o'chiring. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Past yonilg'i darajasi indikator

Past yonilg'i darajasi indikator doimo sariq rangda yonadi:

bu bakdagi yoqilg'ining past darajasini anglatadi. Avtomobilni yonilg'i bilan to'ldiring.

Inidkator sariq rangda miltillaydi: yoqilg'i sarfi tugadi. Iloji boricha tezroq avtomobilga yoqilg'i quyung.



Dvigatel sovutish suyuqligi harorati ko'rsatkichi

Inidkator qizil rangda yonadi: sovutish suyuqligining yuqori harorati

Agar indikator dvigatel ishga tushirilgandan keyin yoki avtomobil harakatlanayotganda yonsa yoki uzluksiz yonsa, bu dvigatelning sovutish suyuqligining yuqori haroratini ko'rsatadi. Diagnostika va ta'mirlash uchun darhol CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



AUTO HOLD avtomatik ushlab turish tizimi indikator

- Indikator oq rangda yonadi: funksiya faollashtirilgan;
- Indikator yashil rangda yonadi: funksiya ishlamoqda.



Kruiz nazorati indikator (CC) ※

Indikator yoqilgan kruiz-nazorat funksiyasi haqida xabar beradi, bu esa avtomobilning kreyser tezligini o'rnatishga imkon beradi.



Adaptiv kruiz nazorati indikator (ACC) ※

Oq: adaptiv kruiz nazorati tizimi kutish rejimida;

Yashil: adaptiv kruiz nazorati tizimi faol;

Sariq: adaptiv kruiz nazorati tizimi nosoz.



Shinalar bosimi indikator

- Indikator sariq rangda miltillaydi: tizim nosoz. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN vakolatli servis markaziga murojaat qiling.
- Indikator doimiy ravishda sariq rangda yonadi: shinalardagi bosim pastligidan ogohlantiradi.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun harakatni davom ettirishdan oldin shinalardagi bosimni tekshiring va tavsiya etilgan bosimga mos kelishiga ishonch hosil qiling. Tekshirish, diagnostika yoki ta'mirlash uchun eng yaqin vakolatli CHANGAN Automobile servis markaziga murojaat qiling.



Elektromexanik to'xtash tormozining nosozlik indikator (EPB)

Agar indikator doimiy yonsa, bu elektromexanik to'xtash tormozi (EPB) tizimining nosozligini bildiradi. Imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Transmissiya nosozlik indikator ※

Agar avtomobil harakatlanayotganda transmissiya nosozlik indikator yoqilsa yoki uzluksiz yonib/miltillasa, bu uning nosozligini ko'rsatadi. Dvigatelga tushadigan yukni kamaytiring va dvigatelning aylanish tezligini pasaytiring. Barcha xavfsiz to'xtash qoidalariga rioya qilgan holda iloji boricha tezroq avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Elektromexanik to'xtash tormozi indikator (EPB)

- Doim yonib turadi: avtomobil to'xtash tormozi yoqilgan.



DIQQAT

Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda to'xtash tormozidan foydalanish taqiqlanadi. Aks holda, avtomobilning harakati qiyinlashadi va to'xtash tormozi tizimiga zarar yetishi mumkin.



Tormoz tizimi nosozlik indikatori

Agar tormoz tizimining nosozlik indikatori yonsa, bu tormoz suyuqligining past darajasini ko'rsatadi. Quyidagi amallarni bajaring:

- Avtomobilni eng yaqin xavfsiz joyda ehtiyotkorlik bilan to'xtating;
- Dvigatel o'chirilgandan so'ng darhol idishdagi tormoz suyuqligi darajasini tekshiring va kerak bo'lsa, tormoz suyuqligini qo'shing.
- Tormoz tizimining barcha elementlarida tormoz suyuqligi sizib chiqishini tekshiring. Agar oqish mavjud bo'lsa, tormoz tizimining nosozlik indikatori har doim yonadi yoki tormoz tizimi samarali ishlamaydi. Avtomobildan foydalanish taqiqlangan.

ABS tizimi indikatori (ABS)



Индикатор системы АБС Agar tizim indikatori avtomobil harakatlanayotgan paytda yonsa, bu ABS tizimining nosozligini ko'rsatadi. Bu holda tormoz tizimi ABSsiz ishlaydi. Iloji boricha tezroq diagnostika va xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Kurs barqarorligi tizimi indikatori (ESC)



- Indikator sariq rangda miltillaydi: tizim

ishlayapti;

- Indikator doimiy ravishda sariq rangda yonadi: ESC tizimi nosoz.

Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Elektron kurs barqarorligi tizimini o'chirish indikatori (ESC_OFF)



- Indikator doimiy ravishda sariq rangda yonadi: ESC tizimi o'chirilgan.

Ochiq eshik indikatori



- Indikator doimiy ravishda qizil rangda yonadi: eshik ochiq/to'liq yopilmagan.

EPS rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi indikatori



Agar rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) indikatori yonganda, bu rul boshqaruvi tizimi nosozligini bildiradi. Diagnostika va xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Pastga tushishda yordam tizimi indikatori (HDC) ✖

Indikator yashil rangda yonadi: tizim

yoqilgan.



Favqulodda tormozlashda avtomatik yordam tizimi indikatori (AEB) ✖

- Indikator yashil rangda yonadi: AEB tizimi yoqilgan
- Indikator doimiy ravishda sariq rangda yonadi: AEB tizimi nosoz. Imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Harakat yo'lagini tark etish to'g'risida ogohlantirish tizimi indikatori (LDW) ✖

- Indikator oq rangda yonadi: egallagan harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish tizimi kutish rejimida yoqilgan;
- Indikator yashil rangda yonadi: egallagan harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish tizimi faol;
- Indikator sariq rangda yonadi: egallagan harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish tizimi nosoz. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Qayta

joylashtirishda obyekt aniqlash tizimi nosozlik indikatori ✖

Indikator doimiy yonsa - tizim nosoz. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.



Transmissiya suyuqligining yuqori harorati

- **Indikator sariq rangda yonadi:** transmissiyauyuqligining harorati yuqori, tezlikni pasaytiring, avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqaring.

- **Indikator qizil rangda yonadi:** transmissiyauyuqligining harorati juda yuqori, avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating. Transmissiya soviguncha harakatni boshlamang. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Uzoqni yoritish faralarini avtomatik almashtirish ✖



- **Indikator oq rangda yonadi:** uzoqni/yaqinni yoritish faralarini intellektual almashtirish tizimi - kutish rejimida;

- **Indikator yashil rangda yonadi:** uzoqni/yaqinni yoritish faralarini intellektual almashtirish tizimi faol;

- **Indikator sariq rangda yonadi:** uzoqni/yaqinni yoritish faralarini intellektual almashtirish tizimi nosoz;

Ovozli ogohlantirishlar va eslatmalar

Eshik yopiq emas

Avtomobilning elektr quvvati ("ON" holati) yoqilganda yoki dvigatel ishga tushirilganda, agar avtomobil eshiklaridan birortasi yopiq bo'lmasa, ovozli signal eshitaladi.

Avtomobilning elektr quvvati o'chirilmaganligi haqida eslatma

Agar avtomobilning elektr quvvati o'chirilmagan bo'lsa ("OFF" dan boshqa har qanday holatda bo'lsa), masofadan boshqarish pulti qulflash tugmasi yoki eshik tutqichidagi PEPS tugmasi bosilsa, avtomobil qulflanmaydi va 5 marta ogohlantirish ovozli signali eshitaladi.

Mahkamlanmagan xavfsizlik kamari eslatmasi

Agar haydovchi va/yoki old yo'lovchi xavfsizlik kamarini mahkamlamasa, avtomobilning tezligi belgilangan qiymatdan (7 km/soat) oshsa, ovozli signal eshitaladi. Agar haydovchi va/yoki yo'lovchi avvalgidek mahkamlanmagan bo'lsa, 5 daqiqadan so'ng ovozli signal to'xtaydi.

O'chirilmagan chiroq haqida ogohlantirish

Agar elektr quvvati o'chirilgandan ("OFF" holati) va haydovchi eshigi ochilgandan so'ng fara yoki avtomobilning gabarit chiroqlari o'chirilmagan bo'lsa, bir nechta ogohlantiruvchi ovozli signallar eshitaladi.

Avtomobilda kalit mavjudligi haqida ogohlantirish

Agar elektr ta'minoti o'chirilgandan ("OFF" holati) keyin haydovchi eshikni ochib, avtomobilni tark etsa va kalit avtomobil ichida qoldirilsa, tovushli ogohlantirish signali 3 marta eshitaladi.

Ochiq eshik haqida ogohlantirish

Agar avtomobilning elektr quvvati o'chirilgandan so'ng ("OFF" holati) istalgan eshik yoki bagaj bo'limi eshigi yopilmagan bo'lsa, masofadan boshqarish kalitidagi qulflash ("Lock") tugmasi bosilganda 3 marta ovozli signal eshitaladi va eshiklar qulflanmaydi.

"Follow Me Home" (Uyga hamrohlik qilish) funksiyasini yoqish

"Uyga hamrohlik qilish" funksiyasi yoqilganda, tasdiqlovchi ovozli signal eshitaladi.

Masofadan boshqarish pulti quvvat elementi kam quvvat manbai haqida ogohlantirish

Elektr quvvat rejimi "ACC" holatiga o'tganda yoki o'chirilganda "OFF", kalitdagi blokdan chiqarish ("Unlock") tugmasini bosib va haydovchi eshigini oching. Masofadan boshqarish funksiyasiga ega kalitning quvvat elementi zaryadining past darajasida 9 marta ovozli signal eshutiladi.

Kalit aniqlanmaganda

Agar elektr quvvati "ON/ACC" holatiga o'tkazilganda avtomobilda kalit bo'lmasa yoki aniqlanmasa, ogohlantiruvchi ovozli signal 3 marta eshutiladi.

AUO'Q selektorini "P" holatiga o'tkazish haqida ogohlantirish ✖

Agar dvigatelni ishga tushirishda uzatmalar selektori "P" holatida bo'lmasa, ovozli signal eshutiladi.

Ochiq lyuk haqida ogohlantirish

Agar elektr quvvat o'chirilgandan so'ng ("OFF" holatida) tom lyuki yopilmasa, uzoq davom etadigan ovozli signal eshutiladi.

Qo'riqlash tizimini faollashtirish to'g'risida ogohlantirish

Elektr quvvati qayta ulanganda ("ACC/OFF" holati) va himoya tizimi 4 marta faollashganda ogohlantiruvchi ovozli signal eshutiladi.

Past yoqilg'i darajasi haqida ogohlantirish

Yonilg'i sathi minimal darajaga yetganda

va past yonilg'i sathi indikator yonganda ovozli signal eshutiladi.

O'rindiqli xotirasi sozlamalarini ovozli tasdiqlash ✖

O'rindiqli o'rnatish parametrlari muvaffaqiyatli saqlansa, bir marta ovozli tasdiqlash signal eshutiladi.

To'xtash datchiklari nosozligi haqida ogohlantirish

Agar avtomobilning elektr quvvati ("ON" holati) yoqilganda tizim to'xtash datchiklari nosozligini aniqlasa, 3 marta ovozli ogohlantirish signali eshutiladi.

Radar yordamida to'siqlarni aniqlash haqida ogohlantirish

Avtomobil elektr quvvati ("ON" holati) yoqilganda, to'xtash datchiklari tomonidan obyektlar va/yoki to'siqlar aniqlanganda, ogohlantiruvchi signal avtomobil va to'siq orasidagi masofaga qarab turli chastotalarda eshutiladi.

Avtomatik to'xtash tizimi ovozli ogohlantirishi ✖

Avtomobilning elektr quvvati yoqilganda ("ON" holati), to'xtash uchun mos joyni aniqlash, to'siqlarni aniqlash yoki muvaffaqiyatli to'xtash turli xil tovush signallari bilan kuzatiladi.

Axborot displeyi

Ogohlantirish ma'lumotlari

Agar axborot displeyida quyida ko'rsatilgan bildirishnomalar aks etsa, nosozliklarni bartaraf etish uchun tegishli amallarni bajaring.


- Past manfiy haroratlarda displey ekranidagi ma'lumotlar sekinlik bilan aks etishi mumkin. Oq ekran effekti va boshqa o'zgarishlar suyuq kristalli displeyning normal ishlashi hisoblanadi. Xona harorati musbat bo'lganda axborot displeyining ishlashi tiklanadi.
- Atrof-muhitning yuqori haroratida (masalan, quyosh nuri ta'sirida) axborot displeyi ekranining yorqinligi pasayishi mumkin, bu suyuq kristalli displeyning normal ishidir. Harorat pasayganda, displey yorqinligi tiklanadi.

Xabar	Amal	Xabar	Amal
Low Battery of Key - Kalit quvvat elementining past zaryad darajasi.	Kalitning quvvat elementini almashtiring.	Key in Vehicle - Kalit avtomobilda.	Avtomobilni qulflashdan oldin kalitni oling.
Please depress the brake pedal when starting Dvigatelni ishga tushirish uchun tormoz pedalini bosong.	Dvigatelni ishga tushirish uchun tormoz pedalini bosong.	Too long startup time Ishga tushirish vaqti tugadi	Agar avtomobil uzoq vaqt davomida ishga tushmasa, "Dvigatelni muvaffaqiyatsiz ishga tushirish" bo'limiga murojaat qiling. Agar nosozliklar bartaraf etilgandan keyin dvigatel ishga tushmasa, diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Eslatma: " (Start time is too long) Uzoq vaqt davomida ishga tushirish vaqti" xabaridan keyin avtomobil tizimi dvigatelni qayta ishga tushirishga ruxsat berishidan oldin 15 daqiqa kuting.
Xabar	Amal	Xabar	Amal
Insufficient oil pressure (Past moy bosimi).	Avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtatib va dvigateldagi moy darajasini tekshiring. Sathini nazorat qilib, moyni to'ldiring. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.	Immobilizer Authentication Failed Immobilayzer haqiqiyiligini tekshirish xatoligi	1. Kalitning ushbu avtomobilga mosligini tekshiring; 2. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Tire pressure monitoring system fault Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi nosozligi.	Avtomobilni xavfsiz joyda sekin to'xtating va shinalar bosimini nazorat qilish tizimi ma'lumotlariga ko'ra shinalarni tekshiring.	The coolant temperature is too high (Sovutish suyuqligi yuqori harorati).	Avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtating va sovutish suyuqligi darajasini tekshiring. Zarur bo'lsa, sovutish suyuqligini to'ldiring. Agar suv sathi me'yorda bo'lsa, sovutish suyuqligining harorati yuqori bo'lsa, xabar o'chirilmaydi. CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Diqqat: sovimagan avtomobil dvigatelining sovutish tizimi qopqog'ini ochmang. Bu kuyishga olib kelishi mumkin.
Xabar	Amal	Xabar	Amal
Fault in Lane departure System Yo'l belgisini tasodifan kesib o'tilishi haqida xabar berish tizimi nosozligi	Avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtating va tizimni tekshiring. Yo'l belgisini tasodifiy kesib o'tish (LDW) ogohlantirish tizimi yo'riqnomasiga qarang	Tire pressure warning – Shinalardagi past bosim haqida ogohlantirish.	Avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtating va shinalardagi bosimni tekshiring va uning tavsiya etilgan darajaga mos kelishiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lsa, shinalardagi bosimni tekshirish va sozlash uchun eng yaqin texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Tekshirish va tavsiya etilgan bosim qiymatini o'rnatgandan so'ng, harakatni davom ettiring.
Fault in Lane Assistance System Lane - Harakat yo'lagini kuzatish tizimining nosozligi	Avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtating va tizimni tekshiring. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.		

Suyuq kristalli axborot displeyi

Safar ma'lumotlari



Har bir safar davomida bosib o'tgan masofa haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. 0,0 km dan 9999,9 km gacha oraliqda bitta safar davomida bosib o'tilgan masofani aks ettiradi. Agar qiymat 9999,9 km dan oshsa, odometr ko'rsatkichlari avtomatik ravishda nolga teng bo'ladi. Ma'lumotlarni ko'rsatmalarga muvofiq bekor qiling.

Ma'lumotlarni bekor qilish uchun tegishli ko'rsatmalarga amal qiling.

Umumiy masofa (ODO)


ODO 1500 km Umumiy masofani ko'rsatadi. Diapazon: 0 - 999999 km. Umumiy masofa 999999 km ga yetganda ko'rsatkichlar qayd etiladi va keyinchalik o'zgar olmaydi.

Yoqilg'i quyishgacha bo'lgan masofa

DTE 540 km

Axborot displeyi avtomobilning qolgan yonilg'ida bosib o'tishi mumkin bo'lgan taxminiy masofani ko'rsatadi. Agar ko'rsatkich yonilg'ining past darajasini ko'rsatsa va ogohlantiruvchi lampa yonsa, iloji boricha tezroq avtomobilga yonilg'i quyung.


Joriy safar haqida ma'lumot (bort kompyuteri)



Avtomobilning o'rtacha yonilg'i sarfi, bosib o'tgan masofasi va safar vaqti, oxirgi yonilg'i quyilgandan keyingi safar davomiyligini ko'rsatadi. Dvigatel neytral ishlaganda yonilg'i sarfining qiymati real vaqtda, avtomobil harakatlanganda esa yonilg'i sarfining o'rtacha qiymati bilan ifodalanadi.

Dvigatel bir muncha vaqt o'chirilgandan so'ng, qisqa muddatli safar haqidagi ma'lumotlar o'chirib tashlanadi.

Uzoq muddatli safar haqida ma'lumot (bort kompyuteri)



Yoqilg'ining o'rtacha sarfi, bosib o'tilgan yo'l va uzoq muddatli harakat davomida jamlangan vaqt, yonilg'i quyish haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Dvigatel neytral holatda ishlaganda yonilg'i sarfining qiymati real vaqt rejimida, avtomobil harakatlanganda esa yonilg'i sarfining o'rtacha qiymati bilan aks ettiriladi.

Ma'lumotlarni bekor qilish uchun tegishli ko'rsatmalarga amal qiling.

Avtomobilning o'rtacha tezligi



Oxirgi ma'lumotlar bekor qilingan vaqtdan boshlab ma'lum vaqt oralig'ida 0,0 dan 999,9 km gacha bo'lgan oraliqda avtomobilning o'rtacha harakat tezligini aks ettiradi. "OK" tugmasini qisqa bosish ko'rsatmalarni tavsiyalarga muvofiq tozalashga olib keladi.

Harakatlanish yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish ✖



Harakat yo'lagini belgilash chiziqlari aniqlanganligi to'g'risidagi axborotni aks ettiradi va avtomobil yo'l chiziqlarini kesib o'tganligi to'g'risida ogohlantiradi (yo'l chiziqlarini aniqlash funksiyasi bilan jihozlangan avtomobillar uchun).


Kruiz nazorati tizimining ishlashi haqida ma'lumot ✖



Quyidagi ma'lumotlarni aks ettiradi:

- Oldinda ketayotgan avtomobilgacha bo'lgan masofa (vaqt oralig'i);
- Kruiz tezligi;
- Kruiz nazorati tizimining tegishli eslatmalari va avariya ogohlantirishlari (kruiz nazorati tizimi bilan jihozlangan avtomobillar uchun).

To'xtash radarlari orqali to'siqni aniqlash haqida ogohlantirishlar



To'siq aniqlanganda avtomobildan to'siqgacha bo'lgan masofa ovozli ogohlantirish signali ishga tushgunga qadar ko'rsatiladi.

Shinalar bosimi haqida ma'lumot



Shinalar bosimi qiymatini ko'rsatadi va shinalar bosimi pastligi haqida ogohlantiradi.

YORITISHNI BOSHQARISH

Yoritishni boshqarish dastagi



AUTO **AVTO rejimi** ✕: Avtomatik rejimga (AUTO) o'tganda - atrof-muhitning yoritilganligiga qarab faralar avtomatik ravishda yonadi va o'chiriladi.

OFF **O'chirilgan:** ruldagi kalitning "OFF" holatida va avtomobilning elektr quvvati "OFF/ACC" holatida - avtomobilning barcha yoritish chiroqlari o'chiriladi. Avtomobil elektr quvvatiga ulanganida ("ON" holati) yoki dvigatel ishga tushirilganda barcha yoritgichlar o'chiriladi, kunduzgi gabarit chiroqlar bundan mustasno.

: gabarit chiroqlar, davlat raqamini yoritish;



faralar, gabarit chiroqlar, davlat raqami yoritgichi.


ESLATMA

Atrof-muhit yorug'ligi datchigi old panelga, old oyna reflektorlari markaziga o'rnatilgan. Datchikning ishlashiga to'sqinlik qilmaslik uchun bu sohaga biror buyumni joylashtirmang.

Kunduzgi yoritish chirog'i

Dvigatel ishlayotganida va yorug'likni boshqarish dastagi "OFF/AUTO" (faralar avtomatik rejimi o'chirilgan) holatida kunduzgi yoritish chiroqlari yoqiladi.

Yaqinni yoritish faralari darajasini sozlash



Avtomobilning holati o'zgarganda, yuklanish, tezlanish, tormozlanish va boshqa

holatlarda, yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari ko'zini qamashtirmaslik uchun, daraja sozlagichi yordamida yaqinni yoritish chiroqlarining yoritish darajasini sozlash mumkin. Sozlagichni yuqoriga aylantiring va faralarning yaqinni yoritish darajasi maksimal darajaga ko'tariladi ($\rightarrow 0$, maksimal yoritish masofasi); pastga aylantiring va faralarning yoritish burchagi pasayadi ($\rightarrow 4$, minimal yoritish masofasi).

Bosh faralarni avtomatik sozlash ✕


Tizim avtomobil kuzovi turli holatida faralarning yaqinni yoritish darajasini sozlashi va boshqa yo'l harakati qatnashchilarining faralar yorug'ligi bilan ko'z qamashishini avtomatik ravishda kamaytirishi mumkin.

Asboblari paneli ko'p funksiyali

displeydagi indikator  doimiy yonsa, bu tizimning nosozligini ko'rsatadi. Diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Podveska elementlarini ta'mirlash yoki almashtirgandan so'ng, faralarni avtomatik sozlash tizimini tekshirish va kalibrlash uchun CHANGAN Automobile rasmiy dileriga murojaat qiling.

Burilish almashtirish dastagi



Avtomobilning elektr quvvati yoqilganda ("ON" holatida) burilish ko'rsatkichining boshqaruv kalitini yuqoriga/pastga o'tkazing va o'ng/chapga burilish signali miltillay boshlaydi. Agar burilishni boshqarish kalitini yuqoriga/pastga almashtirib, so'ngra darhol neytral holatga qaytarilsa, burilishni ko'rsatish ko'rsatkichining tegishli signali 3 marta miltillaydi.

Agar burish ko'rsatkichi yoqilganda signal lampasi odatdagidan ikki marta tez miltillasa, bu burish ko'rsatkichi lampasining nosozligini ko'rsatadi.

ko'rsatkichlarini

Uzoq/yaqinni dastagi



Ruldagi yoritish almashtirgichini  ushbu holatga buring va yaqinni yoritish faralari yonadi. Uzoqni yoritish faralarini yoqish uchun rul ostidagi kalitini "o'zingizdan" yo'nalishida bosib.

Uzoqni yoritish faralari miltillashi uchun, masalan, quvib o'tish vaqtida ruldagi kalitni o'zingizga torting. Tutqich qo'yib yuborilgach, dastlabki holatga qaytadi.

yoritish

faralari

Tumanga qarshi faralar dastagi



Yoritishni boshqarish rul osti dastagini  yoki  holatga o'zgartiring va tumanga qarshi faralar kalitini  soat miliga teskari buring. Tumanga qarshi orqa fara yoqiladi, tumanga qarshi faralar kalitini avtomatik ravishda dastlabki holatiga qaytariladi. Agar dastak **"AUTO"** holatida bo'lsa, tumanga qarshi orqa faralarni yaqinni yoritish faralari yoqilgandan keyin yoqish mumkin.

"Follow Me Home" (Uygacha hamrohlik qilish) avtomobil faralarini kechiktirilgan o'chirish funksiyasi ✖

Farani kechiktirib o'chirish funksiyasi avtomobil to'xtaganidan va dvigatel

o'chirilganidan keyin bir muncha vaqt o'tgach, faralarni o'chiradi, yo'lovchilar uyga qaytishda avtomobil oldidagi yo'l va atrof-muhitni yoritadi.

1. Avtomobil elektr quvvati o'chirilganda ("OFF" holati): 2 s davomida rul dastagi yordamida yoritishni o'chirilgan holatdan



→ AUTO → OFF o'zgartiring, yaqinni yoritish faralari yoqiladi;

2. Qorong'i vaqtda yoki yaxshi yoritilmagan avtoturargohda yog'ingarchilik yoki yoritish datchigi bilan jihozlangan avtomobillar uchun masofadan boshqarish pultidagi bloklash tugmasi bosilsa, yaqinni yoritish faralar yoqiladi. Farlarni o'chirish intervalini multimedia displeyida o'rnatish mumkin. Standart ravishda interval 60 soniya etib belgilangan.

Bosh chiroqlarini avtomatik boshqarish tizimi (FAB) ✕

Oldinda ketayotgan avtomobilning orqa chiroqlari, qarama-qarshi avtomobillarning chiroqlari yorug'ligi yoki yorqin yorug'lik aniqlanganda, bosh chiroqni avtomatik boshqarish tizimi uzoqni yoritish faralarini avtomatik ravishda almashtiradi. Tashqi yoritish past bo'lganda va oldinda avtomobil bo'lmaganda, uzoqni yoritish faralari avtomatik ravishda yoqiladi.

OGOHLANTIRISH

Bosh chiroqni avtomatik boshqarish tizimi (FAB) yordamchi funksiya bo'lib, barcha yo'l sharoitlarida ishlashini ta'minlay olmaydi. Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javobgardir. Barcha xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qiling. FAB tizimi uzoqni yoritish faralarini avtomatik ravishda almashtirishga yordam beradi, ammo quyidagi harakat sharoitlarida yoki yo'l qismlarida funksiya uzoqni yoritish faralarini avtomatik ravishda almashtirmaydi va qo'lda almashtirishni talab qiladi:

- Murakkab ob-havo sharoitida harakatlanish (kuchli yomg'ir, tuman, qor yoki loy);
- yo'lda yoki yo'l yaqinida piyodalar yoki velosipedlar bo'lsa;
- Keskin burilishlarda.

Agar qarama-qarshi kelayotgan transport vositalarining chiroqlari to'sib qo'yilgan bo'lsa (masalan, plyonka yopishtirilgan bo'lsa), tizim uzoqni yoritish faralarini o'chirmaydi.

Bosh chiroqni avtomatik boshqarish funksiyasini yoqish/o'chirish uchun multimedia display interfeysi orqali "In Call" [Vehicle center (Avtomobil)] - [Lighting (Yoritish)] ni tanlang. Bosh chiroqni avtomatik boshqarish tizimi yoqilgandan so'ng, asboblarda oq rangli

belgi  paydo bo'ladi. Yoritish dastagini "AUTO" holatiga o'zgartiring va tizim kutish rejimiga o'tadi.




Agar bosh chiroqni avtomatik boshqarish tizimi kutish rejimida bo'lsa, past yoritilganlik sharoitida va avtomobilning harakat tezligi soatiga 30 km dan yuqori bo'lganda funksiya avtomatik ravishda faollashadi. Uskunalar panelining yuqori qismidagi belgi  yashil rangga o'zgaradi.

Agar yoritish dastagi "AUTO"dan boshqa istalgan holatda o'rnatilgan bo'lsa, bosh chiroqni avtomatik boshqarish tizimi kutish rejimiga o'tadi va uzoqni yoritish faralarini avtomatik ravishda almashtirmaydi.

Bosh chiroqni avtomatik boshqarish funksiyasi faollashtirilgandan so'ng haydovchi uzoq va yaqin yoritish faralari rejimini mustaqil ravishda o'zgartirishi mumkin.

Yoritish plafoni

Sozlash




Ko'p funktsiyali multimediali displeyda avtomobil salonidagi atmosfera yoritgichini sozlash uchun [Vehicle Center (Avtomobil)] - [Light (Yoritish)] - [General (Asosiy)] bandini tanlang.

Old yoritish plafoni ✖



- ① Mikrofon;
- ② Individual yoritish lampasi tugmasi;
- ③ USB ulagich (videoregistratorni quvvatlash uchun foydalaniladi);
- ④ Lyukni ochish/yopish tugmasi (shamollatish rejimi) va lyuk quyosh pardasini ochish/yopish;
- ⑤ Ultrabinafsha bakteritsid lampa ✖.

Salon orqa qismini yoritish ✖



Salonning orqa qismidagi individual yoritishni yoqish uchun tegishli ① (chap) yoki ② (o'ng) kalitni bosib. Takroriy bosib individual yoritishni o'chiradi.

③ Ultrabinafsha bakteritsid lampa ✖

Atmosfera yoritgichi

Eshik ochilgandan keyin atmosfera yorug'ligi yoqiladi va keyin o'chadi. Avtomobil odatiy rejimda harakatlanayotganda, atmosfera yorug'ligi animatsiyasi yoqiladi va tanlangan harakat rejimi va foydalanuvchi sozlamalariga qarab rang va yorqinlik avtomatik ravishda almashtiriladi.

Ultrabinafsha bakteritsid lampa ✖

Ultrabinafsha bakteritsid lampa avtomobil salonidagi havo va/yoki yuzalarni zararsizlantirish va dezinfektsiyalash zarur bo'lganda ultrabinafsha nurlanishning ma'lum bir davomiyligini ta'minlaydi va mikroorganizmlarning asosiy qismini zararsizlantiradi.

① Dezinfektsiyani yoqish:

- Ultrabinafsha bakteritsid lampa faollashtirilgan;
- Avtomobil qo'riqlash rejimida bo'lsa;
- Tarmoq mavjud;
- Akkumulyator batareyasining quvvat darajasi 50% dan yuqori;
- Foydalanuvchi "in Call" tizimiga masofadan kirish ilovasida muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan;
- Ultrabinafsha dezinfektsiya bo'limida sterilizatsiya funksiyasini ishga tushirish uchun boshlanish vaqtini tanlang va "Confirm on" (Yoqishni tasdiqlash) tugmasini bosib.

② Dezinfektsiyani o'chirish:

- Dezinfektsiya rejimi yakunlangan;
- Dezinfektsiya rejimi faollashtirilgandan so'ng, foydalanuvchi "in Call" tizimiga masofadan kirish ilovasi yordamida dezinfektsiyani masofadan turib bekor qilishi mumkin.
- Dezinfektsiya rejimi paytida foydalanuvchi avtomobilni qo'riqlashdan olib, qulflarni va eshikni ochsa, dezinfektsiya rejimi darhol o'chiriladi.
- Dezinfektsiya rejimi faollashtirilgandan so'ng foydalanuvchi "Ishga tushirish" tugmasini qayta bossa, "Can not be turned on repeatedly (Qayta faollashtirish imkonsiz) " matnli xabari paydo bo'ladi.

OGOHLANTIRISH

Ultrabinafsha nurlar inson organizmiga

ma'lum darajada zarar yetkazadi. Ultrabinafsha chiroq yoqilgan va dezinfeksiya rejimi faollashtirilganidan keyin bolalar, hayvonlar yoki boshqa tirik mavjudotlarni avtomobilda qoldirmang.

Normal ishlashini ta'minlash uchun kuniga uch martadan ko'p bo'lmagan holatda dezinfeksiya rejimini faollashtirish tavsiya etiladi.

Agar avtomobil ochiq havoda to'xtab turgan bo'lsa va atrof-muhit harorati 30 °C dan oshsa, dezinfeksiya rejimini faollashtirishga hojat yo'q.


OYNATOZALAGICH OYNAYUVGICH

VA

Oynatozalagich rul osti dastagi

Boshqaruv dastagi old oynasini tozalagich tuqichi, bagaj bo'limi eshigi oyna tozalagichi ✂, oyna yuvgich tuqichi va old oyna tozalagich ish tezligi sozlagichdan iborat.

Old oyna tozalagichni boshqarish



OFF: Old oyna tozalagichlar o'chirilgan;

MIST (tuman): kalitni yuqoriga biroz suring va uning erkin qaytishiga imkon bering. Oyna tozalagich bir marta ishlaydi.

AUTO ✂: Old oyna tozalagich avtomatik rejimda ishlaydi. Uning ishlash tezligi yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishiga qarab avtomatik ravishda o'zgaradi;

INT ✂: old oyna tozalagichlar tanaffusli rejimda ishlaydi;

LO: Old oyna tozalagichlar barqaror past tezlikda ishlaydi;

HI: Old oyna tozalagichlar barqaror yuqori tezlikda ishlaydi.

Oyna tozalagich ishlash intervalini sozlash ✂

Dastak regulyatorini kengroq diapazonga burganda, oyna tozalagich ishlash intervalini sekinroqdan tezroqgacha ravon o'zgartirish mumkin.

Yog'ingarchilik datchigiga ega oyna tozalagich ✂

Oyna tozalagichning ishlash tezligi yog'ingarchilik miqdoriga qarab avtomatik ravishda o'zgaradi. Sozlagichni keng diapazon tomonga aylantirganda, yog'inlarni aniqlash sezgirligi pasayadi va oyna tozalagichning ishlash tezligi sekinlashadi.

ESLATMA


Yomg'ir datchigi old oyna yuqori qismida joylashgan. Uni to'sib qo'ymang.

Agar yorug'lik datchigi yuzasi ifloslangan bo'lsa, bu oyna tozalagichning uzluksiz noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

Agar datchik uzoq vaqt ifloslangan bo'lsa, yog'ingarchilik va yorug'likni avtomatik aniqlash tizimi datchiklarining sezgirligi kamayadi. Tuz qoldiqlari, hasharotlar va suv dog'lari datchik yuzasini ifloslantirishi mumkin. Shikastlanishdan keyin old oynani

almashtirishda datchikni ham almashtirish kerak.

Orqa oynatozalagich ✖



OFF: oyna tozalagichlar o'chirilgan;

ON: oyna tozalagichlar tanaffusli rejimda ishlaydi.

Oynayuvgich

Old oynayuvgich



Oyna yuvgichni yoqish uchun oyna tozalagichning ruldagi kalitini haydovchi tomonga buring va oyna tozalagich ishlay boshlaydi. Oyna tozalagichning ishlashi tugagandan so'ng, oyna tozalagichlar qisqa vaqt davomida harakatda davom etadi.

Orqa oynayuvgich ✖



Bagaj bo'limi eshigi oyna yuvgichini yoqish uchun oyna tozalagich boshqaruv kalitini biroz "o'zingizdan" yo'nalishida bosib va orqa oyna yuvgich ishga tushadi.

Tyqtich dastlabki holatga qaytarilgandan so'ng, bagaj bo'limi eshigi oynasini yuvish vositasi o'chiriladi. Uning ishlashi tugagandan so'ng, oyna tozalagich qisqa vaqt davomida harakatlanishda davom etadi.

Agar yuvgich ishlamayotgan bo'lsa yoki uning forsunkasi suyuqlik sepmayotgan bo'lsa, yuvish suyuqligining sathini tekshiring va kerak bo'lsa, uni to'ldiring.

OGOHLANTIRISH

Yuvish suyuqligi kam bo'lganda yuvuvchi vositadan foydalanmang, chunki bu oyna yuvish moslamasining motorini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Oyna tozalagichni quruq yoki muzlamagan/muzlagan oynada ishga tushirmang, chunki oyna tiralishi, oyna tozalagich cho'tkalariga zarar yetishi yoki oyna tozalagichning elektr motori kuyishi mumkin. Atrof-muhitning manfiy haroratida muzlamaydigan oyna yuvish suyuqligidan foydalaning.

Oyna tozalagichni ishga tushirishdan oldin uning oynaga yopishib qolmaganiga va oyna butunlay muzdan tozalanganligiga ishonch hosil qiling.

Yuvgichdan foydalanishdan oldin oynaning yaxshi eriganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, yuvuvchi suyuqlik oyna yuzasida muzlashi mumkin, bu esa ko'rish va xavfsizlikka ta'sir qilishi mumkin.

IQLIM NAZORATI TIZIMI ✕

Umumiy tavsif

Tashqi ventilyatsiya (toza havo)

Konditsioner tizimining normal ishlashi uchun old oyna oldidagi havo quvurlari va konditsioner tizimining deflektorlari qor va barglar kabi begona jismlardan xoli ekaniga ishonch hosil qiling.

Havoning salon ichida aylanishi

Salon ichida uzoq vaqt davomida havo aylanishi derazalarning muzlashiga olib kelishi mumkin. Havoni quritish yoki oynalarni terlashga qarshi funksiya faollashtirilganda salon ichida havo aylanishi rejimini yoqman.

Salondagi havo aylanish rejimi yoqilgandan so'ng, salonda chekmang, chunki sigaret tutuni va qatronlar bug'latgichda to'planib, doimiy hid manbayiga aylanadi.

OGOHLANTIRISH

Havo aylanishi rejimida iqlim nazorati tizimining uzluksiz uzoq vaqt ishlashi avtomobil salonida namlikning oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa oynalarning terlashiga va ko'rishni pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Konditsioner yoki isitish tizimi yoqilgan avtomobilda uxlamang. Bu kislorod darajasi va/yoki tana haroratining pasayishi tufayli bo'g'ilish yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Uzoq vaqt davomida salon ichidagi havoning aylanishi havoning ifloslanishiga va

avtomobil ichida kislorodning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida uyqusirash va avtomobil nazorati yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Zarur bo'lsa, avtomobil oynalarini shamollatish uchun oching.

Avtomobil ichida har doim toza havo bo'lishiga ishonch hosil qilish va derazalarning terlashini minimallashtirish uchun konditsioner o'chirilgan holda harakatlanayotganda tashqi havo aylanishi rejimidan iloji boricha ko'proq foydalaning.

Isitish

Isitish tizimi dvigatel ish haroratiga erishgandan keyingina salonn maksimal isitish rejimiga o'tishi mumkin. Iqlim nazorati tizimi haroratini 25 °C yoki undan yuqori darajada o'rnatish va ushlab turish tavsiya etiladi. Oynalar terlaganda havo oqimini oyoq va old oynaga yo'naltirish tavsiya etiladi.

Iqlim nazorati tizimining havo oqimi oyoqlarga puflash rejimiga sozlanganida, havo oqimining bir qismi old oynaga uzatiladi. Old oyna terlagan va terlashni bartaraf etish rejimi tanlangan taqdirda, havo oqimining bir qismi old oynaga yo'naltiriladi (oyoqlarga puflash va muzni eritish yoki terlashni bartaraf etish rejimiga sozlangan).

Sovutish


Konditsioner tizimidan foydalanish yoqilg'i sarfini oshirishga ta'sir qiladi.

Havo bug'latkichdan o'tgan sari soviydi. Derazalar terlamasligi uchun havodagi namlik

yutiladi. Natijada hosil bo'lgan kondensat drenaj tizimi orqali tashqariga chiqariladi. Buning natijasida avtomobil tagida kichikroq suv dog'i hosil bo'lishi mumkin.

Oldindan havo oqimini yuzga yo'naltirish, keyin esa ichki havo aylanishi rejimini faollashtirish tavsiya etiladi.

Avtomatik konditsionerni boshqarish tizimi



A. Havo oqimi intensivligini sozlash



Tugma pastga bosilsa, havo oqimi intensivligi joriy qiymatdan ventilyatorni o'chirish va konditsioner tizimini to'liq o'chirishgacha pasayadi. Tugmalarni uzluksiz yoki ketma-ket yuqoriga bosish - havo oqimi intensivligini joriy qiymatdan maksimal darajagacha oshiradi (maksimal daraja 8). Havo oqimining joriy qiymati displeyda aks ettiriladi.

Tugmani 1 soniyadan ortiq pastga bosib turing, havo oqimi ventilyatori o'chadi; havo oqimini asta-sekin oshirish uchun tugmani yuqoriga bosib turing.

B. Konditsionerni yoqish tugmasi

Havoni sovutish tizimi faqat dvigatel ishlayotganida va shamollatish ventilyatori yoqilganda ishlaydi. Konditsionerni yoqish/o'chirish uchun tugmani bosib.

C. Avtomatik konditsioner rejimi



Avtomatik konditsioner rejimi tugmasini bosib. Oldindan belgilangan havo haroratiga yetganda, havo oqimining intensivligi va rejimini tanlash avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Avtomatik rejim yoqilganda, quyidagi tugmalardan birini bosib: Konditsionerni yoqish tugmasi, havo oqimi intensivligini sozlash tugmasi, havo oqimi va havo aylanishini o'zgartirish; tizim avtomatik rejimdan chiqadi.

D. Havoni qayta aylantirish



Ichki va tashqi havo aylanishi o'rtasida almashish uchun tugmani bosib. Ichki aylanishni tanlaganingizda, tugmadagi indikator yonadi va havo salon ichida aylanadi.

OGOHLANTIRISH

Uzoq vaqt davomida salon ichidagi havoning aylanishi havoning ifloslanishiga va avtomobil ichida kislorodning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida uyqusirash va avtomobil nazorati yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Zarur bo'lsa, avtomobil oynalarini shamollatish uchun oching.

OGOHLANTIRISH

Avtomobil ichida har doim toza havo bo'lishiga ishonch hosil qilish va derazalarning terlashini minimallashtirish uchun konditsioner o'chirilganda tashqi havo aylanishi rejimidan iloji boricha ko'proq foydalaning.

Tashqi havo aylanishi rejimi yoqilganda, agar harorat tugmasi qizil holatda o'rnatilgan bo'lsa, isigan havo kiritiladi; agar tugma ko'k holatda o'rnatilgan bo'lsa, kiruvchi havo atrof-muhit haroratiga mos bo'ladi. Agar harorat sovuq bo'lmasa, tashqi havo aylanish rejimini yoqish va oyoq sohasiga issiq havo uzatish tavsiya etiladi.

Tashqi havo aylanishi rejimi yoqilganda tashqi hidlar avtomobilga bemalol kirib boradi. Avtomobil havo sifati yomon va chang ko'p bo'lgan hududda bo'lsa, salon ichida havo aylanish rejimiga o'tish tavsiya etiladi.

E. Havo oqimi yo'nalishi rejimlari

Tugma bosilganda 4 ta havo uzatish rejimlaridan biri tanlanadi, ya'ni:

1. Yuz: Havo oqimi markaziy va yon havo

quvurlaridan yo'naltiriladi;

2. Yuz va oyoqlar: Havo oqimi markaziy va yon havo quvurlaridan, oyoq sohasidagi havo quvurlaridan yo'naltiriladi;

3. Oyoqlar: Havo oqimi asosan havo quvurlaridan oyoq sohasiga yo'naltiriladi;

4. Oyoqlar va old oyna: Havo oqimi old oynaga puflash havo quvurlari, yon havo quvurlari va oyoq sohasidagi havo quvurlaridan yo'naltiriladi.

F. Old oynaga havo yo'naltirish va muzini eritish

Tugmani bosib va old oynani isitish indikator yoqiladi. Old oynani eritish va terlashni bartaraf etish funksiyasi faollashadi. Havo oqimi standart ravishda 5 darajaga o'rnatiladi va tashqi havo aylanish rejimi faollashtiriladi. Harorat va havo oqimining tezligini oshirish orqali muzni eritish samaradorligini oshirish mumkin.

G. Orqa oynani isitish



Tugmani bosib, orqa oyna va tashqi orqa ko'rish oynalarini isitish funksiyasini faollashtirishni tasdiqlovchi indikator yoqiladi. Muz eriganidan yoki terlash bartaraf etilganidan so'ng yoki belgilangan vaqt o'tgach (taxminan 14 daqiqa) isitish funksiyasi avtomatik ravishda o'chiriladi. Qo'lda o'chirish uchun tugmani qayta bosib.




H. Havo haroratini sozlash

Shamollatish teshiklari orqali salonga kirayotgan havo haroratini sozlash tugmasi. Belgilangan haroratni pasaytirish uchun tugmani pastga (ko'k segment), belgilangan haroratni oshirish uchun tugmani yuqoriga (qizil segment) bosing. O'rnatilgan harorat qiymati displeyda ko'rsatiladi. Tugmani ma'lum bir yo'nalishda ketma-ket bosish yoki ushlab turish belgilangan haroratni asta-sekin pasaytiradi yoki oshiradi.


Havo oqimlarini taqsimlash

Havo o'tkazgichlari joylashuvi



A	Shamollatish va muzdan tozalashning yon deflektorlari;
B	Markaziy havo o'tkazgich;
C	Old oynani puflash va muzdan eritish deflektorlari;
D	Yon puflash deflektori;
E	Oyoq bo'shlig'ini shamollatish uchun old deflektorlar;
F	Oyoq bo'shlig'ini shamollatish uchun orqa deflektorlar
G	Ikkinchi qator yo'lovchilar markaziy havo o'tkazgichlari ※

Markaziy havo o'tkazgichlarni sozlash



① havo yo'nalishini o'zgartirish uchun havo o'tkazgich qopqoqlarini yuqoriga/pastga yoki chapga/o'ngga sozlang;

② havo o'tkazgichni ochish/yopish uchun qopqoqni chapga/o'ngga suring.

Iqlim nazorati tizimidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar

Konditsioner tizimi ishlayotganda hosil bo'ladigan yoqimsiz hidlarni kamaytirish uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. Dvigatelni ishga tushiring;
2. Konditsioner tizimini o'chirish uchun

sovutish tugmasini bosib;

3. Ventilyatorni maksimal havo oqimi darajasiga qo'yib;
4. Haroratni eng yuqori darajaga qo'yib;
5. Tashqi havo aylanish rejimini yoqib;
6. Taxminan 3~5 daqiqa kuting va keyin dvigatelni o'chiring.

Salonni tez isitish

	Konditsionerni avtomatik boshqarish
1	"AUTO" tugmasini bosib.
2	Havo haroratini maksimal issiq holatga o'tkazib.
3	Havo oqimini oyoqlarga yo'naltirib.

Isitish uchun tavsiya etilgan sozlamalar

	Konditsionerni avtomatik boshqarish
1	"AUTO" tugmasini bosib.
2	Kerakli havo harorati qiymatini o'rnatib;
3	Havo oqimini oyoqlarga yo'naltirib.

Salonni tez sovutish

	Konditsionerni avtomatik boshqarish
1	Ichki havo aylanishi rejimi yoqilganligiga ishonch hosil qilib;
2	"AUTO" tugmasini bosib;
3	Havoni yuz va yonga puflash rejimini o'rnatib;
4	Havo haroratining minimal qiymatini o'rnatib.

Salonni sovutish uchun tavsiya etilgan sozlamalar

	Konditsionerni avtomatik boshqarish
1	Ichki havo aylanishi rejimi yoqilganligiga ishonch hosil qilib;
2	"AUTO" tugmasini bosib;
3	Havoni yuz va yonga puflash rejimini o'rnatib;
4	Sovutishni yoqib;
5	Kerakli havo haroratini o'rnatib.

Old oynani muzdan eritish va terlashni bartraf etish

	Konditsionerni avtomatik boshqarish
1	Old oynani isitish tugmasini bosib;
2	"AUTO" tugmasini bosib;
3	Kerakli havo haroratini o'rnatib.
4	Ichki havo aylanishi rejimi yoqilganligiga ishonch hosil qilib.

MULTIMEDIA TIZIMI ✕

Tizimning umumiy tavsifi

OGOHLANTIRISH
- Ikkilamchi bozordan sotib olingan lampa HID bosh yoritgich farasiga mustaqil ravishda yoki ruxsatsiz o'rnatilganda avtomobilning elektron va audio qurilmalari hamda komponentlari ishdan chiqishi mumkin. - Atir, kosmetik moy, oftobda toblanish uchun krem, qo'llarni yuvish vositasi va havoni soflash vositasi kabi faol kimyoviy moddalarning salon pardoqlash elementlari va detallariga tushishiga yo'l qo'ymang, chunki ular salon pardoqlash elementlari va multimedianeing shikastlanishi yoki rangi o'chishiga olib kelishi mumkin.

Radio

Ishonchli qabul zonasidan tashqariga chiqishda radiosignal zaiflashadi. Baland binolar yoki hudud relefining o'zgarishi radiosignalning tarqalish sharoitini yomonlashtirishi mumkin. Orqa oyna isitgichining yoqilishi radiosignalning ishonchli qabul qilinishiga xalaqit berishi mumkin; qabul qilish sharoitini yaxshilash uchun isitgichni o'chiring.

Shamol, yomg'ir, momaqaldiroq, chaqmoq va boshqalar radioto'lqinlarda xalaqit berishi, signal qabul qilishni susaytirishi yoki umuman qabul qilishni cheklashi mumkin.

Agar avtomobil bir xil yoki o'xshash

chastotali ikkita radiostansiya o'rtasida joylashgan bo'lsa, bu stansiyalarning signallari bir-biriga xalaqit beradi.

Radioantennani mustaqil ravishda almashtirish radio qabul qilgichning noto'g'ri ishlashiga yoki uning shikastlanishiga va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

USB interfeysi

USB xotira kabi tashqi qurilmalarni ulash uchun foydalaniladi. USB interfeysi bilan yomon aloqa yoki nomuvofiqlik ma'lumotni o'qishdagi xatoliklarga, tanaffuslar, uzilishlar yoki sekinlashishga olib kelishi mumkin.

Mobil zaryadlash qurilmasini ulashdan oldin yo'riqnoma bilan tanishib chiqing va USB terminalining zaryadlash toki (2,1 A) mobil telefonni zaryadlash xususiyatlariga mos kelishini tekshiring. Mos kelmasa, telefon yoki USB terminali shikastlanmasligi uchun mobil qurilmani ulash va quvvatlash tavsiya etilmaydi.

Turli xil USB xotira qurilmalari ko'p bo'lganligi sababli, barcha xotira qurilmalarining USB interfeysiga muvaffaqiyatli ulanishini kafolatlash mumkin emas.

«In Call» multimediasi

"In Call" multimedia tizimining (masalan, mobil telefon) funksiyalari, agar avtomobilning bosh multimedia qurilmasi (BMQ) va mobil qurilma o'rtasida faol Bluetooth aloqasi o'rnatilgan bo'lsa, ishga

tushirilishi mumkin.

Avtomobil harakatlanayotganda haydovchiga yo'l harakati qoidalari (YHQ) buzilmasligi va yo'l-transport hodisasi (YTH) ro'y bermasligi uchun video tomosha qilish va bosh multimedia qurilmasini boshqarishga chalg'ish tavsiya etilmaydi.

Bort telefoni orqali qo'ng'iroqlarni amalga oshirish yoki avtomobilda bo'lgan yo'lovchiga telefon orqali, jumladan, GMU orqali qo'ng'iroq qilish tavsiya etilmaydi. Bu ovoz kuchaytirgich va telefon o'rtasidagi o'zaro to'siqlar tufayli aks-sado, tovushning buzilishi va boshqa muammolarga olib keladi.

Xavfsizlikni va tizimning normal ishlashini ta'minlash uchun bosh multimedia qurilmasini mustaqil ravishda qismlarga ajratmang va unga xizmat ko'rsatmang. Bu jarohatlar yoki baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Batafsil ma'lumot olish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

"In Call" tizimidan foydalanishdan oldin shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanib ro'yxatdan o'ting. Aks holda, faqat HDD, video, radio va fotosuratlarini ko'rish mumkin bo'ladi. Tizimning boshqa funksiyalari ishlamaydi.

Tashqi uskunalardan foydalanishda cheklovlar

Bluetooth terminalining versiyasi Bluetooth 4.0 bo'lib, u A2DP, HFP, AVRCP, PBAP, SPP, HID, GATT, PXP, LLS va IP

protokollarini qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu terminal Apple, Samsung, Huawei, Xiaomi, Oppo, Vivo va boshqalar kabi Bluetooth 4.0 versiyasiga mos keladigan brendlarning bozorda keng qo'llaniladigan mobil qurilmalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Turli xil Bluetooth modullari va mobil telefonlar uchun ko'plab dasturiy ta'minot variantlari mavjudligi sababli, telefonlarning ma'lum funksiyalari avtomobil tizimiga mos kelmasligi mumkin. Bluetooth turli versiyalarining muvofiqligi bilan bog'liq muammolar tufayli bu terminal barcha mobil telefonlarning Bluetooth orqali ulanishini kafolatlay olmaydi.

WLAN ulanishidan foydalanishda cheklovlar

Ushbu terminal Apple, Samsung, Huawei, Xiaomi, Oppo, Vivo va boshqalar kabi bozorda keng foydalaniladigan brendlarning WLAN kirish nuqtasi funksiyalariga ega mobil qurilmalarini qo'llab-quvvatlaydi.

WLAN ulanishlarning turli xil versiyalari va mobil telefonlar uchun dasturiy ta'minotning ko'plab variantlari mavjudligi sababli, telefonlarning ma'lum funksiyalari avtomobil tizimiga mos kelmasligi mumkin. WLAN turli versiyalarining muvofiqligi bilan bog'liq muammolar tufayli bu terminal barcha mobil telefonlarning WLAN tarmog'iga ulanishini kafolatlay olmaydi.

Multimedia displeyi

Bosh sahifa

Bosh multimedia qurilmasining bosh sahifasida turli funksiyalarni boshqarish mumkin: radio, multimedia, Bluetooth musiqa, navigatsiya, telefon qo'ng'iroqlarini boshqarish, fayllarni boshqarish, konditsioner, tizim sozlamalari, avtomobil sozlamalari va boshqa funksiyalar.



Avtomobilning elektr ta'minoti yoqilgach, tizim bosh sahifani avtomatik ravishda ishga tushiradi.

Asosiy interfeysda musiqa boshqaruvi, iqlim nazorati tizimi va mobil telefon ilovalariga tezkor kirish uchun belgilar mavjud.

Tegishli funksional interfeysga tezkor kirish uchun tegishli belgini bosib.



pastki chap burchakda konditsionerni boshqarish yorlig'i mavjud. Funksional menyuga kirish uchun chap




tomonda joylashgan belgini bosib.

OGOHLANTIRISH

- Past manfiy haroratlarda displey ekranidagi ma'lumotlar sekinlik bilan aks etishi mumkin. Oq ekran effekti va boshqa o'zgarishlar suyuq kristalli displeyning normal ishlashi hisoblanadi. Xona harorati musbat bo'lganda axborot displeyining ishlashi tiklanadi.
- Atrof-muhitning yuqori haroratida (masalan, quyosh nuri ta'sirida) axborot displey ekranining yorqinligi pasayishi mumkin, bu suyuq kristalli displeyning normal ishidir. Harorat pasayganda, displey yorqinligi tiklanadi.

Asosiy menyu

Funksional menyuga kirish uchun bosh sahifadagi  belgisini bosib.



"general settings (asosiy sozlamalar) ", "display (displey) ", "network (tarmoq) ", "sound (ovoz) " va "voice (ovoz)" ilovalarini sozlash yoki boshqarish uchun ilovalar ro'yxatidan "System settings (Tizim sozlamalari)" bandini tanlang. Umumiy

sozlamalar tovush balandligi, yorqinlik va Bluetooth aloqasini o'z ichiga oladi.

Umumiy funksiyalar


Navigatsiya ✖

Navigatsiya interfeysiga kirish uchun asosiy ekrandagi  belgini bosib.




Mediani ijro etish

Musiqa ijro etish interfeysiga kirish uchun panel chap tomonidagi  belgini bosib.



Ushbu menyudan saqlangan mediafayllarni USB tashuvchi qurilmasidan yoki Bluetooth orqali ijro etishni tanlash mumkin.



Radio

Radio ijro etish interfeysiga kirish uchun


bosh sahifadagi  [Radio] belgisini bosing.



Telefon


Mobil telefon interfeysiga kirish uchun

bosh sahifadagi  [Telefon] belgisini bosing.



Agar Bluetooth aloqasi o'rnatilmagan bo'lsa, Bluetooth sozlama interfeysiga kirish uchun [Bluetooth setting (Bluetooth sozlamasi)] tugmasini bosing. Agar Bluetooth ulangan bo'lsa va aloqa o'rnatilgan bo'lsa, qo'ng'iroq interfeysi odatiy ravishda ochiladi. [Dialing (Qo'ng'iroqlarni boshqarish)],

[Contacts (Kontaktlar)] va [Settings (Sozlamalar)] orasida almashish uchun chapdagi menyu satriga teging.



Abonentning telefon raqamini ko'rish uchun qo'ng'iroq kontakti o'ng tomonini bosing. Raqam avtomatik ravishda paydo bo'ladi. Qo'shimcha qo'ng'iroq yozuvlarini ko'rish uchun barmoqni tepaga va pastga suring.

Raqamli klaviaturada raqamni terishni boshlang va tizim avtomatik ravishda tegishli kontaktlarni o'ngda ko'rsatadi.

Manzillar kitobi interfeysiga kirish uchun [Contacts (Kontaktlar)] tugmasini bosing va keyin kerakli kontakt nomini topish uchun


 tugmani bosing.



Kerakli kontakti tezda topish uchun kontakt interfeysidagi kontaktning birinchi harfini bosing. Qo'ng'iroq interfeysiga kirish uchun kontaktga teging, telefon raqamini tanlang va qayta bosing. Qo'shimcha kontaktlarni ko'rish uchun barmoqni chapga yoki o'ngga suring.




Sozlamalar



Tizim sozlamalari interfeysiga kirish uchun bosh sahifadagi [Settings (Sozlamalar)]



belgisini bosing. Yuqori panelda turli xil asosiy funksiyalarni tanlashingiz va sozlashingiz mumkin: displey, ovoz, tarmoq, ovozli buyruqlar va tizim sozlamalari.



Tizimni sozlash interfeysida tizim tilini tanlashingiz, sana, vaqt, ovoz balandligi, yorqinlik, Bluetooth va boshqalarning formatini sozlashingiz mumkin.



Avtomobil sozlamalari

Avtomobil sozlamalari interfeysiga kirish uchun bosh sahifa chap tomonidagi [vehicle




center] yoki [car center] belgisini bosing. Avtomobillarning turli konfiguratsiyalari tufayli funksiyalar sozlamalari avtomobilning haqiqiy konfiguratsiyasiga qarab farq qiladi.

Avtomobil sozlamalari interfeysiga avtomobilning bosh sahifasi yoki [Vehicle center (Avtomobil sozlamalari)] ilovasi orqali kirish mumkin, uning yordamida avtomobilni tezkor sozlash, harakatni sozlash, kuzovni sozlash, yoritishni sozlash, haydashda yordamni sozlash, to'xtashda yordamni sozlash, xavfsizlikni sozlash, asboblarni panelini sozlash, rul g'ildiragini sozlash va avtomobil sozlamalarini tiklash kabi amallarni bajarish mumkin.

Diqqat! Ushbu funksiyalarni sozlash avtomobil elektr quvvati ulanganda ("ON" holati) amalga



oshiriladi. Agar elektr quvvati o'chirilgan "OFF" yoki "ACC" holatida bo'lsa va tugma kulrang rangda aks etsa, sozlashni bajarish imkonsiz.



Fayllarni boshqarish

Fayllarni boshqarish menyusiga kirish uchun asosiy sahifadagi [File manager (Fayl dispetcheri)] belgisini bosing.

Fayllarni boshqarish menyusida mahalliy qattiq diskda (HDD) saqlangan fayllarni ko'rish va kerakli amallarni tanlash mumkin. USB port orqali tashqi USB qurilmadagi fayllarni ko'rish va tegishli amallarni bajarish mumkin.



Faylni boshqarish interfeysida faylni tanlagandan so'ng, u bilan kerakli amallarni bajarishingiz mumkin: o'chirish, nusxalash yoki kesish.




Iqlim nazorati tizimi


Iqlim nazorati tizimining interfeysiga kirish uchun [Air conditioner (Konditsioner)]



belgisini bosing. Menyuda ko'rsatilgan tugmalar iqlim - nazorat tizimi markaziy boshqaruv panelidagi tugmalarga to'liq mos keladi. Tegishli funksiyani yoqish yoki o'chirish uchun tugmani bosing.





Videoregistrator ✖




Videoregistrator interfeysiga kirish uchun bosh sahifadagi [DVR] belgisini bosing.





Tizimni yangilash ✂



Tizim dasturiy ta'minotini yangilash uchun ilovalar ro'yxatidagi [Upgrade (Yangilash)]  belgisini bosing. Tizim USB drayveri va WLAN orqali yangilanishni

qo'llab-quvvatlaydi ✂ (ulanganda va yangilanish mavjud bo'lganda). Yangilash jarayonida tizim qayta ishga tushishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

Dasturiy ta'minotni yangilash paytida avtomobil quvvatini o'chirmang. Dasturiy ta'minotni yangilash akkumulyator batareyasi zaryadining past darajasi tufayli uzilishning oldini olish uchun avtomobil dvigateli neytral holatda to'xtatilganda amalga oshirish tavsiya etiladi.

USB xotira orqali yangilashda yangilash paketi faylini USB qurilmaning asosiy katalogiga joylashtiring.

WLAN tarmog'i orqali dasturiy ta'minotni yangilashdan oldin WLAN aloqasining ulanganligi va barqaror ishlayotganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, yangilash faylini yuklash xato bilan tugashi mumkin, bu esa yangilash jarayonining buzilishiga olib keladi.

Mobil aloqa ✂

Mobil aloqa interfeysiga kirish uchun bosh sahifadagi [Mobile interconnection

(Mobil ulanish)]  belgisini bosing.



Ilovani yuklab olish uchun ekranda aks ettirilgan QR-kodni mobil telefon yordamida skanerlang (mobil telefonning mos versiyasi - Android, IOS). Yuklab olingandan so'ng ilovaning mobil versiyasini oching va mobil telefonda ulanish ruxsatini tasdiqlang. USB kabelni ulang va tegishli ulanish sozlamalarini tanlang.

Apple CarPlay ✂


Apple mobil telefonini avtomobilga ulashda ma'lumotlarni uzatish uchun original Apple kabelidan foydalaning. Muvaffaqiyatli

ulangandan keyin [Apple Carplay]  multimedia ekrani belgisi quyidagi rasmda ko'rsatilganidek faollashtiriladi:





Muvaffaqiyatli ulanishdan so'ng, rasmda ko'rsatilgandek Carplay interfeysiga kirish uchun [Apple Carplay] belgisini bosing:



Eslatma:

1. Apple mobil telefoni oldindan o'rnatilgan Carplay ilovasi bilan birga taqdim etiladi, uni qo'shimcha ravishda yuklab olish shart emas;
2. [Apple Carplay] ilovasidan faqat Carplay muvaffaqiyatli ulanganidan keyin foydalanish mumkin.

CarPlay boshqaruv interfeysidan chiqish uchun [CHANGAN] belgisini bosing.

Ovozli yordamchi ✖

Ovozli buyruq yoki ruldagi tugmalar yordamida faollashtiriladigan intellektual ovozli yordamchini faollashtirish. Oynalar, tomdagi lyuk, o'rindiqlarni isitish, telefon

funksiyalari, musiqa ijro etish funksiyalari, radiodasturlar, navigatsiya, konditsioner va boshqalarni ovozli buyruqlar orqali boshqarish imkonini beradi. Ovozli buyruqlar interfeysning yuqori qismida ko'rsatiladi.



Ovozli yordamchini faollashtirish

Ovoz orqali faollashtirish:


Intellektual ovozli yordamchini ovozingiz bilan salomlashish iborasini aytish orqali faollashtirish mumkin. Masalan:

English: «Hi Changan»;

Spanish: «Hola Changan»;

Rus tilida: faollashtirish uchun "Привет, Чанган!" iborasini ayting

Muvaffaqiyatli faollashtirilgandan so'ng, rasmda ko'rsatilgandek ovozli yordamchi (elf) bilan aloqa holatiga o'ting.



Tugmalar yordamida faollashtirish:

Intellektual ovozli yordamchi rul g'ildirigidagi


boshqaruv tugmasi yoki ko'p funktsiyali multimedia displeyining yuqori chap burchagidagi elf belgisini bosish orqali faollashtirilishi mumkin. Muvaffaqiyatli faollashtirilgandan so'ng, rasmda ko'rsatilgandek, ovozli yordamchi (elf) bilan o'zaro aloqa holatiga kiring.



Nutqni aniqlash

Tillar

Ovozli kiritish funksiyalari jadvalida ko'rsatilgan til paketi yordamida intellektual ovozli yordamchi musiqa, navigatsiya, radio va boshqalarni ijro etish kabi ilovalarni aniqlashi va keyin boshqarishi mumkin (quyidagi rasmda ko'rsatilgandek, "oynani ochish" ovozli buyrug'i - oynani ochadi).



Alohida ilovalarni maxsus so'z bilan faollashtirish:

Ba'zi ilovalarni to'g'ridan-to'g'ri tezkor

faolashtirish so'zlari yordamida boshqarish mumkin. Masalan, "qo'ng'iroqni o'chirish" ovozli buyrug'i to'g'ridan-to'g'ri telefon qo'ng'irog'ini yakunlaydi.

TTS (Text-to-Speech) translyatsiyasi

Intellectual ovozli yordamchi uyg'otish ovozli buyrug'i bilan faolashtirilgandan so'ng yoki boshqarish ovozli buyruqlari aytilgandan so'ng, tizim tegishli ravishda ishlov beradi va tugallangandan so'ng displeyda TTS buyrug'ini translyatsiya qilish amalga oshiriladi.

Ovozli sozlamalar

Ovozli yordamchi tilini tanlash

Til maydonida tillarni almashtirish mumkin. Hozirda tanlov uchun faqat ingliz, rus va ispan tillari mavjud.



Ovoz manbasini sozlash va ovozni matnga aylantirish

"Sound source localization" va "Voice to text" menyulari yordamida foydalanuvchi mos ravishda ovozli buyruqlar manbasining joylashuvini va buyruqlarni matnga aylantirishni tanlashi mumkin.



Ovozli buyruqlar manbasining joylashuvini "Auto (Avtomatik)", "Driver (Haydovchi)" va "Front (Old yo'lovchi)" tugmalari yordamida tanlash mumkin. Masalan, asosiy haydash rejimida faqat haydovchi tomonidan ovozli buyruq ovozli yordamchini faolashtirishi mumkin.

TO'XTASHDA YORDAM TIZIMI

To'xtash radarlari ✖


DIQQAT

To'xtashda yordam tizimi yordamchi funksiya bo'lib, haydovchining harakatlarini to'liq almashtira olmaydi. Avtomobil xavfsiz harakatlanishi/to'xtashi uchun haydovchi e'tiborli va ehtiyotkor bo'lishi, avtomobil odamga, hayvonga yoki boshqa obyektlarga tegmasligiga e'tibor qaratishi kerak.

Ortga haydash paytida ogohlantirish

Ortga harakatlanishda ogohlantirish tizimi - ultratovush datchiklari bilan jihozlangan avtomobilni to'xtatishda yordam berishning elektron tizimi. Datchiklar yordamida tizim transport vositasi atrofidagi vaziyatni baholaydi va vizual va tovushli xabar berish orqali haydovchiga transport vositasi va aniqlangan obyekt orasidagi masofa haqida ma'lumot beradi.

Old va/yoki orqa datchiklar tomonidan to'siq aniqlanganda, ovozli ogohlantirish signali turli chastotalarda ijro etiladi. Tovushlarni tanib olishda e'tiborli bo'ling.



- A. Old/orqa yon datchiklarni aniqlash maydoni ✖;
- B. Old markaziy datchiklarni aniqlash maydoni ✖;
- C. Yon tomondan bo'sh joyni aniqlash va kuzatish ✖;
- D. Orqa markaziy datchiklarni aniqlash maydoni.


To'xtashda yordam tizimini o'chirish ✖

To'xtashda yordam tizimi kaliti yordamida faqat old to'xtash radarlarini o'chirib qo'yish mumkin.

Avtomobil elektr ta'minoti yoqilganda ("ON" holati) old to'xtash radarlari avtomatik ravishda yoqiladi. To'xtash radarlarini boshqarish tugmasi indikator yonmaydi. Old to'xtash radarlarini "Vehicle settings" → "Driving assistance" → "Parking assistance" → "Front radar switch" interfeysida o'chirish mumkin. Tizimda biror nosozlik yuz bersa, nosozlik haqidagi ma'lumot 3 soniya ichida

ko'rsatiladi.

To'xtash radarini aniqlash maydoni



A	31 - 80 sm
B	31 - 100 sm
C	31 - 60 sm
D	31 - 150 sm

Datchiklar tomonidan to'siqni aniqlashgacha bo'lgan maksimal masofa to'siqning o'lchamiga qarab o'zgaradi. Ustun va yo'l belgisi kabi kichik to'siqlar uchun datchiklar tomonidan aniqlanadigan masofa 150 sm dan kam bo'lishi mumkin

ESLATMA

To'xtash radarlari quyidagi obyektlarni aniqlay olmasligi mumkin:

- Yupqa jismlar (elektr sim, arqon va boshqalar);
- Tovush to'lqinlarini yutuvchi jismlar

(masalan, paxta, qor);

- O'tkir qirrali jismlar;
- Yuqori qismi bo'rtib chiqqan baland jismlar
- Kichik, past va kalta obyektlar.

Ba'zi obyektlar fizik ish qoidalariga tufayli to'xtash radari tomonidan aniqlanmaydi, ba'zilari esa tizimning yolg'on ishga tushishiga sabab bo'lishi mumkin:

- Aniqlashning quyi chegarasi: bolalar va hayvonlar.
- Aniqlashning yuqori chegarasi: tashqi tomondan mahkamlangan yuk va farkop kabi jismlar.

Ortga harakatlanishda ogohlantirish datchiklari quyidagi holatlarda ishlamasligi yoki xato ishlashi mumkin:

- Bamber shikastlangan;
- To'qnashuv natijasida datchik yoki uskunalari shikastlangan;
- Datchik aniqlash sohasida boshqa aksessuarlar mavjud;
- Datchik yuzasi ifloslangan yoki begona jismlar bilan qoplangan (qor, loy, namlik, yomg'ir yoki suv tomchilari);
- Avtomobil qiya holatda bo'lsa;
- Atrof-muhit harorati juda yuqori yoki juda past;
- Avtomobil notekis yo'lda harakatlanganda;
- Avtomobil yaqinida ultratovush to'lqinlari manbai joylashgan, masalan, boshqa avtomobilning ishlayotgan pnevmosignal

va/yoki yuk mashinasining pnevmatik tormozi tovushi;

- Avtomobil radio-antenna, himoya yoylari va tortish-tirkash qurilmasi (farkop) bilan jihozlangan;
- Avtomobil yo'lining baland chetiga yoki qiyalikka yaqinlashganda;
- To'siq datchikka juda yaqin joylashganda.

Quyidagi shartlardan istalgani yuzaga kelsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling:

- Avtomobil elektr quvvati (yonish kaliti "ON" holatida) yoqilganda, to'xtash radari 3 soniya davom etadigan signal uzatadi, ekranda to'xtash radari nosozligi haqida xabar paydo bo'ladi, uni radarlarni artish orqali bartaraf etib bo'lmaydi;
- Ekranda begona jismlar olib tashlangandan va datchiklar ifloslanishi tozalangandan keyin ham bartaraf etib bo'lmaydigan to'xtash radari nosozligi aks ettiriladi;
- Tizim avtomobil atrofida to'siqlar bo'lmaganda ogohlantirish signalini beradi;
- Tizim to'siq mavjud bo'lganda ogohlantirish signalini ko'rsatmaydi va uzatmaydi.

Datchik shikastlanganida tizim nosozlik haqida ogohlantiradi va ogohlantiruvchi signal uzatadi.

Ogohlantirish displeyi

To'siq aniqlanganda, panelda tegishli ogohlantiruvchi indikator yonadi va

ogohlantirish signali eshutiladi. Avtomobil to'siqqa yaqinlashgan sari signallar oralig'i qisqaradi. Transport vositasi va to'siq orasidagi masofa 30 sm dan kam bo'lganda ogohlantirish signali uzluksiz eshutiladi.

Avtomobil orqasidagi to'siqqacha qolgan masofaga qarab, displeyda uchta rangdagi indikator chiziqlari, avtomobilidan oldinda, chapda va o'ngda esa har xil rangdagi ikkita indikator chiziqlari ko'rsatiladi

Ogohlantirish zonasi Signal darajasi	Old/orqa yon datchik (sm)	Old/orqa burchak datchigi (sm)	Old markazi y datchik (sm)	Orqa marka ziy datchi k (sm)
3 (Sariq)	-	-	80- 100	80- 150
2 (To'q sariq)	30-50	30-80		
1 (Qizil)	≤30	≤30	≤30	≤30

To'xtashda yordam tizimining old datchiklari

Old datchiklar avtomobilning tezligi soatiga 15 km dan kam bo'lganda ishlaydi. Ular avtomobilning old qismidan to'siqqacha bo'lgan taxminiy masofani ma'lum burchak ostida aniqlaydi. Agar uzatmalarni almashtirish selektori "P" (To'xtash) holatida bo'lsa yoki to'xtashda yordam tizimi o'chirilgan bo'lsa, old to'xtash datchiklari ishlaymaydi.

Avtomobil sekinlashganda old to'xtash datchiklari tezlik 8 km/soatdan past bo'lganda o'z ishini tiklaydi.

To'xtashda yordam tizimining orqa datchiklari

To'xtashda yordam tizimining orqa datchiklari uzatmalarni "R" (Orqaga yurish) holatiga o'tkazish selektori almashtirilganda faollashtiriladi. Ular avtomobil orqa qismining to'siqqacha bo'lgan taxminiy masofasini ma'lum burchak ostida aniqlaydi.

Yon radarlar ogohlantirishi

Old/orqa yon datchiklar old va orqa datchiklar aniqlaydigan hududga kirmaydigan hududni kuzatishi va avtomobilning yon tomonidagi to'siq haqida ogohlantirishi mumkin. Tizim aniqlangan to'siqlarni ro'yxatga oladi hamda ta'sir qiluvchi va ta'sir qilmaydigan to'siqlarni farqlash uchun avtomobilning harakat trayektoriyasini real vaqt rejimida hisoblaydi. Agar obyekt avtomobil chetiga juda yaqin bo'lsa, displeyda ogohlantirish xabari paydo bo'ladi.

Agar to'xtashda yordam tizimi o'chirilgan bo'lsa, old yon datchiklar ishlaymaydi va avtomobilning old yon tomondan to'siq haqida ogohlantirish funksiyasi o'chirilgan bo'ladi.

Orqa ko'rish kamerasi ✖

Orqa ko'rish kamerasi - bu to'xtashda yordamni vizualizatsiya qiluvchi tizim. Avtomobilning orqa qismiga o'rnatilgan videokamera yordamida "in Call" bosh qurilmasi ekraniga tasvir uzatiladi va unga

to'xtash joyidagi yordamchi chiziqlar chiqariladi.

OGOHLANTIRISH

- Orqa kamera tasvirlari ekranda obyektlarning konturlarini buzishi mumkin. Shuni yodda tutingki, orqaga harakatlanayotganda ekranda aks ettirilayotgan transport vositasi va to'siq (avtomobil, piyoda va h.k.) orasidagi masofa aniq bo'lmasligi va bu avariya olib kelishi mumkin;
- Kameradagi tasvir ruxsatining cheklanganligi tufayli ba'zi obyektlar, masalan, ingichka to'siqlar, panjaralar va daraxtlar ko'rsatilmaligi yoki aniq ko'rsatilmaligi mumkin;
- Orqa ko'rish kamerasida aks ettirilmaydigan sohalar mavjud. E'tiborli bo'ling, chunki orqa ko'rish kamerasi hech qanday sharoitda odamlarni va ba'zi kichik obyektlarni, masalan, yosh bolalar va kichik hayvonlarni aniqlay olmaydi.
- Orqa ko'rish kamerasidagi tasvir displeyda faqat 2D formatda ko'rsatiladi. Fazoviy chuqurlik yo'qligi sababli, kamera tasviri orqali yo'l qoplamasida do'nglik yoki chuqurlikni aniqlash qiyin yoki aniqlab bo'lmaydi.

ESLATMA

- Har doim ko'rish, ob-havo sharoiti va harakat zichligiga qarab tezlikni va haydash uslubini tanlang.

- To'xtashda harakat yo'nalishi va atrof-muhitni diqqat bilan kuzatib boring. Ortga yurganda avtomobilning old qismi orqa qismiga qaraganda kattaroq radius bo'ylab burilishini hisobga oling.
- Faqat bagaj bo'limining eshigi to'liq yopiq bo'lgandagina orqa ko'rish kamerasi tasvirga amal qilish mumkin.
- Orqa ko'rish kamerasi avtomobilning tashqarisiga o'rnatilgan va oson ifloslanadi. Agar kameradagi tasvir aniq bo'lmasa, obyektiv yuzasini yumshoq mato bilan artish tavsiya etiladi.

Foydalanish bo'yicha tavsiyalar

Orqa ko'rish kamerasidan foydalanishdan oldin xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagi tekshiruvlarni amalga oshiring:

1. Bagaj bo'limi eshigi yopiqligiga ishonch hosil qiling;
2. Avtomobil shikastlanmagan, kameraning montaj holati va uning o'rnatish burchagi o'zgarmagan;
3. Kamera obyektivining yuzasi toza va unda muz yoki chang mavjud emas;
4. Kamerani ko'rish qismi to'silmagan, hech qanday begona obyektlar kamera ko'rish burchagini to'sib qo'ymagan.

Orqa ko'rish kamerasidan foydalanishdan oldin yaxshi ko'rish va ochiq ob-havo sharoitida transport vositalari kam bo'lgan joyda yoki to'xtash joyida tizimning ishlashi

bilan tanishish uchun orqa ko'rish kamerasi tasviridan foydalanishni mashq qilish tavsiya etiladi.

Orqa ko'rish kamerasidan ko'rinishni yoqish/o'chirish

Avtomobilning elektr quvvati ulanganda ("ON" holati) uzatmalar tutqichini "R" holatiga o'tkazing. Ko'p funktsiyali displeyda avtomatik ravishda avtomobil orqasidagi tasvirni aks ettiruvchi interfeys paydo bo'ladi. Displeyda quyidagi ma'lumotlar aks etadi:

1. Avtomobil orqasidagi vaziyat video tasviri;
2. Ortga yurishda va orqa ko'rish kamerasi videotasviridan foydalanishda xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar;
3. To'xtashda yordamchi va yo'naltiruvchi yordam chiziqlari.




AUO'Q selektori "R" holatidan yoki avtomobil elektr ta'minoti "ON" holatidan o'zgartirilgach, ko'p funktsiyali displeyda avtomobil orqasidagi holat tasviri almashadi.

To'xtashda yordamchi chiziqlar

To'xtashda ekrandagi yordamchi chiziqlar

ikki xil bo'ladi: statik va dinamik. Ular avtomobilning taxminiy harakat trayektoriyasini orqa bamperdan ortga yo'nalishda 3 m masofada, tashqi orqa ko'rish ko'zgulari bo'lgan avtomobilning kengligiga teng bo'lgan kenglik bo'yicha aks ettiradi.



① **Qizil chiziq:** avtomobilning orqa bamperidan taxminan 100 sm masofani aks ettiradi;

② **Sariq chiziq:** avtomobilning orqa bamperidan taxminan 200 sm masofani aks ettiradi;

③ **Yashil chiziq:** avtomobilning orqa bamperidan taxminan 300 sm masofani aks ettiradi;

④ **Dinamik yordamchi chiziq:** rul g'ildiragining aylanish burchagiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Avtomobil harakatining hisoblangan trayektoriyasini ifodalaydi. Rul g'ildiragi nol holatida dinamik yordamchi chiziq berkitiladi.

Ortga yurishda yordamchi chiziqlarni o'chirish uchun chap tomonda joylashgan tugmani [Close Guidance Line (Yordamchi chiziqlarni o'chirish)] bosang. Displayda faqat avtomobil ortidagi tasvir va xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar ko'rsatiladi. Yordamchi chiziqlar

ko'rsatilmaydi. Yordamchi chiziqlarni yoqish uchun "Vertical Guide Line (Vertikal yo'naltiruvchi chiziqlar)" tugmasini bosang. Tizimning yordamchi chiziqlari yoqiladi.

ESLATMA

- Bu ortga yurishda yordamchi tizimdir. Xavfsizlikni ta'minlash uchun real holat va vaziyatdan kelib chiqib qaror qabul qiling.
- Tio'xtash joyi o'lchami yordamchi chiziq kengligidan katta yoki unfa teng bo'lishi kerak.

Panoramali tasvir 360° (HD)

Panorama tasvir tizimi - bu to'xtash joyidagi yordam tizimi bo'lib, u 4 ta kamera (old/orqa/o'ng/chap) yordamida avtomobil atrofidagi tasvirni qayd qiladi, olingan tasvirlarni yuqoridan 360° ko'rinishga birlashtiradi va markaziy displeyda aks ettiradi. Tizim avtomobil atrofidagi ko'rinmas hududni sezilarli darajada kamaytirish, avtomobilni bir tekisda to'xtatishga yordam berish va tor ko'chalar va kichik ko'chalarda harakatlanishni osonlashtirish imkonini beradi.

ESLATMA

- Harakat va manyovrlarda atrof-muhit va avtomobil harakat yo'nalishini diqqat bilan kuzatib boring;
- Avtoturargohning kengligi yordamchi liniyalarning kengligidan katta yoki tengligiga ishonch hosil qiling;
- Panoramali tasvir tizimidan faqat yon

eshiklar to'liq yopilgan va bagaj bo'limi eshigi orqa ko'rinish ko'zgulari bilan to'g'ri ochilgan holda foydalaning;

- anoramali tasvir kameralari avtomobilning tashqarisida o'rnatilgan va oson ifloslanadi. Agar tasvir aniq bo'lmasa, obyektiv yuzasini yumshoq mato bilan artish tavsiya etiladi.

360° panoramali tasvir tizimi quyidagi sharoitlarda ishlamasligi yoki cheklangan funktsionallikka ega bo'lishi mumkin:

- Avtomobil eshiklari yopiq emas;
- Tashqi orqa ko'rish oynalar buklangan;
- Yukxona eshigi yopiq emas;
- Murakkab ob-havo sharoitlari (kuchli yomg'ir, qor yoki tuman);
- Kunning qorong'i vaqtida (tunda) yoki kuchsiz yoritilgan sharoitda;
- Kameralar yuqori yorug'lik ta'siriga uchragan;
- Hudud lyuminessent lampalar yoki LED chiroqlari bilan yoritilgan (chaqirish rejimida display miltillashi mumkin);
- Harorat keskin o'zgarganda (masalan, sovuq vaqtda avtomobil isitiladigan xonaga kiradi).

Agar kamera o'rnatilgan avtomobil qismlari shikastlangan bo'lsa, kameralar holatini va ularning kalibrlanishini tekshirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

OGOHLANTIRISH

- Panoramali tasvir ekranda obyektlar konturini buzishi mumkin. Displeyda aks ettiriladigan transport vositasi va to'siq (avtomobil, piyoda va boshqalar) orasidagi masofa noaniq bo'lishi, bu esa avariya olib kelishi mumkin;
- Kameradagi tasvir ruxsatining cheklanganligi tufayli ba'zi obyektlar, masalan, ingichka to'siqlar, panjaralar va daraxtlar ko'rinmasligi yoki aniq aks etmasligi mumkin;
- Panoramali tasvir kameralarida ko'rinmaydigan maydonlar mavjud. E'tiborli bo'ling, chunki kameralar har qanday sharoitda ham odamlarni va ba'zi kichik obyektlarni, masalan, yosh bolalar va kichik hayvonlarni aniqlay olmaydi;
- Displeydagi panoramali tasvir faqat 2D formatda (ikki o'lchamli tasvir) aks ettiriladi. Fazoviy chuqurlik yo'qligi sababli, kamera tasvirlari yordamida yo'l qoplamasida do'nglik yoki chuqurlikni aniqlash qiyin yoki mumkin emas.

Panoramali tasvir rejimini yoqish

- Avtomobil elektr ta'minoti yoqilganda ("ON" holati) va avtomobil tezligi soatiga 27 km dan oshmaganda.

- Panoramali tasvirni yoqish tugmasini

bosing:  «in Call» multimedia tizimining displeyi avtomatik ravishda panoramali tasvir rejimiga o'tadi;

- AUO'Q selektori "R" (Ortga yurish) holatiga o'tkazilganda «in Call» multimedia

displeyi avtomatik ravishda panoramali tasvir rejimiga o'tadi.

- Agar panoramali tasvirni burilish signallarini boshqarish kalitlari yordamida yoqish (sozlamalarda yoqish/o'chirishni faollashtirish) funksiyasi yoqilgan bo'lsa va avtomobil tezligi soatiga 15 km dan oshmasa, burilish signalini yoqing va «in Call» multimedia tizimi displeyi panoramali tasvir rejimiga o'tadi.

- Panoramali tasvir rejimi faollashtirilganda, AUO'Q selektori "P" (To'xtash) yoki "R" (Ortga yurish) holatida bo'lmasa va avtomobil tezligi 15 km/soatdan oshmasa, agar old to'xtash datchigi to'siqni aniqlasa, «in Call» multimedia tizimi displeyi avtomatik ravishda panoramali tasvir rejimiga o'tadi. (Faqat to'xtashda yordam tizimining old datchiklari bilan jihozlangan avtomobillar uchun).

Panoramali tasvir rejimini o'chirish

- Tugma yordamida panoramali tasvir rejimi yoqilganda, avtomobil tezligi 30 km/soatga yetganda, multimedia tizimining displeyi avtomatik ravishda o'chiriladi;

- AUO'Q selektori "R" (Ortga yurish) holatidan o'zgartirilsa, panoramali tasvir rejimi 20 soniyadan keyin avtomatik ravishda o'chiriladi.


- AUO'Q selektorining istalgan holatida, "R" (Ortga yurish) dan tashqari, panoramali tasvir rejimidan chiqish tugmasini bosing va "in Call" multimedia displeydagi oldingi menyuga qayting.

- Panoramali tasvir rejimi burilish signalining boshqaruv kalitini yoqish yoki to'xtash datchigini faollashtirish yordamida yoqilganda, yoqish shartlari bartaraf etilgandan 5 soniya o'tgach, panoramali tasvir rejimi avtomatik ravishda o'chiriladi (yoqish shartlari yo'q, to'siq aniqlanmagan).

Panoramali tasvir rejimlarini almashtirish

Panoramali tasvirni tanlash - old/orqa/chap/ o'ng ko'rinishi

Panoramali tasvir rejimi yoqilganda, old (A)/ orqa (C)/ chap (D) yoki o'ng (B) tasvirni tanlang. Interfeys mos kombinatsiyalashgan panoramali tasvir va bir vaqtning o'zida tanlangan old/orqa/chap yoki o'ng tasvirga almashtiriladi:



AUO'Q selektori "R" holatidan "D" holatiga o'tkazilganda, tasvir avtomatik ravishda panoramali tasvir + old ko'rinishga o'tadi.

Panoramali tasvir rejimi + chap/o'ng ko'rinish

Panorama rejimi + ko'rinishlardan birida, panorama rejimi + chap/o'ng ko'rinishga

o'tish uchun avtomobil tasviri (E) ustiga bosing.


Old/ orqa kattalashtirilgan tasvir rejimi

Panoramali tasvir + old/orqa ko'rinishi rejimida, tegishli kattalashtirilgan tasvir rejimiga o'tish uchun ko'rinishlardan birini bosing.

Kattalashtirilgan tasvirni qayta bosib, tegishli panoramali tasvirga + bitta ko'rinishga qaytish mumkin.

To'xtashda yordamchi chiziqlar

Panorama tasviri + old/orqa ko'rinish rejimida yordamchi belgilash chiziqlari panorama rejimida va yakka tasvir rejimida aks ettiriladi.



- ① **Ogohlantirish chizig'i:** avtomobil g'ildiraklaridan yon masofa taxminan 20 sm.
- ② **G'ildiraklar trayektoriyasi:** avtomobil g'ildiraklarining harakat trayektoriyasi.
- ③ **Xavfsizlik chizig'i:** avtomobil kuzovidan taxminan 50 sm masofada.

Dinamik yordamchi chiziq rul g'ildiragining aylanish burchagiga qarab o'zgaradi. U avtomobil harakatining hisoblangan trayektoriyasini ifodalaydi. Rul


g'ildiragi nol holatida dinamik yordamchi chiziq berkitiladi.

3D ko'rish rejimi

3D rejimiga o'tish uchun [3D View] tugmasini bosing. Tegishli 3D tasvirni almashtirish uchun avtomobil tasviri atrofidagi boshqaruvni 3D ustiga bosing.

Sozlamalar

Panorama tasvir rejimida yoki ko'rinishlardan birida multimedia tizimi displeyidagi chap tomondagi [Sozlash] tugmasini bosib, mos ravishda yordamchi chiziqlarni yoqish, panorama tasvirni yoqish sozlamasi va to'xtash joyidagi datchiklarni yoqish funksiyasini yoqing.



Tasvirlarni intellektual almashtirish

15 km/soatdan oshmaydigan tezlikda panoramali tasvir rejimida burilish ko'rsatkichi yoqilganda, panoramali tasvir avtomatik ravishda yoqilgan burilish ko'rsatkichiga muvofiq chap/o'ngdan vaziyatni aks ettirishga o'tadi.

Avtomobil 15 km/soatdan oshmaydigan tezlikda harakatlanganda, panoramali tasvirni

aks ettirish rejimida, agar old radar avtomobil yonida to'siqni aniqlasa, panoramali tasvir rejimi avtomatik ravishda aniqlangan to'siq ko'rinishiga o'tadi.

Agar to'siq avtomobilning old yoki orqa qismiga yaqin (50 sm oralig'ida) joylashgan bo'lsa, panoramali tasvir rejimi avtomatik ravishda yuqoridan ko'rinishga o'tadi.

Harakatlanish paytida aylana ko'rishni qayd etish tizimi ✖

Aylanma kuzatuvni qayd etish tizimi harakat vaqtida avtomobilga o'rnatilgan 4 ta kamera (old, orqa, chap va o'ng) yordamida avtomobilning atrof-muhit tasvirini oladi va uni TF kartada saqlaydi. Yozib olingan videoni multimedia tizimi «in Call» displeyida ijro etish yoki kompyuter ekranida ko'rish mumkin.

TF kartani o'rnatish joyi: haydovchi markaziy tirsakqo'ygichi ichida.

ESLATMA

- Mashhur ishlab chiqaruvchilarning TF xotira kartalaridan foydalaning. O'qish va yozish tezligi CLASS 10 dan past bo'lmasligi kerak (uzatish tezligi kamida 10 MB). U1 (minimal yozish tezligi 10 MB/s) va undan yuqori markali TF kartalardan foydalanish tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan brendlar: Samsung, SanDisk, Panasonic, Sony va Kingston. Soxta va qalbaki kartalardan foydalanmang.
- Katta sig'imli 4 kamerali videoyozuvli

fayl. Kamida 8-64 Gb sig'imli xotira kartalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

- TF xotira kartasini birlamchi o'rnatishda tizim avtomatik ravishda xotira qurilmasi sig'imini to'rtta saqlash sohasiga ajratadi: uzluksiz oqimli video, favqulodda video sohasi, haydashda yordam videosi va fotosuratlar sektori.

- Uzluksiz oqimli video [loop video] papkasi to'liq to'ldirilgandan so'ng, tizim yozishni davom ettirish uchun eng eski video yozuvlarni avtomatik ravishda o'chirib tashlaydi.

- Avariya videoyozuvlari yoki fotosuratlar avtomatik o'chirilmaydi. Agar ajratilgan hajm 100% to'lishga yaqin bo'lsa, joyni qo'lda bo'shatish kerak. Aks holda, favqulodda yozuvlarni, fotosuratlarni yoki ekran suratlarini olish imkoni bo'lmaydi.

- TF kartasi nozik bo'lib, uzluksiz video va/yoki favqulodda yozuv vaqtida olib tashlanganda shikastlanishi mumkin. Joriy videoyozuvga zarar yetishi va uni qayta tiklab bo'lmazligi mumkin. Yozuv sikli yoki favqulodda yozuv tugaganidan keyin va tasvirning yuqori chap burchagidagi [Saqlash] so'zi yo'qolganidan keyin TF kartani chiqarib olish tavsiya etiladi.

- Xotira kartasi mavjud bo'lmasa yoki nosoz bo'lsa, videoni faqat real vaqt rejimida tomosha qilish mumkin va yozib olish yoki suratga olish funksiyalari ishlamaydi.

OGOHLANTIRISH

- Aylana kuzatuvni qayd etish tizimi kameralaridan olingan tasvir, kamera linzasining texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, haqiqiy masofani vizual ravishda o'zgartirish orqali saqlaydi;
- Kameraning ruxsat cheklovlari tufayli ba'zi obyektlar, masalan, ingichka to'siqlar, ustunlar, panjaralar va daraxtlar aks ettirilmaydi yoki aniq ko'rsatilmazligi mumkin;
- Almashtirgich [Loop Recording (davriy yozib olish)] yoqilganda, ko'rish va harakatni yozib olish tizimi harakat vaqtida fon rejimida ishlaydi;
- Ushbu usulda yozib olingan videolardan yo'l-transport hodisalari kabi dalillarni to'plash uchun foydalanish mumkin va boshqa noqonuniy maqsadlarda foydalanish mumkin emas.


Foydalanish

1. Videotasvirlarni saqlash uchun TF xotira kartasini sotib olish va uni kartalar slotiga o'rnatish kerak.
2. Avtomobilning elektr ta'minotini yoqing ("ON" holati). Multimedia tizimi displeyida saqlangan videoyozuvlarni ko'rish yoki mos sozlamalarni o'zgartirish uchun [Call View (Aylana kuzatuv video registratori)] tugmasini bosang.
3. [Driving record (Aylana kuzatuv videoregistratori)] interfeysida "Kamera," "Fotoalbom" va "Sozlamalar" rejimlaridan birini tanlash mumkin. Har bir funksiyaning

batafsil tavsifi quyida keltirilgan.


Kamera

Kamera rejimida real vaqt rejimida atrof-muhit videolarini ko'rish, yozib olish kalitini boshqarish va suratga olish mumkin.



Albom

Albom rejimida TF-kartada saqlanayotgan video yoki fotosuratlarini ko'rish va ijro etish/o'chirish/uzatish kabi amallarni bajarish mumkin.



Sozlamalar

- **Yozib olish vaqti:** Davriy yozuv rejimida bitta videoyozuvning davomiyligini o'rnatish.

sekinlashish $\geq 6 \text{ m/s}^2$);

- Favqulodda saqlash tugmasini bosish ✖.

Favqulodda videoni saqlash tugmasini bosish orqali kerakli videoni favqulodda

video sifatida saqlashingiz mumkin 

- **Xotira kartasini formatlash:** formatlash xotira kartasidagi barcha ma'lumotlarni o'chirib tashlashga olib keladi. Ushbu funksiyani tanlashda ehtiyot bo'ling.

Avariya holatlarini videoyozuv orqali qayd etish

Favqulodda vaziyatlar videoyozuvlarini kafolatli saqlash uchun favqulodda vaziyatlarning aylana ko'rinishini qayd qilish funksiyasi quyidagi holatlarda, favqulodda vaziyat sodir bo'lishidan 15 soniya oldin va keyin (jami taxminan 30 soniya) faollashtirilishi mumkin va maxsus ajratilgan favqulodda video papkasida saqlanadi. Tizim uni avtomatik ravishda o'chirib tashlay olmaydi.

Avtomatik ishga tushirish:

- Kuchli zarba yoki avtomobil to'qnashuvi bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari ochilishi;
- Keskin tormozlanish holatida (mutlaq

TO'XTASHDA AVTOMATIK YORDAM TIZIMI (APA5.0) ✖

Avtomatik to'xtash tizimi 4 ta aylana ko'rish kamerasi, 12 ta ultratovush datchigi va 1 ta kontrollerni o'z ichiga oladi va quyidagi funksiyalarni bajarishga imkon beradi:

- to'xtash joyini avtomatik qidirish;
- avtomatik to'xtash;
- avtoturargohdan avtomatik chiqish;
- past tezlikda avtomatik favqulodda tormozlash.

APA foydalanishda ehtiyot choralari

OGOHLANTIRISH

Avtomobilni to'xtatishda avtomatik yordam tizimi yordamchi funksiya bo'lib, haydovchini yo'l harakati sharoitlarini baholash va to'xtash joyini tanlash uchun shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Mavjud texnik cheklovlar tufayli tizim har doim ham o'z vaqtida avtomatik ravishda tegishli tarzda harakat qilavermaydi. Avtomobilni to'xtatishda avtomatik yordam tizimidan foydalanganda, to'xtash joyini qidirish va to'xtash jarayonini diqqat bilan nazorat qiling. Avtomobil harakatlanayotganda diqqatli va ehtiyotkor bo'ling va zarur hollarda avariya yo'l qo'ymaslik uchun avtomobilni boshqarish jarayoniga tezkor aralashuvga doimo tayyor turing, chunki baxtsiz hodisalar xavfi mavjud. Avtomatik to'xtash tizimi tanlangan to'xtash joyida sodir bo'lgan o'lchamlarning to'satdan

o'zgarishi yoki to'siqlarni (masalan, qo'shni transport vositalarining to'satdan harakatlanishi yoki to'xtash joyida odamlar yoki boshqa obyektlarning paydo bo'lishini) hisobga olmaydi. Avtomobil to'xtash joyini aniqlashda va avtomatik to'xtash jarayonida tizim avtomobilning yuklanishini va avtomobil o'lchamlaridan ortiq yukni tashish natijasida transport vositasi o'lchamlarining o'zgarishi mumkinligini hisobga olmaydi.

Tizim avtomobilning orqasidan yoki ikkala tomonidan yaqinlashib kelayotgan transport vositalarini aniqlay olmaydi va/yoki aylanib o'ta olmaydi. Avtomatik to'xtash paytida ehtiyot bo'ling.

Avtomobilda boshqa yo'lovchilar bo'lmasa, begona shaxslar va/yoki bolalar multimediya displeyi yoki mobil ilova yoki masofadan boshqarish funksiyasiga ega kalit yordamida avtomobil tashqarisidan avtomobilni harakatlantirishi mumkin. Baxtsiz hodisa xavfi mavjud. Tizimdan ruxsatsiz foydalanishga yo'l qo'ymang.

Avtomobil to'xtash datchiklari to'siqni aniqlagandagina to'xtaydi. Avtomobilning tormozlanishi faqat to'xtash radari tomonidan aniqlanmaydigan to'siqqa duch kelganidan keyin faollashtirilishi mumkin. Masalan, juda yassi to'siqlar yoki to'xtash datchiklari aniqlash diapazonidan tashqaridagi to'siqlar. Ehtiyot bo'ling, baxtsiz hodisalar yoki to'qnashuv, buyumlar va avtomobilga shikast yetish xavfi mavjud.

Avtomobil to'xtash joyini avtomatik qidirish

funksiyasidan foydalanganda, to'xtash datchiklari ishlashi cheklangani sababli, avtomobilning harakatlanish trayektoriyasi og'ishi mumkin, bu esa to'qnashuv xavfini keltirib chiqaradi. Avtoturargohda to'xtash jarayonini va avtomobil atrofidagi sharoitlarni diqqat bilan kuzatib boring.

Past tezlikda avtomatik shoshilinch tormozlash funksiyasi haydovchi harakatlarining o'rnini bosa olmaydi. Bu funksiyadan tezkor tormozlash uchun foydalanmang. Faqat ushbu funksiyaga tayanish tavsiya etilmaydi. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun yo'llardagi aniq vaziyatni diqqat bilan kuzatib borish kerak.

Past tezlikda avtomatik shoshilinch tormozlash funksiyasi ishga tushganda sekinlashish sezilarli bo'ladi va yo'lovchilar tormozlash paytida inersiya kuchlari ta'sirida kuchli turtkini his qilishlari mumkin.

ESLATMA

- Avtomatik to'xtash tizimi avtomobilni boshqarishda to'liq javobgar bo'lgan haydovchi harakatlarining o'rnini bosa olmaydi. To'xtash vaqtida haydovchi avtomobil atrofidagi muhitni diqqat bilan kuzatib borishi, avtomobil harakat tezligini nazorat qilishi va zarur hollarda avtomobilni boshqarishda faol ishtirok etishi kerak.
- Tizim avtomobil atrofidagi odamlar, hayvonlar yoki turli to'siqlarni aniqlamasligi mumkin. To'xtashda diqqatli va ehtiyot

bo'ling.

- Tizim aniqlash signallarini aks ettirmaydigan yuzali obyektlarni, masalan, tegishli kiyimdagi odamlarni aniqlamasligi mumkin.
- Tashqi begona tovush manbalari tizimning ishlashiga xalaqit berishi mumkin, natijada tizim datchiklari to'siqlarni to'g'ri aniqlay olmaydi va tizim mavjud bo'lmagan to'siqlar haqida noto'g'ri ma'lumot berishi mumkin (ba'zan esa noto'g'ri ishlaydi).
- Tizim to'xtash joyidagi obyektlarni aniqlamasligi mumkin (masalan, yer sathidan yuqorida yoki pastda joylashgan obyektlar: chegaralar, tekis qoplamalar, katta o'yiqlar va ochiq quduq (chuqur) va boshqalar, ular yer sathidan yuqorida yoki pastda bo'lsa).
- Tizim kvadrat ustunlar bilan chegaralangan nostandart yon to'xtash joyida to'xtashni qo'llab-quvvatlamaydi.
- Datchik yo'l qoplamasida chuqur borligini aniqlay olmaydi. Avtomobil shikastlanmasligi uchun tizimni tosh yotqizilgan yo'llarda boshqarmang.
- Avtomobilning qulashining oldini olish uchun yo'lning balandligi sezilarli darajada farq qiladigan tomonida (jarlik, qoya tomoni yoki qo'shni yo'l qoplamasidan yuqori darajadagi to'xtash joyida), shuningdek, trotuarlar, panduslar, bordyurlar yoki zinapoyalarda tizimdan foydalanmang;
- To'qnashuv xavfini oldini olish uchun qattiq qoplamali va jadal harakatli yo'llarda tizimdan foydalanmang.

OGOHLANTIRISH

Avtomatik to'xtash tizimi tanlangan to'xtash joyida to'satdan o'lchamlarning o'zgarishi yoki to'siqlarga (masalan, yonma-yon joylashgan transport vositalarining to'satdan harakatlanishi yoki to'xtash joyida odamlar yoki boshqa obyektlarning paydo bo'lishi) munosabat bildiradi olmaydi. Tizim avtomobilning orqasida yoki har ikki tomonidan yaqinlashayotgan transport vositalarini aniqlay olmaydi yoki aylanib o'ta olmaydi. Avtomatik to'xtashda ehtiyot bo'ling. To'xtash joyi o'lchami mosligini va avtomatik to'xtash uchun bo'shligini tekshiring. Har doim shoshilinch tormozlashga tayyor turing.

Ultratovush o'lchash usuli bilan to'siqlarni va maqsadli to'xtash joyini aniqlash fizika qonunlari bilan cheklangan. Quyida bunday holatlarga bir nechta misollar keltirilgan:

- Ingichka yoki uch o'lchamli obyektlar (pona shaklidagi);
- To'xtash joyi tros bilan chegaralangan/yopilgan;
- Baland joylashgan obyektlar va/yoki bo'rtiqlar (masalan, devordagi bo'rtiqlar yoki bo'rtib chiqqan yuklar).
- O'tkir burchakli va qirralari o'tkirlangan obyektlar;
- Yupqa yuza yoki qatlamga ega bo'lgan obyekt, masalan, devor/to'r.
- Obyekt aniqlash diapazonidan yuqorida joylashganda, datchik uni aniqlay olmaydi va

to'xtashda avtomatik yordam tizimi ishlayotganda avtomobilni o'z vaqtida to'xtata olmaydi

- Manzilni aniqlashga ta'sir qiluvchi boshqa vaziyatlar.

OGOHLANTIRISH

• To'xtash joyini qidirish va to'xtashni yakunlash jarayonida tizimning ishlashini diqqat bilan nazorat qiling. Avtomatik to'xtash rejimidan chiqishda avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.

• To'xtash joyini qidirish jarayonida tizimdan chiqishda - avtomatik to'xtash rejimi yakunlanadi va avtomobil faol boshqaruv rejimiga o'tadi.

• Avtomatik to'xtash vaqtida tizim kerakli uzatmani mustaqil ravishda tanlaydi, rul mexanizmini, tormozlarni va drossel zaslonkasini boshqaradi.

• To'xtash joyiga o'tishdan oldin to'xtashda avtomatik yordam tizimini (APA) faollashtirish tavsiya etiladi. Agar tizim oldindan faollashtirilmagan bo'lsa, uni tegishli to'xtash joyga o'tganingizdan keyin yoqish mumkin. APA tizimi avtomobil soatiga 27 km dan kam tezlikda harakatlanganda fon rejimida to'xtash joyini qidirish imkoniyatiga ega. Tizim xotirasida saqlash mumkin bo'lgan maksimal masofa 10 metrdan oshmaydi.

• To'xtash joyini qidirishda, avtomobil, to'xtash joyini cheklaydigan to'siqlardan 0,5 m - 1,5 m oralig'idagi masofani kuzatib boradi.

Agar to'xtash joyi tizim yetib borish zonasidan tashqarida bo'lsa, uni aniqlab bo'lmaydi.

• To'xtash joyini qidirayotganda avtomobilni to'g'ri chiziqda boshqarishga va yaxshiroq aniqlash uchun to'xtash joyidan to'liq o'tishga harakat qiling.

• Vertikal va diagonal to'xtash joylari uchun ushbu to'xtash rejimidan foydalanmang.

• Xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomatik to'xtashni faollashtirishda xavfsizlik kamarlari taqilgan, eshiklar yopiq, avtomobilning avtomatik to'xtash selektori esa "M" (Manual qo'lda rejimi) holatida emasligiga ishonch hosil qiling.

• Masofaviy kirish funksiyasini faollashtirish uchun eshiklar yopiq, avtomobil AUO'Q selektori esa "P" holatida ekaniga ishonch hosil qiling.

ESLATMA

• To'xtashda avtomatik yordam tizimi quyidagi to'siqlar mavjud bo'lganda to'xtashda qo'llanilmaydi: velosiped yoki motorsiz uch g'ildirakli velosiped; uzluksiz jismoniy shaklga ega bo'lmagan past kuzovli transport vositalari (masalan, katta yuk mashinalari; avtosisternalar, tirkamalar va boshqalar); yoki jismoniy shaklga ega bo'lmagan to'siqlar (masalan, yo'l belgilari, to'xtash joylari cheklagichlari, yer usti to'siqlar va chegara toshlari).

• Tizimdan yo'l qoplamasiga nisbatan

balandlik farqi mavjud bo'lgan yuzalarda foydalanish tavsiya etilmaydi.

- Avtomobilni to'xtash joyida to'xtatishdan oldin to'siqlarning yo'qligiga ishonch hosil qiling, masalan: chegara toshlari, ingichka ustunlar, tortilgan arqonlar yoki tirkamaning tortish-tirkash moslamasi, chunki tizim bu to'siqlarni aniqlamasligi mumkin.

- Tizim ba'zi obyektlarni, masalan, sim devor va momiq qorni aniqlay olmasligi mumkin.

- Tizim tomonidan aniqlangan to'xtash joyi to'xtash uchun yaroqli ekaniga ishonch hosil qiling. Tizim to'xtash uchun qulay joy sifatida yo'laklar, darvozalar va eshik o'yiqlari, shuningdek chorrahalar aniqlashi mumkin.

- Tizim g'ildirak aylanasi hisoblash asosida avtomobilning to'xtash joyigacha bo'lgan harakat trayektoriyasini modellashtiradi. Agar avtomobilga sirpanishga qarshi zanjirlar bilan jihozlangan tavsiya etilmaydigan o'lchamdagi g'ildiraklar o'rnatilgan bo'lsa yoki avariya yoxi shinalardagi bosim tavsiya etilgan bosimga mos kelmasa, u holda tizim noto'g'ri ishlashi va avtomobilning to'xtash joyi yakuniy joylashuvda xatoliklar kuzatilishi mumkin.

- Avtomobilda tashilgan yuk avtomobil o'lchamidan katta bo'lsa, avtomatik yordam tizimidan foydalanmang.

- Avtomobilga sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilgan bo'lsa, to'xtashda avtomatik yordam tizimidan foydalanmang.

To'xtash joyini avtomatik qidirish funksiyasi

To'xtash joyini avtomatik qidirish funksiyasi haydovchiga to'xtash joyini topishga va avtomatik to'xtashni amalga oshirishga yordam beradi.


1. Avtomobil aniq yo'naltiruvchi yo'l chiziqlari bo'lgan to'xtash joyiga kirgandan so'ng, tugmani bosing ;

2. Tizim to'xtash joyini qidirish funksiyasini [Self-Search Parking (To'xtash joyini avtomatik qidirish)] faollashtiradi va undan foydalanishni boshlaydi;

3. Haydovchi bo'sh to'xtash joyi mavjudligini tasdiqlagandan so'ng, funksiya faollashadi, avtomobil avtomatik ravishda tegishli to'xtash joyini qidiradi va to'xtash joyi aniqlangandan so'ng, avtomobil avtomatik ravishda to'xtash joyiga qo'yiladi.

Avtomobil to'xtash joyini avtomatik qidirish

Funksional displey



① Tizim yoqilgan, avtomobilda to'xtash joyini avtomatik qidirish funksiyasi faollashtirilgan;

② Tizim avtomatik ravishda oldinda to'xtash joylarini qidiradi;

③ Tizim to'xtash joyini aniqlaydi va to'xtaydi;

④ To'xtashni boshlash;


⑤ To'xtashni tugatish;

Avtomatik to'xtash tizimining ishlashi paytida harakatlar ketma-ketligi

1. Dvigatelni ishga tushiring;

2. AUO'Q selektori avtomatik rejimda. Avtomatik to'xtashni faollashtirish uchun

markaziy boshqaruv panelidagi APA  tugmasini bosing. Agar avtomatik to'xtash uchun barcha shartlarga rioya qilinsa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida yashil tugma paydo bo'ladi [Self-search parking (To'xtash joyini avtomatik qidirish)].



3. [Self-Search Parking (To'xtash joyini avtomatik qidirish)] tugmasi bosilganda, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida ikkita variantni tanlash imkoniyati paydo bo'ladi: [Start Parking (To'xtashni boshlash)] va


[Remote Parking (Masofaviy to'xtash)]. [Start Parking (To'xtashni boshlash)] tugmasi bosilsa, to'xtash joyini mustaqil qidirish funksiyasi bevosita avtomobildan faollashtiriladi.




- Agar shu paytda avtomobil to'liq to'xtatilmagan va harakatda bo'lsa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Please step on the brake pedal to stop (To'xtash uchun tormoz pedalini bosing)] xabari paydo bo'ladi.



- Agar avtomobil harakatsiz bo'lsa yoki haydovchi uni ko'rsatmalarga muvofiq to'xtatgan bo'lsa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Please release the brake pedal and leave the steering wheel with both hands (Tormoz pedalini qo'yib yuboring va ikkala qo'lingizni rul g'ildiragidan oling)] xabari paydo bo'ladi.



4. Tavsiflangan amallar to'g'ri bajarilgandan so'ng, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Attitude adjustment, automatically searching for parking spaces (Holatni baholash, to'xtash joylarini avtomatik qidirish)] xabari paydo bo'ladi va bu vaqtda avtomobil to'xtash joylarini mustaqil avtomatik qidirish jarayoniga o'tadi.




5. Tizim to'xtash joyini aniqlagandan so'ng, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Find a parking space and start parking (To'xtash joyi topilni, to'xtashni amalga oshirishni istaysizmi?)] xabari paydo bo'ladi.



6. Avtoturargohda to'xtash tugallangandan

so'ng, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Parking Completed (To'xtash tugallandi)] xabari paydo bo'ladi va tizim avtomatik ravishda AUO'Qni "P" holatiga o'tkazadi va avtomobil to'xtash tormozi ishga tushiriladi.



Avtomatik to'xtatish

1. Dvigatelni ishga tushirilgan;
2. Avtomobilning harakat tezligi soatiga 20 km dan oshmasa va AUO'Q selektori avtomatik rejimda ishlaganda. Avtomatik to'xtashni faollashtirish uchun markaziy boshqaruv panelidagi APA  tugmasini bosing.



3. Avtomobilni boshqarayotganda, tizim avtomobil harakat yo'nalishining har ikki tomonida to'xtash joylarining mavjudligini avtomatik ravishda kuzatib borishiga ishonch hosil qiling. Har safar to'xtash joyi aniqlanganda ko'p funksiyali "in Call" tizimi

displeyida mavjud to'xtash joylari va ularning joylashuvi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.



4. Mavjud to'xtash joylari haqidagi ma'lumotlar ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida dinamik ravishda aks ettiriladi.

Agar tizim bir nechta to'xtash joylarini aniqlasa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida afzal ko'rilgan to'xtash joyini tanlang va to'xtashni boshlash uchun uning sxematik rasmini bosing.

Agar tizim faqat bitta to'xtash joyini aniqlasa, u holda ushbu to'xtash joyini birlamchi tarzda tanlaydi. Shu paytda to'xtash uchun tormoz pedalini bosish kerak.


5. Ma'qul to'xtash joyi tanlangandan so'ng, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Start Parking (To'xtashni boshlash)] xabari paydo bo'ladi. [Start Parking (To'xtashni boshlash)] tugmasi bosilganda, avtomatik to'xtash rejimi faollashtiradi.



- Agar shu paytda avtomobil to'liq to'xtatilmagan va harakatda bo'lsa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Please step on the brake pedal to stop (To'xtash uchun tormoz pedalini bosing)] xabari paydo bo'ladi.



- Agar avtomobil harakatsiz bo'lsa yoki haydovchi uni ko'rsatmalarga muvofiq to'xtatgan bo'lsa, ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyida [Please release the brake pedal and leave the steering wheel with both hands (Tormoz pedalini qo'yib yuboring va ikkala qo'lingizni rul g'ildirigidan oling)] xabari paydo bo'ladi. Avtomatik to'xtash jarayonini boshlash uchun tormoz pedalini qo'yib yuboring.




Avtomatik to'xtash jarayoni haydovchi tomonidan boshqaruv organlariga hech qanday ta'sir ko'rsatishni nazarda tutmaydi, lekin xavfli vaziyatlar yuzaga kelganda

avtomobilni boshqarishga kafolatlangan tezkor aralashish uchun avtomobil harakatlanishi paytida atrof-muhitga doimiy e'tibor va nazoratni talab qiladi.



6. Avtomobil tanlangan to'xtash joyida to'xtatilgandan so'ng, tizim to'xtash jarayoni [Parking Complete (To'xtash tugallandi)] tugagani haqida xabar beradi va avtomatik ravishda uzatmani "P" holatiga o'tkazadi va to'xtash tormozini faollashtiradi.



To'tash joyidan chiqishda harakatlar ketma-ketligi


1. Dvigatelni ishga tushiring;
2. Avtomobil harakatsiz, AUO'Q sektori "R" holatida.
3. To'xtash joyidan avtomatik chiqish funksiyasini faollashtirish uchun markaziy boshqaruv panelidagi APA  tugmasini

bosing.

4. To'xtash joyidan avtomatik chiqish funksiyasini faollashtirish uchun "In Call" ko'p funksiyali tizimi displeyida to'xtash joyidan chiqish yo'nalishini tanlang va tasdiqlang.



5. Tormoz pedali bosilganda ko'p funksiyali "In Call" tizimi displeyida [Please releases the brake pedal and leaves the steering wheel with both hands (Tormoz pedalini qo'yib yuboring va ikkala qo'lingizni rul g'ildiragidan oling)] xabari paydo bo'ladi. To'xtash joyidan avtomatik chiqish jarayonini boshlash uchun tormoz pedalini qo'yib yuboring.



To'xtash joyidan avtomatik chiqish jarayoni haydovchi tomonidan boshqaruv organlariga hech qanday ta'sir ko'rsatishni nazarda tutmaydi, lekin xavfli vaziyatlar yuzaga kelganda avtomobilni boshqarishga kafolatlangan tezkor aralashish uchun avtomobil harakatlanishi paytida

atrof-muhitga doimiy e'tibor va nazoratni talab qiladi.



6. "In Call" ko'p funksiyali tizimining displeyida jarayon tugallangunga qadar jarayon haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi [Parking completed, please take over the vehicle (To'xtash joyi tugallandi, avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling)].



Ko'p funksiyali "In Call" tizimi displeyida yon tomonda to'siq mavjudligi haqida tovushli ogohlantirishni sozlash mumkin - [vehicle settings (avtomobil sozlamalari)] - [parking assistance (to'xtashda yordam)] - [side protection sound alarm (yon tomonda to'siq borligi haqida tovushli ogohlantirish)].




Avtomobilning yon tomonida to'xtash radarlari tizimi yordamida aniqlangan to'siqlar haqida tovushli xabar berish funksiyasi to'siq aniqlanganda ularning avtomobilning yon tomonida mavjudligi haqida asboblarning panelidagi tegishli tasvir va tovushli ogohlantirish bilan xabar beradi. Ushbu parametr yordamida ovozli xabarni darhol yoqish yoki o'chirishni sozlash mumkin.

Avtomatik to'xtash rejimidan chiqish

- To'xtash joyini qidirishda avtomobilning harakat tezligi soatiga 30 km dan oshsa.
- To'xtash joyida, avvalroq faollashtirilgan so'rovga muvofiq, 60 soniya davomida harakat kuzatilmasa.
- Avtomatik to'xtash tugmasini qayta bosish.
- ESC kurs barqarorligi elektron tizimini o'chirish.
- Avtomobil harakatlanayotganda rul g'ildiragini faol boshqarish.
- Avtomobilni to'xtatish vaqtida haydovchi 180 soniya davomida xavfsizlik kamarini taqmasa yoki avtomobil eshigini yopmasa.

Kalit yordamida avtomobilni masofadan turib to'xtatish

1. Dvigatelni ishga tushiring;
2. Avtomobilning harakat tezligi soatiga 20 km dan oshmasa va AUO'Q selektori avtomatik rejimda ishlaganda. Avtomatik to'xtashni faollashtirish uchun markaziy boshqaruv panelidagi APA  tugmasini bosing.



3. Avtomobilni boshqarayotganda, tizim avtomobil harakat yo'nalishining har ikki tomonida to'xtash joylarining mavjudligini avtomatik ravishda kuzatib borishiga ishonch hosil qiling. Har safar to'xtash joyi aniqlanganda ko'p funktsiyali "in Call" tizimi displeyida mavjud to'xtash joylari va ularning joylashuvi haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.



4. Mavjud to'xtash joylari haqidagi

ma'lumotlar ko'p funktsiyali "in Call" tizimi displeyida dinamik ravishda aks ettiriladi. Agar tizim bir nechta to'xtash joylarini aniqlasa, ko'p funktsiyali "in Call" tizimi displeyida afzal ko'rilgan to'xtash joyini tanlang va to'xtashni boshlash uchun uning sxematik rasmini bosing.

Agar tizim faqat bitta to'xtash joyini aniqlasa, u holda ushbu to'xtash joyini birlamchi tarzda tanlaydi. Shu paytda to'xtash uchun tormoz pedalini bosish kerak.

5. Ma'qul to'xtash joyi tanlangandan so'ng, ko'p funktsiyali "in Call" tizimi displeyida ikkita variant paydo bo'ladi [Start Parking (To'xtashni boshlash)] va [Remote Parking (Masofaviy to'xtash)] [Remote Parking (Masofaviy to'xtash)] tugmasi bosilganda, tizim avtomatik ravishda "P" rejimiga o'tadi va avtomobilning to'xtash tormozini faollashtiradi.




6. Masofaviy to'xtash joyini faollashtirish uchun kalitdagi tugmani  2 soniyadan ortiq bosib turing.

Avtomatik to'xtash jarayoni haydovchi tomonidan boshqaruv organlariga hech qanday ta'sir ko'rsatishni nazarda tutmaydi,

lekin xavfli vaziyatlar yuzaga kelganda avtomobilni boshqarishga kafolatlangan tezkor aralashish uchun avtomobil harakatlanishi paytida atrof-muhitga doimiy e'tibor va nazoratni talab qiladi.



7. Avtomobil ko'rsatilgan to'xtash joyida to'xtatilgandan so'ng, tizim to'xtash tugaganligi haqida xabar beradi [Parking completed, (To'xtash tugallandi)], avtomatik ravishda "P" holatiga o'tadi va avtomobilning to'xtash tormozini faollashtiradi.




Kalit yordamida masofadan boshqarish

CHANAGAN UNI-T avtomobili masofadan boshqarish funktsiyasi bilan jihozlangan. Ushbu zamonaviy tizim masofadan boshqarish pulti bo'lgan SMART-kalit avtomatik ravishda avtoturargohga kirish va undan chiqish imkonini beradi. Shunday qilib, tizim perpendikulyar joylashgan tor to'xtash joyida (garajlar va avtoturargohlar) to'xtashga

yordam beradi, bu yerda haydovchi avtomobilga qulay o'tirishi va undan chiqishi imkoni mavjud emas. Dvigatelni masofadan

boshqarish tugmasi  yordamida ishga tushirish mumkin (dvigatelni masofadan ishga tushirishda tizim avtomatik ravishda konditsionerni yoqadi) yoki dvigatel ishlaganda to'xtash joyiga kirish va chiqish uchun masofadan boshqarish pultidan foydalanish mumkin.



Masofadan boshqarish uchun harakatlar ketma-ketligi

1. Dvigatelni masofadan ishga tushirgandan so'ng, avtomobil "P"- to'xtash rejimida bo'ladi.
2. Tizimni faollashtirish uchun masofadan boshqarish pultli kalitdagi  tugmani bosib turing. Avtomobilning favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi yoqiladi va tizim faollashadi.
3. Tizim faollashgandan so'ng, vaziyatdan kelib chiqib, avtomobilning oldinga yoki ortga harakatini boshqarish uchun masofadan boshqarish pulti kalitidagi "D" (OLDINGA)  yoki "R" (ORTGA)  tugmasini bosib turing.

Bu amal tizim faollashtirilganidan (avariya signalizatsiyasi yoqilganidan) keyin 15 soniya ichida bajarilishi kerak. Aks holda, tizim avtomatik ravishda o'chiriladi. Avtomobil kerakli masofani bosib o'tgach, tizim uni avtomatik ravishda to'xtatadi va to'xtash tugagandan so'ng, favqulodda yoritish signalizatsiyasi o'chiriladi. Masofaviy to'xtash tugagandan so'ng, avtomobilni masofadan boshqarish kaliti yordamida majburiy ravishda o'chirish va qulflash kerak.

4. Masofaviy to'xtash vaqtida avariya holatining oldini olish uchun istalgan vaqtda masofadan boshqarish pultidagi "D" (OLDINGA) yoki "R" (ORTGA) tugmasini qo'yib yuboring va avtomobil darhol to'xtaydi va tugmani bosish orqali keyingi buyruqni kutadi. Agar 15 soniya davomida masofadan boshqarish pultidagi biror tugmani bosish buyrug'iga amal qilinmasa, tizim avtomobilni majburan to'xtatadi, yorug'lik signalizatsiyasini o'chiradi va faolsizlantiriladi. Avtomobilni masofadan boshqarish rejimidan chiqish tugmani qisqa vaqt bosish orqali amalga  oshiriladi. Masofaviy to'xtash tugagandan so'ng dvigatelni majburiy o'chirish va avtomobilni masofadan boshqarish pultli kalit yordamida qulflash kerak.

Masofadan boshqarish rejimidan chiqish

Masofadan boshqarish pulti orqali avtomobilni boshqarish quyidagi holatlarda


avtomatik ravishda o'chiriladi:

- Avtomobilning istalgan eshigi, dvigatel kapoti yoki bagaj bo'limi eshigi ochiq bo'lsa;
- tormoz yoki akselerator pedali bosilganda (masalan, avtomobildagi yo'lovchi tomonidan);
- Tashqi aralashuv;
- Elektromexanik to'xtash tormozi yoqilgan yoki uzatmalar tutqichi selektori surilganda (avtomobildagi yo'lovchi yordamida);
- Avtomobilning tizimda belgilangan maksimal harakatlanish masofasi oshib ketgan bo'lsa;
- masofadan boshqarish pultidagi boshqa tugma bosilsa;
- Tizim xatoligi;
- Tizim nosozligi yoki ultratovushli to'xtash datchiklarining ifloslanishi;
- 7 martadan ortiq oldinga va orqaga masofadan boshqarish rejimini faollashtirish;
- Masofadan boshqarish pulti tugmasi qo'yib yuborilgan;
- Tashqi begona to'siqlar, interferensiyon shovqin;
- Avtomobil tizimi tomonidan to'siqgacha bo'lgan belgilangan minimal ruxsat etilgan masofaga erishilganda;
- Tizim harakat yo'nalishida yoki avtomobil yonida to'siqni aniqlaganda avtomobilni 15 soniya to'xtatadi.
- Yo'lovchi ko'p funksiyali "in Call" tizimi displeyidagi masofaviy boshqaruv interfeysidan chiqish tugmasini bosganda.
- Avtomobil juda tik qiyalikda

joylashganda.

Avtomobilni masofadan boshqarish sozlamasi

Avtomobilni masofadan boshqarish funksiyasini sozlash, aniqlangan to'siqlar haqida ovozli xabar berish va avtomobil harakatining yo'l qo'yiladigan xavfsiz masofasini o'rnatish uchun ko'p funktsiyali "in Call" tizimi displeyidan [Vehicle Settings (Avtomobil sozlamalari)] - [Parking assistance (To'xtashda yordam tizimi)] - [Side protection sound alarm (To'siqlar mavjudligi haqida ovozli xabar)], [Remote parking distance (Masofaviy to'xtash masofasi)] va [Remote safety parking distance (to'xtash uchun xavfsiz masofa)] ni tanlang.



Avtomobilning yon tomonida to'xtash radarlari tizimi yordamida aniqlangan to'siqlar haqida tovushli xabar berish funksiyasi to'siq aniqlanganda ularning avtomobilning yon tomonida mavjudligi haqida asboblari panelida tegishli tasvir va tovushli ogohlantirish orqali xabar beradi. Ushbu parametr yordamida ovozli xabarni darhol yoqish yoki o'chirishni sozlash mumkin.

Harakat masofasi sozlash yoqilgandan

keyin avtomobil oldinga o'tishi mumkin bo'lgan bir masofaga belgilanadi. Standart ravishda o'rnatilgan harakat masofasi 4 m. Xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobilning elektr ta'minoti qayta ishga tushirilgandan so'ng, birlamchi sozlamalar faollashtiriladi.

Xavfsiz masofa - bu avtomobil to'xtatilgandan keyin uning old tomonida yoki orqasida masofadan boshqarish rejimida aniqlangan to'siqlar orasidagi masofa. Tizim tomonidan o'rnatilgan birlamchi masofa - aniqlangan to'siqdan 0,3 m.

Avtomatik to'xtash rejimidan chiqish

Tizim quyidagi holatlarda avtomatik ravishda to'xtatiladi:

- To'xtash joyini qidirishda avtomobilning harakat tezligi soatiga 30 km dan oshsa.
- To'xtash joyida, avvalroq faollashtirilgan so'rovga muvofiq, 60 soniya davomida harakat kuzatilmasa.
- Avtomatik to'xtash tugmasini qayta bosish.
- ESC kurs barqarorligi elektron tizimini o'chirish.
- Avtomobil harakatlanayotganda rul g'ildiragini faol boshqarish.
- Avtomobilni to'xtatish vaqtida haydovchi 180 soniya davomida xavfsizlik kamarini taqmasa yoki avtomobil eshigini yopmasa.
- Avtomobil masofadan boshqarish pulti yordamida harakatlanayotganda, avtomobilning oldida yoki orqasida aylanib

o'tib bo'lmaydigan harakatsiz to'siq borligi aniqlansa. Biroz vaqt o'tgach, tizim o'chiriladi.


Past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash funksiyasi

Tizim tavsifi

Agar tizim faollashtirilsa va avtomobil tezligi soatiga 10 km dan oshmasa, avtomobil real vaqt rejimida harakat yo'nalishidagi mumkin bo'lgan to'siqlarni kuzatib boradi va xavf aniqlanganda, to'qnashuvdan qochish yoki zararni kamaytirish uchun avtomatik ravishda harakatni to'xtatadi. Past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash funksiyasi odatiy ravishda yoqiladi.

Funksiyani faollashtirish va o'chirish

Past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash funksiyasini yoqish va o'chirish uchun ko'p funktsiyali "in Call" tizimi ekranida [Vehicle Settings (Avtomobil sozlamalari)] - [Safety Assistance (Xavfsizlik yordamchilari)] - [Auto Emergency Braking (Favqulodda avtomatik tormozlash)]- [Low-speed Auto Emergency Braking (Past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash)] bandini tanlang.



Tizim ishlashi

1. Agar past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash tizimi faollashtirilganda avtomobil harakat trayektoriyasida to'qnashuv xavfi yuzaga kelsa, avtomobil past tezlikda favqulodda avtomatik tormozlash funksiyasini faollashtiradi. Asboblar panelida [low-speed automatic emergency braking past tezlikda shoshilinch avtomatik tormozlanish] ogohlantirish paydo bo'ladi.

2. Avtomobil favqulodda avtomatik to'xtatilgandan so'ng, tizim elektromexanik to'xtash tormozini faollashtiradi.

Funksiyani o'chirish

1. Tizim yordamida avtomobil to'liq to'xtaganidan keyin tizim harakati 3 soniyadan so'ng o'chadi;

2. Agar favqulodda avtomatik tormozlash jarayonida tizim haydovchining tormoz pedalini tezda bosganligini aniqlasa, tizim funksiyalari majburan o'chiriladi.

AVTOMOBIL XAVFSIZLIGI BO'YICHA YORDAMCHILAR

Avtomatik favqulodda tormoz tizimi (AEB) ✖

Favqulodda to'xtashda avtomobilga yordam berishning avtomatik tizimi old to'qnashuv to'g'risida ogohlantirish tizimini va favqulodda tormozlanishning avtomatik tizimini o'z ichiga oladi.

Oldinda harakatlanayotgan transport vositasi bilan to'qnashuv xavfi yuzaga kelganda old to'qnashuv to'g'risida ogohlantirish tizimi haydovchini tormozlash zarurligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi.

Agar haydovchi tomonidan beriladigan tormozlash kuchi yetarli bo'lmasa, u holda shoshilinch tormozlashda avtomatik yordam ko'rsatish tizimi haydovchiga to'xtashga yordam beradi. Agar haydovchi tizimning ogohlantirishlariga javob bermasa yoki kechikib javob bersa, u holda avariya tormozlash tizimi to'qnashuvdan qochish yoki to'qnashuv natijasida yetkazilgan shikastlarni kamaytirish uchun to'qnashuvdan oldin sekinlashish uchun zarur bo'lgan tormoz kuchini ishga soladi. Ushbu bo'lim bilan diqqat bilan tanishib chiqing.

OGOHLANTIRISH

Favqulodda tormozlashda avtomatik yordam tizimi (AEB) haydovchiga faqat ma'lum vaziyatlarda yordam berishi

mumkin. Avtomobilni boshqarishda e'tiborli bo'lish va vaziyatni to'liq nazorat qilish kerak. Haydovchi avtomobilni boshqarish va to'qnashuv xavfi uchun javobgardir. Faol haydash rejimida yoki haydovchi to'qnashuv xavfini mustaqil ravishda chetlab o'tib, tizimning ishlashiga xalaqit berganda shoshilinch tormozlash tizimi ishlamaydi. Bunday vaziyatda tizim haydovchi harakatlariga to'sqinlik qilmaydi.

Tizim oldinda joylashgan, shu harakat yo'lagida harakatlanayotgan transport vositalariga munosabat bildirishi mumkin. Tizim qarama-qarshi yo'nalishda, yon tomondan harakatlanayotgan transport vositalari, harakatsiz yoki sekin harakatlanayotgan transport vositalari, shuningdek hayvonlar va boshqa yo'l obyektlari holatida ishlamaydi.

Fusion model kameralari quyidagi obyektlarga munosabat bildirishi mumkin: oldinda bitta harakat yo'lagida joylashgan piyodalar, harakatsiz transport vositalari yoki ikki g'ildirakli transport vositalari (mototsikllar va velosipedlar).

Faqat tizim ishlashiga tayanish, tizimni qasddan sinab ko'rish tavsiya etilmaydi. Tizim ishga tushishini kutmang

Tizimning o'ziga xos cheklavlari tufayli yolg'on ishga tushishdan butunlay qochib bo'lmaydi.

Avtomobilni favqulodda to'xtatishda avtomatik yordam tizimi va adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) oldinda bo'lgan transport

vositasini aniqlash uchun millimetrli to'liqlar diapazonidagi bitta oldingi radardan foydalanadi. Integratsiyalashgan adaptiv kruiz nazorati tizimi bilan jihozlangan modellarda shoshilinch tormozlashda avtomatik yordam ko'rsatish tizimi millimetrli to'liqlar diapazonidagi old radar va old kameradan foydalanadi. Radar ishidagi cheklovlar tizimning ishlashiga, shu jumladan oldindagi obyektlarni aniqlashga ta'sir qilishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

Murakkab ob-havo va iqlim sharoitlarida, yo'ldagi zich vaziyatda va tashqi omillar ta'sirida avtomobildan foydalanishda radiolokator oldinda joylashgan transport vositalarini aniqlashni kafolatlay olmaydi. Agar radiolokator transport vositalarini aniqlay olmasa, tizim to'g'ri ishlamaydi.

1. Avtomobildan murakkab ob-havo sharoitlarida (yomg'ir, qor, do'l va boshqalar), past manfiy haroratlarda va sirpanchiq yo'l qoplamalarida (muz, qor, nam yoki botqoq yo'llar) va kuchsiz yoritilganlik sharoitlarida foydalanish kamera tomonidan obyektlarni tanib olishga ta'sir qilishi va shoshilinch tormozlashda avtomatik yordam tizimining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

2. Tizimning ish unumdorligi sezilarli darajada pasayadi va qayta joylashtirish, harakat yo'lagini almashtirish va/yoki qisqa masofada keskin burilishlar va favqulodda to'xtashlarda, tizim tomonidan yangi obyektlar aniqlanganda aniqlash diapazonidan chetga

chiqadigan obyektlarni aniqlashda keng cheklovlarga duch keladi.

3. Radiolokator tizimining ishlashiga atrof-muhit omillari (elektr maydonining ta'siri, yer osti avtomobil to'xtash joyi, tunnellar, metall ko'priklar va temir yo'l kesishmalari, qurilishlar, yuqori balandlikdagi darvozalar va boshqalar) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular aniqlanganda, tizimning ish samaradorligi pasayadi va/yoki triggerning yolg'on ishga tushish soni ortadi.

4. Radiolokatorning kalibrlanishiga kuchli yoki yengil zarba yoki tebranish ta'sir qilishi mumkin. Tizimning ish samaradorligi pasayishi va/yoki yolg'on ishga tushirishlar soni oshishi mumkin. Agar kerak bo'lsa, radiolokatorning holatini tekshiring yoki uni qayta kalibrlang.

5. Ekstremal ob-havo va yomon ko'rish sharoitida kamera ishga tushmasligi mumkin. Yomg'ir, qor, tuman va yorug'likning yetarli emasligi kamera tomonidan piyodalarni aniqlashga ta'sir qilishi va tormoz tizimi va piyodalarni aniqlash samaradorligini pasaytirishi mumkin.

6. Kamera loy, qush axlati, muz, hasharotlar va boshqalar bilan ifloslanganda, tizim noto'g'ri ishlashi mumkin. Old oynani, ayniqsa datchik/kamera yaqinini ta'mirlash (salon ichidagi orqa ko'rish oynasi yaqinida joylashgan) qat'iyon taqiqlanadi. Old oyna shikastlangan bo'lsa, uni almashtirish kerak.

7. Avtomobil tuzilmasini o'zgartirish yoki uni modifikatsiya qilish (masalan, yo'l oralig'ini kamaytirish, avtomobil old panel/ bamperini

o'zgartirish va h.k.) tizimning ish samaradorligini pasaytirishi va/yoki triggerning yolg'on ishga tushishi sonini oshirishi mumkin, bu esa tizimdan foydalanishning imkonsizligiga olib keladi.

Tizimni faollashtirish

Tizimni multimedia tizimi displeyi orqali faollashtirish/o'chirish mumkin. ["Vehicle settings" (Avtomobil sozlamalari)] → [Driving (Avtomobilni boshqarish)] → ["Safety assistance" (Xavfsizlik tizimlari)] bo'limini bosing. "Front collision warning" (Old to'qnashuv haqida ogohlantirish) va "Auto emergency braking" (Avtomatik favqulodda tormozlash) kabi ikkita kichik funksiyani faollashtirish va o'chirish mumkin.

OGOHLANTIRISH

Favqulodda tormozlash avtomatik tizimi fon rejimida ishlaydi va haydovchiga sezilmaydi. Agar tizim oldinda kelayotgan avtomobilni aniqlasa, belgilangan xavf darajasiga yetguncha ogohlantirish yoki avtomatik tormozlash amalga oshirilmaydi. To'qnashuv xavfi aniqlanganda, tormozlashda reaksiya vaqtini kamaytirish uchun tizim xavf darajasiga muvofiq tizimdagi tormoz suyuqligi bosimini oldindan oshiradi. Bu jarayon vaqtida elektromagnit klapan va ESC motor ishlaydi, bu tegishli tovush bilan birga amalga oshiriladi va favqulodda tormozlash avtomatik tizimining ishlashida normal hodisa hisoblanadi.

OGOHLANTIRISH

Tormozlashda yordam tizimini faollashtirish quyidagi holatlarda taqiqlanadi:

- Avtomobilni shatakka olish;
- Sinov stendida sinov/diagnostika o'tkazish;
- Radarga tashqi kuchlarning ta'siri, masalan, to'qnashuv natijasida.

To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi

Old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi oldindagi obyekt bilan old to'qnashuv xavfi mavjud bo'lganda tormozlash zarurligi haqida ogohlantiradi.

Agar avtomobil uzoq vaqt davomida oldinda kelayotgan transport vositasiga yaqin masofada 70 km/soat - 150 km/soat tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, tizim "Please keep a safe distance" (Iltimos, xavfsiz masofani saqlang) xabari orqali xavfsiz masofaga rioya qilish zarurligini eslatib turadi va ogohlantiruvchi signal eshutiladi.



Avtomobil o'rta va yuqori tezlikda harakatlanayotganda, oldinda joylashgan

transport vositasi bilan to'qnashuv xavfi yuzaga kelganda, tizim to'qnashuv xavfi haqida «Collision DANGER (Old to'qnashuv xavfi) xabarini uzatadi va uzluksiz ogohlantiruvchi tovush signali eshutiladi.

Aniqlash kamerasi va radarning ishlashi cheklanishi to'qnashuv haqida ogohlantirish va favqulodda tormozlash tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. To'qnashuv xavfi haqida ovozli ogohlantirish quyidagi tezliklar oralig'ida ishlaydi:

- qo'zg'almas transport vositalari uchun: 30-100 km/soat;
- harakatlanayotgan transport vositalari uchun: 30-150 km/soat;
- piyodalar uchun: 30-65 km/soat.



Agar to'qnashuv xavfi oshsa, u holda favqulodda avariya tormozlash tizimi qisqa muddatli tez tormozlashni amalga oshiradi.

Quyidagi holatlarda old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi ishlamaydi:

- Tizim faollashtirilmagan;
- AUO'Q selektori "D" holatda emas;
- Avtomobilning tizim ishchi tezlik diapazonidan tashqaridagi tezligi;
- Haydovchi tormoz pedalini bosganda;

- Haydovchi avtomobilni faol boshqarganda (pedal va rul g'ildiragiga ta'sir);
- Haydovchi akselerator pedalini keskin bosganda;
- Dvigatel o'chirilgan;
- To'qnashish xavfi bartaraf etilgan;
- Avtomobil beqarorlashtirilgan;
- Tizim initsializatsiya qilinganda;
- ESC tizimi nosoz;
- Tizim yoki asboblarning paneli nosozligi;
- Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi nosoz (AEB);

- Radar bloklangan;
- Kamera bloklangan (piyodalar/harakatsiz obyektlar/velosipedchilar uchun).

Haydovchi old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimining sezuvchanligining uch darajasidan birini tanlashi mumkin: yuqori, standart va past. Tizimning sezgirliqi qanchalik yuqori bo'lsa, u to'qnashuv xavfi haqida shunchalik erta ogohlantiradi va ogohlantirishlar tez-tez sodir bo'ladi.

Avtomatik avariya tormozlash tizimi

Agar old to'qnashuv haqida ogohlantirilgandan so'ng haydovchi tormoz pedalini bossa, lekin tormoz kuchi yetarli bo'lmasa, avtomatik avariya tormozlash tizimi to'qnashuvning oldini olish uchun avtomobilni to'liq to'xtatishgacha sekinlashtirishga yordam beradi va displeyda «Automatic emergency braking (Diqqat! Avtomobilning shoshilinch

tormozlanishi) xabari paydo bo'ladi. Ushbu funksiya quyidagi tezlik oralig'ida ishlashi mumkin:

- qo'zg'almas transport vositalari uchun: 4~60 km/soat;
- harakatlanayotgan transport vositalari uchun: 4~150 km/soat.
- piyodalar uchun: 4-65 km/soat.
- (10-30 km/soat) tezlikda harakatlanayotgan velosipedchilar uchun: 4-64 km/soat.



Quyidagi hollarda avariya tormozlash tizimi ishlamaydi:

- Avtomatik favqulodda avariya tizimi faollashtirilmagan;
- AUO'Q selektori "D" holatda emas;
- Avtomobilning tizim ishchi tezlik diapazonidan tashqaridagi tezligi;
- Haydovchi avtomobilni faol boshqarganda (pedal va rul g'ildiragiga ta'sir);
- Haydovchi akselerator pedalini keskin bosganda;
- Dvigatel o'chirilgan;
- To'qnashuv xavfi bartaraf etilgan;
- Avtomobil beqarorlashtirilgan;
- Tizim initsializatsiya qilinganda;

- ESC tizimi nosoz;
- Tizim yoki asboblari paneli nosozligi;
- Avtomatik favqulodda tormozlash tizimi nosoz (AEB);
- Radar bloklangan.
- Kamera bloklangan (piyodalar/harakatsiz obyektlar/velosipedchilar uchun).

ESLATMA

Avtomatik avariya tormozlash tizimi faol tormozlashni avtomobilni 2 s ga xavfsiz to'xtatgunga qadar qo'llaydi. Keyinchalik tizim tormozga bo'lgan kuchni kamaytiradi va haydovchi o'z vaqtida avtomobilni boshqarishni o'z zimmasiga olishi kerak (masalan, tormoz pedalini bosib).

Yo'l chiziqlarini kesib o'tish haqida ogohlantirish tizimi (LDW) ✖

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida ogohlantirish tizimi (LDW) avtomobil yuqori tezlikda harakatlanayotganda haydovchiga yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida xabar beradigan yordamchi tizimdir. Tizim avtomobil oynasining orqasiga o'rnatilgan kamera yordamida avtomobil oldidagi yo'l chiziqlarini aniqlaydi. Yo'l chizig'ini kesib o'tishda ogohlantiruvchi xabar paydo bo'ladi, tovush signali eshitaladi va rul g'ildiragi tebranadi, haydovchiga ushbu vaziyat haqida xabar beradi.

OGOHLANTIRISH

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida ogohlantirish tizimi (LDW) - bu har qanday ob-havo va yo'l sharoitida barcha harakat sharoitlari uchun mo'ljallanmagan yordamchi funksiya. Haydovchi har doim avtomobilni ehtiyotkorlik va diqqat bilan boshqarish, harakat xavfsizligini ta'minlash, avtomobil, yo'lovchilar va boshqa yo'l harakati ishtirokchilari uchun javobgardir. Haydovchi boshqa barcha yo'l belgilari, chiziqlari talablariga rioya qilishi va LDW tizimi ularni aniqlamagan yoki tanimagan hollarda yo'l sharoitiga amal qilishi shart. E'tiborli bo'ling va avtomobilni boshqarishga darhol harakat qilishga tayyor turing.

LDW tizimi sovuq va yomon ob-havoda (yomg'ir, qor, tuman) yoki yorug'lik kuchsiz va/yoki keskin pasayganda (masalan, tunnelga kirish va undan chiqishda) nosoz ishlashi mumkin, chunki ushbu sharoitlar datchikning to'g'ri ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

LDW tizimi quyidagi holatlarda va yo'l sharoitlarida ishlamasligi yoki yolg'on ogohlantirish berishi mumkin:

- Yo'l qoplamasiga vaqtinchalik yo'l-qurilish belgisi qo'yilgan va hokazo;
- Yo'l qoplamasi shikastlangan yoki suv bosgan bo'lsa;
- Yo'l chiziqlari aniq emas, loy/qor bilan qoplangan;
- Datchik/kamera bloklangan;
- Datchik yer ustidagi harakat yo'lagining belgisini ko'rolmaydi
- Avtomobil tor yo'ldan yoki keskin

burilishlardan o'tayotganda.

Old oynaning yoriqlari, sinishlari va boshqa nuqsonlari tizimning unumdorligi va ishlashiga, shuningdek, kamera ishining sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Old oynani ta'mirlash, shu jumladan sensor/kamera yaqinida (salon ichidagi orqa ko'rish oynasi yonida joylashgan) qat'iyani taqiqlanadi. Old oyna shikastlangan bo'lsa, uni almashtirish kerak. Datchik yonidagi old oynani to'sib qo'yish qat'iyani taqiqlanadi.

LDW tizimidan foydalanish

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida ogohlantirish tizimini (LDW) multimedia tizimi displeyida yoqish/o'chirish mumkin. Avtomobil elektr quvvati yoqilganda ("ON" holati), [Vehicle setting (Avtomobil sozlamalari)] → [Driving assistance (Harakatlanishda yordam)] → [LDW (Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida ogohlantirish tizimi)] tugmasini bosib.



Avtomobil 65 km/soatdan past tezlikda harakatlanayotganda, tizim kutish rejimida bo'ladi va asboblar panelidagi harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish tizimi indikator (LDW) oq rangda yonadi.

Avtomobil tezligi 65 km/soatdan oshganda, tizim avtomatik ravishda faollashadi va asboblar panelidagi harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantirish tizimining holati indikator yashil rangda yonadi.

Agar datchik yo'l chiziqlarini har ikki tomondan aniqlasa, unda asboblar panelidagi harakat yo'laklari chiziqlari oq rangda aks etadi. Agar yo'l chiziqlari faqat bir tomondan aniqlansa, u holda qurilma panelidagi ushbu tomon oq rangda yoritiladi, boshqa tomondagi chiziq esa tizim tomonidan aniqlanmaguncha kulrang rangda bo'ladi.



OGOHLANTIRISH

Haydovchi avtomobilni diqqat bilan boshqarish, harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'lovchilarni va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish uchun to'liq javobgardir. Haydovchi boshqa barcha yo'l belgilari, chiziqlari talablariga rioya qilishi va LDW tizimi ularni aniqlamagan yoki tanimagan hollarda yo'l sharoitiga amal qilishi shart. E'tiborli bo'ling va avtomobilni boshqarishga darhol kirishishga tayyor turing.

● Tizim og'ish haqida doimiy ravishda ogohlantirmaydi yoki harakat trayektoriyasini o'zgartirmaydi. Avtomobil harakat trayektoriyasining og'ishi yoki ravon sozlanishi haqida ogohlantirish berilgandan so'ng, haydovchi darhol avtomobil boshqaruvini o'z zimmasiga olishi va haydash xavfsizligini ta'minlash uchun uning harakat trayektoriyasini sozlashi kerak.

● Tizimning to'g'ri ishlashiga murakkab ob-havo sharoitlari ta'sir qilishi mumkin: kuchli yomg'ir, qor yoki tuman, qumli chang, yomon ko'rinish va/yoki yuqori kontrastli/ yorqin yorug'lik sharoitlari (masalan, tunnelga kirish va undan chiqishda). Harakat trayektoriyasining og'ishi haqida ogohlantirish yoki ravon sozlash amalga oshirilmaligi yoki kechikishi mumkin. Ushbu cheklangan sharoitlarda tizimdan foydalanmang.

● Avtomobilning harakat trayektoriyasini yordamchi sozlash tizimi avtomobilning sirpanchiq yo'lda, keskin burilishlarda, yuqori tezlikda harakatlanayotganda va hokazolarda harakat yo'lagidan chetga chiqishiga to'sqinlik qila olmaydi.

Yo'l chizig'ini kesib o'tish to'g'risida xabar berish usullari

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida ogohlantirish usulini [Pre-warning] ko'p funksiyali multimediali displeyning bosh sahifasida [Lane departure assist mode] tanlash mumkin:

1. Asboblar paneli displeyidagi tasvir +

tovushli ogohlantirish;

2. Asboblarning panelidagi tasvir + rul g'ildiragining tebranishi;

3. Asboblarning paneli displeyidagi tasvir + tovushli ogohlantirish + rul g'ildiragining tebranishi.

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida asboblarning panelidagi ogohlantirish:

- og'ish haqida ogohlantirish faollashtirilganda: kesib o'tilgan belgilash chizig'i qizil rangda aks etadi;

- og'ishlarni tuzatish funksiyasi faollashtirilganda harakat chizig'i to'q sariq rangda aks etadi.

Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida xabar berilganda avtomobilning harakat yo'nalishini darhol sozlang.

Ogohlantirishni tanlash ✕

Yo'l chiziqlarini kesib o'tish haqida ogohlantirish funksiyasi bilan jihozlangan avtomobillarda ko'p funktsiyali multimedia displeyining bosh sahifasida tizimning ishlash rejimini tanlash mumkin: [vehicle center (Avtomobil)] → [driving assistance (Haydashda yordam)].



Faqat ogohlantirish: agar avtomobil

harakat yo'lagidan chetga chiqsa, tizim chiqish haqida ogohlantiradi;

Faqat trayektoriyani to'g'rilash: agar avtomobil harakat yo'lagidan chetga chiqsa, tizim rul boshqaruvi yordamida avtomobilning harakat trayektoriyasini to'g'rilaydi;

Ogohlantirish + og'ish holatida harakat trayektoriyasini to'g'rilash: tizim harakat yo'lagidan chiqish haqida ogohlantiradi va rul boshqaruvi yordamida avtomobilning harakat trayektoriyasini to'g'rilaydi

Diagnostika va nosozliklarni bartaraf etish

Yo'l chizig'ini tasodifiy kesib o'tish haqida xabar berish tizimi (LDW) kamera siljigan yoki bloklanganligini, tizim nosozligini, kalibrlash amalga oshirilmaganligini yoki tegishli tizim ishdan chiqqanligini aniqlasa, asboblarning

panelidagi LDW indikator  to'q sariq rangga aylanadi va nosozlik sababini ko'rsatadi:


1. Kamera bloklangan;
2. Harakat chizig'ini kuzatish tizimi (LAS) kalibrlanmagan/ aloqa xatoligi;
3. Yo'l chizig'ini kesib o'tish haqida xabar berish tizimining nosozligi (LAS);
4. LDW funksiyasi ishini cheklash;
5. Harakat yo'lagida ushlab turishda yordam funksiyasi cheklangan.

Agar uzoq vaqt davomida nosozlikni bartaraf etib bo'lmasa, tizim xatoligi haqidagi

xabar avtomatik ravishda o'chirilmasa va avtomobil qayta ishga tushirilgandan keyin yo'qolmasa, tekshirish va xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Avtomobil ortidagi obyektlar haqida ogohlantirish tizimi ✕

Avtomobil ortidagi obyektlar haqida ogohlantirish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: qayta joylashda yordam tizimlari (ko'rish murakkab hududni boshqarish, harakat yo'lagini o'zgartirishda yordamchi tizim (LCDA), yon tomondan to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari, ortdan to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari va ochiq eshik haqida ogohlantirish funktsiyalari. Tizim orqa bamporning ichiga o'rnatilgan millimetr diapazonli radiolokatsion to'lqinlar radari yordamida zondlanadi.



OGOHLANTIRISH

- Avtomobilning elektr quvvati ("ON" holati) yoqilganda, tashqi orqa ko'rish oynalarida xavf

haqida ogohlantiruvchi indikator yonadi. Agar u 3 soniyadan keyin o'chsa, bu tizim o'z-o'zini diagnostika qilganini va sozligini anglatadi.

- Avtomobil orqasidagi obyektlar haqida ogohlantirish tizimi avtomobil harakatlanayotganda foydalaniladi va qulay sharoitlarda piyodalar, velosipedlar va bolalar aravachalari kabi kichik obyektlarni aniqlay oladi.

- Datchiklar va ularni o'rnatish joylarini ozoda saqlang. Avtomobil yo'lining ifloslangan qismida va uzoq vaqt davomida yo'lsiz holatda harakatlangandan so'ng, kerak bo'lsa, orqa bamporni oling va yaxshilab tozalang.

- Aksessuarlarni o'rnatmang, datchiklar va ularni o'rnatish joylariga yoriqlar yopishtirmang;

- Datchikni mustaqil ravishda demontaj qilmang va almashtirmang;

- Datchikning har qanday kichik siljishi tizimning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Agar datchik yoki uning o'rnatish joyi shikastlangan bo'lsa, xizmat ko'rsatish uchun vakolatli CHANGAN xizmat markaziga murojaat qiling.

ESLATMA

Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javobgardir. Atrofdagi vaziyatni diqqat bilan kuzatib boring, avtomobilni ehtiyotlik bilan boshqaring.

Datchiklarning ishlash tamoyili bilan bog'liq cheklovlar tufayli tizim quyidagi holatlarda

(lekin ular bilan cheklanmasdan) noto'g'ri ishlashi mumkin.

1. Tizim obyekt qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanganda, harakatsiz transport vositalari yoki boshqa obyektlar holatida ishlamaydi.

2. Loy/qumli/qorli yo'lda harakatlanganda;

3. Murakkab ob-havo va iqlim sharoitlarida (kuchli yomg'ir, tuman, qor yoki loy) avtomobildan foydalanishda;

4. Tik qiyaliklar va/yoki burilishlari bo'lgan egri-bugri yo'llarda harakatlanganda;

5. Shatakka olishda.

Agar datchik bloklangan bo'lsa yoki avtomobil atrofida to'siqlar yoki ifloslanish bo'lsa, tizim xatolik haqida signal berishi mumkin. To'siqni o'z vaqtida bartaraf eting yoki kerak bo'lsa, funksiyani o'chiring.

1. Orqa bampar loy/qor bilan qoplangan/modifikatsiyalangan yoki dekorativ va/yoki aerodinamik qoplama o'rnatilgan/dekorativ moldinglar yopishtirilgan va h.k.

2. Avtomobil atrofida metall buyumlar ko'p (masalan, zavod/konteyner terminali/qurilish maydonchasi va h.k.).


Radiolokatsion radarning har qanday kichik siljishi tizimning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Agar datchik yoki uning o'rnatilgan joyi shikastlangan bo'lsa, diagnostika va xizmat ko'rsatish uchun vakolatli CHANGAN xizmat markaziga murojaat qiling.

Tizimning ishlashi

Avtomobil orqasidagi obyektlar haqida ogohlantirish tizimini "in Call" multimedia tizimi displeyida yoqish/o'chirish mumkin. Tizimning tegishli funksiyalarini faollashtirish uchun [Vehicle center (Avtomobil)] → [Safety assistance (Haydashda yordam)] → [Xavfsizlik] tugmasini bosing. Tizim foydalanuvchi tomonidan dvigatel o'chirilgunga qadar o'rnatilgan sozlamalarni saqlaydi.



Qayta joylashtirishda yordam tizimi ✖




① To'siq yoki harakatlanuvchi obyekt haqida ogohlantiruvchi indikator

Qayta joylashtirishda yordam tizimi o'lik

zonalar aniqlash tizimi va yo'lakni almashtirish yordamchisidan iborat. Agar harakat vaqtida, ayniqsa, burilish yoki harakatlanish yo'lagini o'zgartirish paytida, tizimning aniqlash zonasida potentsial xavfli transport vositasi bo'lsa, tashqi oynalardagi indikatorlar haydovchini ko'rish imkonsiz bo'lgan hududda hushyorlikni oshirish zarurligi haqida ogohlantiradi.

Qo'shni qatorni kuzatish maydoni



1. Ko'rish imkonsiz bo'lgan zonani boshqarish maydoni;

2. Qayta joylashtirishda yordam maydoni;

A Avtomobil;

B Boshqa transport vositasi.

Tizimni ishga tushish shartlari

Agar harakat yo'lagini kuzatish tizimi yoqilgan va avtomobil tezligi 15 km/soatdan ortiq bo'lganda, parallel harakatlanayotgan transport vositasi ko'rish murakkab bo'lgan

hududda bo'lsa yoki harakat yo'lagi almashinuvi yordamchi sohasida transport vositasi tez yaqinlashsa, aniqlangan obyekt tomonidan ogohlantiruvchi indikator yonadi. Agar tegishli tomonga burilish signali yoniq bo'lsa, u holda ogohlantiruvchi indikator miltillaydi va tovushli ogohlantirish eshitaladi.

15 km/soatdan kam tezlikda harakatlanganda, rul g'ildiragi katta burchakka burilganda yoki tizim tomonidan aniqlangan transport vositasi yaqinlashib kelayotgan tomonga burilish signali yoqilganda, qo'shni harakat yo'lagini kuzatish tizimi odatdagi rejimda oldindan ogohlantiradi.

Ortga harakatlanayotganda yon tomondan yaqinlashayotgan obyektlar haqida ogohlantirish


Ortga harakatlanganda yon tomondan yaqinlashuvchi obyektlar haqida ogohlantirish funksiyasi haydovchiga to'xtash joyidan chiqishda va boshqa ko'rish cheklangan sharoitlarda (masalan, murakkab va tor yo'laklar, qorong'i vaqtda harakatlanayotganda, tuman sharoitida va h.k.) o'z vaqtida xabar berishi mumkin.

Yon tomondan yaqinlashayotgan obyektlar haqida ogohlantirish tizimi faollashtirilganda, AUO'Q selektori "R" (Ortga yurish) holatiga o'tkazilganda va harakat boshlanganida, agar obyekt avtomobilga yon tomondan tez yaqinlashayotgan bo'lsa, uning harakat yo'nalishi avtomobilning harakat yo'nalishi bilan kesishadi va to'qnashuv xavfi

mavjud bo'lsa, ogohlantirish ishga tushadi.




Ortga harakatlanganda yon tomondan yaqinlashayotgan obyektlarni aniqlash maydoni




Yon tomondan yaqinlashayotgan obyektlarni aniqlash tizimi har doim ham barcha to'xtash maydonchalarida samarali ishlamaydi. Quyida tavsiflangan vaziyatlarda radar avtomobil atrofida joylashgan obyektlar tomonidan bloklanadi va uning aniqlash maydoni sezilarli darajada kamayadi. Natijada, tizim faqat yon tomondan kelayotgan boshqa transport vositasi avtomobilga juda yaqin joylashganda faollashadi.

- Aniqlash maydoni qo'shni transport vositalari bilan chegaralangan.



- Aniqlash maydoni devorlar, gulzorlar va boshqa jismlar bilan chegaralangan.



Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish funksiyasi

Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish funksiyasi faollashtirilgandan so'ng va AUO'Q selektori "D" holatida bo'lsa, agar tizim


transport vositasining orqa tomondan tez yaqinlashishini aniqlasa, ehtimoliy to'qnashuv xavfi bo'lganda, asboblari paneli ko'p funksiyali displeyida orqa tomondan xavf haqida xabar beriladi va haydovchini xabardor qiluvchi ovozli ogohlantirish eshutiladi. Ogohlantirish indikatorini tezda miltillaydi (ikki marta), orqa tomondan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va to'qnashuv xavfi haqida ogohlantiradi.



OGOHLANTIRISH

Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish funksiyasi to'qnashuv xavfi va oqibatlarini oldini olmaydi yoki kamaytirmaydi. Avtomobilni boshqarishda va harakatlanishda atrof-muhit va harakat yo'nalishini diqqat bilan kuzatib boring. Haydash xavfsizligi uchun yo'l harakati qoidalariga rioya qiling.

Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish tizimining monitoring maydoni




Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish tizimining ishlash shartlari


Ort to'qnashuv xavfi haqida ogohlantirish funksiyasi quyidagi sharoitlarda ishga tushadi: avtomobil dvigateli ishlaganda, avtomobil AUO'Q selektori "D" holatda bo'lganda.

Eshiklarni ochish haqida ogohlantirish

Avtomobil to'xtaganidan so'ng, eshiklar ochilganda yoki ortdan yoki yon tomondan harakatlanayotgan obyekt bilan to'qnashish xavfi bo'lganda, tashqi orqa ko'rish oynalari va asboblari panelining ko'p funksiyali displeyida xavf haqida ogohlantirish indikatorini yonadi va haydovchi va yo'lovchilarni eshiklarni ochish yoki avtomobildan chiqish xavfi haqida xabardor qilib, tovushli ogohlantirish eshutiladi.



Eshiklarni ochishda ogohlantirish tizimini kuzatish maydoni



Eshikni ochish haqida ogohlantirish tizimining ishlash sharoitlari

Avtomobil to'xtagandan so'ng, funksiya quyidagi shartlarga rioya qilgan holda ishlashni davom ettiradi:

- Avtomobil elektr quvvati yoqilgan ("ON" holati).
- Quvvatni "ON" dan "OFF" holatiga o'tkazgandan va avtomobil eshiklarini qulfdan chiqargandan keyin 5 daqiqa ichida.

Nosozlikni bartaraf etish

Quyida tavsiflangan holatlarda qurilma

panelining ko'p funksiyali displeyida [ortga harakatlanganda yordam tizimining nosozligi] ko'rsatiladi va tashqi orqa ko'rish oynasi ogohlantirish indikator doimiy ravishda yonib turadi.

- Datchik nosoz;
- Boshqa tegishli kontroller nosozligi;
- Datchikning holati zarba natijasida o'zgargan yoki tashqi tashqi mexanik ta'sirga uchragan, o'rnatish joyi esa radarning normal ishchi diapazonidan tashqarida joylashgan.

ESLATMA

Avtomobilning elektr quvvati ("ON" holati) yoqilganda, tashqi orqa ko'rish oynalarida xavf haqida ogohlantiruvchi indikator yonadi. Agar u 3 soniyadan keyin o'chsa, bu tizim o'z-o'zini diagnostika qilganini va sozligini anglatadi.

SHINALAR BOSIMINI NAZORAT QILISH TIZIMI (TPMS)※

Tizim tavsifi

Avtomobil harakatlanayotganda shinadagi bosimni nazorat qilish tizimi barcha to'rtta shinadagi bosimni nazorat qiladi. Agar tizim shinalardagi bosimning ruxsat etilgan qiymatlardan ortiq o'zgarishini aniqlasa, tizim tegishli ogohlantirishni beradi va asboblarni panelining ko'p funksiyali displeyidagi



belgi yonadi.

Sovuq holatdagi shinalar bosimining

tavsiya etilgan qiymatiga muvofiq shinalardagi bosimni tekshirish va sozlangandan so'ng, asboblarni panelidagi displeydagi TPMS menyusi orqali shinalardagi bosim haqidagi ma'lumotni yangilang. Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi parametrlarini bekor qilishni yakunlash uchun rul g'ildiragidagi "OK" tugmasini bosish orqali shinalardagi bosimni bekor qilishni tasdiqlang.

Avtomobil avtomobilga o'rnatilgan asl g'ildiraklardan farq qiladigan avariya (to'liq bo'lmagan) zaxira g'ildiragi bilan jihozlangan. Avariya zaxira g'ildiragi o'rnatilgandan so'ng va qisqa muddatli safardan so'ng, asboblarni panelining ko'p funksiyali displeyida

shinalardagi bosim indikator  yonadi. Shikastlangan g'ildirakni ta'mirlash va/yoki almashtirish hamda shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimini qayta ishga tushirish uchun imkon qadar tezroq CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Ehtiyot choralari

ESLATMA

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi haydovchiga o'z vaqtida xabardor qilish orqali shinalardagi bosimni nazorat qilishga yordam beradi, ammo avariya va nosozlikni bartaraf eta olmaydi.

Shinalardagi haqiqiy bosim faqat avtomobil harakatlanayotgan vaqtda o'lchanadi va aks

ettiriladi. Avtomobil to'xtab turgan vaqtda shinalardagi bosim ko'rsatilmaydi yoki ma'lumot tariqasida keltiriladi.

Agar shinalardagi bosim issiq sharoitda o'rnatilgan bo'lsa, sovuq hududga kirishda shinalardagi havo bosimining o'zgarish indikatorini yoqilishi mumkin. Bu haroratning o'zgarishi natijasida bosimning o'zgarishi bilan bog'liq va tizimning nosozligini ko'rsatmaydi. Avtomobilni turli haroratli hududlarda boshqarayotganda, shinalardagi bosimni o'z vaqtida tekshiring va sozlang.

To'rt g'ildirakdagi bosimni sovuq holatdagi shinalardagi bosimning tavsiya etilgan qiymatiga muvofiq tekshirib, kerak bo'lsa, sozlagandan so'ng, harakat boshlanishidan oldin TPMS qiymatlarini bekor qilish tugmasini bosib. Bekor qilingandan so'ng, harakat boshlanganidan bir necha daqiqa o'tgach, shinalarda o'rnatilgan bosim muvaffaqiyatli saqlanadi.

Quyidagi holatlarda TPMS sozlamalarini majburiy bekor qilish zarur:

- bir yoki bir nechta nasoslangan shinalardagi bosimni sozlash;
 - barcha shina/g'ildiraklarni demontaj qilish yoki almashtirish;
 - Bir yil yoki 10000 km masofani bosib o'tgandan so'ng shinalardagi bosimni tekshirish va sozlash tavsiya etiladi. Shundan so'ng TPMS tizimini kalibrash kerak.
- Ishlab chiqaruvchining tavsiya etilgan texnik xususiyatlariga mos kelmaydigan g'ildiraklarni almashtirish yoki o'rnatish TPMS tizimining

normal ishlashiga ta'sir qilishi mumkin.

Shinalardagi bosimni tavsiya etilgan sovuq bosimga muvofiq, avtomobilni boshqarish va yuklash sharoitiga qarab o'rnatish kerak. Sovuq holatdagi shinalardagi bosimni tekshiring va kerak bo'lsa, oyiga kamida bir marta sozlang. Shinalar bosimini sovuq holatda tekshirish quyidagi sharoitlarda amalga oshiriladi:

- Avtomobil kamida 3 soat davomida to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ta'siridan uzoqda harakatsiz bo'lganda;
- Avtomobil harakat boshlanganidan keyin 1,6 km dan ortiq bo'lmagan masofani bosib o'tganda.

Manometr ko'rsatkichlari bo'yicha sovuq holatda o'rnatilgan shinalardagi bosim TPMS tizimi ko'rsatkichlaridan farq qilishi mumkin. Shinalardagi bosim haqidagi ma'lumotni asboblar panelidagi ko'p funksiyali displeyga chiqarish mumkin.

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi, masalan, shina begona jism ta'sirida teshilganda, bosimni bir lahzada to'liq yo'qolishi haqida darhol xabar bera olmaydi. Bu holda rul boshqaruvini to'satdan yo'qotib qo'ymaslik uchun rulni keskin burishdan qochib, ravon to'xtang.

Shinalardagi bosim tiklangandan so'ng, bosim haqidagi ma'lumot yangilanadi va harakat boshlanganidan bir necha daqiqa o'tgach, bosim indikatorini avtomatik ravishda

o'chadi.

Shinalar bosimini nazorat qilish tizimining ogohlantirishi

Agar shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi bir yoki bir nechta shinalarda bosim o'zgarganini aniqlasa, displeyda ogohlantiruvchi xabar paydo bo'ladi va shinalardagi avariya bosimi indikatorini yoqiladi. Keskin harakatlardan qochib, tezlikni pasaytiring va avtomobilni xavfsiz joyda ravon to'xtating. Shinalar sovigach, ularning bosimini tekshiring va sozlang. Zarur hollarda shinalarni almashtiring.

Shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi (TPMS) nosoz bo'lsa, asboblar panelidagi

shinalardagi bosim indikatorini  yonadi va 60 soniya davomida uzluksiz miltillaydi, keyin esa doimiy rejimda yonadi. Imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

ESLATMA

Agar ESC tizimi nosoz bo'lsa, shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimida ham nosozlik sodir bo'lishi va shinalardagi bosimni nazorat qilish chirog'i xato yoqilishi mumkin.

Avtomobilga qishki shinalar va/yoki sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilganda, shinalardagi havo bosimi datchiklaridan signalni uzatish quvvati pasayishi va qabul qiluvchi qurilma signalni aniqlay olmasligi

mumkin, bu esa indikatorni noto'g'ri ishga tushishiga olib keladi.

Bosimni nazorat qilish tizimining noto'g'ri ishga tushishi va indikatorning noto'g'ri ishlashiga yo'l qo'ymaslik uchun, shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimining qishki rejimini yoqish yoki o'chirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling.

KRUIZ NAZORATI

Doimiy tezlikdagi kruiz nazorati tizimi (CC)✖

Ehtiyot choralarlari

Doimiy tezlikdagi kruiz-nazorat tizimi (CC) avtomobilga belgilangan doimiy tezlik (40 km/soat ~ 180 km/soat) oralig'ida harakatlanishga imkon beradi. Avtomobil belgilangan kreyser tezligini mustaqil ravishda, boshqaruv organlarining qo'shimcha aralashuviziz saqlab turadi.

MUO'Q bilan jihozlangan avtomobillarda kruiz-nazorat tizimi 2 va undan past uzatmada harakatlanayotganda kreyser tezligini o'rnata olmaydi va ushlab tura olmaydi.

Agar AUO'Q selektori "P," "N" yoki "R" holatida bo'lsa, AUO'Q bilan jihozlangan avtomobillarda kruiz-nazorat tizimini faollashtirish mumkin emas.

Kruiz nazorati funksiyasi faollashtirilgan holda qiyalik bo'ylab pastga harakatlanishda, avtomobil belgilangan kreyser tezligidan oshishi mumkin. Ushbu vaziyatda xavf va tezlik rejimining buzilishining oldini olish uchun tezlikni boshqarish uchun tormoz pedalidan foydalaning.

Notekis yoki tez harakatlanadigan yo'llarda harakatlanganda, doimiy tezlikda harakatlanish imkonini bo'lmasa, shuningdek, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish uchun kruiz-nazorat funksiyasini o'chiring.

Sirpanchiq yoki muzlagan yo'llarda (muz, qor, nam yoki botqoq yo'llarda) harakatlanayotganda kruiz nazorati tizimidan foydalanmang. Bu g'ildiraklarning sirpanishiga olib kelishi va avtomobil nazorati yo'qolishi mumkin.

Rul g'ildiragida kruiz nazorati tizimi boshqaruv tugmalari



Kruiz-nazorat tizimining O'chirish/Yoqish tugmalari. Kruiz-nazoratni faollashtirish/o'chirish uchun rul g'ildiragidagi tugmani bosib va uskunalar panelining ko'p funksiyali displeyidagi tegishli indikator yonadi/o'chadi;



Kruiz nazorat funksiyasini o'chirish. Kruiz-nazorati joriy kreyser tezligi saqlanib qolinadi va keyinchalik kruiz-nazorat yoqilganda tiklanadi;



RES+: Kruiz-nazoratning ilgari o'rnatilgan kreyser tezligini tiklash yoki belgilangan tezlikni oshirish.



SET-: Joriy tezlikni kreyser tezligi sifatida o'rnatish yoki belgilangan tezlikni pasaytirish.

Kruiz nazorati tizimi interfeysi



- ① Kruiz nazorati holati ko'rsatkichi;
- ② O'rnatilgan kreyser tezligi

Kruiz nazoratini faollashtirish (CC)

1. Rul g'ildiragidagi tugmani  bosib, doimiy tezlikda kruiz-nazorat tizimi holati indikator yonadi va kruiz-nazorat funksiyasi yoqiladi.
2. Agar avtomobilning tezligi soatiga 40 km dan oshsa, avtomobilning joriy tezligini kreyser tezligi sifatida belgilash uchun **"SET/-"** tugmasini bosib. Asboblar paneli displeyida joriy tezlik ko'rsatiladi va doimiy tezlikli kruiz-nazorat funksiyasi faollashtiriladi.

Kreyser tezligini sozlash

Kreyser tezligini rul g'ildiragidagi **"RES/+"** yoki **"SET/-"** tugmalarini bosish orqali sozlash mumkin.

- Belgilangan kreyser tezligini 5 km/soatga oshirish/kamaytirish uchun **"RES/+"** yoki **"SET/-"** tugmalarini bosib;
- **"RES/+"** yoki **"SET/-"** tugmasini uzluksiz bosib transport vositasining tezligini uzluksiz oshirishga/kamaytirishga olib keladi. **"RES/+"** yoki **"SET/-"** tugmalarini qo'yib yuboring va kruiz-nazorat tizimining belgilangan tezligi avtomobilning haqiqiy kreyser tezligi sifatida o'rnatiladi.

Kruiz nazorati rejimini o'chirish

Kruiz nazorati faollashtirilgandan so'ng, quyidagi amallar bajarilganda yoki quyidagi shartlarga rioya qilinganda, tizim vaqtincha

o'chiriladi va avtomatik ravishda kutish holatiga o'tadi, ammo belgilangan maqsadli kruiz tezligi saqlanadi:

- Tormoz pedalini bosish;
-  tugmasini bosish;
- ESC tizimini faollashtirish (ishga tushirish);
- Haqiqiy tezlik maqsadli kreyser tezligidan 15 km/soat past;
- Haqiqiy tezlik 40 km/soat past;
- AUO'Q selektori "N", "R" holatida (AUO'Q bilan jihozlangan avtomobillar uchun).



DIQQAT

Kruiz nazorati tizimidan noto'g'ri foydalanish natijasida kelib chiqadigan baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun kruiz nazorati tizimidan foydalanilmayotgan bo'lsa, doimo uni o'chiring.

Haydovchi to'qnashuv xavfi mavjudligini aniqlagan har qanday xavfli vaziyat yuzaga kelganda, kruiz nazorati tizimini bekor qiling yoki o'chiring va darhol avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.

Faol tezlashish rejimi

Faol tezlashish rejimi - bu faol kruiz nazorati rejimida avtomobil harakatini tezlashtirish uchun (masalan, quvib o'tish uchun) haydovchi tomonidan akselerator pedalini faol bosish. Haydovchi akselerator pedalini qo'yib yuborganida, kruiz-nazorat avtomatik ravishda kruiz tezligini tiklaydi.

Adaptiv kruiz nazorati (ACC) ✖

Adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) old bamporning pastki panjarasiga o'rnatilgan millimetr to'lqin diapazonli (MMW) radari yordamida oldinda ketayotgan avtomobilgacha belgilangan masofani ushlab turish yoki harakatga xalaqit bermaganda belgilangan tezlikni ushlab turish uchun mo'ljallangan. Agar oldindagi transport vositasi belgilangan tezlikdan past tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, adaptiv kruiz-nazorat tizimi ushbu transport vositasigacha belgilangan masofani saqlaydi, avtomatik ravishda tezlikni oshiradi va to'liq to'xtashgacha sekinlashadi. Avtomobil oldindagi transport vositasiga qarab harakatlanayotgan/to'xtayotganini tekshiring.

Adaptiv kruiz nazorati (ACC) funksiyasidan foydalanishdan oldin ushbu bo'limning barcha mazmunini diqqat bilan o'qing.

OGOHLANTIRISH

Adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) to'siqlar detektori yoki to'qnashuvlardan himoya qilish tizimi hisoblanmaydi. U haydash qulayligini oshirish uchun mo'ljallangan. Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javob beradi va yo'ldagi vaziyatni nazorat qilishi, yo'lovchilar va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari harakati xavfsizligini ta'minlashi shart. Adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) haydovchiga yordam beradi, lekin to'liq o'rnini

bosa olmaydi. Hatto ACC yoqilgan bo'lsa ham, bu haydovchini avtomobilni boshqarish, tezlik rejimi va xavfsiz haydash qoidalariga rioya qilish uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

ACC tizimi tezyurar avtomagistrallarda yoki yo'l sharoiti yaxshi bo'lgan yo'llarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan shahar yo'llari yoki tog' yo'llarida harakatlanishda foydalanish tavsiya etilmaydi. Estakadalar yoki tunnellarida harakatlanayotganda ACC dan foydalanmang.

ACC tizimi faqat bitta harakat polosasida joylashgan va bir yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari uchun ishlaydi. U qarama-qarshi va yo'lni kesib o'tayotgan transport vositalariga yoki harakatsiz yoki sekin harakatlanayotgan transport vositalariga (masalan, svetofor oldida to'xtab turgan yoki nosozlik yoki YTH tufayli harakatsiz bo'lgan avtomobillar) munosabat bildirmaydi. Shuningdek, u piyodalar, hayvonlar yoki yo'ldagi boshqa obyektlarga nisbatan ishlamaydi.

Xavfsizlik nuqtai nazaridan quyidagi hollarda ACC dan foydalanish tavsiya etilmaydi:

- Chorrahalarda va avtomagistraldan chiqishda, ta'mirlanadigan yo'llarda (xotirada qayd etilgan tezlikka chiqishni oldini olish uchun);
- Yo'l qoplamasining yomon holati (yo'lsizlik, sirpanchiq/nam yo'l, shag'al, yumshoq tuproq, yo'ning qor bilan qoplangan qismlarida);

- "Tik" burilishlarda yoki tik tushish/ko'tarilishlarda harakatlanganda;
- Metall buyumlar joylashgan joylardan (metall sexlar, temir yo'l relslari va shu kabilar) o'tishda;
- Ko'plab to'siqlar bo'lgan yopiq binolardan (katta garajlar, paromlar, tunnellar va boshqalar) o'tayotganda.

ESLATMA

ACC tizimi ishlayotganda tormoz tizimi tormozlash tovushlariga o'xshash qandaydir tovushlar chiqarishi mumkin. Bu nosozlik emas va tizimdan bemalol foydalanishni davom ettirish mumkin. Agar avtomobil ACC tizimi yordamida tormozlansa, tormoz pedali qattiq bo'lib qoladi. Bunday holda, haydovchi tormoz pedalini bosib, avtomobil sekinlashishini mustaqil ravishda nazorat qilishi mumkin.

Tirkama yoki boshqa transport vositalari shatakka olinganda ACC tizimining ish unumdorligi pasayadi.


Avtomobil konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish yoki uni modifikatsiyalash (masalan, yo'l oraliq'ini pasaytirish, old panel, avtomobil raqami yoki bamperining montaj plastinkasini o'zgartirish va h.k.) adaptiv kruiz nazorati unumdorligining pasayishiga va/yoki uning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Quyida tavsiflangan holatlarda radar oldinda harakatlanayotgan transport vositasini aniqlamasligi yoki uni kechikib

aniqlashi mumkin. Haydovchi avtomobilni boshqarishni o'z zimmasiga olishi kerak:

1. Burilishlardan o'tish


Radar oldinda harakatlanayotgan transport vositasini aniqlamasligi yoki yo'ning burilish va qayrilish joylaridan o'tayotganda notekis yo'lda harakatlanayotgan qo'shni harakat yo'lagidagi transport vositasini aniqlamasligi mumkin.



2. Maxsus yuk yoki maxsus uskunali transport vositalari

Radar oldinda harakatlanayotgan transport vositasining yon tomonida, orqasida yoki tepasida transport vositasining o'lchamlaridan tashqarida bo'lgan buyumlarni yoki transport vositasida joylashgan anjomlarni aniqlamasligi mumkin. Agar oldinda harakatlanayotgan yoki quvib o'tilgan transport vositasi yuqorida aytib o'tilgan maxsus moslamalar yoki anjomlar bilan jihozlangan bo'lsa yoki uning o'lchamidan katta bo'lsa, haydovchi hushyor bo'lishi va kerak bo'lsa, ACC ni o'chirib, avtomobil

boshqaruvini o'z zimmasiga olishi kerak.



3. Oldinda harakatlanayotgan kichik o'lchamli transport vositasi


Radiolokator mototsikl va velosiped kabi kichik o'lchamli transport vositalarini aniqlay olmaydi.



4. Boshqa yo'l harakati ishtirokchilari tomonidan yo'lakni o'zgartirish


Agar oldinda qo'shni yo'lakda harakatlanayotgan transport vositasi harakat yo'lagini qayta sozlansa va u radarning aniqlanish zonasiga to'liq kirmasa, radar uni aniqlanish zonasiga to'liq kirmaguncha aniqlamasligi mumkin va/yoki qaysi transport

vositasini kuzatish kerakligi haqida noaniqlik paydo bo'ladi.




5. Qiyalik va estakadalar bo'ylab harakatlanish

Avtomobil pandusga chiqqanida yoki yo'lning qiyalik qismida harakatlanayotganda radiolokator oldinda ketayotgan transport vositasini aniqlay olmaydi.




6. Maqsadli obyektни o'zgartirish

Oldinda ketayotgan maqsadli transport vositasi to'satdan yo'ldan chiqib ketsa, radar oldinda harakatsiz turgan transport vositasini aniqlay olmaydi.



7. Kursdan katta og'ish

Radar avtomobilga ma'lum bir burchak ostida joylashgan transport vositalarini aniqlay olmaydi.



Rul g'ildiragidagi ACC tizimini boshqarish tugmalari



Modelga qarab, tugmalar turli xil joylashuvga ega:



: Adaptiv kruiz nazorati (ACC) tizimini faollashtirish yoki IACC dan ACC ga o'tish;



: ACC adaptiv kruiz nazorati funksiyasini o'chirish;




: Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan vaqt/masofani sozlash (avtomobil va oldinda harakatlanayotgan transport vositasi o'rtasidagi nisbiy vaqt oraliq'i)

RES+: ACC tizimini tiklash yoki kreyser tezligini oshirish;

SET-: ACC o'rnatish yoki kreyser tezligini kamaytirish;

Kruiz nazorati interfeysi



1. Kruiz nazorati tizimining holatini ko'rsatish:

- **Oq**: tizim kutish rejimida;
 - **Yashil**: tizim faol;
 - **To'q sariq**: tizim nosoz;
2. o'rnatilgan kreyser tezligi;
3. Boshqariladigan avtomobilning sxematik tasviri;
4. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha belgilangan vaqt va masofa oraliq'i;
5. Oldinda ketayotgan transport vositasi;
6. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha masofa oraliq'i.
- Kruiz nazorati tizimining interfeysi sotib olingan avtomobil modeliga qarab farq qilishi mumkin.

ESLATMA

Asboblar paneli interfeysi ACC tizimi holatini va u bilan bog'liq ko'rsatmalar va ogohlantirishlarni mavzuni almashtirish jarayonida ko'rsatmaydi. Avtomobilni boshqarishda yo'l va atrof-muhitni diqqat bilan kuzatib boring va

kerak bo'lsa, ogohlantiruvchi ma'lumotni yoki qarshi choralar ko'rishni kutmasdan, o'z vaqtida avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.

OGOHLANTIRISH

Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa adaptiv kruiz-nazorat tizimi faollashtirilgandan so'ng ko'rsatilishi mumkin. Asboblar paneli ko'p funksiyali displeyida aks ettiriladigan qo'shni harakat yo'lagidagi transport vositalari masofasi va joylashuvi real vaziyatdan farq qilishi mumkin. Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javob beradi va yo'ldagi vaziyatni nazorat qilishi, yo'lovchilar va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari harakat xavfsizligini ta'minlashi shart.

Kuchli yorug'lik, kuchli quyosh nuri yoki haydovchi avtomobilni quyoshdan himoyalovchi ko'zoynakda boshqarayotgan bo'lsa, asboblar panelidagi ko'p funksiyali displeydagi ma'lumotlarni qiyinchilik bilan o'qish mumkin. Oynalar ochiq, harakat tezligi yuqori yoki ko'p funksiyali ko'ngilochar qurilmaning baland ovozida ACC tizimining ogohlantiruvchi signali eshitisilmasligi mumkin. Haydovchi har doim yo'l va atrof-muhitni diqqat bilan kuzatishi, yo'lning holati to'g'risidagi ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishi va avtomobilni o'z vaqtida boshqarishni o'z zimmasiga olishi, ogohlantiruvchi ma'lumotni yoki qarshi

choralar ko'rishni kutmasligi kerak.

Kruiz nazorati tizimining ishlashi

Agar kruiz-nazorat tizimining holat indikator oq rangda yonsa, bu tizim kutish rejimida ekanligini bildiradi. Kruiz nazorati funksiyasidan quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Adaptiv kruiz nazoratini faollashtirish (ACC)

Avtomobil dvigateli ishga tushgach  tugmani bosish orqali moslashuvchan kruiz-nazorat funksiyasini faollashtiring. Tizimning kreyser tezligini **RES+** yoki **SET-** tugmalarni bosish yoki dvigatelning ish sikli davomida yoqish va sozlash mumkin. ACC funksiyasi faol bo'lganda, kruiz-nazorat tizimining holat indikator yashil rangda yonadi.

Adaptiv kruiz-nazorat tizimini quyidagi holatlarda faollashtirish mumkin emas. Tizimni faollashtirish uchun asboblarning panelining ko'p funksiyali displeyidagi ko'rsatmalarga amal qiling:

- Haydovchi xavfsizlik kamarini taqmagani;
- To'xtash tormozi yoqilgan;
- AUO'Q uzatmalarini almashtirish selector "D" (Drive) holatida emas;
- ESC tizimi o'chirilgan;
- Avtomobil tezligi 150 km/soatdan oshsa;
- Haydovchining eshigi yopiq emas;
- Avtomobil harakatlanayotganda tormoz

pedalini bosish;

- HDC/ESC/ABS tizimlari yoqilgan yoki ishga tushirilgan.
- Adaptiv kruiz nazorati tizimini faollashtirishga imkon bermaydigan boshqa sharoitlar.

2. Kreyser tezligini sozlash

Adaptiv kruiz nazorati tizimi yoqilgandan so'ng, "RES+" yoki "SET-" tugmalari yordamida kreyser tezligini 30 km/soatdan 150 km/soatgacha sozlang. Kalitni qisqa vaqt bosish belgilangan kreyser tezligini 5 km/soatga oshiradi/kamaytiradi. Kalitni uzoq vaqt bosish belgilangan kreyser tezligini tegishli yo'nalishda 1 km/soatga o'zgartiradi.

ESLATMA

Adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) yoqilganda faol tezlashish kuzatilsa, joriy tezlikni kreyser tezligi sifatida o'rnatish uchun "SET-" tugmasini bosing. "TSR" yo'l belgilarini tanib olish tizimi bilan jihozlangan avtomobillar uchun, agar asboblarning paneli ko'p funksiyali displeyida tezlik rejimini cheklashning chegaraviy ko'rsatkichi ustida "SET" belgisi aks etsa, tezlik rejimini cheklashning ruxsat etilgan cheklangan qiymatiga o'zgartirish uchun "SET-" tugmasini bosing.

OGOHLANTIRISH

Murakkab yo'l sharoitlarida (uzluksiz va/yoki

tik burilishlarda) va aniqlash tizimining ishlash imkoniyati cheklanganda, tizim burilishlarda tormozlaganda, manyovr xavfsizligini to'liq kafolatlash mumkin emas. Kreyser tezligini yo'l sharoiti va yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga muvofiq sozlang. Tezlik rejimidan oshmang.

Burilishlardan o'tishda yo'lning burilish radiusiga qarab tezlikni kamaytirish tavsiya etiladi. Burilish qanchalik tik bo'lsa, tezlik shunchalik past bo'ladi. Burilishdan o'tgandan so'ng belgilangan tezlikni tiklang.

3. Tezlikni intellektual cheklash (Tezlikni cheklash belgilarini aniqlash (TSR) ✖

Agar avtomobil intellektual tezlikni cheklash funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa, yoqish/o'chirish uchun "in Call" multimedia displeyi interfeysida [Vehicle Center (Avtomobil)] - [Driving (Boshqarish)] - [Drive assist (Harakatlanishda yordam)]-[TSR] ni tanlang.

Funksiya yoqilgandan so'ng, tizim avtomatik ravishda ma'lum diapazondagi kreyser tezligi sifatida joriy belgilangan kreyser tezligidan yuqori bo'lgan tezlikning aniqlangan chegarasini belgilaydi.

OGOHLANTIRISH

Yo'l belgilarini aniqlash tizimi (TSR) - bu har qanday ob-havo va yo'l sharoitida foydalanish uchun mo'ljallanmagan yordamchi funksiya. Harakat tezligini cheklashning intellektual tizimi avtomobil haydovchisining tezlikdan

oshmasligini kafolatlay olmaydi (masalan, tezlikni cheklash belgisi tezlikni nazorat qilish kamerasidan juda yaqin joylashgan va sekinlashtirish uchun masofa yetarli emas) va harakat xavfsizligini ta'minlay olmaydi. Harakat yo'nalishini va ogohlantiruvchi yo'l belgilarini diqqat bilan kuzatib boring. Haydovchi avtomobilni boshqarish va tezlik rejimiga rioya qilish uchun to'liq javob beradi. Barcha xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qiling.

4. Transport vositalari o'rtasidagi vaqt intervalini sozlash

Adaptiv kruiz nazorati (ACC) funksiyasini ishga tushirgandan so'ng, oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa/intervalni belgilash uchun [] tugmasini bosing.

Adaptiv kruiz nazorati rejimida transport vositasini kuzatib borishda 4 ta masofaviy variantdan birini tanlash mumkin. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa bir bo'linmadan to'rtgacha ortib boradi, bunda bir bo'linma eng yaqin masofa, to'rt bo'linma esa eng uzoq masofani bildiradi. Avtomobil har bir qayta ishga tushirilgandan so'ng o'rnatilgan masofa rejimi oxirgi berilgan qiymatga mos keladi.

Adaptiv kruiz nazorati tizimi ishlayotganda, avtomobil va oldinda ketayotgan transport vositasi o'rtasidagi masofa ko'p funksiyali asboblarning paneli displeyida yashil, sariq va qizil ranglarda aks

etishi mumkin:

- **Yashil:** avtomobillar orasidagi haqiqiy interval belgilangan qiymatga mos keladi;
- **Sariq:** oldinda harakatlanayotgan transport vositasigacha haqiqiy interval belgilangan qiymatdan kamroq;
- **Qizil:** oldinda harakatlanayotgan transport vositasigacha bo'lgan haqiqiy interval (masofa) belgilangan qiymatga nisbatan juda kichik. Kreyser tezligini yoki avtomobillar orasidagi intervalni (masofani) sozlashda diqqatli va ehtiyotkor bo'ling. Agar zarur bo'lsa, avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.



ESLATMA

Vaqt va masofa oralig'ining qiymati faqat sozlash paytida ko'rsatiladi. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan interval (masofa) qancha kichik bo'lsa, haydovchining reaksiyasiga shuncha kam vaqt qoladi. Kreyser tezligi va oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa/intervalni tashqi omillarga: transport oqimining zichligi, ob-havo sharoiti va boshqa yo'l sharoitlariga muvofiq o'rnatish.

5. Adaptiv kruiz nazorati rejimidan

chiqish

Adaptiv kruiz nazorati faollashtirilgandan so'ng, quyidagi amallar bajarilganda yoki quyidagi shartlarga rioya qilinganda, tizim avtomatik ravishda kutish holatiga o'tadi:

- Dvigatelni o'chirish;
- Tormoz pedalini bosish;
- Avtomobilni 3 daqiqadan ko'proq vaqt davomida to'xtatish;
- To'xtashdan keyin avtomobil sirpanishi;
-  tugmasini bosish
- Haydovchi eshigi ochiq;
- ESC tizimi yoqilgan;
- To'xtash tormozi yoqilgan;
- AUO'Q selektori "D" holatida emas;
- Xavfsizlik kamari mahkamlanmagan;
- HDC/ESC/ABS va old to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari yoqilgan yoki ishga tushirilgan;
- 15 daqiqadan ko'proq vaqt davomida avtomobilni faol boshqarish;
- Avtomobil tezligi 155 km/soatdan yuqori;
- Avtomobilni yaqin masofadan kuzatib borishda nishon yo'qolgan;
- Mashinani to'xtatgandan so'ng, rul katta burchakka buriladi;
- Radar iflos/tizim noto'g'ri.

Agar tizim avtomobilni to'liq to'xtatib tursa, tormoz pedalini bosganingizda u o'chmaydi.

ESLATMA

Haydovchi to'qnashuv xavfi mavjudligini aniqlagan har qanday xavfli vaziyat yuzaga kelganda, kruiz nazorati (ACC) tizimini bekor qiling yoki o'chiring va darhol avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.

6. ACC tizimini qayta ishga tushirish

Adaptiv kruiz nazorati tizimi faol holatdan kutish rejimiga o'tkazilganda:

RES+ tugmasini bosib, adaptiv kruiz nazorati tizimi faollashadi va avtomobil tezligi avval o'rnatilgan tezlikka qaytadi;

SET- yoki  tugmani bosib, adaptiv kruiz nazorati tizimi qayta faollashadi va joriy harakat tezligini avtomatik ravishda kreyser tezligi sifatida o'rnatadi.

ESLATMA

Kruiz nazorati funksiyasini tiklash uchun "RES+" tugmasi bosilsa, avval o'rnatilgan tezlik joriy harakat tezligidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Avtomobilning tezligi yo'lning ushbu qismida nazarda tutilgan tezlik rejimini cheklash qoidalariga mos kelishiga ishonch hosil qiling va avtomobilning tezlashishi va sekinlashishiga e'tibor bering. Kreyser tezligini o'z vaqtida sozlang.

7. ACC faol tezlashish rejimi

Faol tezlashish rejimi - bu kruiz nazorati funksiyasi faollashtirilganda haydovchi tomonidan avtomobil harakatini tezlashtirish uchun, masalan, quvib o'tishda, akselerator

pedalini faol bosish. Haydovchi akselerator pedalini qo'yib yuborganidan so'ng, adaptiv kruiz nazorati avtomatik ravishda ilgari o'rnatilgan kruiz tezligini tiklaydi.



ESLATMA


Kruiz-nazorat tizimi faollashtirilgan holda avtomobil faol boshqarilsa, boshqaruv to'liq haydovchi nazoratiga o'tadi va adaptiv kruiz-nazorat tizimi avtomobil tezlashishi yoki tormozlashini nazorat qilmaydi.

8. Adaptiv kruiz nazorati tizimi yordamida avtomobilni to'xtatish

Agar oldinda ketayotgan avtomobil sekin to'xtasa, ACC tizimi avtomobilni oldinda joylashgan transport vositasining orqasida to'liq to'xtamaguncha boshqaradi. Agar oldinda ketayotgan transport vositasi 3 soniya ichida harakatni boshlasa, ACC tizimi yoqilgan avtomobil uning ortidan harakatni boshlaydi.

3 soniyadan ortiq to'xtashdan so'ng, kruiz-nazorat tizimi indikatori oq rangga o'tadi. Bu vaqtda tizim avtomobilni boshqarmaydi. Oldinda ketayotgan transport vositasini kuzatish rejimi o'chirilgan. Harakatni boshlash va adaptiv kruiz nazorati tizimini yoqish

uchun **RES+** tugmani yoki akselerator pedalini biroz bosib.



ACC tizimi yordamida to'liq to'xtatilgandan so'ng, avtomobil quyidagi sharoitlarda avtomatik ravishda elektr mexanik to'xtash tormozini  faollashtiradi:

- 3 daqiqadan ortiq to'xtash;
- Kapot/haydovchi eshigi ochiq;
- Haydovchi xavfsizlik kamari mahkamlanmagan;
- Dvigatel o'chirilgan ("START-STOP" funksiyasi o'chirilgan);
- ESC tizimi o'chirilgan;
- AUO'Q selektori "D" holatida emas.

ESLATMA

Agar oldinda harakatlanayotgan transport vositasi to'xtagandan keyin 3 soniya davomida kichik tezlikda harakatlanishda davom etsa va boshqarilayotgan avtomobilning rul g'ildiragi katta burchakka burilsa, ACC tizimi o'chiriladi. Avtomobil boshqaruvini o'z zimmangizga oling.

8. ACC tizimi ogohlantirishlari

Adaptiv kruiz nazorati tizimi avtomobil

imkoniyatlarining taxminan 40% tormoz kuchidan foydalanishga qodir. Agar ACC tizimining tormozlash kuchi oldinda joylashgan transport vositasigacha kerakli masofani saqlash uchun yetarli bo'lmasa, uzluksiz tovush signali eshitiladi va "Avtomobil boshqaruvini nazoratga oling" axborot xabari paydo bo'ladi. To'qnashuvning oldini olish uchun avtomobilni boshqarishga zudlik bilan aralashish kerak.



Mumkin bo'lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish

Agar adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) radar bloklangan yoki nosozligini aniqlasa yoki ACC ishi bilan bog'liq tizimlardan biri (masalan, ESC) ishdan chiqqan bo'lsa, asboblarning panelining ko'p funksiyali displeyidagi kruiz nazorati holati indikator to'q sariq rangga aylanadi va displeyda tegishli xabar paydo bo'ladi.

1. Radar bloklangan.

Radar yuzasi toza ekaniga ishonch hosil qiling va agar mavjud bo'lsa, sirdagi iflosliklarni olib tashlang. Agar radar yuzasi tozalangandan keyin nosozlikni uzoq vaqt

davomida avtomatik ravishda bartaraf etib bo'lmasa, diagnostika va/yoki tuzatish uchun CHANGAN vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling.

2. Funksiya cheklovlari

Quyida tavsiflangan nosozliklar paydo bo'lganda va uzoq vaqt davomida, shu jumladan avtomobil qayta ishga tushirilgandan keyin nosozliklarni avtomatik ravishda bartaraf etishning iloji yo'qligi haqida eslatmalar bo'lsa, diagnostika va/yoki ta'mirlash uchun CHANGAN vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling:

- Adaptiv kruiz nazorati vaqtincha ishlamaydi;
- Kruiz nazorati va favqulodda avtomatik tormozlash tizimi vaqtincha ishlamaydi;
- Radar bloklangan, kruiz nazorati va favqulodda avtomatik tormozlash tizimidan foydalanish vaqtincha imkonsiz;
- Tormoz tizimi nosoz, kruiz-nazorat va favqulodda avtomatik tormozlash tizimidan vaqtincha foydalanish imkonsiz.

Quyidagi holatlarda radarni tekshirish va kalibrlash uchun CHANGAN vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling:

- Radar yoki oldingi bampere qismga ajratilgan yoki qayta o'rnatilgan;
- Radar yoki uning ishiga tashqi kuchlar ta'sir ko'rsatadi;
- To'qnashuv yoki avariya natijasida

olingan mexanik shikastlanishlar;

- ACC tizimining ish sifati/unumdorligining pasayishi (nishongacha bo'lgan masofaga rioya qilmaslik yoki qo'shni yo'lakdagi transport vositalarini tez-tez noto'g'ri aniqlash).
- Favqulodda tormozlashda avtomatik yordam tizimining noto'g'ri ishlashi (tez-tez ogohlantirishlar yoki tormozlashning noto'g'ri ishlashi va h.k.).

ESLATMA

Avtomobilga noto'g'ri texnik xizmat ko'rsatish radar holatining siljishiga olib kelishi mumkin, bu esa ACC tizimining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Avtomobilni ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

INTELLEKTUAL ADAPTIV KRUIZ NAZORATI (IACC) ✖

Intellectual adaptiv kruiz nazorati (IACC) funksiyasidan foydalanishdan oldin ushbu bo'limning butun mazmunini diqqat bilan o'qing va tanishib chiqing.

Intellectual adaptiv kruiz nazorati tizimi (IACC) oldindan belgilangan kreyser tezligi bilan yoki oldinda ketayotgan transport vositasigacha belgilangan masofada harakatlanish uchun mo'ljallangan.

IACC tizimi adaptiv kruiz nazorati tizimi tomonidan foydalaniladigan radar va oldinda harakatlanayotgan transport vositalari va yo'l chiziqlarini aniqlash uchun harakat yo'lagini kuzatish tizimida foydalaniladigan kamerani birlashtiradi. Avtomobil harakat yo'nalishi bo'ylab harakatlanib, oldinda ketayotgan transport vositasigacha belgilangan kreyser tezligi va/yoki masofani saqlaydi, rul boshqaruvi yordamida avtomobilning harakat trayektoriyasini to'g'rilaydi.

Avtomobilni boshqarishda haydovchining harakatlari har doim ustuvor hisoblanadi.

Quyidagi holatlarda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun haydovchi ehtimoliy xavfni o'z vaqtida baholashi, IACC tizimini o'chirish uchun tormoz pedalini yoki IACC tizimini o'chirish tugmasini bosishi va avtomobil faol boshqaruvini o'z zimmasiga olishi kerak:

- Avtomobil oldinda va qo'shni harakat yo'laklarida joylashgan transport

vositalarigacha xavfsiz masofani saqlamaydi;

- Rul boshqaruvidagi tuzatishlar burilishlardan xavfsiz o'tish uchun yetarli emas;
- IACC tizimining ishlashi cheklangan vaziyatlarda.

OGOHLANTIRISH

IACC tizimidan foydalanganda rul g'ildiragini ikki qo'llab tuting va avtomobilning old, orqa va atrofidagi yo'l holatini diqqat bilan kuzating. Intellectual adaptiv kruiz nazorati tizimi (IACC) haydovchiga yordam beradi, ammo uning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Hatto IACC faollashtirilganda ham, bu haydovchini avtomobilni boshqarish, masofa, tezlik rejimi va xavfsiz haydash qoidalariga rioya qilish uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

OGOHLANTIRISH

Intellectual adaptiv kruiz-nazorat tizimi (IACC) to'siqlarni aniqlash yoki to'qnashuvlardan himoya qilish tizimi emas. U haydashda qulaylikni oshirish uchun mo'ljallangan, tormozlashni yaxshiroq amalga oshirishga yordam beradi va rul boshqaruvi yordamida harakat trayektoriyasini to'g'rilaydi.

Tizim to'qnashuvlardan himoyalaniшни kafolatlamaydi va har qanday ob-havo, yo'l sharoiti va yo'l turlarida rul boshqaruvining ishonchligini ta'minlay olmaydi. Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javobgar bo'ladi va yo'ldagi vaziyatni nazorat qilishi,

yo'lovchilar va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari harakati xavfsizligini ta'minlashi shart.

Intellectual adaptiv kruiz nazorati tizimi (IACC) haydovchiga yordam beradi, lekin uning o'rnini to'liq bosa olmaydi. Hatto IACC faollashtirilganda ham, bu haydovchini avtomobilni boshqarish, tezlik rejimi va xavfsiz haydash qoidalariga rioya qilish uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi. Tizim faqat tegishli kamera va radar bloki tomonidan aniqlagan transport vositalari haqida ogohlantiradi va shuning uchun ogohlantirish kechikishi yoki mavjud bo'lmasligi mumkin. Ogohlantirishni kutmang! Haydovchi ehtimoliy xavfni o'z vaqtida baholashi va avtomobil boshqaruvini o'z zimmasiga olishi kerak.

IACC tizimi tezyurar avtomagistrallarda yoki yaxshi yo'l sharoitiga ega yo'llarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan quyida tavsiflangan yo'l vaziyatlarida foydalanish tavsiya etilmaydi. Aks holda, tizim avtomobilni to'g'ri boshqarishga yordam bera olmaydi va atrofdagi transport vositalari va tizim tomonidan aniqlanmagan boshqa to'siqlar bilan to'qnashish xavfini keltirib chiqarishi mumkin:

- Tizimning to'g'ri ishlashiga murakkab ob-havo sharoitlari ta'sir qilishi mumkin: kuchli yomg'ir, qor yoki tuman, qumli chang, yomon ko'rinish va/yoki yuqori kontrastli/ yorqin yoritilganlik (masalan, tunnelga kirish va undan chiqishda), qaytuvchi yorug'lik va

obyektlar, sun'iy yoritish, yorqin nurlar, yo'l bo'yidagi daraxtlar va boshqalar). Harakat trayektoriyasining og'ishi haqida ogohlantirish yoki ravan sozlash kechikish bilan sodir bo'lishi yoki sodir bo'lmasligi mumkin.



- Shikastlangan, xavfli va sirpanchiq yo'llar (masalan, tog'li yo'llar, burilish radiusi kichik bo'lgan yo'llar, notekis yo'llar, shuningdek suv, qor bosgan, muzlagan yoki moy to'kilgan, qum va chang bilan ifloslangan nam yo'llar).
- Yo'l sharoiti murakkab bo'lgan yo'llar (masalan, zich tirbandliklar, chorrahalar, tor o'tish yo'llari, yo'l ishlari olib borilayotgan hududlar, panduslar, pullik hududlarga kirish va chiqish va h.k.). Ushbu sharoitda tizimdan foydalanmang.

Millimetr to'lqin diapazonli radari va old kuzatuv kamerasi, IACC tizimi ishlaganda, quyida ko'rsatilgan sharoitlarda (lekin ular bilan cheklanmagan holda) harakat yo'lagi chiziqlari va/yoki oldinda joylashgan transport vositalarini aniqlamasligi mumkin. Bunday holatda tizim avtomobilni belgilangan marshrutga muvofiq boshqarishda yoki tezlik va masofani boshqarishda yordam bera olmaydi. Avtomobilni o'z vaqtida boshqarishni o'z zimmangizga oling va kerak bo'lsa, IACCni o'chiring.

1. Harakat marshruti noyob emas

Avtomobil yo'ldan chiqish joyiga yaqinlashganda yoki harakat yo'lagi ajralganda, harakat yo'nalishini tanlash zarur bo'lganda, tizim kerakli yo'nalishni mustaqil


ravishda aniqlay olmaydi va noto'g'ri yo'lni tanlashi yoki yo'ldan chiqib ketishi mumkin. Haydovchi tanlangan harakat yo'nalishini to'g'rilash uchun avtomobilni kerakli qatorga yo'naltirishi kerak.



2. Yo'l to'silgan


Yo'l ishlari olib borilganda yoki oldinda nosoz transport vositasi joylashgan bo'lsa, yo'lning harakat chizig'i uzilgan, harakat chizig'i bo'lmagan qismida harakatlanayotganda yoki oldinda yo'l bo'lmaganda tizim to'siqni avtomatik ravishda aniqlay olmaydi va harakat yo'lagini o'zgartira olmaydi.






3. Yo'ldagi to'siqlar va begona jismlar

Tizim yo'lakda joylashgan begona obyektlarni aniqlay olmaydi va to'qnashuv xavfi mavjud (masalan, yo'l chetidagi o'simliklar va xavfsizlik orolchalari yo'lining qatnov qismiga tushganda va hokazo).



Tizim oldinda joylashgan harakatsiz transport vositasini aniqlay olmaydi, ayniqsa, avtomobil yuqori tezlikda harakatlanganda yoki oldinda joylashgan transport vositasi harakat yo'nalishiga nisbatan burchak ostida bo'lsa. Bunday holda, to'qnashuv xavfi paydo

bo'lishi mumkin.



4. Yo'l chiziqlari standartlarga muvofiq emas

Yo'l chiziqlari noto'g'ri chizilgan, o'qilmaydigan yoki aniq bo'lmasa (xiralashgan yoki mavjud emas, yo'l qoplamasida chiroq nurlari, yo'lining yoritilgan va qorong'i qismlarining uzluksiz almashinuvi, harakat yo'lagi chiziqlarining daraxtlar yoki to'siqlar soyasida bo'lishi va h.k.), ifloslangan (masalan, yo'lining chorrahalarida, aylanib o'tish va ta'mirlanadigan hududlarida, estakadalarda va h.k.) bo'lsa, tizim harakatning zarur yo'nalishini mustaqil ravishda aniqlay olmaydi, rul boshqaruvida xatoliklar yoki yo'l chegarasidan chiqishlar kuzatilishi mumkin.

5. Notekis yo'l

G'ildiraklar yo'l qoplamasidagi o'ralar, toshlar va/yoki boshqa do'ngliklarga urilganda, avtomobilning harakatlanish yo'nalishi yo'ldagi to'siqlar tufayli bir lahzaga o'zgarishi va avtomobilning harakatlanish

trayektoriyasi harakat yo'lagidan chetga chiqishi mumkin. Tizim yana yo'l chiziqlarini aniqlamaguncha, notekis harakat tufayli vaqtincha xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

6. Identifikatsiya xatoliklari

Tizim qatnov qismining chetini (ayniqsa, tunnellarda), g'ildirak protektorlarining izlarini, yo'l yoritgichlarini, qorni va boshqalarni yo'l belgi chiziqlari sifatida noto'g'ri aniqlashi mumkin. Bunday holatda avtomobil harakat yo'lagi markazidan chetga chiqishi yoki qisqa muddatga yo'nalishini o'zgartirishi mumkin.

7. Burilishdan o'tish

Avtomobil burilishga kirganda, tor burilishdan o'tganda yoki kichik radiusli keskin burilish va/yoki sirpanchiq yo'lda, shu jumladan yuqori tezlikda harakatlanganda, tizim haydovchiga avtomobilni harakat zonasida ushlab turishga yordam bera olmaydi va avtomobil yo'ldan chiqib ketishi mumkin.

8. Tirband yo'llar

Tanlangan nishonni ta'qib qilish rejimida tizim yaqin masofada yaqinlashayotgan transport vositalariga, ayniqsa, tig'iz harakat sharoitida reaksiya bildirmasligi mumkin. To'qnashuv xavfi mavjud.

Tanlangan nishonni ta'qib qilish rejimida oldinda tanlangan transport vositasi harakat yo'nalishini o'zgartirganda, avtomobil

tanlangan transport vositasiga ergashadi va yaqinlashib kelayotgan transport vositalari bilan to'qnashuv xavfi yuzaga kelishi mumkin.

Tanlangan nishonni ta'qib qilish rejimida avtomobilning tezligi va harakat trayektoriyasi tanlangan transport vositasi va belgi chiziqlariga asoslanadi. Yetakchi transport vositasi qayta joylashishi yoki harakat yo'lagidan chetga burilishi mumkin, natijada harakat yo'lagida transport vositalari bilan to'qnashuv xavfi yuzaga keladi.



9. Elektromagnit nurlanishli hududlar


Kuchli elektromagnit nurlanish rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) ning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. EPS yaqinida kuchli magnit nurlanishiga ega obyektlarni joylashtirmang. Agar avtomobil uzoq vaqt davomida kuchli yuqori kuchlanishli elektromagnit nurlanish tarqatuvchi obyektlar (televizion minoralar, elektr stansiyalari, benzin kolonkalari, radiostansiyalar, keng ekranli displeylar, aeroport binolari yoki boshqa obyektlar) yaqinida bo'lsa, rul boshqaruvi elektr kuchaytirgich (EPS)

tizimining ishlashiga e'tibor bering. Agar nosozlik aniqlansa, IACC tizimidan foydalanmang va avtomobilni diagnostika qilish yoki ta'mirlash uchun vakolatli CHANGAN xizmat markaziga murojaat qiling.

10. IACC tizimi ishlash cheklovlari

Avtomobil og'ir yuklanganda yoki tirkamalar yoki boshqa transport vositalari shatakka olinganda IACC tizimidan foydalanmang. Adaptiv kruiz nazorati radarining ishlashi va samaradorligiga ta'sir qiladigan vaziyatlarda IACCdan foydalanmang.

Rul g'ildirigidagi boshqaruv tugmalari



: Intellectual adaptiv kruiz nazorati (IACC) tizimini faollashtirish;

: Adaptiv kruiz nazorati tizimini faollashtirish (ACC) yoki IACC dan ACC ga o'tish;

: ACC adaptiv kruiz nazorati

funksiyasini o'chirish;



Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan vaqt/masofani sozlash (avtomobil va oldinda harakatlanayotgan transport vositasi o'rtasidagi nisbiy vaqt oraliq'i);



ACC tizimini tiklash yoki kruiz tezligini oshirish;



ACC tizimini o'rnatish yoki kruiz tezligini kamaytirish.

IACC tizimi interfeysi



1. IACC tizimining holati ko'rsatkichi:

- **Oq:** tizim kutish rejimida;
- **Yashil:** tizim faol;
- **To'q sariq:** tizim nosoz;

2. Kruiz nazorati tizimi holati ko'rsatkichi (ACC):

- **Oq:** tizim kutish rejimida;
- **Yashil:** tizim faol;
- **To'q sariq:** tizim nosoz;

3. Harakat chizig'ini aniqlash ko'rsatkichi:

- **Kulrang:** aniqlanmadi;
- **Oq:** aniqlandi;
- **Qizil:** egallangan harakat yo'lagidan

chiqish haqida ogohlantirish;

- **To'q sariq:** harakat trayektoriyasini qo'shimcha tuzatish;

- **Yashil:** IACC tizimi faol;

4. Boshqarilayotgan avtomobilning sxematik tasviri;

5. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan belgilangan vaqt va masofa oralig'i;

6. Oldinda ketayotgan transport vositasi;

7. Belgilangan kreyser tezligi;

8. Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa oralig'i;

9. Qo'shni harakat yo'lagidagi transport vositalari;

10. Yo'lning ushbu qismida tezlik rejimining cheklanishi.

ESLATMA

IACC tizimi yoqilganda va tanlangan nishonni kuzatish rejimida bo'lganda, oldinda harakatlanayotgan transport vositasi yashil rangda ko'rsatiladi.

OGOHLANTIRISH

Oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa adaptiv kruiz-nazorat tizimi faollashtirilgandan so'ng ko'rsatilishi mumkin. Asboblar paneli ko'p funksiyali displeyida aks ettiriladigan qo'shni harakat yo'lagidagi transport vositalari masofasi va joylashuvi real vaziyatdan farq qilishi mumkin. Haydovchi avtomobilni boshqarish uchun to'liq javob

beradi va yo'ldagi vaziyatni nazorat qilishi, yo'lovchilar va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari harakat xavfsizligini ta'minlashi shart.

Kuchli yorug'lik, kuchli quyosh nuri yoki haydovchi avtomobilni quyoshdan himoyalovchi ko'zoynakda boshqarayotgan bo'lsa, asboblar panelidagi ko'p funksiyali displeydagi ma'lumotlarni qiyinchilik bilan o'qish mumkin. Oynalar ochiq, harakat tezligi yuqori yoki ko'p funksiyali ko'ngilochar qurilmaning baland ovozida ACC tizimining ogohlantiruvchi signali eshitilmasligi mumkin. Haydovchi har doim yo'l va atrof-muhitni diqqat bilan kuzatishi, yo'lning holati to'g'risidagi ma'lumotlardan to'g'ri foydalanishi va avtomobilni o'z vaqtida boshqarishni o'z zimmasiga olishi, ogohlantiruvchi ma'lumotni yoki qarshi choralar ko'rishni kutmasligi kerak.

IACC tizimidan foydalanish

IACC tizimi 0-130 km/soat tezlik oralig'ida ishlaydi.

1. Bitta harakat yo'lagida harakatlanishda yordam

IACC tizimi harakat yo'lagining har ikki tomonidan yo'l belgilarining aniqlangan chiziqlari asosida tizim tomonidan trayektoriyani to'g'rilash to'g'risidagi ma'lumotlarni rul boshqaruviq uzatadi. Bunda IACC tizimi harakat trayektoriyasi bo'yicha harakatlanish rejimida bo'ladi, IACC

indikator va harakat yo'lagi yo'l chiziqlari ko'p funksiyali asboblar paneli displeyida yashil rangda, oldinda ketayotgan transport vositasi (agar u identifikatsiya qilingan bo'lsa) esa oq rangda aks ettiriladi.

2. Tig'iz harakatli va tirband yo'llarda harakatlanishda yordam

Agar avtomobilning tezligi soatiga 60 km dan kam bo'lsa va harakat yo'lagining chiziqlari aniqlanmasa, avtomobil oldinda joylashgan tanlangan nishonni ta'qib qilishi mumkin. Bu vaqtda IACC tizimi tanlangan mo'ljalni kuzatish rejimida bo'lib, IACC indikator va oldinda harakatlanayotgan transport vositasi asboblar panelining ko'p funksiyali displeyida yashil rangda aks etadi.

OGOHLANTIRISH

Harakat tig'iz va tirband bo'lgan yo'llarda IACC tizimidan faqat transport vositalari ketma-ket (navbatma-navbat) joylashtirilganda foydalaning. IACC tizimidan to'lov punktlariga kirish va chiqishda, tartibsiz harakatda, tasodifiy tirbandliklarda va burilish radiusi kichik bo'lgan yo'llarda foydalanmang. Agar yetakchi transport vositasi juda tez qayta joylashsa yoki burilsa, IACC tizimi tanlangan nishon ortidan kuzatishni davom ettira olmaydi. Tizim yangi nishonni tanlashi yoki faol ACC holatiga o'tishi va avval belgilangan kreyser tezligini olishi mumkin. Haydovchi har doim yo'l, atrof-muhit va tizim holatini diqqat bilan kuzatib borishi, kerak bo'lsa, IACC

tizimini o'z vaqtida o'chirib, avtomobil boshqaruvini o'z zimmasiga olishi kerak.

IACC tizimini yoqish

IACC tizimini yoqish shartlari:

- Avtomobil quvvati yoqilgan ("ON" holati), dvigatel ishga tushirilgan;

- AUO'Q selektori "P" holatida

IACC [Vehicle settings (Avtomobil sozlamalari)] → [Driving assistance (Haydashda yordam)] ni yoqish uchun barcha shartlarga rioya qilingandan so'ng, intellektual kruiz nazorati tizimini (IACC) multimedia tizimi displeyida faollashtirish mumkin.



IACC tizimini ishga tushirish

IACC tizimi ishga tushirilgandan so'ng, tizimni faollashtirishning barcha shartlari bajarilganda, asboblar paneli ko'p funksiyali displeyida IACC indikatori oq rangda aks etadi. IACC tizimini yoqish uchun faollashtirish tugmasini  bosib va tizim tezlashish, tormozlash va rul boshqaruvini boshqarish funksiyalarini o'z zimmasiga oladi.

IACC tizimi yoqilgandan so'ng, IACC tizim ko'p funksiyali displeyidagi holat indikatori yashil rangda yonadi va adaptiv kruiz nazorati (ACC) tizimi yordamida ruxsat etilgan kreyser

tezligi va oldinda ketayotgan transport vositasigacha bo'lgan masofa/intervalni o'rnatish mumkin.



Quyidagi holatlarda IACC tizimini yoqish imkonsiz. Asboblar paneli ko'p funksiyali displeyi ko'rsatmalariga amal qiling.

1. IACC tizimini yoqish shartlariga rioya qilinmagan:

- Harakatlanish yo'lagi ikkala tomonidagi yo'l chiziqlarini bir vaqtda aniqlab bo'lmaydi;
- Harakat yo'lagi chiziqlari aniqlangan, ammo harakat yo'lagi kengligi belgilangan xususiyatga mos emas;
- Harakatlanish yo'lagi chiziqlari aniqlangan, lekin tizim ularga rioya qilmaydi. Masalan, yo'lak chiziqlari yuvilgan, o'chgan yoki aniq emas;
- Haydovchi rul g'ildiragiga kuch bilan bosim bersa;
- Avtomobil yuqori tezlikda burilganda;
- Yo'lning kichik burilish radiusi;
- Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgich tizimi (EPS) hozirda IACC tizimini qo'llab-quvvatlamasa;
- Oyna tozalagichning eng yuqori ish tezligi yoqilganda.

2. Adaptiv kruiz nazorati (ACC) tizimini

faollashtirish shartlari bajarilmaganda (ko'p funksiyali asboblar paneli displeyidagi ko'rsatmalarga amal qiling);

3. Avtomobil tezligi soatiga 130 km dan oshganda;
4. IACC tizimi kutish rejimida;
5. IACC tizimi o'chirilgan;
6. IACC tizimi faol emas.

OGOHLANTIRISH

IACC tizimining har bir ishga tushirilishida ilgari o'rnatilgan kreyser tezligi joriy tezlikka tushiriladi: minimal - 30 km/soat va maksimal - 130 km/soat.

IACC tizimi yoqilgandan so'ng, adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) sinxron ravishda faollashtiriladi. Bunda avtomobilning tezlashishi va sekinlashishini boshqarish mantig'i xuddi ACC tizimini qo'lda faollashtirishdagi kabi.

Adaptiv kruiz nazorati tizimi (ACC) yoqilganda avtomobil faol boshqarilsa, boshqaruv to'liq haydovchiga o'tadi va adaptiv kruiz nazorati tizimi avtomobilning tezlashishi yoki sekinlashishini nazorat qilmaydi, ammo IACC tizimi rul boshqaruvi yordamida harakat trayektoriyasini avvalgidek to'g'rilaydi.

Agar IACC tizimi yoqilganda, haydovchi akselerator pedalini keskin bossa, avtomobil tezligi bir zumda oshadi, bu esa avtomobilning IACC tizimi tomonidan boshqariladigan harakat trayektoriyasidan keskin og'ishiga ta'sir qilishi mumkin.

Haydovchi har doim yo'lni, atrof-muhitni va

avtomobilning holatini diqqat bilan kuzatib borishi va avtomobilni o'z vaqtida boshqarishni o'z zimmasiga olishi kerak.

Kreyser tezligini sozlash

IACC tizimi yoqilgandan so'ng, adaptiv kruiz nazorati (ACC) tizimining ko'rsatmalariga binoan kreyser tezligini o'rnatish.

Tezlik va masofani sozlash

IACC tizimi yoqilgandan so'ng, adaptiv kruiz nazorati (ACC) tizimining ko'rsatmalariga rioya qilgan holda oldinda harakatlanayotgan transport vositasiga nisbatan tezlik/masofani sozlang.

IACC tizimidan chiqish

1. IACC tizimidan faol chiqish

IACC tizimi har qanday ob-havo va yo'l sharoitlariga moslasha olmaydi. Haydash xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lganda, haydovchi IACC tizimini o'chirishi kerak. IACC tizimidan faol chiqish usuli:

- Adaptiv kruiz nazorati funksiyasini o'chirish tugmasini bosish ;
- Tormoz pedalini bosish;
- Intellektual adaptiv kruiz nazorati tizimini yoqish tugmasini bosish (IACC).

2. IACC tizimidan avtomatik chiqish

IACC tizimi ish jarayonida boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Boshqa tizimlar ish sharoitlariga mos kelmaganda, IACC tizimi quyidagi holatlarda o'z-o'zidan ishini yakunlaydi:

- Old kamera bloklaganda;
 - Boshqa o'zaro aloqa qiluvchi tizimlar nosoz yoki mavjud bo'lmaganda;
 - Harakat yo'lagini kuzatish tizimining (LAS) ishdan chiqishi;
 - Haydovchi rulni ikki qo'llab ushlaganda;
 - Avtomobil tezligi ruxsat etilgan maksimal tezlikdan oshganda;
 - ACC rejimidan chiqishni keltirib chiqaruvchi boshqa sharoitlar.
- Avtomatik chiqishdan so'ng IACC tizimini faollashtirish uchun  tugmasini bosing.

OGOHLANTIRISH

Agar IACC tizimi nosozlik tufayli ishdan chiqqan bo'lsa, IACC tizimidan qayta foydalanishdan oldin avtomobilni nosozlik bartaraf etilgandan keyin qayta ishga tushirish kerak (bu taxminan 20 soniya vaqt oladi).

3. IACC tizimidan vaqtinchalik chiqish

IACC tizimidan foydalanishdagi cheklovlar tufayli tizimdan vaqtinchalik chiqish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- Yo'l chiziqlaridan biri yoki ikkalasi yo'qolganda;
- Yetakchi transport vositasi aniqlanmaganda;
- Burilish signali yoqilganda;
- Avtomobil rulni faol boshqarish;
- Harakatlanish yo'lagining kengligi belgilangan xususiyatlar va GOSTlarga mos kelmaganda;

- Yo'lning kichik burilish radiusi;
- Avtomobil barqaror bo'lmaganda.



IACC tizimi vaqtincha o'chirilganda faqat rul boshqaruvi yordamida harakat trayektoriyasini sozlash tizimi o'chiriladi. Tizim avtomobilning tezlashishi va sekinlashishini nazorat qilishda davom etadi. IACC tizimining vaqtinchalik o'chirilish sabablari bartaraf etilgandan so'ng, rul boshqaruvi yordamida harakat trayektoriyasini sozlash tizimi ishi avtomatik ravishda tiklanadi.

Agar vaqtinchalik tizimdan chiqilgandan keyin vaqt chegarasi tugasa, IACC tizimi to'liq o'chiriladi. IACC tizimini yoqish uchun IACC yoqish tugmasini qayta bosish kerak.

ESLATMA

Haydovchi har doim IACC tizimining holatini kuzatib borishi, uning o'chirilishiga tezda javob berishi va IACC tizimi qayta faollashgunga qadar transport vositasi boshqaruvini to'liq o'z zimmasiga olishi kerak.

IACC tizimidan chiqish haqida eslatma

Harakat yo'lagini kuzatish rejimida, IACC tizimi avtomobilning yuqori tezligi va/yoki sirpanchiq yo'l sharoiti tufayli avtomobilning harakat trayektoriyasini nazorat qila

olmaganda, agar avtomobil harakat yo'lagini tark etmoqchi bo'lsa, IACC tizimi ogohlantirish beradi. Darhol avtomobilni boshqarishni o'z zimrangizga oling.



Haydovchi harakatlari monitoringi

Intellectual adaptiv kruiz nazorati tizimi (IACC) haydashda yordamchi yordam funksiyasidir. IACC dan foydalanganda qo'llarni ruldan uzamang. Agar tizim rul g'ildiragi ikkala qo'l bilan mahkam tutib turilmayotganini aniqlasa, asboblari paneli vizual (asboblari panelida ko'z pirlpiratish), ovoqli va matnli xabarlarini yuboradi. Agar ogohlantirish signalidan so'ng haydovchi ikkala qo'li bilan rulni boshqarmasa, IACC tizimi avtomobilni boshqarishdan ustunlikka ega bo'ladi. Avariya signalizatsiyasini yoqadi, avtomobilni to'xtatishgacha sekinlashtiradi va IACC funksiyasidan dvigatelni joriy ishga tushirish davrida qayta foydalanish imkoniyatini bloklaydi. To'xtatilgandan so'ng, avtomobil IACC tizimidan adaptiv kruiz nazorati (ACC) boshqaruvi ostida to'xtash rejimiga o'tadi. IACC tizimi tormozlash paytida avtomobilni boshqarishni o'z zimmasiga oladi.



IACC tizimi nosozligini bartaraf etish

Millimetrli to'liq diapazonining old radari, old kuzatuv kamerasi yoki ular bilan bog'liq tizim nosoz bo'lsa, IACC tizimi avariya holatiga o'tadi. Tizimni yoqish uchun IACC tugmasi bosilsa, asboblari paneli displeyida IACC holatining to'q sariq indikator paydo bo'ladi. Agar tizim (IACC) nosoz bo'lsa, nosozlikni bartaraf etish uchun adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) va harakat yo'lakni kuzatish tizimini (LAS) tekshiring. Agar nosozlikni bartaraf etishning iloji bo'lmasa, avtomobilni diagnostika qilish yoki ta'mirlash uchun CHANGAN vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

BOSHQA USKUNALAR

Simsiz quvvatlash ✖

Simsiz quvvatlash qurilmasi bilan jihozlangan avtomobil simsiz quvvatlash funksiyasiga ega bo'lgan mobil telefonni yoki simsiz quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lgan qurilmaga ulangan mobil telefonni quvvatlashi mumkin. Mobil telefonning quvvatlash imkoniyati chiqish quvvatiga mos kelishi kerak. Simsiz quvvatlash qurilmasining


maksimal chiqish quvvati 15 Vt ni tashkil etadi. Mobil telefonni quvvatlash tezligi mobil telefonning quvvatlash qabul qilishiga, quvvatlash platasigacha bo'lgan masofaga va boshqa omillarga bog'liq.

ESLATMA

Simsiz zaryadlash qurilmasi yonida metall buyumlar, magnit xaritalar va masofadan boshqarish kalitlarini joylashtirmang. Simsiz zaryadlash qurilmasi implantatsiya qilingan kardiostimulyatorning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Undan foydalanishdan oldin elektromagnit nurlanishning ta'siri haqida ishonchli ma'lumot olish uchun shifokor va qurilma ishlab chiqaruvchisi bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Avtomobil displeyida "Harorat juda yuqori, simsiz quvvatlash qurilmasi o'chirildi" xabari paydo bo'lsa, qurilmani avtomatik himoya qilish funksiyasi yoqiladi.

Simsiz quvvatlash qurilmasidan foydalanish


1. Simsiz zaryadlash qurilmasidan foydalanishdan oldin zaryadlash platasi yuzasidan begona jismlarni olib tashlang. Quvvatlash paytida mobil telefonlar uchun g'iloqlardan foydalanmang.



2. Mobil telefonni zaryadlash qurilmasi markaziga joylashtiring va avtomobil multimedia interfeysi orqali simsiz zaryadlash qurilmasini ishga tushiring. Zaryadlash indikator yonganda zaryadlash boshlanadi.
3. Telefon to'liq zaryadlangandan so'ng, zaryadlash avtomatik ravishda to'xtaydi.

Quvvat rozetkasi va USB zaryadlovchi ※


Rozetka bagaj bo'limining ichki qoplamasida joylashgan. Quvvat rozetkasiga faqat 12 V kuchlanishli va maksimal quvvati ≤ 120 Vt bo'lgan o'zgarmas tokli elektr qurilmalarini ulash mumkin.



Old USB uyasi USB-saqlagich, uyali telefonni va boshqalarni ulash uchun mo'ljallangan.



Ikkinchi qator yo'lovchilar uchun USB-port ※ faqat mobil qurilmalarni zaryad qilish uchun mo'ljallangan.



Saqlash joylari

Qo'lqop qutisi



Ochish: Tutqichni torting va tegishli o'lchamdagi buyumlarni saqlash uchun qo'lqop qutisi ochiladi.

Yopish: qopqoqni yuqoriga ko'taring va uni lozim darajada yoping.

OGOHLANTIRISH

- Avtomobil harakatlanayotganda qo'lqop

qutisini uzoq vaqt ochiq qoldirmang. Baxtsiz hodisalar natijasida jarohat olmaslik uchun qo'lqop qutisini foydalanish tugagandan so'ng darhol yoping.

- Qimmatbaho buyumlarni qo'lqop qutisida qoldirmang.
- Qo'lqop qutisi ochilgandan keyin uni to'liq ochish uchun kuch ishlatmang. Bu dempferga zarar yetkazishi mumkin.

Tirsakqo'ygich



DIQQAT

Avtomobil harakatlanayotganda jarohatlanish va lat yeyish xavfini kamaytirish uchun tirsakqo'ygich qopqog'ini yopiq holda saqlang.

Avtomobil buzilishining oldini olish uchun tirsakqo'ygichga suyuqlik tushishiga yo'l qo'ymang.

- Haydovchi va old yo'lovchi tirsakqo'ygichi:

Tirsakqo'ygich yuqori qopqog'ini ko'taring va old tirsakqo'ygich saqlash bo'limini oching.



- Haydovchi va old yo'lovchi tirsakqo'ygichidagi saqlash bo'linmasi sovutish klapani.



Tirsakqo'ygich yuqori qopqog'ini oching, sovutish klapanini soat mili bo'ylab buring va zaslonkani oching. Klapani yopish uchun uni soat miliga teskari buring.

Agar konditsioner sovutish/isitish rejimida ishlasa va ikkinchi qator yo'lovchilari yuziga puflash rejimi tanlansa, haydovchi va

old yo'lovchi tirsakqo'ygich saqlash bo'limiga joylashtirilgan ichimliklar va boshqa mahsulotlar mos ravishda sovutiladi yoki isitiladi.

Agar tirsakqo'ygich qutisi sovutish funksiyasidan foydalanilmayotgan bo'lsa, sovutish/shamollatish klapanini yoping. Bu ikkinchi qator yo'lovchilariga kiruvchi havo miqdoriga ta'sir qiladi.

- Ikkinchi qatordagi yo'lovchilar uchun tirsakqo'ygich: "II. Avtomobil xavfsizligi tizimlari → Orqa o'rindiq tirsakqo'ygich ※".

Stakan tutqich




DIQQAT

Stakan tutqichga yengil va sinmaydigan idishlarni joylashtiring. Idishdagi ichimlikning issiq emasligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, bu baxtsiz hodisalar natijasida jarohat olish xavfini oshirishi mumkin.

Stakan tutqichga mos o'lchamli, qopqoqli idishni joylashtiring. Aks holda, ichimlik idishdan to'kilishi, bu yo'lovchilar jarohatlanishi, sinish va avtomobil salonining ifloslanishiga olib kelishi mumkin.

- Haydovchi va old yo'lovchi uchun stakan tutqich:



Ochish: stakan tutqichga kirish uchun rollet pardani stakan tutqich tomonga suring.

Yopish: rollet pardani asboblar paneli tomon suring.


- Ikkinchi qator yo'lovchilari uchun stakan tutqich

Ikkinchi qator o'rindig'ining o'rtasida joylashgan tirsakqo'ygichni pastga tushiring va ikkinchi qator yo'lovchilari uchun stakan tutqichni ochish mumkin bo'ladi.



Saqlash bo'limlari

Old saqlash bo'limlari ※



Ichimliklar uchun butilkalar, sumkalar, poyabzal va boshqalar kabi yirik buyumlarni pastki yarusdagi saqlash bo'limiga, kichikroq buyumlarni esa yuqori saqlash bo'limiga joylashtirish mumkin.



DIQQAT

- Mo'rt va uchli buyumlarni saqlash bo'limlarida saqlamang. Bu esa baxtsiz hodisa yoki avariya natijasida jarohat olish xavfini oshiradi.
- Avtomobil harakatlanayotganda, shikastlanish va jarohatlanish xavfini kamaytirish uchun qopqoqni yoping.
- Qimmatbaho buyumlarni saqlash bo'limida qoldirmang.

Old o'rindiqlar suyanchig'idagi cho'ntak

Kichik buyumlar uchun cho'ntaklar old o'rindiqlar suyanchig'ida joylashgan.



DIQQAT

O'rindiqlar suyanchig'idagi cho'ntakda og'ir yoki o'tkir buyumlarni joylashtirmang.

Kichik buyumlarni saqlash uchun markaziy bo'lim




Ikkinchi qator yo'lovchilari qog'oz salfetkalar va zaryadlash qurilmalari kabi kichik buyumlarni ushbu saqlash bo'limiga joylashtirishlari mumkin.



DIQQAT

- Ikkinchi qator yo'lovchilariga shikast yetkazmaslik uchun, saqlash qutisidan tushib ketishi mumkin bo'lgan og'ir, o'tkir va boshqa turdagi buyumlarni saqlamang.
- Avtomobil harakatlanayotganda, shikastlanish va jarohatlanish xavfini kamaytirish uchun qopqoqni yoping.

Bagaj bo'limida saqlash uchun yon bo'linma



Ushbu bo'limda bagaj bo'limining ochiq eshigi orqali kirish mumkin bo'lgan kichik buyumlarni saqlash mumkin.

Eshik qoplamalarida saqlash joyi



Suvli idishlar, ichimliklar solingan shishalar va hokazolarni saqlash uchun pastki bo'lmaga joylashtirish mumkin. Mayda buyumlarni saqlash bo'limining yuqori qismiga joylashtiring.



DIQQAT

- Mo'rt va uchli buyumlarni saqlash bo'limlarida saqlamang. Bu esa baxtsiz hodisa yoki avariya natijasida jarohat olish xavfini oshiradi.
- Qimmatbaho buyumlarni saqlash bo'limida qoldirmang.

Yukni saqlash va tashishda ehtiyot choralari


- Yuk o'lchamlari bagaj bo'limi eshigining normal qulflanishini ta'minlash uchun bagaj bo'limi eshigi tirqishining o'lchamlaridan oshmasligi kerak. Harakatni boshlashdan oldin bagaj bo'limi eshigi qulflanganligiga ishonch hosil qiling;
- Bagaj bo'limi qoplamasi elementlarining shikastlanmasligi uchun yukning og'irligi 50 kg dan, tokchadagi yuk esa 5 kg dan oshmasligi kerak;
- Dumaloq va/yoki silindrsimon buyumlarni, harakatlanish paytida qoplamalar va/yoki bagaj bo'limi eshigi bilan to'qnashmasligi uchun, ularni ishonchli mahkamlash zarur.

OGOHLANTIRISH


Yonuvchan, tez alanganuvchi, portlovchi, zaharli, toksik, o'yuvchi va boshqa xavfli yuklarni saqlash va tashish taqiqlanadi. Yuklarni bagaj bo'limining eshigi ochiq holda tashish taqiqlanadi.

Kiyim ilgaklari

Avtomobil salonining har ikki tomonidagi o'rta ustunlarda ilgaklar joylashgan bo'lib, ularga buyumlarni osish yoki mahkamlash mumkin. Og'irlik bo'yicha cheklov 2 kg.



Quyosh soyaboni



- ① Quyosh soyabonidagi kosmetik ko'zgu;
- ② Quyosh soyabonini mahkamlash kronshteyni.

Quyosh soyaboni haydovchi va yo'lovchilarni quyoshning yorqin nurlari va to'g'ridan-to'g'ri yorug'ligidan himoya qiladi.

Quyosh soyabonini pastga tushiring va uni ushlab turgan kronshteyndan ② soyabonning ichki tomonini ehtiyotkorlik bilan chiqarib oling. Quyosh nuridan himoyalanish uchun soyabonni yon tomonga suring.

ESLATMA

Quyosh soyabonini dastlabki holatga qaytarishdan oldin chiroqni o'chiring va kosmetik ko'zgu qopqog'ini yoping.

IV. AVTOMOBILNI BOSHQARISH

AVTOMOBILDAN FOYDALANISHDA CHORALARI

EHTIYOT

Ko'p maqsadli avtomobillar uchun ehtiyot choralari

CHANGAN UNI-T universal ko'p funksiyali yo'tanlamas avtomobili (SUV) bo'lib, yuqori og'irlik markaziga va kesishgan joylarda foydalanish mumkin bo'lgan katta yo'l oralig'iga ega.

- Yuqori og'irlik markazi avtomobilni boshqa turdagi avtomobillarga nisbatan ag'darilishga chidamsiz qiladi;
- Yuqori yo'l oralig'i yaxshiroq ko'rish va o'tish imkoniyatini ta'minlaydi;
- Yo'lsizlikda qoniqarli xususiyatlarga erishish uchun SUV turidagi avtomobillarning sozlanishi va xususiyatlari kichik yengil yo'lovchi avtomobillariga yoki bir xil tezlikda past podveskali sport kupelariga qaraganda bir muncha yaxshiroqdir. Yuqori tezlikda keskin burilish avtomobilning ag'darilishiga olib kelishi mumkin;
- Yon tomondan shiddatli shamol esganda past tezlikda harakatlaning. O'zining shakli va yuqori og'irlik markazi tufayli avtomobil oddiy yo'lovchi avtomobiliga qaraganda yon tomondan shamol ta'siriga sezgirroqdir. Tezlikni pasaytirish avtomobilni boshqarishni

osonlashtiradi va yaxshilaydi;

- Tik yonbag'irlarda harakatlanayotganda, avtomobilning o'tish qobiliyatini belgilaydigan o'lchamlarini hisobga olgan holda, qiyalik yo'nalishiga perpendikulyar (to'g'ri yuqoriga yoki pastga) harakatlanishga harakat qiling. Qiyalikka nisbatan burchak ostida harakatlanganda avtomobil qiyalik yo'nalishiga nisbatan perpendikulyar yo'nalishda harakatlangandan ko'ra ag'darilish ehtimoli ko'proq bo'ladi.



DIQQAT

- Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqib olishlari kerak. To'qnashuv holatida, xavfsizlik kamarini mahkamlamagan yo'lovchilar jarohat olishi yoki hatto o'limga olib kelishi mumkin.
- Keskin burilish va manyovrlar, tezkor startlar, yuqori tezlik va favqulodda tormozlashdan saqlanib. Keskin boshqarish va noto'g'ri foydalanish boshqaruv yo'qolishga yoki avtomobilning ag'darilishiga olib kelishi mumkin.
- Yo'lsizlik yoki kesishgan joyda harakatlanayotganda tezlik rejimidan oshmang. Keskin burilishlar, chuqurlar va toshlardan katta tezlikda o'tish, begona jismlar bilan to'qnashish va boshqalar avtomobil podveska elementlari va shassisining jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa boshqaruv yo'qolishga yoki avtomobilning

ag'darilishiga olib keladi.

Turbonagnetatelli dvigateldan foydalanishda ehtiyot choralari

- Turbonagnetateldan moy sizib chiqmasligi uchun dvigatelni uzoq vaqt (20 min va undan ortiq) neytral holatda ishlashi tavsiya etilmaydi.
- Turbonagnetateldan moy sizib chiqmasligi uchun AUO'Q selektori "N" holatida bo'lganda nakat holatida harakatlanmang (tezlashish - dvigatelni to'xtatish - nakat holatida harakatlanish).

Yuqoridagi ehtiyot choralarga rioya qilmaslik turbonagnetatel shikastlanishiga yoki moyning kompressorga oqishiga olib keladi, bu esa kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Yo'lsizlikda harakatlanishda ehtiyot choralari

- Yo'lsizlikka chiqishdan oldin dvigateldagi motor moyini tekshiring va kerak bo'lsa, uni to'diring. G'ildiraklardagi bosimni, shinalar holatini tekshiring. Avtomobilga bukiladigan belkurak, balon kaliti, shatakka olish trosi va hokazoni joylashtiring;
- Avtomobilni yo'lsizlikda boshqarish avtomobilning shikastlanish ehtimolini oshiradi. Haydash uslubi marshrutga va joyning topografik sharoitiga muvofiq puxta sozlangan va xavfsiz bo'lishi kerak;

- Yo'lsizlikda harakatlanganda AUO'Q selektorini "N" holatga o'tkazmang;
- Yo'lsizlikda harakatlangandan keyin avtomobilni yaxshilab yuvib, ko'zdan kechiring va holatini tekshiring;
- Yo'lsizlikda harakatlanganda tormoz tizimiga qum, suv yoki moyli suv aralashmasi tushishi mumkin, bu tormoz mexanizmlarining eskirishini oshiradi, tormozlash samaradorligini pasaytiradi va tormoz tizimining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Yo'lsizlikdan o'tgandan keyin tormoz tizimini tozalang.
- Agar begona shovqin, ishqalanish yoki tormozlash samaradorligining pasayishi aniqlansa, tormoz tizimini tekshirish uchun darhol CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Harakatni boshlashdan oldin ehtiyot choralari

OGOHLANTIRISH

Avtomobilni boshqarishda tegishli poyabzalni tanlang. Yaroqsiz poyabzal (baland poshna, chang'i botinkasi, shippak va boshqalar) pedalni boshqarishda jiddiy to'siqlarga sabab bo'lishi mumkin.

Avtomobilni ishga tushirishda akselerator pedalini bosmang. Avtomobil nazoratsiz joyidan qo'zg'alishi mumkin, bu esa baxtsiz hodisa yoki avariya olib kelishi mumkin.

Dvigatelni ishga tushirgandan so'ng,

dvigatelning aylanishlari barqarorlashishini va neytral ishlashning normal ish rejimiga chiqishini kuting. Agar yuqori tezlikda tormoz pedalni qo'yib yuborilsa, avtomobil to'satdan va keskin joyidan siljishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

- Dvigatel chiqaradigan chiqindi gazlar tarkibida uglerod oksidi (SO), kanserogenlar va boshqa zaharli komponentlar (benzol hosilalari) mavjud bo'lib, ularni ko'rib bo'lmaydi va hidga ega emas. Chiqindi gazlarni uzoq vaqt davomida haddan tashqari ko'p hidlash sog'lig'ingizga zarar yetkazishi, hatto hushdan ketish yoki o'limga olib kelishi mumkin.
- Avtomobil salonida gazning hidini sezsangiz, darhol avtomobilni shamollating. Agar avtomobil harakatlanayotganda tashqaridan chiqqan gazlar avtomobilga tushganiga ishonchingiz komil bo'lmasa, barcha oynalarni oching va avtomobilni tekshiring. Dvigatel ishlab chiqaradigan chiqindi gazlarni hidlamang.
- Chiqindi tizimi sozligini tekshiring. Avtomobilga xizmat ko'rsatish, moyni almashtirish yoki boshqa ishlarni bajarishda avtomobilning chiqarish tizimini muntazam ravishda tekshiring. Agar dvigatel ishlayotganda yoki avtomobilning quyi qismi bilan yo'lda begona jismlarga urilganda gaz chiqarish tizimining tovushi o'zgarsa, gaz chiqarish tizimini tekshirish uchun imkon

qadar tezroq CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

- Agar avtomobilda bino ichida harakatlanish yoki tashqariga chiqish zarurati bo'lmasa, dvigatelni yopiq yoki shamollatilmaydigan xonada (masalan, garajda, hatto eshigi ochiq bo'lsa ham) ishga tushirmang. Dvigatelni faqat dvigatelni ishga tushirish va avtomobilni garajdan chiqarish zarur bo'lganda ishga tushiring.
- Avtomobilda odamlar borligida dvigatel ishlayotganda uzoq to'xtash va to'xtab turishdan saqlaning.

Avtomobilni dvigateli ishlayotgan holda uzoq vaqt ochiq joyda qoldirish kerak bo'lsa, shamollatish tizimini tashqaridan havo kirish (tashqi shamollatish) rejimida sozlang va ventilyatorning maksimal ish rejimini yoqing. Bunday sharoitda uzoq vaqt avtomobilda o'tirmang.

- Havo qabul qilgichlarni o'z vaqtida tozalang. Shamollatish va konditsioner tizimining normal ishlashi uchun old oyna oldidagi havo quvurlari va konditsioner tizimining deflektorlari qor, muz va barglar kabi begona jismlardan xoli ekaniga ishonch hosil qiling.

- Bagaj bo'limining eshigi ochiq holatda harakatlanish.

Agar bagaj bo'limining eshigi ochiq holda harakatlanish kerak bo'lsa, barcha derazalarni yoping. Asboblar panelidagi shamollatish deflektorlarini oching; shamollatish tizimini tashqaridan havo kirishiga moslang (tashqi

kirish ventilyatsiyasi), havoni shamollatish rejimini "Yuz" va/yoki "Oyoq" holatiga sozlang, ventilyatorning maksimal ishlash rejimini yoqing.

Avtomobilni tashqi tekshirish

- Barcha derazalar, oynalar va yoritish asboblarning tozaligiga ishonch hosil qiling;
- Shinalar shikastlangani yoki begona jismlar yo'qligini vizual tekshiring. Shinalardagi bosimni tekshiring;
- Avtomobil ostida moy sizib chiqishi mavjudligini tekshiring;
- Dvigatel moyi va boshqa suyuqliklarning me'yorida ekaniga ishonch hosil qiling.

Dvigatelni ishga tushirishdan oldin

- Hamma eshiklarni yoping va qulflang;
- To'g'ri o'tirish uchun o'rindiq, suyanchiq va bosh taglik holatini tekshiring va sozlang;
- Orqa ko'rish oynasini sozlang;
- Salondagi barcha yo'lovchilar xavfsizlik kamarlari bilan mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling;
- Avtomobil elektr quvvati ulanganda nazorat chiroqlarining ishlashi va holatini tekshiring;
- Avtomobilning elektr quvvati yoniqligida (ON holati) gabarit chiroqlari (GCh) ishlashini tekshiring;
- To'xtash tormozini (EPB) qo'yib

yuboring va nazorat chirog'i



o'chirilganligiga ishonch hosil qiling.

Dvigatelni ishga tushirgandan so'ng

- Dvigatel sovuq ishga tushirilgandan keyin neytral aylanishlar qiymati qizdirilgan avtomobildagiga qaraganda yuqori bo'ladi. Bu dvigatelni tezroq qizdirish uchun zarur va nosozlik hisoblanmaydi.
- Avtomobil harakatlanayotganda, tormoz pedalini bosish paytida begona tovushlar (keskin shovqin yoki ishqalanish shovqini, g'ijirlash, metall tovushi) eshitilsa, darhol tormoz tizimini tekshirish va eng yaqin vakolatli CHANGAN Automobile servis markazida tormoz kolodkalarini almashtirish kerak.
- Diqqat bilan quloq soling va gaz chiqarish tizimida har qanday oqish va boshqa begona tovushlar mavjudligini tekshiring. Agar biror-bir oqish yoki begona tovushlarni aniqlasangiz, darhol CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Avtomobilni uzoq vaqt to'xtatishda tavsiyalar

- Agar avtomobil to'rt haftadan ortiq muddatga to'xtab tursa, akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishi va ortiqcha quvvatsizlanish tufayli ta'mirlashga yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin.
- Avtomobil uzoq vaqt to'xtab joyida turganda, shinalarni dvigateldan, akkumulyator batareyasidan va yoqilg'i-moylash materiallaridan uzoqda

saqlash tavsiya etiladi. Avtomobilni quyosh nuri va yomg'irning bevosita ta'siridan, yuqori harorat va namlik ta'siridan saqlang. Rezina zichlagichlarni tozalang va moylang, barcha eshiklarni yoping va avtomobilni qulflang. Agar avtomobil bino ichida turgan bo'lsa, eshik oynalarini biroz ochib qo'ying.

- Uzoq muddat saqlanganda avtomobilni yaxshilab yuving, quriting va unga mum surting. Avtomobilni quruq, yaxshi shamollatiladigan joyda to'xtating va avtomobilning pastki qismidagi himoya qatlamini tekshiring. Shinalardagi bosimni zavod lavhasida ko'rsatilgan ruxsat etilgan maksimal qiymatgacha sozlang. Shinalar deformatsiyaga uchramasligi uchun haftada bir marta shinalar holatini o'zgartirish uchun avtomobilni harakatlantiring. Har oyda shinalardagi bosim ko'rsatkichlarini tekshiring.

DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH VA TO'XTATISH

Dvigatelni kalit bilan ishga tushirish

AUO'Q bilan jihozlangan avtomobillarda dvigatelni ishga tushirish

OGOHLANTIRISH

Atrof-muhitning normal haroratida dvigatelni har safar ishga tushirish vaqti 5 soniyadan oshmasligi kerak. Havo harorati -15°C dan past bo'lganda dvigatelni ishga tushirish uchun zarur bo'lgan vaqt 10 soniyadan oshmasligi lozim. Muvaffaqiyatsiz ishga tushirishga urinishdan so'ng, kamida 30 soniyadan keyin dvigatelni qayta ishga tushirishga urining. Dvigatelni ketma-ket 6 marta muvaffaqiyatsiz ishga tushirgandan so'ng, ishga tushirishga urinishlarni to'xtating va 10 daqiqadan keyin dvigatelni qayta ishga tushiring. Agar dvigatel bir necha urinishdan keyin ishga tushmasa, diagnostika va texnik xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Dvigatel ishga tushgan zahoti kalitni qo'yib yuboring. Dvigatel ishga tushgandan so'ng, akselerator pedalini oxirgacha bosish tavsiya etilmaydi. Dvigatelning yuqori tezlikda aylanishiga yo'l

qo'ymang.

• Dvigatelni ishga tushirishda harakatlar ketma-ketligi:

1. Avtomobilning to'xtash tormoziga yoqilganligiga ishonch hosil qiling;
2. AUO'Q selektori "P" (To'xtash) holatida;
3. Tormoz pedalini bosib, dvigatelni ishga tushirish uchun o't oldirish qulfidagi kalitni burang.

• Dvigatelni muvaffaqiyatsiz ishga tushirish

Dvigatelni ishga tushirishda akselerator pedalini bosmang. Agar bir necha urinishdan so'ng dvigatel ishga tushirilmasa, nosozlikni bartaraf etish uchun Changan Automobile vakolatli texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

OGOHLANTIRISH

Dvigatelni ishga tushirish tizimi nosoz bo'lsa, darhol ishga tushirishni to'xtating.

Dvigatelni inersiya holatida yoki avtomobilni shatakka olgan holatda ishlashidan saqlaning. Dvigatelni ishga tushirish uchun katalitik neytralizatorning shikastlanishi va ishdan chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun boshlang'ich batareyani maxsus simlar yordamida ulang.

Dvigatelni kalit yordamida to'xtatish

OGOHLANTIRISH

- Avtomobil harakatlanayotganda dvigatelni o'chirmang. Bu harakat xavfsizligi bilan bog'liq tizimlar: rul boshqaruvi kuchaytirgichi va tormoz tizimi ishida o'z aksini topishi mumkin. Ushbu tizimlarning ishlashi to'g'ridan-to'g'ri xavfsizlik bilan bog'liq bo'lganligi sababli, baxtsiz hodisalar yoki avariyalarga olib kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar xavfi mavjud.
- Dvigatel o'chirilgandan so'ng, sovutish tizimining ventilyatori ma'lum vaqt davomida ishlashi mumkin. Motor bo'limida ish olib borishda ehtiyot bo'ling.
- Dvigatel o'chirilgandan so'ng, AUO'Q selektorini "P" (To'xtash) holatiga o'tkazing.

Avtomobil yuqori tezlikda uzoq vaqt harakatlanib, dvigatelga katta yuk tushgandan so'ng, avtomobil to'xtagandan keyin dvigatel qizishi mumkin. Dvigatel shikastlanmasligi uchun avtomobil to'xtashi bilanoq uni o'chirib qo'ymang, balki uni to'xtashdan oldin 2 daqiqa davomida neytral ishlash rejimida qoldiring.

Dvigatelni kalitsiz ishga tushirish



Dvigatelni ishga tushirishdan oldin

1. Foydalanilmayotgan energiya iste'molchilari va avtomobil yoritgichini

o'chiring.

2. SMART kalit avtomobilda aktivatsiya sohasida ekaniga ishonch hosil qiling.

AUO'Q bo'lgan avtomobillar uchun

1. AUO'Q selektori "P" (To'xtash) yoki "N" (Neytral) holatda ekaniga ishonch hosil qiling.

2. Tormoz pedalini bosib;

3. "START ENGINE STOP" tugmasi yorug'ligi yashil rangga kirgandan so'ng dvigatelni ishga tushirish uchun tugmani bosib.

OGOHLANTIRISH

Avtomobil harakatlanayotganda "START ENGINE STOP" tugmasini bosmang.

Dvigatelni ishga tushirishdan oldin (AUO'Q) tormoz pedalini yoki ulanish pedalini bosib va dvigatel ishga tushmaguncha uni qo'yib yubormang.

Agar "START ENGINE STOP" tugmasi yashil chiroq bilan yoritilmasa, dvigatel ishga tushmaydi.

Dvigatelni ishga tushirgandan so'ng, dvigatel sovutish suyuqligining harorati ish diapazoniga yetguncha harakatni bir tekisda, doimiy kichik aylanishlarda boshlang. Bu dvigatelni ishchi harorat diapazonigacha tez qizdirish uchun zarur.

Dvigatelni muvaffaqiyatsiz ishga tushirish

Agar "START ENGINE STOP" ishga tushirish tugmasi bosilganidan keyin

dvigatel ishga tushmasa, quyidagi mumkin bo'lgan sabablarni tekshiring:

1. SMART kalit va avtomobil o'rtasida aloqa yo'qligi. Kalit aniqlanmagan yoki kalitning quvvat elementi zaryadsizlangan. Dvigatelni "Dvigatelni favqulodda ishga tushirish" bo'limida ko'rsatilgan usulda ishga tushiring.

2. Rul boshqaruvi bloklangan. Asboblari panelidagi ko'p funktsiyali displeyda "Rul boshqaruvi bloklangan" axborot xabari paydo bo'ladi. "START ENGINE STOP" ishga tushirish tugmasini bosib, rul g'ildiragini ehtiyotkorlik bilan buring.

3. Dvigatelning muvaffaqiyatsiz ishga tushishiga atrof-muhit sharoiti, akkumulyator batareyasining zaryadlanish darajasi, yonilg'ining past darajasi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Agar dvigatel ishga tushmasa, diagnostika va xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Dvigatelni kalitsiz o'chirish

AUO'Q bilan jihozlangan avtomobil dvigatelini o'chirish

1. Avtomobil to'liq to'xtagandan so'ng uzatma selektorini "P" (To'xtash) holatiga o'tkazib;

2. "START ENGINE STOP" tugmasini bosib va dvigatelni o'chiring.

TRANSMISSIYA


Avtomatik uzatmalar qutisini almashtirish ※



«P» (Parking) – To'xtash. Selektor "P" (To'xtash) holatida bo'lganda dvigatelni ishga tushirish mumkin:

- Avtomobil harakatsiz bo'lganda, to'xtash tormozi yoqilganda (EPB tugmasi  yuqoriga ko'tarilganda) uzatmalarni almashtirish selektorini "P" holatiga o'tkazish mumkin.

- Uzatmani o'zgartirish uchun - akselerator pedalini bo'shating, tormoz pedalini to'liq bosib.



AUO'Q selektorini "P" holatiga o'tkazish:

1. Tormoz pedalini bosib va avtomobilni to'liq to'xtatib;
2. Avtomobilni to'liq to'xtatganingizga ishonch hosil qiling; EPB to'xtash tormoz tugmasini yuqoriga torting ;
3. AUO'Q selektorini "N" holatiga o'tkazib va taxminan 3 soniya kuting. Tormoz pedalini qo'yib yuboring;
4. Uzatma o'zgartirish selektoridagi "P" (To'xtash) tugmasini bosib.

AUO'Q selektorini "P" holatida bloklash

Agar AUO'Q selektori "P" (To'xtash) holatiga noto'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, u ushbu holatda bloklanishi mumkin va selektorni "P" holatidan o'zgartirish qiyin bo'ladi. Almashtirish jarayoni ma'lum bir harakatlarni talab qiladi. Jarayon shovqinli bo'lishi va zarbalar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunday holat pandusda yoki

qiyalikda to'xtashda ham kuzatilishi mumkin. Selektorning bloklanishi odatiy holat. AUO'Q fiksatoriga avtomobilning to'la massasi ta'sir qiladi. AUO'Q fiksatori va uzatmalar qutisining tishlari katta ishqalanish hosil qiladi, bu esa AUO'Q selektorini "P" (To'xtash) holatidan o'zgartirish uchun katta kuch talab qiladi.

Agar AUO'Q selektorini "P" holatidan mustaqil ravishda almashtirishning iloji bo'lmasa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

«R» (Reverse) – Ortga yurish:

- AUO'Q uzatmasini almashtirish selektorini faqat avtomobil to'liq to'xtaganidan keyingina "R" uzatmaga (ortga yurish) almashtirish mumkin.


«N» (Neutral) - Neytral holat, dvigatelni ishga tushirish mumkin

- Dvigatel ishlayotgan yoki ishlamayotganligidan qat'i nazar, avtomobil harakatlanayotganda ushbu uzatmadan foydalanmang.
- Dvigatel ishlayotgan holda, masalan, tirbandlikda avtomobilni bir muddat to'xtatish zarur bo'lsa, avtomobilni ishchi tormoz yordamida to'xtatgan holda ushbu uzatmadan foydalaning;
- Uzatma o'zgartirish selektori "N" (neytral holat) holatida bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish mumkin;
- Avtomobilni shatakka olishda ushbu uzatmadan foydalaning.

«D» (Drive) – Oldga harakatlanish

- Ushbu rejimda uzatmalar qutisi avtomatik ravishda uzatmani 1 dan 7 gacha o'zgartiradi va kerakli uzatmani tanlaydi, bunda dvigatelning aylanish chastotasi, yonilg'i sarfi va dvigatel ishidagi shovqin optimal holatda bo'ladi.
- Me'yoriy harakat sharoitlari uchun tavsiya etiladi.
- Ushbu holatdan foydalanilganda uzatmalarni 1 dan 7 gacha almashtirishi mumkin.

R/N/D rejimlarini almashtirish



- "N" holatidan AUO'Q selektorini kerakli yo'nalishda o'zgartiring. Uzatmalarni almashtirish selektorini qo'yib yuboring va u o'rta holatga qaytadi.

Tanlangan rejimlar va uzatmalarni ko'rsatish

1. Tanlangan rejim haqidagi ma'lumotlar ("P," "R," "N," "D" belgisi) asboblari paneli

ko'p funksiyali displeyida aks ettiriladi.

2. Uzatma noto'g'ri tanlangan yoki almashtirilgan taqdirda, asboblar paneli displeyida ogohlantiruvchi matnli xabar va grafik bildirishnoma paydo bo'ladi. Uzatmani to'g'ri almashtirish uchun tavsiyalarga amal qiling.

TORMOZ TIZIMI

Old va orqa disk tormozlari

Avtomobil gidravlik disk tormozlari bilan jihozlangan. Ishchi tormozni faollashtirish yoki o'chirish uchun tormoz pedalini bosib yoki qo'yib yuboring.

Agar tormoz pedali dvigatelni ishga tushirishdan oldin bosilgan bo'lsa, ishga tushirilgandan so'ng tormoz pedaliga tushadigan kuch yengillashadi va pedal pastga tushadi, bu vakuum kuchaytirgichli tormoz tizimining normal ish hodisasidir.

OGOHLANTIRISH

- Avtomobil harakatlanishni boshlashdan oldin barcha nazorat chiroqlari va tormoz tizimi indikatorlari normal ishlayotganligiga ishonch hosil qiling.
- Tormoz kolodkalari eskirish datchiklari bilan jihozlangan. Agar tormozlash paytida metall tovushi eshitaladigan bo'lsa (metall prujinali sensor tormoz diskiga tegsa), iloji boricha tezroq CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling va

tormoz kolodkalari/disklarini almashtiring.

- Tormoz kolodkalari yeyilgan avtomobilni boshqarmang. O'zingizni va boshqa yo'l harakati ishtirokchilarini avariya xavfiga duchor qilmang.

Elektromexanik to'xtash tormozi (EPB)

Elektromexanik to'xtash tormozining (EPB) funksiyalari: to'xtab turish vaqtida avtomobilni joyida ushlab turish, ko'tarilishda start olishda avtomobilning orqaga siljishini oldini olish, tormoz mexanizmlarining yuqori haroratlarida tormoz kuchini sozlash, dinamik tormozlash funksiyasi.

Avtomobilni harakatsiz ushlab turish funksiyasi

Avtomobil to'liq to'xtagach, EPB tugmasini yuqoriga torting. To'xtash tormozi faollashadi, asboblar panelidagi

ko'p funksiyali displeydagi EPB  indikatorlari qizil rangda yonadi, to'xtash tormozi klavishi indikatorlari esa to'q sariq rangda yonadi.



Avtomobil to'xtash tormozini o'chirish uchun avval tormoz pedalini, keyin EPB tugmasini bosib. To'xtash tormozi blokdan chiqariladi va asboblar panelining ko'p funksiyali displeydagi va to'xtash tormozi klavishidagi tegishli indikatorlar o'chiriladi. Avtomobilni to'xtash tormoziga o'tkazish yoki olishda tormoz mexanizmlarining shovqini kuzatilishi mumkin.

ESLATMA

- Avtomobil harakatlanayotganda elektromexanik to'xtash tormozi (EPB) tugmasiga tegmang;
- Og'ir buyumlarni EPB tugmasiga qo'ymang.
- Avtomobilni tark etishdan oldin piyodalar va boshqa yo'l harakati qatnashchilariga xalaqit bermasdan avtomobilni ishonchli va xavfsiz to'xtating;
- Tormoz kolodkalarini almashtirish zarur bo'lsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

ESLATMA

Agar elektr mexanik to'xtash tormozining nosozlik indikator yonsa, avtomobilni turgan joyida qayta ishga tushiring, elektr mexanik to'xtash tormozi (EPB) tugmasini bosib va yuqoriga torting. Agar nosozlik indikator yonishda davom etsa, diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Harakatni boshlashda yordam tizimi (DAA)

Harakatni boshlashda yordam tizimi (DAA) - EPB ning yordamchi funksiyasidir. DAA tizimi ishlayotganda haydovchi EPB tugmasini bosishi kerak emas, chunki EPB avtomobil harakatini qulay boshlash uchun quyidagi shartlar bajarilganda to'xtash tormozini avtomatik ravishda bo'shatadi.

Harakatni boshlashda yordam tizimi (DAA) quyidagi shartlar bajarilganda ishga tushadi: haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan, haydovchining eshigi tegishli tarzda yopiq bo'lsa. Akselerator pedalini sekin bosib va EPB avtomatik ravishda to'xtash tormozini qo'yib yuboradi.

OGOHLANTIRISH

DAA tizimi ortga harakatlanishda ham qo'llaniladi. Diqqatli va ehtiyotkor bo'ling.

Qizish paytida tormozlash kuchini sozlash (HTR)

HTR tizimi EPB ning yordamchi funksiyasidir.

Tez-tez to'xtatish tormoz mexanizmlarining qizishiga sabab bo'lishi mumkin. Avtomobilning harakatsizligini va to'xtash joylarining xavfsizligini ta'minlash uchun HTR tizimi avtomobil to'xtaganidan keyin muntazam vaqt oralig'ida avtomatik ravishda faollashtiriladi. Tizim ishlayotgan vaqtda tormoz mexanizmlarining shovqini kuzatiladi.

ESLATMA

Bir qator uzluksiz tormozlanishlardan so'ng, to'xtash vaqtda xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobilni tekis joyda to'xtatishga harakat qiling.

Dinamik to'xtash tizimi (CDP)

CDP dinamik to'xtatish tizimi elektr mexanik to'xtash tormozining (EPB) yordamchi funksiyasi bo'lib, u elektr mexanik to'xtash tormozini (EPB) favqulodda to'xtatish uchun uzluksiz ravishda faollashtiradi.

OGOHLANTIRISH

CDP tizimi yordamida tormozlash faqat favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilishi mumkin.

Antibloklash tormoz tizimi (ABS)

Avtomobil ho'l va/yoki sirpanchiq yo'lda harakatlanganda yoki favqulodda vaziyat yuzaga kelganda keskin tormozlanganda, ABS tizimi boshqaruvni va barqarorlikni saqlash, shuningdek, tormozlash paytida avtomobilning harakatlanish trayektoriyasiga rioya qilish uchun g'ildiraklar bloklanishi oldini oladi.

ABS tizimi ishga tushganda tormoz pedaliga sezilarli tebranish uzatiladi va motor bo'linmasida tegishli tovush bilan ABS tizimi uzatmasi faollashtiriladi.

Avtomobil har bir ishga tushirilgandan so'ng va 10 km/soat tezlikka erishgandan so'ng, ABS tizimi avtomatik ravishda tegishli tovush bilan o'z-o'zini diagnostika qiladi.

Sirpanishga qarshi tizim (TCS)


TCS tizimi avtomobil tekis yo'l qoplamasi yoki tog' yo'li bo'ylab harakatlanayotganda uning yetakchi g'ildiraklari sirpanishining oldini olish uchun mo'ljallangan. Yetakchi g'ildirak sirpanganda, TCS tizimi harakat barqarorligini, tezlanishni, turg'unlikni va avtomobil boshqaruvini yaxshilash uchun yetakchi g'ildiraklarning sirpanishini oldini olish yoki kamaytirish uchun g'ildiraklar va dvigateldagi tortish kuchini nazorat qiladi va tormozlaydi. TCS sirpanishga qarshi tizimi avtomatik ravishda faollashadi. Tizimni

yoqish va o'chirish ESC funksiyasining ishi bilan bog'liq. ("Elektron kurs barqarorligi tizimi (ESC)" bo'limiga qarang).

Avtomobil qor, loy yoki qumga tiqilib qolganida, dvigatelning nominal aylanish momentini tiklash va to'siqni yengib o'tishda quvvatni oshirish uchun tortishni nazorat qilish tizimining (TCS) o'chirilishi tavsiya etiladi.

Kurs barqarorligi elektron tizimi (ESC)

Kurs barqarorligi elektron tizimi (ESC) avtomobil holatini nazorat qilish uchun datchiklardan foydalanadi va g'ildiraklarning tormozlanish momenti yoki dvigatelning aylanish momentini nazorat qilish orqali avtomobilning barqaror harakatini yaxshilaydi. Agar avtomobil kritik turg'unlik holatida bo'lsa (masalan, keskin burilishlarda yoki harakat yo'lagi keskin o'zgarganda), tizim tormoz kuchini va dvigateldan g'ildiraklarga uzatiladigan aylanish momentini boshqaradi. Bu avtomobil harakatida barqarorlikni oshiradi, avariylar ehtimolini samarali kamaytiradi va haydash xavfsizligini oshiradi.



ESC tizimini faollashtirish va o'chirish

Kurs barqarorligi elektron tizimi (ESC) dvigatelni ishga tushirishda birlamchi ravishda yoqiladi. ESC tizimini yoqish/o'chirish uchun "in Call" multimedia display interfeysida [Vehicle Center (Avtomobil)] - [Driving (Boshqarish)] - [Driving Assistant (Haydashda yordam)] bo'limini tanlang. Tizim o'chirilgach, asboblari panelidagi ko'p funksiyali

displayda "ESC_OFF" indikator yonadi va "TCS" tizimi o'chiriladi. ESC tizimi yoqilganda ESC tizimi indikator o'chiriladi va "ESC" va "TCS" tizimlari faollashadi.



ESLATMA

Haydash xavfsizligini ta'minlash uchun kurs barqarorligi elektron tizimini (ESC) o'chirish tavsiya etilmaydi, quyida tavsiflangan ayrim holatlar bundan mustasno:

- Avtomobil sirpanishga qarshi zanjirlar bilan jihozlangan;
- Chuqur qor yoki yumshoq yuzada harakatlanganda;
- Avtomobil tiqilib qolganda va chiqishga uringanda.

Tizim ishga tushganda, qurilma panelining ko'p funksiyali displeyida ESC indikator miltillaydi, tormoz pedali biroz tebranadi va dvigatel bo'linmasida ESC tizimi uzatmasi faollashadi.

Avtomobil har ishga tushirilgandan so'ng va 10 km/soat tezlikka erishgandan so'ng, ESC tizimi avtomatik ravishda tegishli tovush bilan o'z-o'zini diagnostika qiladi.

OGOHLANTIRISH

ESC va TCS tizimlari harakat xavfsizligini oshirishiga qaramay, avtomobilni boshqarishda diqqatli va ehtiyotkor bo'ling. Harakatlanayotganda avtomobilning tormoz yo'lini hisobga olgan holda zarur masofaga rioya qiling.

Kurs barqarorligi tizimi (ESC) tormoz tizimi, podveska, g'ildiraklar, rul boshqaruvi, elektr tizimlari va boshqalar bilan uzviy bog'langan. Avtomobilni xususiy tartibda qayta jihozlash ESC tizimining ish xususiyatlarining

yomonlashishiga yoki uning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Tik qiyalikdan tushishda yordam tizimi (HDC) ✖

Tik qiyalikdan tushishda yordam tizimi (HDC) - bu kurs barqarorligi tizimining (ESC) qo'shimcha funksiyasidir. Tik qiyalik yoki uzoq cho'zilgan pastga tushishda "HDC" tugmasini bosish orqali qiyalikdan tushishda yordam tizimini faollashtirish mumkin. ESC tizimi belgilangan diapazonda harakat tezligini nazorat qiladi, bu esa avtomobilni boshqarishga e'tibor qaratish va qiyalikni tez va xavfsiz o'tish imkonini beradi:

Tik qiyalikdan tushishda yordam tizimi (HDC) standart parametrlar bo'yicha o'chiriladi. Agar avtomobilning tezligi soatiga 35 km dan kam bo'lsa, qiyalikdan tushishda yordam tizimini (HDC) yoqish/o'chirish uchun "in Call" multimedia displayi interfeysida [Vehicle Center (Avtomobil)] - [Driving (Boshqarish)] - [Driving Assistance (Harakatlanishda yordam)] bandini tanlang.

Tizim faollashtirilganda, HDC funksiyasi ishga tushganligi haqida xabar beruvchi asboblardan panelida HDC tizimi indikatorini



yonadi. Tugmani qayta bossangiz, HDC tizimi indikatorini o'chib, HDC funksiyasi o'chirilganini bildiradi.



Agar avtomobil 35 km/soat - 60 km/soat tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, HDC tizimining ishlashi to'xtatiladi. Avtomobil tezligi 8~35 km/soatgacha pasaytirilgandan so'ng, HDC tizimining ishlashi tiklanadi.

Agar avtomobil tezligi soatiga 60 km dan oshsa, tizim va HDC indikatorini o'chadi.

ESLATMA

Tizim ishlayotganda HDC indikatorini miltillaydi va dvigatel bo'linmasida ESC tizimi uzatmasi faollashadi va ishlayotgan ESC dvigateli tovushi eshutiladi.

Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD)



Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD) ESC tizimi yordamida tormoz tizimidagi bosimni ushlab turadi va haydovchiga avtomobilni harakatsiz holatda ushlab turishga yordam beradi. Tormoz pedali qo'yib yuborilganda avtomobil harakatsiz qoladi. Akselerator pedali bosilganda harakatni boshlash uchun sharoit yaratiladi, to'xtash tormozi avtomatik ravishda blokdan chiqariladi va avtomobil ravon harakatlana boshlaydi.

Avtomatik ushlab turish funksiyasi (AUTO HOLD) haydovchiga quyidagi holatlarda yordam beradi:

- Avtomobilni haydash paytida, ayniqsa tik qiyaliklarda ushlab turadi;
- Avtomobilning tasodifiy va o'z-o'zidan harakatlanishiga to'sqinlik qiladi, ayniqsa tik qiyaliklarda;
- Tirbandlikda yoki svetofoir oldida harakatlanayotganda vaqtincha to'xtaganda to'xtash tormozi vazifasini bajaradi.


AUTO HOLD funksiyasini avtomatik ushlab turishni faollashtirish tugmasi yordamida yoqish yoki o'chirish mumkin.

ESLATMA

- Og'ir buyumlarni klavish ustiga qo'ymang [AUTO HOLD];
- [AUTO HOLD] tugmasini uzoq vaqt bosib turmang. Tizim buni xatolik sifatida aniqlaydi va xatolik haqida xabar beradi.

Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimini ishga tushirish shartlari (AUTO HOLD):

- Avtomobil butunlay harakatsiz;
- Dvigatel ishlayapti;
- Haydovchi xavfsizlik kamari taqilgan;
- Eshiklar (jumladan haydovchining eshigi) yopiq;
- EPB (Elektromexanik to'xtash tormozi) tizimining nosozlik indikatorini o'chirilgan;
- ESC tizimi yoqilgan.



Agar avtomobil ag'darilishga moyil bo'lsa, AUTO HOLD avtomatik ushlab turish tizimi avtomatik ravishda avtomobil harakatining oldini olish uchun tormoz tizimining kuchini oshiradi. Bir vaqtning o'zida ESC tizimining ishlash ovozi eshutiladi va oyoqqa kichik tebranish uzatiladi. Avtomobil ag'darilishi bilan bog'liq takroriy vaziyatda AUTO HOLD tizimi avtomatik ravishda avtomobilni to'xtash tormoziga o'rnatadi, bu tizimning normal ishlash algoritmi hisoblanadi.

Avtomobil harakatlana boshlaganda AUTO HOLD avtomatik to'xtatish tizimi ishlasa, avtomobilni to'xtatish rejimidan chiqarish uchun akselerator pedalini bosib.

Mexanik uzatmalar qutisi bilan

jihozlangan avtomobillar uchun ulanish pedali keskin qo'yib yuborilsa va akselerator pedali bosilmasa, bu avtomobilning tizimni ishga tushirish kuchi bilan to'xtashiga (AUTO HOLD) yoki dvigatelning to'xtashiga olib kelishi mumkin. Bu holat normal holat hisoblanadi, harakatlarning to'g'riligiga e'tibor bering.

Agar avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi (AUTO HOLD) haydashda noqulaylik tug'dirsa, masalan, orqaga yurganda, tirbandliklarda va h.k., uni vaqtincha o'chirish mumkin.

Yoqish (ON)/ O'chirish (OFF):

AUTO HOLD funksiyasi standart ko'rsatkichlar bo'yicha o'chiriladi. AUTO HOLD tugmasi yordamida uni yoqish yoki o'chirish mumkin. Markaziy boshqaruv konsolining AUTO HOLD tugmasini bosib va AUTO HOLD tizimining ishlash indikatorini



qurilma panelida oq rangda yonib, funksiya faollashtirilganini bildiradi. Tugmani yana bir marta bosib, indikator o'chadi va funksiya o'chiriladi.

ESLATMA

- Avtomobilni ushlab turish rejimidan chiqarish uchun harakatni boshlashda akselerator pedalini bosib. Aks holda, avtomobil harakatlana olmaydi. MUO'Q bilan jihazlangan avtomobillarda dvigatel to'xtab qolishi mumkin.
- AUTO HOLD avtomatik ushlab turish

tizimi AUTO HOLD tizimi avtomobilni qo'zg'almas holatda ushlab turishni boshlagan vaqtdan taxminan 3 daqiqa o'tgach, avtomatik ravishda elektromexanik to'xtash tormoziga almashadi;

- AUTO HOLD funksiyasi faollashtirilganda tormoz pedali qattiqroq bo'lishi mumkin.
- AUTO HOLD avtomatik ushlab turish tizimi to'xtash tormozi o'rnini bosmaydi. Avtomobilni xavfsiz gorizontaldagi joylarda to'xtatib. Avtomobil dumalab ketmasligiga va sirpanmasligiga ishonch hosil qiling.

- AUTO HOLD funksiyasi ishlayotganda AUTO HOLD indikatorini yashil rangda yonadi.

- Agar AUTO HOLD tizimining barcha ishlash shartlariga rioya qilinsa, lekin tugma indikatorini ishlamasa, diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Ko'tarilishda harakatni boshlashda yordam tizimi (HHC)



Ko'tarilishda harakatni boshlashda yordam tizimi (HHC) - bu kurs barqarorligi tizimining (ESC) qo'shimcha funksiyasidir. Ko'tarilishda harakatni boshlashda yordam tizimi (HHC) qiyaliklarda harakatni qulay boshlash uchun mo'ljallangan va avtomobilning teskari yo'nalishda dumalashining oldini oladi. Tormoz pedalini qo'yib yuborishda tizim avtomobilni qisqa vaqt davomida (taxminan 2 soniya)

harakatsiz ushlab turadi, bu esa akselerator pedalini bosib turish uchun vaqt beradi.

ESLATMA

- HHC tizimi zavod sozlamalarida standart holatda faollashtiriladi. Uni o'chirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.
- Tizim normal ishlaganda solenoidlarning elektromagnit klapanlari "qarsillaydi", bu nosozlik hisoblanmaydi.
- HHC tizimi tormoz tizimi kuchlanishini oshirmaydi. Agar tormoz pedali kichik kuch bilan bosilsa, HHC avtomobilni ushlab tura olmasligi mumkin.

OGOHLANTIRISH

- Belgilangan qisqa vaqtdan so'ng avtomobil harakatlanmasa yoki haydovchi akselerator pedalini biroz kuch bilan bossa, HHC tizimi avtomobilni harakatsiz holatda ushlab turishni to'xtatadi va uning ag'darilish xavfi yuzaga keladi, bu esa avariylar, baxtsiz hodisalar va jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Agar HHC tizimi ishlayotgan paytda haydovchi eshigi ochilsa, tizim darhol o'chiriladi va avtomobil qiyalikdan sirpanib tusha boshlaydi.
- Uzatmalarni almashtirish selektori "D" (oldinga harakatlanish) yoki "R" (ortga harakatlanish) holatida ekaniga ishonch hosil qiling.

To'xtash tormoziga avtomatik o'tkazish

Dvigatel to'xtatilgandan va avtomobil elektr ta'minoti o'chirilgandan so'ng ("OFF" holati) EPB tugmasini ko'tarish va to'xtash tormozini faollashtirishga hojat yo'q. Elektromexanik to'xtash tormozi (EPB) funksiyasi avtomobilni avtomatik ravishda to'xtash tormoziga o'tkazadi.

ESLATMA

Agar dvigatel o'chirilgandan keyin avtomobilni to'xtash tormoziga o'rnatishning hojati bo'lmasa, dvigatel ishlaganda EPB tugmasini 3 sekunddan ortiq bosib turing va dvigatelni bir vaqtda o'chiring. Elektromexanik to'xtash tormozi (EPB) o'chiriladi. Dvigatelni keyingi ishga tushirishda o't oldirish o'chirilgandan keyin avtomatik to'xtash funksiyasi tiklanadi.

- Og'ir buyumlarni EPB klavishiga qo'ymang;
Xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobilni tark etishdan oldin avtomatik to'xtash tormozi faollashtirilganini tekshiring. Avtomobil to'xtash tormoziga o'tkazilgandan so'ng quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:
- Dvigatel o'chirilgandan so'ng, to'xtash tormozi indikator 10 soniya davomida yonib turadi.
- Dvigatel o'chirilgandan so'ng, asboblar panelidagi "P" to'xtash tormozining qizil indikator 10 soniya davomida yonadi.

- Avtomobilni to'xtash tormoziga o'tkazish/olishda elektr dvigatel va orqa tormoz mexanizmlarining shovqini 2 soniya davomida kuzatiladi.

Rul boshqaruvi

Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) ✖

Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi (EPS) haydovchi tomonidan rul g'ildiragiga beriladigan kuchni sezilarli darajada kamaytiradi. Past tezlikda rul g'ildiragining aylanish kuchini pasaytiradi va yuqori tezlikda rul boshqaruviga bo'lgan kuchni barqarorlashtiradi. Bu avtomobilning qulayligi va boshqariluvchanligini oshirish, yonilg'i sarfini kamaytirishga erishish imkonini beradi.

Agar rul boshqaruvi elektr kuchaytirgich tizimi nosoz bo'lsa va elektr kuchaytirgichning samaradorligi pasaysa, avtomobil rul boshqaruvi ta'siriga katta kuch bilan javob berishni davom ettiradi. Diagnostika qilish va ta'mirlash uchun vakolatli CHANGAN xizmat markaziga murojaat qiling.

OGOHLANTIRISH

Agar rul g'ildiragi eng chetki holatga aylantirilib, uzoq vaqt shu holatda qoldirilsa, rul g'ildiragidagi kuchlanish ortadi. Tizim sovigandan keyin rul g'ildiragidagi kuchlanish me'yorga qaytadi.

Avtomobil to'xtab turganda rul g'ildiragini uzoq vaqt tez-tez aylantirish elektr boshqaruv tizimiga zarar yetkazishi mumkin.

ESLATMA

Rul g'ildiragi aylanganda rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichining mumkin bo'lgan ish tovushini (shovqinini) eshitish mumkin. Bu nosozlik emas.

Ko'p funksiyali rul boshqaruvi rejimi ✖


Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichining ko'p funksiyali rejimi ruldagi kuchlanishlarni shaxsiy xohish-istaklar yoki yo'l sharoitlariga muvofiq tanlash imkonini beradi.

Ruldagi kuchlanishlarni ko'p funksiyali multimediali «in Call» display menyusi yordamida tanlash mumkin. Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi rejimini tanlash uchun quyidagi tugmalarni bosib: [Vehicle Center (Avtomobil)] - [Driving (Boshqarish)] - [Driving assistance (Haydashda yordam)] va displayda elektr kuchaytirgichning joriy rejimi sozlamalarga muvofiq ko'rsatiladi.

- Normal rejim (NOR), rul g'ildiragiga ta'sirning o'rtacha darajasi;
- Sport rejimi (SPT) rul g'ildiragiga eng yuqori kuch.

Dvigatel to'xtatilgandan va keyinchalik ishga tushirilgandan keyin rul boshqaruvi

elektr kuchaytirgichining sozlash rejimlari avval o'rnatilgan rejimda qoladi. Biroq, akkumulyator batareyasi o'chirilgandan va qayta yoqilgandan so'ng, sozlamalar standart rejimga qaytadi.



ESLATMA

- Harakat vaqtida rul boshqaruvi rejimini o'zgartirishda e'tiborli va ehtiyotkor bo'ling.
- Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgich tizimi nosoz bo'lsa, rul boshqaruvi rejimlarini tanlash funksiyasi ishlamaydi.
- Rul g'ildiragining aylanishi jarayonida rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichining rejimi o'zgarganda, displayda tanlangan rejim aks ettiriladi va xavfsizlik uchun rul g'ildiragidagi kuchlanish rul g'ildiragi o'rta holatga qaytarilgandan so'ng avtomatik ravishda tanlangan rejimga o'tadi..

HAYDASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Chiniqtirish

Ushbu avtomobil modeli maxsus chiniqtirish shartlarini talab qilmaydi, ammo avtomobilning xususiyatlarini yaxshilash, yoqilg'ini tejash va xizmat muddatini uzaytirish uchun dastlabki 1600 km (chiniqtirish davri) davomida quyidagi ehtiyot choralariga rioya qilish tavsiya etiladi:

- Dvigatel ishga tushirilgandan keyin dvigatelni yuqori tezlikda (3000 ayl/daq. dan ortiq) ishlashini ta'minlash tavsiya etilmaydi. Harakatni boshlashdan oldin dvigatelni ohista va ehtiyotkorlik bilan qizdiring. Dvigatelning aylanishlari o'zgarmasligi uchun gaz pedalini qattiq bosmang. Keskin tezlashish va startlar qat'ian taqiqlanadi.

- Uzoq vaqt davomida bir xil doimiy tezlikni (yuqori yoki past) ushlab turmang. Avtomobilni chiniqtirish davrida dvigatelni to'liq ishga tushirish uchun dvigatel turli xil aylanishlarda ishlashi tavsiya etiladi.

- Yuqori tezlikda harakatlanish uchun past uzatmani yoki past tezlikda harakatlanish uchun yuqori uzatmani tanlamang, harakat sharoitiga muvofiq uzatmani o'z vaqtida almashtiring.

- Ishlab chiqarish texnologiyasiga muvofiq, yangi shinalarning adgezion

xususiyatlari yaxshi holatda bo'lmaydi. Yangi shinalarda dastlabki 300 km masofani ehtiyotkorlik bilan bosib o'ting.

- Tormoz diskleri va tormoz kolodkalari dastlabki 500 km masofa davomida ishqalanadi. Eng yaxshi natija uchun shoshilinch tormozlashni qo'llamaslikka harakat qiling, ayniqsa birinchi 300 km davomida.

- Avtomobildan foydalanishning dastlabki 1600 km davomida shatakka olishdan saqlaning.

Yuqori tezlikda harakatlanish

- Tekshiring va kerak bo'lsa, shinalardagi bosimni tavsiya etilgan qiymatgacha sozlang.

- Avtomobil tezligi ortganda tormoz yo'li ham ortadi. Tormoz pedali yordamida avtomobilning harakat tezligiga qarab uni boshqaring.

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlang.

- Tog' dovonidan o'tayotganda, uzun o'lchamli transport vositasini quvib o'tayotganda yoki tunnelga kirayotganda tezlikni pasaytiring, chunki avtomobilga yon tomondan shamol ta'sir qilishi mumkin.



DIQQAT

Tungi qorong'i paytlarda, yomon ko'rish sharoitida, yomg'irli ob-havoda, qor bosgan,

iflos va sirpanchiq yo'llarda yuqori tezlikda harakatlanish tavsiya etilmaydi.

Qorong'i vaqtda harakatlanish

- Yuqori tezlikda harakatlanishga yo'l qo'ymang va oldinda ketayotgan transport vositasigacha xavfsiz masofani saqlang.

- Harakatni boshlashdan oldin, ko'zni qamashtiradigan ta'sirni kamaytirish uchun, orqa ko'rish oynalarini sozlang.

- Harakatni boshlashdan oldin yaxshiroq yoritish va ko'rish masofasi uchun faralarning tozaligini tekshiring.

- Harakatni boshlashdan oldin yoritish elementlari va burilish signallari, yurish va gabarit chiroqlari, tovush signali va boshqa jihozlarning soz, ishga yaroqli holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.

Yomg'irli va nam ob-havoda harakatlanish

- Past tezlikda harakatlaning: kuchli yomg'ir haydovchining ko'rish qobiliyatiga ta'sir qilishi va tormoz yo'lini oshirishi mumkin;

- Harakatni boshlashdan oldin oyna tozalagichning ishlashini tekshiring;

- Harakatni boshlashdan oldin shinalarning bosimi va holatini tekshiring. Shinalarning yomon holati avtomobil shinalarining toyib ketishi va sirpanishiga, akvaplanlanishiga va YTHga olib kelishi mumkin;

- Yomg'ir paytida yoki suvli to'siqni yengib o'tgandan so'ng, normal tormozlash effekti tiklangunga qadar tormoz diski va kolodkalaridan namlikni olib tashlash uchun tormoz pedalini bir necha marta bosing..



DIQQAT

Yomg'irli va nam ob-havoda harakatlanayotganda boshqa yo'l harakati qatnashchilarini ogohlantirish uchun yaqinni yoritish chiroqlarini yoqing.

Suv to'sig'idan o'tish

- Harakatlanayotganda dvigatelga suv tushishining oldini olish uchun chuqurliklar va suv bosishlardan saqlanishga harakat qiling.

- Suv to'sig'ini yengib o'tayotganda tezlikni minimal darajaga tushiring; g'ildiraklar suv to'sig'idan bir vaqtda o'tishiga harakat qiling; g'ildiraklar sirpanib ketmasligi va avtomobil yon tomondan sirpanib ketmasligi uchun tormoz pedalini bosmang.

- Avtomobilning dvigateli, transmissiyasi va elektr jihozlariga zarar yetkazmaslik uchun bosib o'tiladigan sayozlik chuqurligining chegarasidan va harakat tezligining 5 km/soatdan oshishiga yo'l qo'ymang.

- Suvli to'siqni yengib o'tgandan so'ng, normal tormozlash effekti tiklangunga qadar tormoz diski va kolodkalari sirtidan

namlikni olib tashlash uchun tormoz pedalini bir necha marta bosib.

Iflos va sirpanchiq yo'lda harakatlanish

- Yuqori tezlikda harakatlanmang.
- Imkon qadar eskirgan shinalardan foydalanmang. Shinalarni o'z vaqtida almashtiring.
- Iflos va sirpanchiq yo'lda uzoq masofalarga yo'l bosgandan keyin avtomobilni yaxshilab yuvish va texnik xizmat ko'rsatish kerak.

Qiyalik va tog'li hududlar bo'ylab harakatlanish



DIQQAT

Tik yoki uzun qiyalik bo'ylab pastga harakatlanganda, tormoz mexanizmlarining qizishi va tormoz samaradorligi yo'qolishining oldini olish uchun tormoz pedalini tez-tez yoki uzoq vaqt bosmang.

Qiyalik bo'ylab harakatlanishga neytral uzatma/nakat holatida harakatlanish qat'iyon taqiqlanadi (AUO'Q selektorining "N" holati).

Qish sharoitida harakatlanish

OGOHLANTIRISH

Qorli ob-havoda va sirpanchiq yo'llarda yuqori

tezlikda harakatlanish taqiqlanadi.

Qorli va sirpanchiq yo'llarda keskin manyovr qilish, start, tezlashish, burilish va tormozlash taqiqlanadi.

Iloji bo'lsa, avtomobilni to'xtash uchun tekis joyda qoldiring.

Dvigatelni pasaytirilgan uzatmaga o'tkazish yo'li bilan tormozlash tavsiya etilmaydi. Sirpanchiq yuzalarda yetakchi g'ildiraklar yo'l bilan ilashish qobiliyatini yo'qotishi, bu esa sirpanish va avariya xavfini oshirishi mumkin.

Qish mavsumi boshlanishidan oldin texnik xizmat ko'rsatib va avtomobilni qishki foydalanishga tayyorlang. Qish mavsumida avtomobil boshqarayotganda yo'l qoplamasining holati va ob-havo sharoitiga amal qiling:

- Atrof-muhit haroratiga mos keladigan YoMM va texnik suyuqliklardan foydalaning (masalan, moy, dvigatel sovutish suyuqligi, yuvish suyuqligi va boshqalar);
- Akkumulyator batareyasining holati va quvvat darajasini tekshiring;
- Manzil va avtomobildan foydalanish sharoitiga ko'ra, uni kerakli uskunalar bilan jihozlash tavsiya etiladi (masalan: shinalar uchun sirpanishga qarshi zanjirlar, oynalar uchun qirg'ichlar, qum yoki tuz solingan qop, signal mash'alalari/raketalar, kurak va boshqalar);
- Qorli sharoitlarda foydalanish uchun qishki shinalarni o'rnatish va kuchli yeyilgan shinalardan foydalanmaslik tavsiya etiladi;

- Avtomobilni ko'zdan kechirib va qorni tozalang;
- Qish sharoitida harakatlanganda tormozni oldindan ishga tushirib va tormoz pedalini tez-tez bosmaslik uchun sekinlashishni kuzatib.
- Avtoturargohda to'xtash tormozidan foydalanmang. To'xtash tormozi ishdan chiqishi, bu esa to'xtash tormozini o'chirishni qiyinlashtirishi mumkin. Uzatmalar qutisi selektorini "P" holatga o'tkazib;
- Avtomobilni qiyalikda to'xtatish tavsiya etilmaydi. Agar bu muqarrar bo'lsa, g'ildirakning tasodifiy ag'darilishining oldini olish uchun g'ildirakni ag'darishga qarshi tirgak bilan bloklang.
- Sirpanishga qarshi zanjirlardan to'g'ri foydalaning.

Tejamkor haydash

Yoqilg'i sarfi va zararli chiqindilarni kamaytirish uchun quyidagi qoidalariga amal qiling:

- Foydalanish paytida avtomobilni tejamkor rejimga (ECO) o'tkazib;
- Dvigatelning uzoq vaqt neytral ishlashdan saqlanib. Uzoq vaqt to'xtab turganda dvigatelni o'chirib, avtomobilni to'xtash tormoziga o'rnatib va dvigatelni keyinroq, zarur bo'lganda ishga tushirib.
- Keskin ishga tushirishdan saqlanib: keskin ishga tushirish yonilg'i sarfini oshiradi va dvigatelning ishlash muddatini

qisqartiradi.

- Avtomobil harakatini bashorat qiling: keskin tezlanish, tormozlanish va to'xtashlardan saqlanish. Bu shuningdek yoqilg'i sarfini oshiradi.

- Yuqori harakatli shosse va avtomagistrallarda harakatlanayotganda imkon qadar o'zgarmas tezlikda harakatlanishga harakat qiling. Doimiy tezlikda harakatlanish yo'lovchilar uchun qulaylikni oshiradi, yoqilg'i sarfini va zararli moddalar chiqindilarini kamaytiradi.

- Havo filtri va filtrlovchi elementning holatini kuzatib boring. Ularni toza saqlang. Havo filtrining ifloslangan holatida dvigatelga havo kirishi qiyinlashadi, bu esa yonilg'i aralashmasining noto'g'ri nisbatiga va yonilg'ining to'liq yoqilmasligiga olib keladi.

- Avtomobil og'irligini kamaytiring: qo'shimcha og'irlik yoqilg'i sarfini oshiradi.

- Shinalardagi bosimni muntazam tekshirib turing: shinalardagi past bosim harakatga qarshilikni, yonilg'i sarfini va shinalarning yeyilishini oshiradi.

- Lyuk va/yoki derazalarni yoping: tomdagi ochiq lyuk yoki derazalar shamol qarshiligini oshiradi va yonilg'i sarfini oshiradi.

- Inersiya bo'yicha harakatdan foydalaning: svetoforning taqiqlovchi signaliga yaqinlashganda yoki tog'ning tik yonbag'ridan tushganda akselerator

pedalini oldindan qo'yib yuboring, bu avtomobilga inersiya bo'yicha harakatlanishga imkon beradi. Bu vaqtda dvigatelga yonilg'i uzatish minimallashtiriladi.

- Yuqori tezlikda harakatlanmang: Dvigatel etilgan aylanish chastotasi 1800 ayl/min ~ 2300 ayl/min oralig'ida bo'lib, bu dvigatelning tejamkor ishlash diapazonidir.

- O'z vaqtida xizmat ko'rsatish: muntazam texnik xizmat ko'rsatish uzoq muddat xizmat qilish va optimal tejamkorlikni kafolatlaydi.

V. FAVQULODDA VAZIYATDA HARAKATLAR

ESLATMA

Ushbu bo'limda sanab o'tilgan ogohlantirish vositalari va usullari axborot sifatida taqdim etilgan. Agar tafovutlar aniqlansa, avtomobilning haqiqiy konfiguratsiyasiga qarang.

AVTOMOBIL NOSOZLIGI VA BORT ASBOBLARI

Agar quyidagi alomatlardan biri aniqlansa, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash zarur. CHANGAN Automobile vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga imkon qadar tezroq murojaat qiling.

Ko'rinadigan alomatlar

- Avtomobil ostidan suyuqlik oqishi. (Havo konditsioneridan foydalangandan keyin suv tomchilarini va chiqarish tizimidagi drenaj teshiklaridan suyuqlik oqishi bundan mustasno. Bu nosozlik hisoblanmaydi);
- Shinalar bosimining pasayishi, shinalarning notekis eskirishi yoki churralar;
- Dvigatel sovutish suyuqligining harorat ko'rsatkichi anomal yuqori haroratni ko'rsatadi.

Eshitaladigan alomatlar

- Chiqarish tizimi tovushining o'zgarishi;
- Burilishda shina shovqinining oshishi;
- Podveska ishlashida tashqi tovush;

- Dvigatel ishlashi bilan bog'liq tashqi shovqin.

Operatsion alomatlar

- Dvigatel noturg'un, uzilishlar yoki tebranishlar bilan ishlaydi;
- Avtomobil quvvati sezilarli darajada kamaygan;
- Tormozlashda avtomobil trayektoriyadan keskin og'adi;
- Avtomobil tekis yo'lda harakatlanganda yoki tormozlanganda trayektoriyaga rioya qilmaydi;
- Avtomobil tekis yo'lda harakatlanganda o'chadi;
- Tormoz tizimi nosoz, tormoz pedali yumshoq, bosilganda pedal deyarli polga tegadi.

Avtomobil bort asboblari to'plami ※

Bort asbobi bagaj bo'limida zaxira g'ildirakning pastki qismida joylashgan. Avtomobilning bort asboblari kirish uchun bagaj bo'limining pol qoplamasini ko'taring.



- ① Avariya to'xtash belgisi;
- ② Domkrat;
- ③ Ballon kaliti;
- ④ Domkrat tutqichi;
- ⑤ Shatakka olish ilgagi.



DIQQAT

Avtomobilni qatnov qismida ta'mirlamang. G'ildiraklarni almashtirishdan oldin qatnov qismini bo'shating, avtomobilni xavfsiz joyga to'xtating va uni tirgaklarga mahkamlang, nur qaytaruvchi nimchani kiying. Domkratni qattiq tekis yuzaga o'rnatang.

Domkrat avtomobilning old va orqa yon qismlarida maxsus ajratilgan joylarga to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Domkratni bampor yoki avtomobilning boshqa qismlari ostiga o'rnatmang.

Domkratdan foydalanishda tana qismlarini domkratga o'rnatilgan avtomobil ostiga qo'yish taqiqlanadi. Agar avtomobilga pastdan kirish kerak bo'lsa, uni tutib turish uchun

avtomobilni tayanchga o'rnating. Xavfsizlik choralariga rioya qilinmasa, avtomobil domkratdan sirpanib ketishi mumkin. Bu jiddiy jarohatlar yoki qurbonlarga olib kelishi mumkin.

Avtomobil ko'tarilayotganda dvigatelni ishga tushirmang.

Avtomobilni ko'tarishdan oldin, salonda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Bola (agar bo'lsa) yo'ldan va domkrat ko'tarayotgan avtomobildan uzoqda ekanligiga ishonch hosil qiling..

Favqulodda yorug'lik signalizatsiyasi



Yorug'lik avariya signalizatsiyasini yoqish tugmasi  markaziy konsolda joylashgan. Avariya signalizatsiyasini yoqish uchun tugmani bosib, chap va o'ng burilish ko'rsatkichlari bir vaqtda miltillay boshlaydi. O'chirish uchun tugmani qayta bosib.

Avtomobil taxminan 100 km/soat tezlikda shoshilinch to'xtatilganda, avariya yorug'lik signalizatsiyasi avtomatik ravishda yoqiladi, xavf haqida ogohlantiriladi va boshqa yo'l harakati ishtirokchilarini tezlikning pasayishi haqida xabardor qiladi. Shoshilinch tormozlashdan so'ng avtomobil yana tezlashsa yoki o'chirish tugmasi bosilsa, signalizatsiya o'chiriladi.

Avariya signalizatsiyasi, shu jumladan, avtomobil o'chirilganda ham ishlaydi.

ESLATMA

- Avtomobil 100 km/soatdan kam tezlikda shoshilinch to'xtatilganda yoki ravon to'xtatilganda, avariya yorug'lik signalizatsiyasi avtomatik ravishda yoqilmaydi.
- Tormozlashda avariya signalizatsiyasi tizimining avtomatik ishga tushirilishini o'chirish yoki sekinlashganda ishga tushirish parametrlarini sozlash mumkin. CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Avariya to'xtash belgisi ☒



Avariya to'xtash belgisi bagaj bo'limida joylashgan. Favqulodda to'xtash belgisiga kirish uchun bagaj pol qoplamasini ko'taring. Avariyaviy to'xtashda avariya signalizatsiyasini yoqing, yuqoridagi rasmda ko'rsatilganidek, yo'l harakati qoidalariga muvofiq avariyaviy to'xtashning ogohlantiruvchi belgisini oling va o'rnatib.

ESLATMA

Avariya holatida to'xtashda ogohlantirish belgisini olish va o'rnatish kerak.

Aviariya to'xtash belgisi yo'l sharoitiga qarab boshqa haydovchilarni xavf to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirishni ta'minlaydigan masofada o'rnatiladi. Yo'l harakati qoidalariga (YHQ) ko'ra, aholi punktlarida bu masofa avtomobildan kamida 15 metr, aholi punktlaridan tashqarida esa 30 metr bo'lishi kerak. Shuningdek, favqulodda yorug'lik signalizatsiyasini yoqish kerak.

Shatakka olingan mexanik transport vositasida avariya yorug'lik signalizatsiyasi mavjud bo'lmaganda yoki nosoz bo'lganda uning orqa qismiga avariya to'xtash belgisi mahkamlangan bo'lishi kerak.

**Yorug'lik qaytaruvchi xavfsizlik
nimchasi ✖**



Yorug'lik qaytaruvchi nimcha bo'lgan
sumka bagaj bo'limida asboblarni
saqlanadigan bo'limga joylashtirilgan.

Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda uni taqing.



DIQQAT

Favqulodda to'xtashda yoki boshqa favqulodda vaziyatlarda yorug'lik qaytaruvchi nimchani kiying va iloji bo'lsa, qatnov qismini tark eting.

G'ILDIRAKLARNI ALMASHTIRISH



DIQQAT

G'ildiraklarni almashtirishdan oldin avtomobilni qatnov qismidan oling, avtomobilni qattiq tekis yuzada xavfsiz joyga to'xtating va uni almashtirayotgan g'ildirakning diagonalini bo'ylab ikkala tomondan tirgaklar bilan mahkamlang. Domkratdan qattiq tekis yuzada foydalaning. Agar joriy vaziyatda g'ildirakni almashtirishning iloji bo'lmasa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Ishga tayyorgarlik

- Avtomobilni qattiq tekis yuzada to'xtating;
- To'xtash tormozini yoqing;
- Old g'ildiraklarni to'g'ri chiziqli holatga keltiring;
- AUO'Q avtomobillar uchun uzatmani "P" (to'xtash) holatiga o'tkazish selektorini

tanlang; MUO'Q avtomobillar uchun uzatmani "R" (ortga yurish) holatiga o'tkazing;


- Dvigatelni o'chiring;
- Avariya signalizatsiyasini yoqing va avariya to'xtash belgisini o'rnatib;
- Zaxira g'ildirak va asboblarni to'plamini zaxira g'ildirak pastki qismidan chiqarib oling;
- Sirpanishning oldini olish uchun almashtiriladigan g'ildirakning diagonalini bo'ylab old va orqa tomonidagi g'ildiraklar tagiga tirgakni o'rnatib.



DIQQAT

G'ildiraklarni almashtirayotganda avtomobil dumalab ketmasligi uchun domkrat yordamida ko'tarishdan oldin to'xtash tormozini faollashtiring va g'ildiraklar tagiga tirgaklarni o'rnatib.

Zaxira g'ildirakni olish



Zaxira g'ildirakni chiqarib olish uchun zaxira g'ildirakni mahkamlash plastinasining boltini soat strelkasiga teskari buring.


Zaxira g'ildirak almashtirilgandan keyin uni mahkamlash uchun zaxira g'ildirakning siquvchi plastinasi mahkamlash boltini soat strelkasi bo'ylab burang.

G'ildirakni almashtirish:

1. Kalitni soat strelkasiga qarshi bir marta to'liq aylantirib, g'ildirak gaykalarini ketma-ket bo'shating, lekin ularni butunlay yechib olmang.



2. Domkratni avtomobilni ko'tarish uchun mos keladigan joyga, avtomobilning old/orqa qismiga, almashtiriladigan g'ildirak yoniga o'rnatning. Domkrat tayanchini o'rnatish joylari avtomobil kuzovi yon panellarining pastki qismida joylashgan va quyida ko'rsatilgan. Avtomobilni domkratda ko'tarishda uni eshik zichlagichi ortidagi bo'sag'ada aniq belgilangan 2 ta o'yi orasida joylashgan ko'tarish nuqtalariga o'rnatning. Domkrat o'yi joyini ko'rsatilgan joyga o'rnatning va mahkamlang.



DIQQAT

Shikastlanishning oldini olish uchun avtomobil bilan birga yetkazib beriladigan domkratdan foydalaning. Domkratni faqat belgilangan nuqtalarga o'rnatning. Domkratni avtomobilning boshqa qismlari ostiga o'rnatmang. Domkrat noto'g'ri qo'llanilganda, avtomobil ko'tarilgandan keyin ag'darilib ketishi, sirpanishi yoki qulashi mumkin. Domkratni faqat qattiq, tekis, sirpanmaydigan yuzaga o'rnatning. Domkratni qo'llab-quvvatlash uchun yog'och doskalar/bloklar yoki shunga o'xshash buyumlardan foydalanmang. Aks holda domkrat unga qo'yilgan bosimga bardosh bera olmaydi va kerakli balandlikka erisha olmaydi. Shina bilan yuza orasidagi masofa 3 sm dan oshmasligiga ishonch hosil qiling.

3. Domkrat dastasini domkratga o'rnatning va uni soat strelkasi bo'ylab avtomobil ko'tarilguncha aylantiring. Ballon kaliti

yordamida g'ildirak gaykalarini burang.



4. G'ildirakni yechib oling va avtomobil yoniga qo'ying;
5. G'ildirakning gupchak bilan tutashgan yuzasini tozalang;
6. Zaxira g'ildirakni gupchakka o'rnatning va uni mahkamlang.



DIQQAT

Ehtiyot bo'ling, g'ildiraklar va g'ildirak qalpoqlarining qirralari o'tkir bo'lishi mumkin. G'ildirakni o'rnatishdan oldin gupchakda yoki g'ildirakning o'zida begona jismlar va/yoki ifloslanish (masalan, tuproq, loy, qatron, shag'al va b.) yo'qligiga ishonch hosil qiling. Zarur bo'lsa, g'ildirakni gupchakka o'rnatish va mahkamlashga xalaqit bermasligi uchun uni tozalang.

7. G'ildirak gaykalarini qo'lda o'rnatib, qarshilik hosil bo'lguncha burang. E'tibor bering, g'ildirak gaykasining konusi ichkariga qaratilgan bo'lishi kerak.
8. Ballonli kalit yordamida g'ildirak

gaykalarini soat strelkasi bo'ylab mahkamlang, so'ngra avtomobilni pastga tushiring.

9. Barcha gaykalar mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Bort asboblari va shikastlangan g'ildirakni yig'ib oling.



ESLATMA

Boltlar yoki gaykalarni almashtirishda avtomobilga o'rnatilgan spetsifikatsiyadagi (bir xil metrik rezkali va faska konfiguratsiyali) boltlar yoki gaykalardan foydalaning. Aks holda boltlar yoki gaykalar shikastlanishi va g'ildiraklar mahkamlanmasligi mumkin. Metrik rezbadan boshqa rezkali gaykalar yoki boltlar g'ildiraklarni mahkamlash rezbasini shikastlaydi, bu esa g'ildirakni mahkamlashga imkon bermaydi.

Yangi g'ildirak gaykalari yoki g'ildiraklarini o'rnatishdan oldin ularning turi va o'lchamlarini yaxshilab tekshiring. Agar biror savol yoki qiyinchilik tug'lsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga

murojaat qiling.

Old g'ildirak shikastlanganda, orqa g'ildirakni shikastlangan old g'ildirak joyiga, avariyaaviy zaxira g'ildirakni esa orqa g'ildirak o'rniga o'rnatish.

Zaxira g'ildirak o'rnatilgandan so'ng, shinalardagi tavsiya etilgan bosimni imkon qadar tezroq tekshiring va o'rnatish.

Avtomobilni ta'mirlash tugagandan so'ng va/yoki asl g'ildiraklarni almashtirgandan so'ng, asl uzunlikdagi g'ildirak boltlaridan foydalaning.



DIQQAT

Domkratda ko'tarilgan avtomobilga g'ildirak boltlari yoki gaykalarini mahkamlamang, chunki u domkratdan sirpanib tushishi mumkin. G'ildirak boltlari yoki gaykalarini avtomobil butunlay pastga tushgandan keyingina mahkamlang.

Agar gayka yoki bolt shikastlangan bo'lsa, g'ildirakni ishonchli mahkamlab bo'lmaydi. Bu g'ildirakning buralishiga va jarohatlar yoki hatto o'limga olib keladigan jiddiy avariyaiga sabab bo'lishi mumkin.

G'ildiraklar almashtirilgandan keyin gaykalarni tavsiya etilgan tortish momenti bilan mahkamlash kerak. CHANGAN Automobile vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling.

Zaxira g'ildirak to'liq o'lchamli zaxira g'ildiragi hisoblanmaydi va faqat favqulodda vaziyatlarda foydalanilishi mumkin. Uzoq vaqt

davomida va uzoq masofalarga harakatlanayotganda zaxira g'ildirakdan foydalanish taqiqlanadi. Zaxira g'ildiragi o'rnatilgan avtomobilning tezligi soatiga 80 km dan oshmasligi kerak.

Zaxira g'ildirak o'rnatilgandan so'ng, uni to'liq o'lchamli g'ildirakka almashtirish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling. Avtomobilda bir vaqtning o'zida faqat bitta zaxira g'ildirakdan foydalanish mumkin.

ESLATMA

Old g'ildirak shikastlanganda, orqa g'ildirakni shikastlangan old g'ildirak joyiga, avariyaaviy zaxira g'ildirakni esa orqa g'ildirak o'rniga o'rnatish.

Zaxira g'ildirak o'rnatilgandan so'ng, shinalardagi tavsiya etilgan bosimni imkon qadar tezroq tekshiring va o'rnatish.

Almashtirilgan g'ildirakni olib tashlab, zaxira g'ildirak joyiga mahkamlang va asbobni joylashtiring.


Avtomobilni ta'mirlash tugagandan so'ng va/yoki asl g'ildiraklarni almashtirgandan so'ng, asl uzunlikdagi g'ildirak boltlaridan foydalaning.

G'ildirak gaykalarini tortish momenti

G'ildirak gaykasining tortish momenti 100-120 Nm.

Shinalardagi havo bosimini tekshirish

tashqi batareyasining manfiy qutbini manfiy qutbga yoki batareya va yonilg'i uzatish tizimidan uzoqda, ishga tushirilayotgan avtomobilning (dvigatelning ochiq metall qismi) massasiga sim bilan ulang. Ikkala simning bir-biriga ulanmasligiga e'tibor bering.



5. Ishga tushirish uchun tashqi manba sifatida avtomobildan foydalanganda, simlar ulangandan so'ng, ushbu avtomobilning dvigatelini ishga tushiring va uni ma'lum vaqt davomida neytral tezlikda ishlashini ta'minlang.

6. Quvvati yetarli bo'lmagan avtomobilda dvigatelni ishga tushiring.

7. Ishga tushirilgandan keyin simlarni teskari ketma-ketlikda uzing. Uzish jarayonida istalgan avtomobilning metall qismlariga tegmang.

OGOHLANTIRISH

Agar akkumulyator batareyasi muzlagan bo'lsa, avtomobilni xazira akkumulyatordan


ishga tushirishga urinmang. Aks holda akkumulyator batareyasi portlab ketishi yoki ishdan chiqishi mumkin.

Simlarni zaryadsizlangan akkumulyatorning manfiy qutbiga to'g'ridan to'g'ri ulamang. Aks holda portlash ro'y berishi mumkin.

Dvigatelni ishga tushirishga urinayotganda, qo'llar va simlarni tasmali shkiv, generator tasmasi, ventilyator va dvigatelning boshqa aylanuvchi qismlaridan uzoqroq tuting.

Agar avtomobilning akkumulyator batareyasi tez-tez sababsiz zaryadsizlansa, diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli xizmat markaziga murojaat qiling.

AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH



Avtomobilni orqa o'qi osilgan holda shatakka olmang, aks holda rul boshqaruvi tizimi ishdan chiqishi mumkin.

Dvigatel ishlamayotgan bo'lsa, rul boshqaruvi kuchaytirgichi va tormoz tizimi ishlamaydi. Burish yoki tormozlash uchun ko'proq kuch talab qilinadi.

Avtomobilni shatakka olish ilmog'idan, kuzov yoki shassi qismidan ko'tarmang, chunki bu uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni old g'ildiraklari osilmagan holda orqaga shatakka olmang. Bu avtomobilning buzilishiga olib keladi.

Avtomobilning keskin yoki nazoratsiz ishga tushishiga yoki o'z-o'zidan, beqaror harakatlanishiga yo'l qo'ymang, bu shatakka olish ilmog'i, shatakka olish troslari yoki zanjirlariga ortiqcha yukni keltirib chiqarishi, ularning buzilishiga olib kelishi va favqulodda vaziyatni keltirib chiqarishi

mumkin. Bu avtomobilning shikastlanishi va jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar nosoz avtomobilni shatakka olishning iloji bo'lmasa yoki u boshqaruvni yo'qotgan bo'lsa, harakatni to'xtating.

Shatakka olishda imkon qadar tekis va to'g'ri chiziqli harakatlaning.


OGOHLANTIRISH

Avtomobilni shatakka olish ilmog'idan farq qiladigan har qanday qism yoki kuzov elementiga shatakka olish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Shatakka olish uchun faqat maxsus mo'ljallangan po'lat arqon yoki zanjirdan foydalaning. Shatakka po'lat arqon yoki zanjirni ishonchli mahkamlang.

Avtomobilni shatakka olishda siltanish va keskin silkinishlardan saqlaning. Turg'un va bir tekis taqsimlangan yuklanishga amal qiling.

Shatakka olish halqasini mahkamlash nuqtalari



Old shatakka olish ilmog'ining mahkamlash nuqtasi avtomobil old bampenerining pastki o'ng qismida joylashgan.

G'ildiraklarni osmasdan avtomobilni shatakka olish

Ko'rsatilgan usulda shatakka olish kichik tezlikda qisqa masofalarga ruxsat etiladi va faqat qattiq tekis qoplamali yo'llarda amalga oshirilishi mumkin. G'ildiraklar, podveska, yurish qismi, rul boshqaruvi va tormoz tizimi soz holatda bo'lishi kerak.

- Shatakka oluvchi transport vositasi shatakka olinayotgan transport vositasidan yengil bo'lmasligi kerak, aks holda avtomobillar nazoratdan chiqib ketishi mumkin;
- Shatakka olish ilgagi soz va ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling;
- Shatakka olish sirtmog'ini rezbaning butun uzunligiga burab kiriting;
- Halqaga shatakka olish uchun po'lat arqon yoki zanjirni mahkamlang;
- Shatakka olinadigan avtomobilni po'lat arqon yoki zanjir bilan mahkamlang;
- Shatakka olishda sekin, siltamasdan harakatlaning. Shatakka olingan avtomobil va shatakka olish ilgagini tortmang;
- Shatakka olinayotgan avtomobilni yoqing. Uzatmalarni almashtirish selektorini "N" (neytral) holatga o'tkazing va to'xtash tormozini qo'yib yuboring;
- Shikastlanishning oldini olish uchun

avtomobilni oldinga, uning joylashgan yo'nalishiga qarab shatakka oling;

- Shatakka olish trosining uzunligi 5 m dan oshmasligi kerak. Trosni identifikatsiyalash uchun qizil bayroqcha yoki tasma bilan belgilash zarur;

• Ehtiyotkorlik bilan harakatlaning. Shatakka olish arqonining osilib qolishiga yo'l qo'ymang.

- Ikkala avtomobil haydovchilari iloji boricha tez-tez ma'lumot almashishlari kerak.

• Qiyalik bo'ylab uzoq masofaga harakatlanganda tormoz mexanizmlari qizishi va tormozlash samaradorligi yomonlashishi mumkin. Tormozlarni sovutish uchun muntazam to'xtang.

- Avtomobilni faqat old tomondan shatakka olish mumkin. Ortga yurishda shatakka olish taqiqlanadi. Shatakka olishdagi tezlik 40 km/soatdan, shatakka olishning maksimal masofasi esa 25 kilometrdan oshmasligi kerak.

• Tormoz tizimi nosoz bo'lsa, avtomobilni shatakka olish uchun ko'chma platforma yoki avtomobilni tashishga mo'ljallangan evakuatordan foydalaning.

Yo'lda yordam

Agar avtomobilni shatakka olish zarur bo'lsa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga yoki avtomobillarni evakuatsiya qilish va tashish kompaniyasiga murojaat qiling. Avtomobilni ko'tarish va

shatakka olish amallarini to'g'ri bajargan taqdirdagina avtomobilning shikastlanishini oldini olish mumkin.

Avtomobilni shatakka olish uchun avtomobilni ko'tarish imkoniyatiga ega bo'lgan avtomobil manipulyatorlari (qutqaruv transport vositalari) yoki g'ildiraklarni osib qo'yish imkoniyatiga ega bo'lgan tekis platformalar yoki tekis platforma bilan jihozlangan evakuatorlardan foydalanish tavsiya etiladi. Agar evakuator bo'lmasa, qattiq ilgakli tortish uskunasiidan foydalaning. Tros yordamida shatakka olish taqiqlanadi.

To'liq uzatmali avtomobilni yo'l-qutqaruv transport vositasidan foydalangan holda shatakka olish uchun oldingi g'ildiraklarni yerdan ko'tarib qo'yish uchun tegishli uskunalaridan foydalaning yoki transmissiya va rul boshqaruviga shikast yetkazmaslik uchun old g'ildiraklarni platformaga yoki tirkamaga o'rnatish va mahkamlang. Bunda old g'ildiraklar osib qo'yiladi, orqa g'ildiraklar esa yo'l yuzida qoladi.

TIQILIB QOLISHDA YORDAM

Tiqilib qolgan avtomobilni chiqarib olishda uni keskin va kuchli tortmang, burchak ostida tortmang. Ortiqcha kuch avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yumshoq yoki iflos yo'lda yetakchi g'ildiraklar tiqilib qolganda, avtomobilni, ayniqsa, yuklangan avtomobilni olib chiqishda ehtiyot bo'lish kerak.

Avtomobilni shatakka olish ilgagi yordamida olib chiqishga urinmang. Iloji boricha, avtomobilni to'xtab qolgan avtomobil qoldirgan iz bo'ylab proushinalari orqali orqaga tortishga harakat qiling.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI (AUQ) BILAN JIHOZLANGAN AVTOMOBILLAR

- Avtomatik transmissiyaning mexanik nosozligida avtomobil yetakchi g'ildiraklari yerdan to'liq uzilgan holda shatakka olinishi mumkin.
- Agar shatakka olish tezligi soatiga 20 km dan oshsa yoki shatakka olish masofasi 20 km dan oshsa, shatakka olinayotgan transport vositasining yetakchi g'ildiraklari yerdan to'liq uzilishi kerak.
- Avtomobilni shatakka olishda yetakchi g'ildiraklar yerga tegmasligi tavsiya etiladi. Xavfli yoki yetib borish qiyin bo'lgan joydan avtomobilni evakuatsiya qilish zarur

bo'lganda, tezlik soatiga 20 km dan oshmasligi kerak.

AVARIYA JIHOZLARI ✕

Avtomobil favqulodda vaziyatda harakat qilishingizga yordam beradigan avariya uskunalar bilan jihozlangan.

O't o'chirish moslamasi

Yong'in sodir bo'lganda va o't o'chirgichdan foydalanish ko'nikmalari mavjud bo'lsa, o't o'chirgichdan foydalaning va quyidagi amallarni diqqat bilan bajaring.

1. O't o'chirish qurilmasining yuqori qismidagi tutqichni tasodifiy bosilishdan himoya qiluvchi himoya halqasini chiqarib oling;
2. O't o'chirgichni yong'in o'chog'i tomon yo'naltiring;
3. Yong'in o'chog'idan taxminan 2,5 m uzoqlashing va o't o'chirgichni o'chirish uchun tutqichni bosing. Agar tutqichni qo'yib yuborsangiz, razryad to'xtaydi.
4. O't o'chirgichni yong'in o'chog'ining yon tomonlariga yo'naltiring. Olov o'chgach, yonayotgan joyni diqqat bilan kuzating, chunki u qayta alanganishi mumkin.

Birinchi yordam qutisi

Birinchi yordam qutisida qaychi, bint, plastir va boshqalar kabi birinchi yordam ko'rsatish uchun buyumlar mavjud.

Shinalardagi havo bosimini o'lchash manometri ✖

Avtomobildan kundalik foydalanishda shinalardagi bosim o'zgarishi mumkin va vaqti-vaqti bilan shinalardagi bosimni sozlash kerak. Bu shina nosozligi yoki shikastlanishining belgisi emas, balki normal holatdir. Sovuq holatdagi shinalardagi bosimni muntazam ravishda tekshiring, chunki harorat oshishi bilan shinalardagi bosim ortadi.

Shinalardagi bosimni tekshirish uchun quyidagi amallarni bajaring:

1. Shina devorida joylashgan havo klapani qalpog'ini oching;
2. Manometrni shinaning havo klapani ventiligaga bosib turing. Havoning bir qismi chiqib ketishi mumkin. Manometr mahkam bosilmasa, shinadan juda ko'p miqdorda havo chiqib ketishi mumkin.
3. Datchikni faollashtirish uchun manometrni havo klapani ventiligaga keskin va ishonchli bosing. Havo sizib chiqishiga yo'l qo'ymang.
4. Manometrda shinalardagi bosim ko'rsatkichlarini oling. Tavsiya etilgan qiymat bilan shinalardagi bosim ko'rsatkichlarini taqqoslang.
5. Shinalardagi bosimni belgilangan darajagacha sozlang. "Sovuq holatdagi shinalarda tavsiya etilgan bosim" bo'limiga qarang (VII. Avtomobilning texnik xususiyatlari).

6. Havo klapani qopqog'ini ventilga o'rnatish.

VI. TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH

MAJBURIY RO'YXATI

TEKSHIRUVLAR

Kundalik tekshirish

• **Faralar va bosh chiroqlar:** barcha yoritish moslamalari va yorug'lik signalizatsiyalari (KYCh, faralar, orqa chiroqlar, gabarit chiroqlar, burilish va ortga yurish signallar, stop-signallar va tumanga qarshi faralar) to'g'ri ishlashiga ishonch hosil qiling.

• **Ogohlantiruvchi nazorat lampalari va yorug'lik indikatorlari:** barcha asboblari, boshqaruv elementlari va ogohlantiruvchi nazorat lampalari va yorug'lik indikatorlari sozligiga ishonch hosil qiling.

• **Orqaga ko'rish oynalari:** ko'zgularning aks ettiruvchi yuzasi tozaligiga ishonch hosil qiling, ularni sozlang.

• **Avtomobil eshiklari, bagaj bo'limi eshigi, kapot:** barcha eshiklar, bagaj bo'limi eshigi, benzin baki lyuki va dvigatel kapotining erkin ochilishi va yopilishiga ishonch hosil qiling.

• **Kuzovning tashqi holati:** avtomobil kuzovini tirilgan yoki yorilgan joylari bor-yo'qligini tekshiring va kerak bo'lsa, shikastlangan detallarda metall korroziyasi hosil bo'lishining oldini olish uchun uni imkon qadar tezroq ta'mirlang.

Yonilg'i quyish paytida tekshirish

- Dvigateldagi moy, tormoz va yuvish suyuqliklarining darajasini tekshiring;
- Shinalardagi bosimni tekshiring;
- Shinalarning holatini tekshiring: yon sirtida va protektorda yoriqlar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Shina protektorlarida begona jismlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Oylik tekshiruvlar

- Dvigatelning sovutish suyuqligi darajasi;
- Shlanglar, yonilg'i quvurlari va texnik suyuqliklar rezervuarlarida oqish yo'qligini tekshirish;
- Havoni konditsionerlash tizimining ishlashi;
- To'xtash tormozining ishlashi - to'xtash tormoziga qo'yish/ olishni tekshirish;
- Ovozli signal va dinamiklarning ishlashi;
- G'ildirak gaykalarining tortilish momenti: gayka va boltlar berilgan qiymatlarga qaytarilgan.
- Oyna tozalagichlarning ishlashi: oyna tozalagichning cho'tkalari va dastaklari soz, ishga yaroqli holatda ekanligiga ishonch hosil qiling.
- Rul boshqaruvi: rul boshqaruvi lyufta bor-yo'qligini tekshiring.
- Pedallar: Tormoz pedali va ulanish pedalining soz ishlashini tekshiring.
- Amortizator ustunlari: Amortizator ustunlarining ish qobiliyatini yeyilish, oqish,

himoya changdonlarining shikastlanishi va boshqa shikastlanishlar uchun tekshiring.

- Tomdagi lyuk: lyuk va uning elementlari mahkamlovchi birikmalarning mustahkamligi va germetikligini tekshiring. Drenaj kanalining chap va o'ng yo'naltirgichlarida ifloslanish va begona moddalar mavjudligini tekshiring. Lyukning ravon harakatini va uning sozlanishini tekshiring. Lyuk zichlagichlarini muntazam tekshirib turing. Lyuk ishlayotganda shubhali shovqin yo'qligini tekshiring. Zarur bo'lsa, zichlagichlarni artib, moylang.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA TA'MIRLASH BO'YICHA EHTIYOT CHORALARI

Avtomobilni ko'zdan kechirish/teknik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash yoki sozlash ishlarini amalga oshirishda transport vositasiga shikast yetkazish yoki shikastlanish xavfini kamaytirish uchun quyidagi xavfsizlik choralariga rioya qilish kerak:

- Ish boshlashdan oldin dvigatelni to'xtatib, uni sovutib. Dvigatel issiqligida hech qanday ishlarni bajarmang;
- Avtomobilning pastki qismida ishlayotganda uni ushlab turish uchun tirgak/xavfsizlik ustunlaridan foydalaning. Avtomobilni domkrat yordamida ko'tarayotganda avtomobil tagiga kirmang;
- Yonuvchi moddalar, alangalanuvchi, tutayotgan, yaltirayotgan, yonayotgan va uchqun sochuvchi jismlarni akkumulyator, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqa alangalanuvchi suyuqliklar va obyektlardan uzoqda saqlang.
- Avtomobil elektr ta'minoti yoqilganda ("ACC/ON" holatda) akkumulyator batareyasi yoki boshqa elektr elementlarini ulash yoki o'rnatish taqiqlanadi;
- Klemma va simlarni akkumulyator batareyasiga ulashda ehtiyot bo'ling, ularni adashtirmang. Musbat qutbni manfiy qutbga va aksincha ulash taqiqlanadi.

- Akkumulyator, o't oldirish simlari va avtomobilning elektr zanjirlari kuchli tok yoki yuqori kuchlanish ostida bo'ladi. Qisqa tutashuvga yo'l qo'ymang.
- Yopiq joyda (masalan, garajda) ishlayotgan dvigatelni inspeksiya tekshiruvidan o'tkazishda ventilyatsiyaning mavjudligiga ishonch hosil qiling;
- Dvigatel moyi, dvigatel sovutish suyuqligi, boshqa yoqilg'i-moylash materiallari va to'ldirish suyuqliklarini bolalar va uy hayvonlaridan uzoqroq joyda saqlang;
- Tomdagi lyukka silikon yoki deraza germetigini surtmang.

SHINALAR VA DISKLAR


Shinalarni tekshirish va xizmat ko'rsatish

Avtomobil harakatlanayotganda to'siqlarni chetlab o'tishga harakat qiling va o'yiqlar, do'ngliklar, o'ralar, devor toshlari va boshqalarga urilishdan saqlanib.

Shina yon sirtining shikastlanishiga yo'l qo'ymang.

Shina yuzasini doimiy ravishda kesimlar, begona jismlar va notekis eskirish bor-yo'qligini tekshiring. Protektorning notekis eskirishi g'ildiraklar o'rnatilish burchaklarining og'ishi va muvozanatning buzilishidan dalolat berishi mumkin. Shinalar yuzasini doimiy ravishda tekshiring va shinalarni begona jismlardan tozalang. Har oyda shinalardagi indikator bo'yicha shina protektorining yeyilishini

tekshiring. Agar protektorning yeyilishi yeyilish indikatorini bilan bir xil darajada bo'lsa, shinalarni almashtiring.



Agar protektor rasmida yoki shinaning yon yuzasida notekis eskirish yoki shikastlanish aniqlansa (kesmalar, "churralar" yoki yoriqlar), shinani o'z vaqtida almashtiring.

Yoqilg'i sarfini ko'payishiga yo'l qo'ymaslik uchun, oyiga kamida bir marta shinalar bosimini (jumladan, zaxira shinani) tekshiring. Bir o'qdagi shinalardagi bosim farqi 5KPa dan ortiq bo'lmasligi kerak. Atrof-muhit harorati sezilarli darajada o'zgarganda shinalardagi bosimni o'z vaqtida tekshiring.

Shinalardan 6 yildan ortiq foydalanilganda hatto ko'rinadigan shikastlanishlar bo'lmasa ham almashtirish kerak.

**DIQQAT**

- Protektor eskirishi yuqori bo'lgan shinalardan foydalanish qat'iyon taqiqlanadi. Bu juda xavfli. Eskirgan shinalar tormozlash samaradorligi, rul boshqaruvining aniqligi va keskinligini sezilarli darajada pasaytiradi.
- Avtomobilga dastlab o'rnatilgan o'lcham va turdagi g'ildirak va shinalardan foydalanish mumkin. Aks holda, bu avtomobilning samaradorligi va xavfsizligiga ta'sir qiladi va avariya va jarohatlar xavfini keltirib chiqaradi.


Shinalardagi bosimni nazorat qilish usullari

1. Shina devorida joylashgan g'ildirak havo klapani (nippel) qalpog'ini oching va yechib oling;
2. Manometr yordamida shinalardagi bosimni o'lchang. Agar sovuq holatdagi shinalardagi bosim tavsiya etilgan bosimga mos kelmasa, uni sozlang.
3. Agar bosim ortiqcha bo'lsa, havo bosimini kerakli qiymatgacha pasaytirish uchun havo klapanining markazini (shina klapanining ichida) bosing.
4. Tekshirish va bosimni sozlashdan so'ng, chang va namlik tushishining oldini olish uchun nippelga qalpoqchani o'rnatib.

G'ildiraklarni almashtirish

Avtomobilning old va orqa

g'ildiraklarining bir tekisda eskirishini ta'minlash va shinalarning xizmat muddatini uzaytirish uchun shinalar holatini har 7.500 km da o'zgartirish tavsiya etiladi. Agar notekis eskirish aniqlansa, g'ildiraklarni muddatidan oldin almashtirish kerak. Qayta joylashtirish bo'yicha tavsiyalar quyidagi rasmda keltirilgan.



G'ildiraklarni almashtirayotganda tormoz kolodkalari va diskklarining holati va yeyilishini tekshiring. G'ildiraklarni almashtirgandan so'ng old va orqa shinalarning bosimini tekshiring va sozlang. G'ildirak gaykalarining tortish momentlarini tavsiya etilgan qiymatlarga mosligini tekshiring.

Agar avtomobil shinalardagi bosimni nazorat qilish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildiraklar almashtirilgandan yoki qayta o'rnatilgandan keyin qayta kalibrlash kerak. CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Qishki shinalar va sirpanishga qarshi**zanjirlar**

Qor bosgan va muzlagan yo'llarda harakatlanishda qishki shinalar yoki sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Qishki shinalarni o'rnatish va ishlatish avtomobilning qor va muz ustida harakatlanishini sezilarli darajada oshiradi. Qishki shinalarni atrof-muhitning o'rtacha sutkalik harorati +7°C dan past bo'lganda o'rnatish tavsiya etiladi.

Qishki shinalarni tanlash va o'rnatishda avtomobil ishlab chiqaruvchisi o'rnatgan shinalar turi, o'lchami va yuk ko'tarish qobiliyati bilan bir xil bo'lgan shinalarni tanlash kerak. Qishki shinalardagi tezlik indeksi va havo bosimi avtomobil ishlab chiqaruvchisi va qishki shina dilerlari talablariga javob berishi kerak. Aks holda, bu avtomobilning xavfsizligi va boshqarilishiga ta'sir qiladi, baxtsiz hodisalar va jarohatlar xavfini oshiradi.

Almashtirilgan shinalarni aylanish yo'nalishi bo'yicha belgilash va salqin, quruq joyda saqlash kerak. Shinalardan qayta foydalanishda ularni oldingi aylanish yo'nalishida o'rnatib.

Atrof-muhitning o'rtacha sutkalik harorati +7 °C gacha ko'tarilganda yozgi yoki umum mavsumiy shinalarni o'z vaqtida o'rnatib.

O'rnatilgan sirpanishga qarshi zanjirlarning qalinligi 9 mm dan oshmasligi

kerak. Old uzatmali avtomobillar uchun sirpanishga qarshi zanjirlar oldingi o'qda o'rnatilishi kerak. To'liq uzatmali avtomobillar uchun sirpanishga qarshi zanjirni old va orqa g'ildiraklarga o'rnatish kerak.

Avtomobil zanjirlarni o'rnatgandan keyin dastlabki 0,5 - 1 km yurgandan keyin xavfsizlikni ta'minlash uchun zanjirlarni tortib qo'yish zarur.

Agar avtomobil sirpanishga qarshi zanjirlar bilan jihozlangan bo'lsa, notekis, g'adir-budur yo'llarda harakatlanishdan saqlaning va favqulodda vaziyatlar (masalan, keskin tezlanish, to'satdan tormozlanish va boshqalar) yuzaga keltirmang.

Umumiy foydalanishdagi yoki tozalangan yo'llarda harakatlanayotganda sirpanishga qarshi zanjirlarni olib qo'ying. Yo'lning qor bilan qoplanmagan qismida sirpanishga qarshi zanjirdan foydalanish taqiqlanadi.

Boshqa savollar bo'lsa, sirpanishga qarshi zanjirlar ishlab chiqaruvchisi/yetkazib beruvchisining ko'rsatmalariga amal qiling.

OGOHLANTIRISH

Faqat o'lchamlari va xususiyatlariga mos keladigan zanjirlardan foydalaning. Mos kelmaydigan yoki noto'g'ri o'rnatilgan sirpanishga qarshi zanjirlar tormoz tizimi, podveska, kuzov va/yoki g'ildiraklarga shikast yetkazishi mumkin. Ushbu shikastlanishlar

ishlab chiqaruvchi zavod kafolati bilan qoplanmaydi.

Agar avtomobil g'ildiraklari g'ildirak qalpoqlari bilan jihozlangan bo'lsa, sirpanishga qarshi zanjirlarni o'rnatishdan oldin ularni yechib oling.

M+S belgisi shinalar (har qanday ob-havoda) yozdagiga nisbatan qishda foydalanish uchun yaxshiroq xususiyatlarga ega, ammo odatda qishki shinalarning xususiyatlariga yeta olmaydi.



DIQQAT

Boshqaruv yo'qolishining oldini olish uchun avtomobil g'ildiraklarining yo'l qoplamasi bilan ilashish koeffitsiyenti farqi tufayli barcha g'ildiraklar qishki shinalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Qishki shinalar va sirpanishga qarshi metall zanjirlardan foydalanilganda, avtomobilning tezligi 30 km/soatdan yoki sirpanishga qarshi zanjirlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan yo'l qo'yiladigan eng yuqori tezlikdan oshmasligi kerak.

Qishki shinalar va nometall sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanilganda tezlik 50 km/soatdan yoki sirpanishga qarshi zanjirlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan yo'l qo'yiladigan eng yuqori tezlikdan oshmasligi kerak.

Avtomobil tezligini ob-havo sharoiti, yo'l sharoiti va harakat zichligiga qarab tanlang. Avariya yo'l qo'yimaslik uchun

qishki shinalarning sirpanishga qarshilik ko'rsatish jarayoni bilan tavakkal qilmang.

G'ildiraklarni almashtirish

Agar g'ildirak diski egilgan, yorilgan yoki zang bilan qoplangan bo'lsa, uni iloji boricha tezroq almashtiring. Aks holda g'ildirakdagi havo bosimi pasayadi va shina o'z-o'zidan diskdan ajralib ketishi mumkin, bu esa avtomobilni boshqarish qobiliyatini yo'qotishga olib keladi.

G'ildirakka yangi shina o'rnatilgandan yoki g'ildirak almashtirilgandan/to'g'rilangandan so'ng, avtomobilga o'rnatishdan oldin g'ildirakni muvozanatga keltiring, to'rtta g'ildirakdagi havo bosimini tekshiring va sozlang.

G'ildirak disklarini tanlash

G'ildirak disklarini almashtirish kerak bo'lsa, yangi g'ildirak diskleri ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan disklar bilan bir xil o'lcham va xususiyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.

CHANGAN Automobile kompaniyasi quyidagi g'ildirak disklaridan foydalanish tavsiya etmaydi:

- Har xil o'lchamdagi g'ildirak diskleri yoki har xil turdagi disklar;
- Eski (ilgari foydalanilgan) g'ildirak diskleri;
- Eskirgan va qayta tiklangan disklar.

G'ildiraklarni muvozanatlash talablari

G'ildiraklarni o'rnatishdan oldin yoki shinalarni almashtirishda g'ildiraklarni muvozanatlashtiring. Shinalarni qayta o'rnatishda ham o'rnatish oldidan g'ildiraklarni muvozanatlash kerak.

Metall diskning bir tomoniga o'rnatilgan muvozanatlovchi yuklarning umumiy soni 2 dan oshmasligi kerak. Yuklarning umumiy og'irligi 60 g dan oshmasligi kerak. Yengil qotishmali g'ildirak diskining bir tomoniga yopishib turadigan muvozanatlovchi yuklarning umumiy og'irligi 100 g dan oshmasligi kerak. Shina g'ildiraklari sifatli yig'ilganligiga, dinamik disbalans esa bir tomondan 5 g dan oshmasligiga ishonch hosil qiling.

Yo'naltirilgan shinalarni yig'ishda avtomobilga o'rnatilgandan keyin g'ildiraklarning aylanish yo'nalishini hisobga olish kerak. U shinalarni markalashda belgilangan aylanish yo'nalishiga mos kelishi kerak.

Yengil qotishmali g'ildirak diskleri uchun ehtiyot choralari

- Yengil qotishmali g'ildiraklar uchun faqat asl gaykalar va CHANGAN Automobile ballon kalitidan foydalaning.
- G'ildirak olingandan yoki almashtirilgandan keyin 1600 km o'tgach, g'ildirak gaykalarining tortish momentini tekshiring.
- Sirpanishga qarshi zanjirlardan foydalanganda, alyuminiy diskleri

shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling. Shikastlangan alyuminiy g'ildiraklardan foydalanmang.

KUZOVNI TOZALASH VA LAK-BO'YOQ QOPLAMASINI PARVARISH QILISH

Kuzov elementlariga xizmat ko'rsatish

Eshik va deraza zichlagichlarini yiliga kamida bir marta moylash tavsiya etiladi. Rezina zichlagichlarni yanada mustahkam qilish, germetikligini yaxshilash va yopishishi yoki g'ichirlashining oldini olish uchun toza lattadan foydalaning.

Avtomobil uzoq vaqt saqlanganda, silikon surkov moyini barcha eshiklarga, shu jumladan, yukxona zichlagichlariga purkang va yopishishining oldini olish uchun zichlash joyidagi lak-bo'yoq yuzasiga mum surting.

Eshik va kapotning halqa va qulflarini, shuningdek, eshik fiksatorlari - cheklagichlarning tutqichlarini muntazam ravishda moylab turing.

Korroziyadan himoya qilish

Avtomobil korroziyasining sabablari

Avtomobil korroziyasining asosiy sabablari:

- Tuz, loy, namlik va kimyoviy moddalar uzoq vaqt davomida avtomobil shassisini,

kuzovi va romlari kabi kirish qiyin bo'lgan joylarda to'planadi.

- Avariylar, tirnashlar yoki boshqa shikastlanishlar, shu jumladan toshlar, qum va boshqalardan hosil bo'lgan yoriqlar natijasida lak-bo'yoq qoplamasining qatlamlanishi.

- Yuqori namlik korroziya hosil bo'lishini tezlashtiradi. Agar avtomobilning biror qismi uzoq vaqt davomida yuqori namlik sharoitida qolsa, hatto avtomobilning boshqa qismlari quruq bo'lsa ham, avtomobil korroziyaga uchraydi. Agar avtomobilning bir qismi yuqori namlik sharoitida yomon shamollatish tufayli tezda quritilmasa, bu detallarning korroziyasini tezlashtiradi.

Korroziyadan himoya qilishning samarali usullari

Avtomobil kuzovini toza va quruq holda saqlang;

Avtomobilga xizmat ko'rsatishda eshiklar va avtomobilning quyi qismidagi suv chiqaruvchi teshiklarni iliq yoki sovuq suv bilan tozalang va tekshiring. Drenaj teshigi shamollatiladigan bo'lishi kerak.

Avtomobil yuzasi shikastlanganda yoki lak-bo'yoq qatlami ajralganda, shikastlangan yuzani imkon qadar tezroq tiklash kerak. Shikastlangan metall yuzalarni havo ta'siriga duchor qilmang.

Namlik, chang, qum va loyning polga, salon qoplamasiga va avtomobilning ichki

bo'shlig'iga tushishi korroziyani tezlashtirishi mumkin. Avtomobil salonini muntazam tekshirib turing. Ayniqsa, avtomobil yomon ob-havoda ishlaganda uning toza va quruqligiga ishonch hosil qiling.

Ayrim korrozion agressiv kimyoviy moddalarni, masalan, o'g'itlar, tozalash vositalari, ishqorlar, kislotalar va tuzlarni tashishda (ortish-tushirishda) bu kimyoviy moddalarni tashish uchun maxsus konteynerlarda tashing va yuk tushirilgandan keyin avtomobilni darhol tozalang.

Qish mavsumida avtomobilni tuz yoki boshqa reagentlar bilan ishlov berilgan yo'ldan chiqqan zahoti yuvib tashlang.

Avtomobilni nam, shamollatilmaydigan joyda to'xtatish tavsiya etilmaydi. Avtomobilni garaj boksida yuvming.

Avtomobilni yuvish

Avtomobil kuzovini yuvish va texnik xizmat ko'rsatish

Quyidagi hollarda avtomobilni iloji boricha tezroq yuving:

- Avtomobil juda iflos yoki kuchli changlangan;
- Dengiz bo'ylab yoki tuzli-ishqorli yo'l bo'ylab sayohatdan keyin;
- Qurum, mineral chang, ruda, metall kukuni yoki kimyoviy moddalar bilan ifloslangan zonalarga sayohatdan keyin;
- Lak-bo'yoq yuzasi toshko'mir smolasi,

shira, o'lik hasharotlar yoki ularning lichinkalari, qushlar yoki boshqa hayvonlarning axlati bilan qoplangan bo'lsa.

- Agar lak-bo'yoq qoplamasi yuzasiga benzin yoki boshqa neft mahsulotlari tushgan bo'lsa.

Yuqori bosim ostidagi suvni eshik, deraza va lyuk zichlagichlariga yo'naltirmang. Avtomobilni yuvishdan oldin lyukning yopiqqligiga ishonch hosil qiling.

Avtomobilni jazirama oftobda, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ostida yuvming. Quyosh nuri intensiv tushadigan mavsumda yumshoq mato va shimgich bilan soya joyda oynali lyuk yuzasini o'z vaqtida arting va tozalang. Yomg'ir paytida va yuqori namlik sharoitida lyuk zichlagichlaridagi qum va changni o'z vaqtida olib tashlang va arting.

Avtomobil kuzovi yuzasidan 40 sm dan kam masofada to'pponchadan chiquvchi kuchli suv bosimidan saqlanib. Bu lak-bo'yoq qoplamasining yeyilishi va/yoki qatlamlanishiga olib kelishi mumkin. Stikerlar va moldinglar shikastlanishi yoki uzilishi mumkin.

Avtomobilni yuvish uchun foydalaniladigan tozalash vositasi neytral bo'lishi kerak (ehtiyot choralari va ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalariga qarang). Kislotali yoki ishqoriy tozalash vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Bagaj bo'limi eshigining ichki oyna yuzasini tozalashda yumshoq matoni nam

suv bilan biroz namlang. Oynani isitish elementlari yoki antennaga parallel yo'nalishda yaxshilab arting. Isitish elementlari yoki antennani tirnamaslik yoki shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling.

Avtomobil qishda yoki atrof-muhit harorati manfiy bo'lganda yuvilgandan so'ng, lyukni oching va lyuk zichlagichi va lyuk oynasini quruq yumshoq mato bilan quritib arting.

Avtomobilni mum bilan sayqallashda old oynadan mumni artib tashlang.

OGOHLANTIRISH

- Dvigatel ishlaganda avtomobilni yuvish yoki unga mum qoplash taqiqlanadi.
- Avtomobilni yuvish uchun biror uskuna yoki vositani tanlashdan oldin uning avtomobilingizga mos kelishiga ishonch hosil qiling.
- Avtomobilni yuvishdan oldin yonilg'i quyish teshigining qopqog'i to'g'ri yopilganiga ishonch hosil qiling.
- Plastik qismlarni 80 °C dan yuqori haroratda bug' va suv bilan tozalashdan saqlanib.
- Isitgichli yoki antennali oynaning ichki yuzasini tozalash uchun oyna tozalagichdan foydalanmang.
- Avtomobilning shisha yuzalarini tozalash uchun o'yuvchi va/yoki kimyoviy faol yuvish vositalaridan ("agressiv tozalagichlar") foydalanmang.

- Lyukni tozalashda yuvish vositalari, zang erituvchilar, YOMM, agressiv moddalar, kislotali yoki kuchli ishqoriy kimyoviy moddalar yoki qurumni yo'qotish vositalaridan foydalanmang.
- Tomdagi lyuk zichlagichi uchun tavsiya etiladigan moy: DuPont XP1A6, yo'naltirgichlar uchun: Nato Dowsyn2602.

Avtomobil lak-bo'yoq qoplamasini parvarishlash bo'yicha tavsiyalar

- Konsentrlangan kislotalar, ishqorlar yoki ularning asoslari bilan aloqa qilmang;
- Tozalash uchun qattiq jismlarning lak-bo'yoq qoplamasi yuzasiga tegmasligi uchun maxsus artish salfetkasidan foydalaning;
- Benzin va motor moyi kabi uchuvchan moddalarning avtomobil yuzasiga tegishiga va to'kilishiga yo'l qo'ymang. Agar bu moddalardan ozroq qismi lok-buyoq qoplamasiga tushsa, ularni darhol maxsus artish matosi bilan artib tashlang;
- Avtomobilning lak-bo'yoq qoplamasini himoya qilish uchun muntazam ravishda professional xizmat ko'rsating. Mum bilan ishlov berish va avtomobilni sayqallashni yiliga bir yoki ikki marta amalga oshirish tavsiya etiladi.

Agar avtomobil yuzasidagi bo'yoq tiralgan bo'lsa, shikastlangan yuzani tozalang va quriting, uni 1500# jilvir qog'oz bilan silliqalang, so'ngra uni jun sayqallash charxi bilan silliqalang. Agar shikastlanish

bartaraf etilmasa, CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga yoki ixtisoslashtirilgan kuzov markaziga murojaat qiling.

Avtomobil salonini tozalash Plastik detallarni tozalash

Salondagi plastik elementlarni tozalash uchun nam paxta matosidan va neytral abraziv bo'lmagan suvli eritmadan foydalaning, shunda sizib chiqishlar, ajralishlar va ketmaydigan dog'lar qolmaydi.

Moyli yoki kiyin tozalanadigan dog'larni ketkazish uchun yumshoq matoni tarkibida erituvchilar bo'lmagan va detallarning asl yuzasi va rangini saqlab qoladigan maxsus neytral past konsentratsiyali (1%) yuvish vositasi bilan namlang va ifloslangan joylarini arting. Yuvish vositasining qoldiqlarini toza suv bilan olib tashlang. Salonni qog'oz sochiq yoki salfetka bilan artish tavsiya etilmaydi.

Xavfsizlik kamarlarini tozalash

Xavfsizlik kamarlarini tozalash uchun neytral sovun eritmasi yoki iliq suvda namlangan yumshoq shimgichdan foydalaning. Oqartiruvchi, dog' ketkazuvchi yoki abraziv tozalash vositalaridan foydalanmang. Tozalangandan keyin kamarni quriting yoki uni mato yoki shimgich bilan arting. Kamarni bevosita quyosh nuri ta'sirida qoldirmang.

O'rindiqlarni tozalash

O'rindiqlarning charm yuzalarini tozalash: o'rindiq yuzasini nam mato bilan yaxshilab tozalang, keyin quruq qilib arting. Charm namlanmaganligiga ishonch hosil qiling, aks holda u dag'allashishi va yorilishi mumkin.

O'rindiqlarning matoli g'iloflarini tarkibida yuvish vositasi (masalan, kir yuvish kukuni) bo'lgan eritmaga namlangan mikrofibra matosi bilan tozalang. Ko'rinadigan dog'larning oldini olish uchun o'rindiq g'ilofini yaxshilab arting. O'rindiqlarni quriting.

O'rindiqlarni tozalash uchun bo'yoq, benzol, spirt, benzin va boshqa erituvchilardan foydalanmang, chunki bu o'rindiq yuzasini va o'rindiqlarning isitish elementini (agar o'rindiq isitgich bilan jihozlangan bo'lsa) shikastlashi mumkin.

Displeyni tozalash

Displeyni tozalashdan oldin displey o'chirilgan va sovutilganini tekshiring. TFT/LCD displey yuzasini tozalash uchun mikrofibra matosi va tozalash vositasidan foydalaning. Displey yuzasini quruq mikrofibra matosi bilan arting.

OGOHLANTIRISH

Displeyni tozalash uchun tarkibida spirt bo'lgan eritmalar, benzin, yuvish vositalari yoki maishiy tozalagichlardan foydalanmang.

LAMPA VA FARALAR

Faralar terlashi

Yoritish asboblari ishlayotganda faralardagi ichki bosim ventilyatsiya teshiklari orqali boshqariladi. Fara ichiga nam havo kirganida va fara qaytargichi past temperaturada bo'lsa, fara terlashi mumkin (manfiy temperaturada qirov hosil bo'ladi). Fonarlarning terlashi keng tarqalgan hodisadir. Bu nosozlik hisoblanmaydi va yoritish tizimining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Faralar terlaganida, fara qaytargichining ichki yuzasida namlik hosil bo'ladi. Terlash ma'lum vaqtdan keyin yo'qoladi, ammo keyinchalik uning qayta hosil bo'lmasligiga kafolat berish mumkin emas. Atrof-muhit harorati, havo namligi va faralardan foydalanish vaqti kabi omillarga qarab terlashning to'liq tarqalishi 2 kundan 3 kungacha yoki undan ko'proq vaqt olishi mumkin.

Faralar terlashini tekshirish

Dvigatelni ishga tushiring, uzoqni yoritish chirog'ini yoqing. 30-40 daqiqadan so'ng chiroqdan 1 m masofada terlashni tekshirish uchun quyidagi vizual tekshiruvlarni bajaring:

1. Farada namlik bor/yo'qligini tekshiring;
2. Faradan 1 m masofada terlash yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Agar fara yuqoridagi shartlarga javob bersa, faralar normal holatda bo'ladi.

Faralar yorqinligi

Avtotransport vositalarining farasi yorug'ligining ravshanligi davlat qonunlari va texnik reglamentlar bilan qat'iy tartibga solingan. Barcha transport vositalarida yoritish juda yorqin yoki juda xira bo'lishi mumkin emas, aks holda bu avariya olib kelishi mumkin.

Ushbu avtomobil o'ng tomonlama harakatlanishga mo'ljallanganligi sababli, qarama-qarshi harakatlanuvchi transport vositalarining ko'zini qamashtirmaslik va xavfsizlik darajasini oshirish uchun yaqinni yoritish farasi standarti joriy talablar uchun qo'llaniladi. Yaqinni yoritish chap farasining yorug'lik oqimi o'ng faradan pastroq bo'lishi kerak.

Sizningcha, faralarning yoritilishi yetarli bo'lmasa, faralarni tekshirish va sozlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

AKKUMULYATOR BATAREYASI

Akkumulyator batareyasining quvvatsizlanishi

Batareyaning o'z-o'zidan zaryadsizlanishi muqarrar. Avtomobil uzoq vaqt to'xtab turganda (2 oydan ortiq), batareyaning quvvati sezilarli darajada kamayadi. Batareyaning o'z-o'zidan zaryadsizlanishiga

harorat va saqlash sharoitlari kabi omillar ta'sir qiladi.

- O'z-o'zidan zaryadsizlanish tezligi atrof-muhit haroratining oshishi bilan ortadi;
- Batareyaning o'z-o'zidan zaryadsizlanishi yuqori namlik va changli xonada saqlanganda tezlashadi.

Batareyaning o'z-o'zidan zaryadsizlanishini kamaytirish usullari

- Akkumulyator batareyasi klemmalari mahkam ulangan bo'lishi kerak;
- Batareyaning yuzasi va kontaktlarini toza tuting;
- Avtomobilingiz uzoq vaqt to'xtab turganda, batareyani chiqarib oling va uni havo harorati o'rtacha bo'lgan quruq xonada saqlang;
- Dvigatel o'chirilgan holda avtomobil elektr jihozlari va boshqa uchinchi tomon iste'molchilaridan foydalanmaslikka harakat qiling.

Batareya zaryadsizlanishining sabablari

Batareya zaryadsizlanishi asosan quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'ladi:


- Elektr energiyasini doimiy ravishda iste'mol qiladigan elektr qurilmalarining quvvat sarfi (masalan, o'g'irlikka qarshi signalizatsiya);
- Avtomobildagi komponentlarning yomon elektr izolyatsiyasi elektr energiyasining oqishiga olib kelishi mumkin;

- Salbiy klemma o'chirilmagan, bu esa elektr iste'molchilari tomonidan batareyaning tez zaryadsizlanishiga va energiya yo'qotilishiga olib keladigan tinch tok va tok oqishlariga olib keladi;
- Dvigatel ishlamaganda avtomobildagi elektr qurilmalarining ishlashi.

Akkumulyator batareyasi zaryadini tekshirish

Kuchlanish sifatida voltmetr va bosh yoritish faralari yordamida tekshirish: voltmetrni akkumulyator batareyasiga ulang va akkumulyator batareyasi kuchlanishi (AKB) ko'rsatkichini o'lchang. So'ngra bosh chiroqlarni yoqing. Agar akkumulyator batareyasining kuchlanishi 10V dan yuqori bo'lsa va tez tushmasa, avtomobil dvigatelini ishga tushiring. Avtomobil neytral yurgandan so'ng akkumulyator batareyasi qayta zaryadlanadi. Agar akkumulyator batareyasining kuchlanishi bosh chiroqlar yoniqligida tez tushsa, akkumulyator batareyasini zaryadlash qurilmasi yordamida zaryadlang.

Akkumulyator batareyasini almashtirishdagi amallar ketma-ketligi




Akkumulyator batareyasini olishda, avval batareyaning manfiy klemmasini ②, keyin musbat klemmasini ① uzing.

Akkumulyator batareyasini o'rnatishda avval musbat klemmani, so'ngra manfiy klemmani ulang va M10 nakid yoki muguz gayka kaliti bilan mahkamlang.

OYNA TOZALAGICHLAR VA OYNALARNI YUVISH TIZIMI SUYUQLIGI

Yuvish tizimining suyuqligi

Old oyna yuvish vositasining suyuqlik darajasini tekshirish



Old oyna yuvish bakidagi yuvish suyuqligi darajasini muntazam tekshirib turing va kerak bo'lganda uni o'z vaqtida to'ldiring. Atrof-muhit harorati 0 C ga teng yoki undan past bo'lsa, muzlashning oldini olish uchun muzlamaydigan tozalash suyuqligidan foydalanish kerak.

Yuvish bakiga vodoprovod suvi yoki sovutish suyuqligini qo'shmang. Vodoprovod suvi muzlashi yoki quvurlar va purkagichlarda tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin. Old oynadagi sovutish suyuqligi izlari ko'rishga ta'sir qilishi va keyinchalik avtomobil boshqaruvining nazoratdan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin. Sovutish suyuqligi tomchilari bo'yalgan sirtlarga va kuzov bezaklariga zarar yetkazishi mumkin.

Yuqori sifatli tozalash suyuqligidan foydalaning. Past sifatli tozalash suyuqligi oyna yuvish nasosining ishdan chiqishiga, purkagichning tiqilib qolishiga va boshqa nosozliklarga olib kelishi mumkin. Agar yuvish tizimi ishdan chiqsa, tekshirish va

ta'mirlash uchun imkon qadar tezroq CHANGAN Automobile vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.



DIQQAT

- Oyna tozalagich tizimidagi suyuqlik yong'inga xavfli va oson alanganadigan bo'lishi mumkin. Tozalovchi suyuqlik bilan yuvish tizimi bakiga uchqun yoki olov tushishiga yo'l qo'ymang.
- Yuvish tizimidagi suyuqlik zaharli hisoblanadi. U bilan aloqa qilish yoki og'iz orqali iste'mol qilish jiddiy jarohatlarga yoki hatto o'limga olib keladi. Suyuqlikning teri, ko'z va ichki organlarga tegishidan saqlaning.

Oynatozalagichlar

Ushbu model uchun haydovchi/old yo'lovchi oyna tozalagichi cho'tkalarining uzunligi 600 mm/450 mm, ulanish turi - bo'yлама montaj "Bayonet" (Tugma) mahkamlagichi.

ESLATMA

- Agar oynada yoki oyna tozalagich cho'tkasida begona jismlar ko'rinsa, oyna tozalagich cho'tkasining rezina tasmasiga zarar yetkazmaslik uchun ularni oyna tozalagichdan foydalanishdan oldin olib tashlang.
- Oyna tozalagichning rezina yuzasini shikastlamaslik uchun begona buyumlardan

tozalashda qirg'ichdan foydalaning.

- Qishda, oyna tozalagichni ishga tushirishdan oldin, oyna tozalagichni va old oynani muz va qordan to'liq tozalang.
- Oyna tozalagich cho'tkalarini benzin, YOMM, bo'yoq erituvchilar yoki boshqa shunga o'xshash reagentlar bilan tozalamang.
- Oyna tozalagichning tayanchlari yoki boshqa elementlarining shikastlanmasligi uchun oyna tozalagichning tayanchlari va cho'tkalarini artmang va mustaqil aylantirmang. Oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirishda katta kuch sarflamang.

Oyna tozalagich cho'tkalarini tekshirish

Cho'tkaning g'adir-budurligi va iflosligini tekshirish uchun cho'tka rezinali lentasining tozalovchi qirrasini bo'ylab barmoq uchi bilan o'tkazing.



Agar old oyna yoki tozalagich cho'tkalari

begona jismlar bilan ifloslangan bo'lsa, tozalagich ishlashi buziladi. Oyna tozalagich cho'tkalarining oynasi va rezina tasmasini tozalash uchun yumshoq shimgichni va yuqori sifatli oyna tozalagich suyuqligi yoki old oynani tozalash vositasidan foydalaning va keyin ularni toza suv bilan yuving.


Agar oyna tozalagichni tozalagandan so'ng, old oynada dog' yoki ifloslanish qolsa, u holda tozalagich elastikligi eskirgan yoki shikastlangan bo'lishi mumkin va uni almashtirish kerak.

Oynatozalagich cho'tkalarini almashtirish

1. Oynatozalagich cho'tkalarini almashtirish uchun oynatozalagich moslamasini xizmat ko'rsatish rejimiga o'rnatish: oynatozalagich tugmasini Off → Hi → Off rejimlarini almashtirish. Oynatozalagich avtomatik vertikal ravishda, xizmat ko'rsatish rejimida to'xtaydi. Bu oynatozalagich cho'tkalarini qulay saqlash yoki almashtirish imkonini beradi.



2. Oyna tozalagichning tayanchini ko'tarib, oyna tozalagich cho'tkasini bir oz burchakka og'diring, oyna tozalagich cho'tkasidagi fiksatorni bosib turing va rasmda ko'rsatilgan yo'nalishda oyna tozalagich cho'tkasini chiqarib oling.







3. Yangi cho'tkani teskari ketma-ketlikda o'rnating va oynatozalagich dastagini tushiring.

Oyna tozalagichga xizmat ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar

Agar oynatozalagichlardan uzoq vaqt foydalanilmasa, ularning ishchi yuzasi (rezina tasmasi) ezilishi va deformatsiyalanishi mumkin. Bunday holda dastlabki bir necha ish siklida cho'tkalar titrab, anomal shovqin chiqarishi va oynani to'liq tozalay olmasligi mumkin. Nosozlik qisqa muddatli ish yoki cho'tkalarni tozalashdan keyin yo'qolishi mumkin.

Avtomobilni uzoq vaqt davomida to'xtab turganda oynadan artgich cho'tkalarini ko'tarish tavsiya etiladi (old oynaga nisbatan vertikal holat). Bu artgich cho'tkasi rezina tasmasining mumkin bo'lgan deformatsiyasini kamaytirish uchun muhim. Harakatni boshlashdan oldin artgich cho'tkalarini ish holatiga qaytaring.

Oyna tozalagichning ishlashidagi keng tarqalgan nosozliklar

Nosozlik	Rasm	Tavsif	Nosozlikning mumkin bo'lgan sababi
Yoysimon ingichka chiziqlar		Oyna tozalangandan so'ng, ko'rinishga ta'sir qiluvchi ingichka va uzun yoysimon chiziqlar qoladi.	1. Oyna tozalagich cho'tkasi rezinali tasmasining ishchi yuzasi chetida begona materiallar va jismlarning mavjudligi; 2. Oyna tozalagich cho'tkasi rezina tasmasining ishchi yuzasi shikastlanishi.
Vertikal chiziqlar		Oyna tozalagich cho'tkasi anomal tovush chiqaradi va harakatlanganda tebranadi, rezina tasma esa siltanishlar bilan harakatlanadi.	1. Oyna ifloslangan, moy yoki mum izlari ko'rinadi; 2. Oyna tozalagich cho'tkasining ishchi yuzasi deformatsiyalangan.
Dog'lar		Oynadagi suv tozalangandan so'ng, oynada nam dog'lar qoladi.	Oyna tozalagich cho'tkasining ishchi yuzasi deformatsiyalangan.
Keng chiziq yoki suv dog'i		Oyna tozalagich cho'tkasining rezina ishchi yuzasi oyna yuzasiga zich tegmaydi va uni notekis artadi.	1. Oyna tozalagich cho'tkasining ishchi yuzasi deformatsiyalangan. 2. Oyna tozalagichning ishchi yuzasi yoki asosining deformatsiyalanishi natijasida oyna tozalagichning yetarli bosimga ega emasligi.

ESLATMA: agar yuqorida ko'rsatilgan nosozliklar mavjud bo'lsa, "Oyna tozalagich cho'tkalari" bo'limiga murojaat qiling. Agar nosozlikni ko'rsatilgan usulda bartaraf etishning iloji bo'lmasa, tekshirish va xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qilishingiz kerak.

SAQLAGICHLAR

OGOHLANTIRISH

1. Avtomobilning elektr sxemasiga biror yo'l bilan aralashish va o'zgartirish qat'iy man etiladi. Elektr tizimlarida rele va/yoki kuchli tok saqlagichlariga texnik xizmat ko'rsatish, almashtirish CHANGAN Automobile vakolatli servis markazida amalga oshirilishi kerak.
2. Saqlagichlarni almashtirishdan oldin o't oldirishni o'chiring va elektr uskunalar va iste'molchilarni o'chiring. Saqlagichlarni almashtirayotganda, avval qanday o'rnatilgan bo'lsa, shunday parametrlri saqlagichlarni o'rnatang. Aks holda avtomobilning elektr jihozlariga zarar yetishi mumkin.
3. Agar xuddi shunday parametrlarga ega yangidan almashtirilgan saqlagich o'rnatilgandan so'ng darhol kuysa, barcha elektr jihozlarini o'chirib qo'ying va imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.
4. Foydalanuvchi tomonidan qo'shiladigan zarur yoki qo'shimcha funksiyalarni amalga oshirish uchun, hatto avtomobil tizimida ma'lum bir funksiyaga ega bo'lmagan ma'lum bir saqlagichlar mavjud bo'lsa ham, ularni olib tashlamang va almashtirish uchun ulardan foydalanmang.

Saqlagichlar va relarning saqlagichlar blokidagi joylashish sxemasi saqlagichlar bloki qopqog'ining ichki tomonida yoki

asboblar saqlagichlari bloki ichki qopqog'ida tasvirlangan.

Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki


Motor bo'limida, dvigatelning havo filtri yonida joylashgan.

Salonda, asboblar paneli ostida joylashgan saqlagichlar bloki

Saqlagichlar bloki haydovchi tomonidagi asboblar paneli ichida saqlagichlar bloki qopqog'i orqasida joylashgan. Sxema qopqoqning orqa tomonida tasvirlangan.

Saqlagichlarni almashtirish

1. Saqlagichlar bloki qopqog'ini oling;
2. Saqlagich blokidagi saqlagichning butunligini tekshiring, uning shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling;
3. Kuygan saqlagichni dvigatel bo'linmasi saqlagichlari blokiga yoki asboblar saqlagichlari blokiga o'rnatilgan qisqich bilan chiqarib oling;
4. Saqlagichning kuyish sababini aniqlang va nosozlikni bartaraf eting;
5. Saqlagichni almashtiring.




A: Normal saqlagich;

B: Kuygan saqlagich.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Dvigatel moyi

Moy darajasini tekshirish moslamasi



Moy darajasini tekshirish

Dvigatelni ishga tushirishdan oldin moy darajasini tekshiring. Moy darajasi "MIN" ② (minimum) va ① «MAX» (maksimum) 'rtasida ekaniga ishonch hosil qiling.

1. Avtomobilni tekis yuzada xavfsiz joyda to'xtating;
2. Agar dvigatel ishlayotgan bo'lsa, uni to'xtatib, 5 daqiqa kuting;
3. Moy qisqichini chiqarib, tuksiz toza yumshoq mato bilan arting. Moy darajasini tekshirish uchun moy qisqichini dvigatelga qo'ying va uni qayta chiqarib oling. Agar moy darajasi minimal darajadan past bo'lsa, moy qo'shing.



DIQQAT

Moy quyish og'zining qopqog'i va moy qisqichini dvigatel ishlayotganda yoki yuqori haroratda olish qat'iy tanqiqlanadi.

OGOHLANTIRISH

Har xil marka va turdagi, turli xil ishlab chiqaruvchilar motor moylarini aralashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Dvigatelga texnik xizmat ko'rsatishda uning shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun motor moyiga va/yoki boshqa mahsulotlarga har qanday qo'shimchalardan foydalanish qat'iy tanqiqlanadi. Ushbu sabab bilan dvigatelga yetkazilgan har qanday zarar kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi. Ishlab chiqaruvchi zavodning texnik talablari va spetsifikatsiyalariga mos kelmaydigan motor moyidan foydalanmang. Bu dvigatelga zarar yetkazishi mumkin va ishlab chiqaruvchi zavodning kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

Dvigatel moyini almashtirish

Dvigatel to'xtagandan so'ng, moy issiq bo'lganda moyini to'king:

1. Moy quyish bo'ynining qopqog'ini oling;
2. Moy uchun taglikni (moy yig'gich) to'kish tiqinining ostiga joylashtiring;
3. Gayka kaliti yordamida to'kish tiqinini oching va moyini issiqligida uni to'king;
4. Moy filtrini almashtiring;

5. Moy quyilgandan keyin zichlovchi halqali to'kish tiqinini qaytadan o'rnatish va uni mahkamlang;

6. Tegishli xususiyatlarga ega moyini dvigatelga kerakli darajagacha quying.

Dvigatelning sovutish suyuqligi

Sovuq dvigatelda sovutish suyuqligi sathi "MIN (minimum) va "MAX" (maksimum) belgilari orasida bo'lishi kerak. Agar suyuqlik sathi "MIN" belgisidan past bo'lsa, sovutish suyuqligini to'ldirish kerak.

Yuqori haroratli sovutish konturining sovutish suyuqligi idishi.



Sovutish suyuqligini to'ldirish





DIQQAT

Sovutish suyuqligini faqat dvigatel sovuq bo'lganda quying. Dvigatel issiq holatida kengaytirish baki qopqog'ini ochmang. Aks holda, bug' va suv ichki bosim ta'sirida tashqariga otilib chiqadi va kuyishga sabab

bo'lishi mumkin.

OGOHLANTIRISH

Dvigatelni sovutish uchun ishlatiladigan sovutish suyuqligining muzlash harorati tegishli mintaqa va foydalanish mavsumida eng past haroratdan 5 °C past bo'lishi kerak. Sovutish suyuqligi sifatida qattiq suvdan (masalan, vodoprovod suvi, daryo suvi va quduq/buloq suvi) foydalanmang.



Sovutish suyuqligini yuqori haroratli kontur tizimga quyish

1. Sovutish suyuqligi kengaytirish baki qora qopqog'ini oching. Sovutish suyuqligini bak og'zi orqali maksimal "MAX" belgisigacha quying;
2. Qora qopqoqni yoping;
3. Dvigatelni ishga tushiring, konditsionerni o'chiring va dvigatelni 2000 ayl/daq tezlikda, toki radiatorning kiritish quvuri qiziguncha ishlating;
4. Dvigatel sovigandan so'ng, sovutish suyuqligi baki qopqog'ini yana oching va suyuqlik maksimal ("MAX") darajaga yetguncha to'ldiring;
5. Bu jarayonni bakdagi suyuqlik sathi pasayishni toxtatguncha bir necha marta takrorlang;
6. To'ldirish bo'ynini qora qopqoq bilan yoping.

Sovutish suyuqligini past haroratli kontur tizimga quyish:

1. Sovutish suyuqligi kengaytirish baki qopqog'ini oching. Sovutish suyuqligini bak og'zi orqali maksimal "MAX" belgisigacha quying;
2. Bak qopqog'ini yoping;
3. Dvigatelni ishga tushiring, konditsionerni o'chiring va dvigatelni 2000 ayl/daq tezlikda, toki radiatorning kiritish quvuri qiziguncha ishlating;
4. Dvigatel sovigandan so'ng, sovutish suyuqligi baki qopqog'ini yana oching va suyuqlik maksimal ("MAX") darajaga yetguncha to'ldiring;
5. Bu jarayonni bakdagi suyuqlik sathi pasayishni toxtatguncha bir necha marta takrorlang;
6. To'ldirish bo'ynini qora qopqoq bilan yoping.

OGOHLANTIRISH

Sovutish suyuqligining teriga yoki ko'zlarga tushishiga yo'l qo'ymang. Agar shunday bo'lsa, darhol teringizni yoki ko'zlaringizni ko'p miqdorda suv bilan yuving va imkon qadar tezroq tibbiy yordamga murojaat qiling. Dvigatel ishlayotganda kengaytirish baki qopqog'ini olish qat'iyani taqiqlanadi. Noto'g'ri foydalanish sovutish tizimiga havo kirishiga olib kelishi, bu esa dvigatelning qizishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday vaziyat yuzaga kelganda, imkon qadar tezroq diagnostika va texnik xizmat ko'rsatish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

Tormoz suyuqligi

Tormoz kolodkalarining yeyilishi tormoz suyuqligi darajasining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Tormoz suyuqligi darajasi "MAX" (maksimum) va "MIN" (minimum) belgilari orasida joylashganiga ishonch hosil qilish uchun uni muntazam ravishda tekshiring.



Tormoz suyuqligi past bo'lganda, "MAX" (maksimal) belgisigacha tormoz suyuqligini to'ldiring.

Agar asboblar paneli displeyida tormoz tizimining nosozlik indikator yonsa, tormoz suyuqligi darajasini tekshiring. Tormoz suyuqligining past darajasi tormoz tizimining samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Agar tormoz suyuqligi darajasi "MIN" belgisidan sezilarli darajada past bo'lsa, imkon qadar tezroq diagnostika va ta'mirlash uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

ESLATMA

Yangi va toza tormoz suyuqligidan foydalaning. Unga chang, suv, neft mahsulotlari va boshqa aralashmalarning tushishi natijasida yuzaga kelgan har qanday ifloslanish tormoz tizimining shikastlanishi va nosozligiga olib kelishi mumkin. Tormoz suyuqligi almashtirilganda yoki quyilganda, xususiyatda ko'rsatilgan tormoz

suyuqligidan foydalaning. Aks holda, tormozlash samaradorligi pasayishi mumkin. Turli ishlab chiqaruvchilar yoki turdagi tormoz suyuqligini aralashtirish va foydalanish taqiqlanadi.

Tormoz suyuqligi baki qopqog'ini yechib olish va uni to'ldirishdan oldin, unga ifloslik tushmasligi uchun bak atrofidagi sohani yaxshilab tozalang. Har gal tormoz suyuqligi quyilgandan so'ng, to'ldirish tugagandan so'ng, tormoz tizimidan havoni chiqarib yuborish uchun tormoz magistralini ishga tushirish kerak.


OGOHLANTIRISH

Ehtiyot bo'ling va tormoz suyuqligining teriga yoki ko'zlarga tushishiga yo'l qo'ymang. Agar shunday bo'lsa, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang va imkon qadar tezroq tibbiy yordam so'rab shifokorga murojaat qiling.


Tormoz suyuqligini almashtirayotganda himoya ko'zoynagini taqing. Bo'yalgan yuzalarga tormoz suyuqligi tushganda, darhol ularni toza suv bilan yuvib tashlang.

Salon havo filtrini almashtirish


1. Qo'lqop qutisini oching va har ikki tomonning cheklagichlarini oling, ularni ilmoqlarga erkin osib qo'yish mumkin bo'ladi;



2. O'ng tomondagi qisqichni bosib, salon havo filtrining qopqog'ini oching va salon havo filtrining filtrlash elementini chiqarib oling;



3. Salon havo filtrining filtr elementini almashtiring;



4. Hammasini teskari ketma-ketlikda o'rnatish.

Chiqindi gazlar chiqindilarini nazorat qilish tizimi

Chiqindi gaz chiqindilarini kamaytirish choralari

Dvigatelni ishga tushirish uchun bir necha marta uzluksiz urinishlarda, agar u doimiy to'xtab qolsa yoki ishga tushirishning iloji bo'lmasa, chiqindi gazlar chiqindilarini nazorat qilish tizimi ishdan chiqishi mumkin.

Chiqindi gazlar chiqindilarini nazorat qilish tizimiga biror-bir o'zgartirish kiritish va dvigatel komponentlarini qayta jihozlash taqiqlanadi. Dvigatelni boshqarish modulining konstruksiyasiga yoki dasturiy ta'minotiga har qanday aralashuv avtomobilning foydalanish xususiyatlariga ta'sir qiladi va/yoki qonun yoki me'yoriy hujjatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Avtomobilning har qanday shikastlanishi yoki qayta jihozlash tufayli uning ishidagi nosozlik kafolat majburiyatlari doirasiga kiritilmaydi. Barcha tekshirishlar va tuzatishlar CHANGAN Automobile vakolatli servis markazida amalga oshirilishi kerak.

Chiqindi gaz chiqarish tizimidan foydalanish bo'yicha ehtiyot choralari

- Agar siz avtomobil salonida chiqindi gazlar hidini sezsangiz, darhol avtomobilni shamollating. Agar avtomobil harakatlanayotganda tashqaridan chiqqan gazlar avtomobilga tushganiga ishonchingiz komil bo'lmasa, barcha oynalarni oching va avtomobilni tekshiring. Dvigatel ishlab chiqarayotgan chiqindi gazlarni hidlamang.
- Agar avtomobilda bino ichida harakatlanish yoki tashqariga chiqish zarurati bo'lmasa, dvigatelni yopiq yoki shamollatilmaydigan xonada (masalan, garajda, hatto eshigi ochiq bo'lsa ham) ishga tushirmang. Dvigatelni faqat dvigatelni ishga tushirish va avtomobilni garajdan olib chiqish uchun zarur bo'lgan vaqtga ishga tushiring.
- Avtomobilda odamlar borligida dvigatel ishlayotganda uzoq to'xtash va to'xtab turishdan saqlaning. Zarur hollarda avtomobilni uzoq vaqt davomida ochiq joyda dvigatel ishlayotgan holda qoldirganda, shamollatish tizimini

tashqi oqimli shamollatish rejimiga o'tkazing va ventilyatorning maksimal ishlash rejimini yoqing. Bunday sharoitda avtomobilda uzoq vaqt qolib ketmang.



DIQQAT

Dvigatel tomonidan chiqariladigan chiqindi gazlar tarkibida uglerod oksidi (CO), kanserogenlar va zaharli komponentlar (benzol hosilalari) mavjud. Uzoq vaqt davomida chiqindi gazlar (CO) orqali nafas olish o'limga olib kelishi mumkin, gomologlar va benzol hosilalaridan uzoq vaqt davomida nafas olish ham sog'lig'ingizga zarar yetkazadi. Dvigatelni shamollatilmaydigan yoki yopiq joylarda (masalan, garajlarda) ishga tushirmang.

Avtomobilda odamlar borligida dvigatel ishlayotganda uzoq to'xtash va to'xtab turishdan saqlaning.

Zarur hollarda avtomobilni uzoq vaqt davomida ochiq joyda dvigatel ishlayotgan holda qoldirganda, shamollatish tizimini tashqi oqimli shamollatish rejimiga o'tkazing va ventilyatorning maksimal ishlash rejimini yoqing. Bunday sharoitda avtomobilda uzoq vaqt o'tirmang.

Katalitik neytralizatorning shikastlanishini oldini olish uchun ehtiyot choralari

- Dvigatelni ishga tushirishga bir necha marta muvaffaqiyatsiz urinishlar bo'lganda

va neytral yurishning yuqori aylanishlarida yoki dvigatelni ishga tushirishning iloji bo'lmaganda, chiqindi gazlar chiqindilarini nazorat qilish tizimiga zarar yetishi mumkin.

- Chiqindi gazlar chiqindilarini nazorat qilish tizimiga biror-bir o'zgartirish kiritish va dvigatelning har qanday tarkibiy qismlarini qayta jihozlash taqiqlanadi. Barcha tekshirishlar va tartibga solishlarni CHANGAN Automobile vakolatli servis markazida amalga oshirish kerak.

- Yoqilg'i sarfi past bo'lgan avtomobildan uzoq vaqt foydalanish taqiqlanadi. Avtomobildan yonilg'i past bo'lganda foydalanish dvigatel o't oldirishining amalga oshmasligi va katalitik neytrallahstiruvchi shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan profilaktik chora-tadbirlarga rioya qilmaslik katalitik neytralizatorning shikastlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa ishlab chiqaruvchi zavodning kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi.

foydalanmasdan, chiqarish tizimi ishlamay qolguncha va sovigunga qadar tegish taqiqlanadi. Yuqori haroratli kuyish xavfi mavjud.




DIQQAT

Avtomobilni to'xtatmang va dvigatel ishlayotganda yonuvchi moddalar, masalan, o't, qog'oz yoki barglar yonida to'xtamang. Dvigatel va gaz chiqarish tizimidan chiqayotgan issiqlik yong'inga olib kelishi mumkin. Chiqarish tizimining tarkibiy qismlariga (masalan, chiqarish quvuriga) himoya vositalari va materiallardan

VII. AVTOMOBILNING TEXNIK XUSUSIYATLARI

AVTOMOBIL O'LCHAMLARI



Avtomobil modeli		SC7151AAB6
A	Umumiy uzunligi, mm	4515
B	Umumiy kenglik, mm (orqa ko'rish oynalarisiz)	1870
C	Umumiy balandlik, mm (yuksiz holatda)	1565

D	G'ildirak bazasi, mm	2710
E	Old qiyalik, mm	935
F	Orqa qiyalik, mm	870
G	Old iz, mm	1600
H	Orqa iz, mm	1610

* Avtomobil o'lchamlarida hisobga olinmagan elementlar: orqa tashqi ko'rish oynalari, eshik tutqichlari, antenna.

DVIGATEL

Nomi	Dvigatel modeli	JL473ZQ5
Silindrlarning soni va joylashuvi		4 qatorli
Silindrlar diametri $\times$ porshen yo'li, mm		73.5 $\times$ 88
O't oldirish shamlari		HU10A80P
O't oldirish shamining elektrodleri orasidagi tirqish (mm)		0.6~0.7
O't oldirish shamlarining tortish momenti (N. m)		20~25
Ish hajmi, sm ³		1494
Siqish darajasi		10,5:1
Osma uskunalarsiz nominal quvvat, kVt (daq ⁻¹)		132 (5500)
Maksimal foydali quvvat, kVt (daq ⁻¹)		123 (5500)
Maksimal buruvchi moment, N. m (daq ⁻¹)		300 (1250~3500)
Neytral yurish aylanish tezligi, (daq ⁻¹)		750 $\pm$ 50
Silindrlarning ishlash tartibi		1-3-4-2

Avtomobildan foydalanish bo'yicha qo'llanmada va boshqa axborot manbalarida ko'rsatilgan yonilg'i sarfi laboratoriya sinovlari davomida olingan **nisbiy hisoblangan qiymat** hisoblanadi.

Nisbiy hisoblangan qiymat standart komplektatsiyadagi avtomobil uchun laboratoriya sinovlari asosida olingan. Foydalanish bo'yicha qo'llanmada va boshqa axborot manbalarida ko'rsatilgan yoqilg'i sarfining qiymati bu qiymatning yoqilg'ining haqiqiy foydalanish sarfiga muvofiqligini nazarda tutmaydi va kafolat bermaydi.

AVTOMOBIL XUSUSIYATLARI

Nomi		Model	SC7151AAB6
O'tkazuvchanlik	Ko'tarilish burchagi $\geq$ (°)		17,5
	Tushish burchagi $\geq$ (°)		26,8
	Minimal yo'l oralig'i (yuksiz), mm		190
	Minimal burilish diametri, m		11,5
Dinamik	Avtomobilning maksimal tezligi, km/soat		205
	O'tish mumkin bo'lgan maksimal qiyalik, %		30%
Iqtisodiy samaradorlik *	Yoqilg'i sarfi (aralash davr), l/100 km. *		6,3
Bagaj bo'limi hajmi, l.			350 ~ 1185
Tormoz pedali erkin harakati, mm			≤ 22
Tormoz friksion mexanizmlarining ruxsat etilgan qalinligi, mm			Old tormoz nakladkalari qalinligi ≥ 9 mm; Orqa tormoz nakladkalari qalinligi $\geq 7,8$ mm
Uzatma turi			2WD (Old uzatma)

Eslatma*: foydalanish sharoitlariga qarab, haqiqiy yoqilg'i sarfi ko'rsatilgan qiymatlardan farq qilishi mumkin.

AVTOMOBIL MASSASI

Parametrlar		Model	SC7151AAB6
Maksimal ruxsat etilgan umumiy massa (to'liq yuk), kg			1840
O'qlar bo'yicha yuklanish, kg.	Old o'q		995
	Orqa o'q		845
Jami og'irlik, kg.			1465
O'qlar bo'yicha yuklanish, kg.	Old o'q		882
	Orqa o'q		583

TO'LDIRISH SUYUQLIKLARI VA HAJMLARI

Parametrlar		Xususiyatlari	Hajm
Yoqilg'i		RON oktan raqami (tadqiqot oktan raqami) 92# dan kam bo'lmagan / AKI antidetonatsion ko'rsatkichi 89# dan kam bo'lmagan yuqori sifatli etillanmagan avtomobil benzini.	55 l.
Dvigatel moyi	JL473ZQ5	SN/GF-5 sinfiga mos keladigan 0W-20 moyi	3,9±0,1 l.
AUO'Q suyuqligi		Castrol BOT 351 C4	5,3 ± 0,1 l.
Dvigatel sovutish suyuqligi		Glysantin G30	6,5 ± 0,2 л. yuqori haroratli kontur
			2,4 ± 0,2 л past haroratli kontur
Konditsioner tizimi moyi		RFL-100X	120 g.
Konditsioner tizimi sovutgichi		R134a	480 ± 20 g.
Old oyna yuvish suyuqligi		ZT-30	~ 3,0 l.
Tormoz suyuqligi		DOT4 или HZY4	0,8~0,9 l.

G'ILDIRAK VA SHINALARNING XUSUSIYATLARI, SHINALARDAGI SOVUQ HOLATDAGI TAVSIYA ETILGAN BOSIM

Disklar	Shinalar	Shinalar bosimi (kPa)			
		Yuksiz		To'liq yuklanish bilan	
		Old	Orqa	Old	Orqa
17×7J*	225/60 R17*	230	230	230	230
19×7J	225/55 R19	240	240	240	240
20×8J	245/45R20	240	240	240	240

Eslatma: avariyaaviy zaxira g'ildiragining o'lchami **T125/80 R17**, havo bosimi 420 kPa o'rnatilgan.

160 km/soatdan ortiq tezlikda harakatlanayotganda old va orqa g'ildiraklarga **250 kPa** bosim o'rnatish tavsiya etiladi.

* Ushbu tavsifdagi shinalarga sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilishi mumkin.

G'ILDIRAKLARNI O'RNATISH BURCHAKLARI (YUKSIZ)

Parametrlar		Parametr qiymati
Old g'ildirak parametrlari	Shkvoren ko'ndalang qiyalik burchagi, (°)	12°35' ± 0°45'
	Shkvoren bo'ylama qiyalik burchagi (Caster), (°)	4°21' ± 0°45'
	Og'ish burchagi, (°)	-0°30' ± 0°30' Chap va o'ng o'rtasidagi farq ≤45'
	Yaqinlashish burchagi, (°)	0°05'±0°06'
Orqa g'ildirak parametrlari	Og'ish burchagi, (°)	-1°00' ± 0°30' Chap va o'ng o'rtasidagi farq ≤45'
	Yaqinlashish burchagi, (°)	0.00° ± 0°06'

QISQARTMALAR RO'YXATI

Qisqartma	Tavsifi	Qisqartma	Tavsifi
ABS/ ABS	Antilock Brake System/ Antibloklash tormoz tizimi	DBF	Dynamic Break Function/ Dinamik tormozlash funksiyasi
ACC	Adaptive Cruise Control/ Adaptiv kruiz nazorati	DVD	Digital Versatile Disc/ Raqamli universal disk
AEB	Autonomous Emergency Braking/ Favqulodda tormozlashda avtomatik yordam tizimi	EBD	Electronic Brakeforce Distribution/ Tormoz kuchini taqsimlash elektron tizimi
ALR	Automatically Locking Retractor/ Avtomatik qulflanadigan tortish moslamasi	ECU/EBB	Electronic Control Unit/ Elektron boshqaruv bloki
APA	Automatic Parking Assist/ To'xtashda avtomatik yordamchi	EDC	Electronic Controlled Deceleration/ Sekinlashishni avtomatik boshqarish (sekinlashtirish)
AT/ AUO'Q	Automatic Transmission/ Avtomatik uzatmalar qutisi	ELK	Emergency Lane Keeping/ Harakat yo'lagida qolish tizimi
AUTO HOLD	Automatic Parking Function/ Avtomobilni avtomatik ushlab turish tizimi	EPB	Electrical Parking Brake/ Elektromexanik to'xtash tormozi
AVM	Around View Monitor/ Aylana kuzatuv monitori	EPS	Electric Power Steering/ Rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi
CAB	Curtain Airbag/ Xavfsizlik yostig'i pardalari	ESC	Electronic Stability Control System/ Kurs barqarorligi elektron tizimi
CD	Compact Disc/ Kompakt disk	SVA	Side View Assist/ Yon kuzatuv yordamchisi
CO	Carbon Monoxide/ Uglerod oksidi	HDC	Hill Descent Control/ Tushishda yordam tizimi
DAA	Drive Away Assist/ Harakatni boshlashda yordam tizimi	HHC	Hill Hold Control/ Ko'tarilishda yordam tizimi
HPS	Hydraulic Power Steering/ Rul boshqaruvi gidro kuchaytirgichi	GPF	Gasoline Particulate Filter/ Qattiq zarralar yoqilg'i filtri
DAB	Driver Airbag/ Haydovchi xavfsizlik yostig'i	SAB	Side Airbag/ Yon xavfsizlik yostig'i
HTR	High Temperature Reclamp/ Yuqori haroratlarda to'xtash tormozini sozlash (mahkamlash) tizimi	SBR	Seat Belt Reminder / Xavfsizlik kamarlari eslatmasi
IACC	Integrated Adaptive Cruise Control/ Intellectual adaptiv kruiz nazorati	SRS	Supplemental Restraint System / Qo'shimcha ushlab turish tizimi
IMT	Intelligent Manual Transmission / Intellectual mexanik uzatmalar qutisi	FAB	Front Automatic Beam/ Bosh chiroqni avtomatik boshqarish
LAS	Lane Assistant System / Harakat yo'lagini kuzatishda yordam tizimi	TCS	Traction Control System / Tortishni nazorat qilishning sirpanishga qarshi tizimi
LCD	Liquid Crystal Display/ Suyuq kristalli displey	TFT	Thin Film Transistor/ Yupqa plyonkali tranzistor

LCDA	Line Change Decision Assist/ Harakat yo'lagini o'zgartirish bo'yicha yordamchi	TPMS	Tire Pressure Monitoring System/ Shinalar bosimini nazorat qilish tizimi
LDW	Lane Departure Warning/ Yo'lakni o'zgartirish haqida ogohlantirish	TSP	Telematics Service Provider/ Telematika xizmatlarini yetkazib beruvchi
LED	Light Emitting Diode/ Yorug'lik taratuvchi diod	TSR	The Speed Limit Sign Recognition/ Tezlikni cheklash belgisini aniqlash
MT/ МКПП	Manual Transmission/ Mexanik uzatmalar qutisi	USB	Universal Serial Bus/ Universal izchil shina
PAB	Passenger Airbag / Yo'lovchi xavfsizlik yostig'i	VIN	Vehicle Identification Number/ Avtomobil identifikatsiya raqami
POI	Point of Interest/ Tanlangan joylar (ko'ngilochar joylar)	KYCh	Kunduzgi yoritish chiroqlari
HBB	Hydraulic brake booster system/ Tormoz tizimi gidravlik kuchaytirgichi	DCT	Dual Clutch Transmission/ Qo'sh ulanishli uzatmalarni almashtirish qutisi

VIII. MUNTAZAM TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

QOIDALARI

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi ma'lumotlar servis kitobchasida keltirilgan. Texnik xizmat ko'rsatish tartibi haqida batafsil ma'lumot olish uchun CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qiling.

KAFOLAT QO'LLANILMAYDI

Ishlab chiqaruvchi quyidagi hollarda butlovchi qismlarni ta'mirlash yoki almashtirish xarajatlari uchun javobgar bo'lmaydi:

1. Avtomobilda servis kitobchasida keltirilgan tavsifga muvofiq TX va servis xizmati ko'rsatilmagan.
2. Zarur darajada saqlanmaganligi, avtomobil saloniga, kapot osti bo'shlig'i yoki boshqa qismlar va agregatlarga namlik tushishi (ishlab chiqarish nosozligi mavjud bo'lmaganda) natijasida yuzaga kelgan ichki va tashqi bezakning rangi o'chib, zanglashi yoki korroziyaga uchrashi, yoriqlarning paydo bo'lishi, panellar va rezina buyumlarning bo'yalishi.
3. Muddat yoki masofaga ko'ra ehtiyot qismlar yoki butlovchi qismlar bo'yicha kafolat muddati tugagan.
4. Yengib bo'lmaydigan ofat (masalan, suv toshqini, yong'in, ko'chki, chaqmoq chaqishi, zilzila va h.k.) natijasida yetkazilgan zarar.
5. Tashqi mexanik ta'sir, YTH, o'g'irlash yoki

o'g'irlashga urinish natijasida yuzaga kelgan zarar.

6. Avtomobildan noto'g'ri foydalanish yoki saqlash oqibatida mijozning aybi bilan yuzaga kelgan zararlar.

7. Ta'mirlash CHANGAN mutaxassislarining oldindan rozilgisiz yoki CHANGAN Automobile avtorizatsiya qilinmagan xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirilgan.

8. Nosozliklar avtomobil konstruksiyasiga ruxsatsiz aralashish yoki asl bo'lmagan (yoki qo'shimcha o'rnatilgan) ehtiyot qismlar, aksessuarlar va uskunalaridan foydalanish tufayli yuzaga kelganda.

9. Quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelgan nosozliklar:

- detallarning foydalanishdagi eskirishi;
- sifatsiz yoki mos kelmaydigan (shu jumladan muqobil) yoqilg'i va/yoki texnik suyuqliklar;
- siqilgan tabiiy gaz yoki suyultirilgan neft gazida ishlash uchun modifikatsiyalar;
- yonilg'i yoki motor moyiga qo'shiladigan qo'shimchalar yoki dvigatelni tozalash vositalaridan foydalanish;
- ehtiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish yoki baxtsiz hodisa natijasida;
- avtomobildan boshqa maqsadda yoki noo'rin foydalanish, jumladan, har qanday musobaqa, poyga, ralli, vaqtinchalik sinash maqsadida foydalanish;
- avtomobilning texnik ruxsat etilgan maksimal massasidan oshish;
- yuqori yuk tokchasiga va tomdag

reylinglarga tushadigan maksimal yukning oshib ketishi;

– tirkama zarur darajada jihozlanmasdan foydalanilganligi va massasi ruxsat etilgan massadan ortiq bo'lgan tirkama shatakka olinganligi;

– noto'g'ri xizmat ko'rsatish yoki qasddan shikast yetkazish, shuningdek, tozalash vositalari va materiallaridan foydalanish oqibatida yetkazilgan zarar holatida.

10. Sarf materiallari yoki tez buziladigan ehtiyot qismlarni, masalan, moylovchi moddalar, tormoz suyuqligi, saqlagichlar, antifriz, moy va boshqalarni almashtirish.

11. Odometr nosozligi, majburiy ravishda o'chirilgan yoki kelishuvsiz almashtirilgan yoki muhandislarning fikricha, masofa ma'lumotlari soxtalashtirilgan.

12. Har qanday tarkibiy qism (uzel yoki agregat) yoki uning qismlari ishdan chiqishi yoki shikastlanishi oqibatida, shu jumladan asl bo'lmagan ehtiyot qismning ishdan chiqishi bilan bog'liq har qanday turdagi bilvosita zararlar.

13. Shikastlar xalq qo'zg'olonlari, mehnat tartibsizliklari, ish tashlashlar, urushlar, qo'zg'olonlar yoki inqiloblar tufayli kelib chiqsa.

14. Oqibatlar va shikastlanishlar yadroviy chiqindilar yoki yadroviy yoqilg'ining yonishi natijasida hosil bo'lgan ionlashtiruvchi radiatsiya yoki radioaktiv ifloslanishlar, sanoat yoki kimyoviy chiqindilar, havoning, o'simlik shirasining, qushlar va hayvonlar

hayot faoliyati mahsulotlarining kislotali yoki ishqoriy ifoslanishi, yog'och qatroni, tuzlar (shu jumladan, yo'l tuzi), muzlashga qarshi reagentlar, do'l, yomg'ir, shamol va boshqa tabiiy hodisalar ta'sirida bevosita yoki bilvosita yuzaga kelsa.

15. Boshqa nosozliklar aniqlanganidan keyin o'z vaqtida bartaraf etmaslik. Avtomobil egasi tugunlar va/yoki agregatlar buzilib, keyinchalik ishdan chiqishi mumkin bo'lgan taqdirda yo'qotish, shikastlanish yoki buzilishlarning oldini olish uchun barcha mumkin bo'lgan ehtiyot choralarini ko'rish, avtomobilni ehtimoliy yo'qotish yoki shikastlanishdan himoya qilish uchun barcha oqilona vositalar va usullardan foydalanishi kerak.

16. Lak-bo'yoq qoplamasining tiralishi va yoriqlari (shag'al, toshlar, qum, metall zarrachalari yoki o'z navbatida tashqi sabablar bilan yuzaga keladigan boshqa obyektlar ta'siri natijasida), deformatsiya natijasida hosil bo'lgan yoriqlar va boshqalar tufayli yuzaga keladigan sirt korroziyasi.

17. Eksploatatsion materiallarning (masalan, tormoz yoki sovitish suyuqligi, moy yoki yog'lovchining) o'z vaqtida sizib chiqishi yoki sarfining ko'payishi aniqlanmaganligi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan eksploatatsiya materiallari va yoqilg'ini qo'llash natijasida yetishmasligi.

18. Avtomobil yoki uning elementlarining sifatiga, tavsiflariga yoki ishlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydigan kichik tafovutlar (masalan,

avtomobil agregatlari va tizimlarining normal ishlashi bilan birga kuzatiladigan kuchsiz shovqin, g'ichirlash yoki tebranishlar); moylar, maxsus usullarni qo'llamasdan aniqlab bo'lmaydigan texnik suyuqliklar yoki moylovchi moddalarning prokladkalar va salniklar orqali kam miqdorda (normal sarfiga ta'sir qilmaydigan) sizib chiqishi; pardozlash elementlari, lok-bo'yoq va galvanik qoplamaning kamchiliklari; ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatilgan displeylar ekranlarida miqdoriy ifodada yorqin yoki qora nuqtalarning (3 donadan ko'p bo'lmagan) oz miqdorda mavjudligi.

19. Yukni yuklash-tushirish yoki tashish natijasida yuk bo'limi va/yoki salonga yetkazilgan zarar.

20. Avtotransport vositasining identifikatsiya raqamini (VIN) yoki dvigatel raqamini o'zgartirish yoki o'chirish.

21. Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish (TX), shuningdek, avtomobilni noto'g'ri parvarish qilish, baxtsiz hodisalar, eskirish, tashqi va boshqa omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, ta'mirlash va almashtirish kafolat majburiyatlariga kiritilmaydi va haq evaziga amalga oshiriladi:

- dvigatel kompyuter diagnostikasi;
- yoqilg'i tizimini tozalash;
- tartibga solish, nazorat va diagnostika ishlari;
- ulanish mexanizmini sozlash;
- g'ildiraklar o'rnatish burchagini sozlash;

- farlarning yorug'lik darajasi va yo'nalishini sozlash;
- changdonlar;
- shinalarni almashtirish bo'yicha ishlarni bajarish;
- g'ildiraklarni muvozanatlash;
- tormoz diskleri, kolodkalari va nakladkalar;
- lampalar;
- oynatozalagich cho'tkalari;
- integratsiyalashgan boshqaruv blokini o'z ichiga olmaydigan saqlagichlar va rele;
- o't oldirish shamlari.

22. Maxsus transport vositalariga kafolat xizmatiga amal qilmaydi.

23. Yoqilg'i, moylar, texnik suyuqliklar yoki surkov moylari, tormoz suyuqligi, sovitish suyuqligi, yuvish suyuqligi va sovitgichdan tabiiy foydalanishdagi yo'qotilishi va sarfi.

24. Avtomobil uchun asboblari: avariya to'xtash belgisi, ballon kaliti, domkrat va domkrat koromislolari, asboblari to'plami.

25. Milliy qonunlar, qoidalar va tegishli normativ hujjatlarga muvofiq avtomobildan foydalanish bilan bog'liq ma'naviy zarar.

Avtomobildan foydalanish bo'yicha qo'llanmada va boshqa axborot manbalarida ko'rsatilgan yonilg'i sarfi amaldagi xalqaro standartlarga muvofiq standart komplektatsiyadagi avtomobil uchun laboratoriya sinovlari davomida olingan hisobiy qiymat hisoblanadi.

Foydalanish qo'llanmasida va boshqa axborot manbalarida ko'rsatilgan yoqilg'i

sarfining qiymati ushbu qiymatning haqiqiy operatsion yoqilg'i sarfiga muvofiqligini anglatmaydi yoki kafolatlamaydi.

Moy sarfi. Ichki yonish dvigatelining ishlash vaqtida uning konstruktiv xususiyatlari va ishlash xususiyatlariga muvofiq dvigatelda motor moyining sarfiga ruxsat etiladi. Moy sarfiga foydalaniladigan moyning sifati, haydash uslubi va avtomobilning ishlash sharoiti ta'sir qiladi. Yangi dvigatelni chiniqtirish davrida moy sarfi odatdagidan ortiq bo'lishi mumkin. Muntazam ravishda dvigateldagi moy darajasini tekshiring va kerak bo'lsa, qo'shimcha quying.

CHANGAN Automobile kompaniyasi nosoz avtomobildan foydalana olmaslik, vaqt yo'qotish, yoqilg'i, telefon aloqasi, transport xarajatlari, daromad yo'qotish va boshqa tijorat yo'qotishlarini qoplamaydi.

MULKDORLARNING MAJBURIYATI VA JAVOBGARLIGI

1. Xizmat ko'rsatish kitobchasida va foydalanish bo'yicha qo'llanmada bayon etilgan avtomobildan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha tavsiyalarga rioya qilish, shu jumladan:

- texnik suyuqliklar sathini muntazam ravishda tekshirish;
- asboblari va signal lampalarining to'g'ri ishlashini tekshirish;
- shinalardagi bosimni tekshirish (yuklanishga muvofiq);
- sovuq sharoitda - dvigatelni harakat boshlangunga qadar ish haroratigacha qizdirish.

2. CHANGAN kompaniyasining ta'mirlash va xizmat ko'rsatish texnologiyasiga muvofiq transport vositasiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni o'z vaqtida amalga oshirish. Barcha ta'mirlash ishlari, shu jumladan CHANGAN kompaniyasining kafolati amal qiladigan ta'mirlash ishlari CHANGAN Automobile kompaniyasining vakolatli servis markazida amalga oshirilishi kerak.

3. Mulkdor (ishonchli shaxs) tomonidan ko'rsatilgan barcha ta'mirlash ishlari mulkdor (ishonchli shaxs) tomonidan imzolanishi kerak. Avtomobilni olishda uning egasi buyurtma tartibida aytilgan va ko'rsatilgan barcha ishlar bajarilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

4. Odometr ishdan chiqqanda yoki

transport vositasida aniq nosozlik yuzaga kelganda, avtomobil egasi zarur ishlarni amalga oshirish uchun avtomobilni darhol CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga taqdim etishi shart.

5. Mexanik yoki elektr nosozliklari yuzaga kelganda avtomobilni eng yaqin vakolatli CHANGAN Automobile servis markaziga taqdim etish zarur.

Mulkdor dilerlik yoki vakolatli servis markaziga quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak:

- mulkdorning ma'lumotlari (F.I.Sh., telefon raqami, manzili va boshqalar);
- VIN (avtomobilning identifikatsiya raqami);
- sotish sanasi;
- murojaat vaqtida avtomobil bosib o'tgan masofa;
- nosozlik tavsifi.

TEXNIK XUSUSIYATLARNING O'ZGARISHI

CHANGAN Automobile mustaqil ravishda yoki uchinchi shaxslar ishtirokida dvigatelni boshqarish tizimlarini o'zgartirish yoki tuzilishiga o'zgarishlar kiritish natijasida yuzaga kelgan har qanday nosozliklar uchun javobgar emas.

Dvigatelni boshqarish tizimining dasturiy ta'minoti uning ish xavfsizligi va ishonchligiga ta'sir qiladi va belgilaydi. Ruxsatsiz aralashish yoki dasturiy ta'minotni

o'zgartirish dvigatelning kutilmagan yoki xavfli ishlashiga olib kelishi mumkin.

Bunday o'zgarishlar avtomobil qismlari va/yoki agregatlarining (dvigatel, ulanish moslamasi, uzatmalar qutisi, reduktor, chiqindi gazlarni chiqarish tizimi va zararli ta'sirlarni kamaytirish) shikastlanishiga olib keladi. Bunday o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan har qanday zararlarga CHANGAN Automobile kompaniyasining kafolat majburiyatlari amal qilmaydi.

Dvigatelni boshqarish tizimiga ruxsatsiz aralashish uning ekologik xususiyatlarining yomonlashishiga va erta mexanik buzilishlarga olib kelishi mumkin.

CHANGAN Automobile kompaniyasi multimedia tizimi elementlarining ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan multimedia tizimi tuzilmasiga ruxsatsiz mustaqil yoki tashqi aralashuv yoki kelib chiqishi noma'lum bo'lgan uchinchi tomonning tartibga solinmagan dasturiy ta'minotini o'rnatish natijasida yuzaga keladigan har qanday nosozliklar yoki ishdan chiqishlar uchun javobgar emas. Multimedia tizimining dasturiy ta'minotini yangilash yoki avtomobil funksiyalarini faollashtirish uchun - CHANGAN Automobile vakolatli servis markaziga murojaat qilishingiz kerak.

KAFOLAT TUGATILISHI

Agar avtomobil CHANGAN Automobile kompaniyasining tavsiyalariga muvofiq belgilangan texnik xizmatdan o'tmasa,

kafolat o'z kuchini yo'qotadi. Transport vositasiga texnik xizmat ko'rsatilmaganligi bilan bog'liq nosozliklar bilan bog'liq har qanday murojaatlar uchun to'lov transport vositasining egasi hisobidan amalga oshiriladi.

KAFOLATNI O'TKAZISH

Avtomobil kafolati dilerlik korxonasiga berilgan va mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan CHANGAN Automobile kompaniyasining yozma so'rovi asosida transport vositasining keyingi egasiga o'tadi. E'tibor bering, yangi mulkdorning ma'lumotlari bilan birga barcha ta'mirlash hujjatlari nusxasi taqdim etilishi kerak. Ma'lumot olingandan va tekshirilgandan so'ng, ma'murlar tizimga yangi foydalanuvchini ro'yxatdan o'tkazadilar. Kafolatni bir avtomobildan ikkinchisiga o'tkazish mumkin emas.

XIZMAT KO'RSATISHGA DOIR TALABLAR

Avtomobilga reglament va xususiyatiga muvofiq o'z vaqtida texnik va servis xizmatini CHANGAN Automobile vakolatli servis markazida amalga oshiring. Agar transport vositasiga spetsifikatsiyalarga muvofiq xizmat ko'rsatilmasa, kafolat o'z kuchini yo'qotadi. Servis daftarchasini to'g'ri va aniq to'ldirish zarur.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash

o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar servis daftarchasiga aniq qayd etilishi kerak.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH TARTIBI

Texnik xizmatdan o'tish vaqtini (TX) aniqlash uchun avtomobil masofa (km) standartiga yoki foydalanish muddatiga amal qilish kerak. Har bir tekshirish, sozlash, moylash va boshqa zarur texnik xizmat ko'rsatish jadvallarda ko'rsatilgan vaqt bo'yicha qat'iy bajarilishi kerak.

Og'ir sharoitlarda foydalanishda texnik xizmat ko'rsatish intervalini qisqartirish zarur:

- dvigatelning bitta ish davrida tez-tez to'xtagan holda qisqa masofalarga safar qilish: atrof-muhit harorati 0 °C va undan yuqori bo'lganda 6 km dan kam masofani bosib o'tish yoki atrof-muhit harorati 0 °C dan past bo'lganda 16 km dan kam masofani bosib o'tish;
- chang yoki tuproq yo'llarda harakatlanish;
- dvigatelning neytral aylanishlarda uzoq vaqt ishlashi, dvigatelning past aylanishlarida past tezlikda harakatlanishi, tig'iz oqim va tirbandliklarda;
- atrof-muhitning haddan tashqari yuqori yoki haddan tashqari past haroratlari sharoitida avtomobildan foydalanish;
- dvigatelga yuqori yuklanishda harakatlanish (tog'li yoki adirliklarda harakatlanish, tez-tez faol tezlik

olish/tormozlash, tirkamalarni shatakka olish yoki og'ir yuklarni tashish);

- tijorat transporti rejimida safar (taksilar, yo'llarda yordam, yetkazib berish xizmati).

Avtomobilni og'ir sharoitlarda, changli yoki qumli joylarda, ifloslangan hududda yoki umumiy foydalanishdagi yo'llardan tashqarida boshqarayotganda - havo filtrining holatini muntazam ravishda tekshiring va kerak bo'lsa uni almashtiring.

SHARTLI BELGILAR

I - Tekshirish, ko'zdan kechirish, sozlash (zarur bo'lganda).

Zarur hollarda ta'mirlash (tozalash yoki almashtirish).

R - Almashtirish.

*: Uzatma kamarlar tarangligini tekshirish va sozlash:

- generator, rul boshqaruvi kuchaytirgichi, suv nasosi kamari,
- konditsioner uzatma kamari (agar o'rnatilgan bo'lsa).

Ko'zdan kechirish, sozlash yoki almashtirish (zarur bo'lsa).

*¹: Dvigatel moy sathini tekshirish, jumladan har 500 km yoki uzoq safarlardan oldin moy oqishini tekshirish.

*²: mavjud bo'lsa.

*³: faqat dizel dvigatel uchun.

*⁴: yoqilg'i nasosining bir qismi sifatida yonilg'i filtri bilan tizimli jihozlangan avtomobillar uchun.

Avtomobillarga muntazam texnik xizmat ko'rsatish qoidolari

NOMI	XIZMAT ORQALIG'I	Oylar soni/avtomobil bosib o'tgan yo'l (qaysi biri birinchi kelishiga qarab).													
		No TX	TX-0	TX-1	TX-2	TX-3	TX-4	TX-5	TX-6	TX-7	TX-8	TX-9	TX-10	TX-11	TX-12
		foydalanish muddati, (oy.)	3 oy	15	27	39	51	63	75	87	99	111	123	135	147
				1 yil va 3 oy.	2 yil va 3 oy.	3 yil va 3 oy.	4 yil va 3 oy.	5 yil va 3 oy.	6 yil va 3 oy.	7 yil va 3 oy.	8 yil va 3 oy.	9 yil va 3 oy.	10 yil va 3 oy.	11 yil va 3 oy.	12 yil va 3 oy.
		masofa, km (x1 000)	5	15	25	35	45	55	65	75	85	95	105	115	125
KUCH AGREGATLARI															
GTM kamari *2		I	Har 80.000 ~ 100.000 km da almashtirish												
Uzatma kamarlari *			I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Motor moyi va dvigatel moyi filtri *1		R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	
Dvigatel sovutish suyuqligi		I	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	
Drossel zaslonkasi to'plami		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
MUO'Q uchun transmissiya suyuqligi *2		Har 60.000 km yoki 3 yilda almashtirish													
AUO'Q uchun transmissiya suyuqligi 7DCT*2		Har 60.000 km yoki 3 yilda almashtirish													
Tarqatish qutisidagi transmissiya suyuqligi, differensial (4WD) *2		Har 60.000 km yoki 3 yilda almashtirish													
Sovutish tizimi (quvurlar, shlanglar va ulanishlar)		I		I		I		I		I		I		I	
Havo filtri		I	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	
YOQILG'I TIZIMI															
Yoqilg'i quvurlari, shlanglar va ulanishlar		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Yoqilg'i filtri (EURO IV, EURO V) *2		R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	
Yoqilg'i filtri (EURO VI) *2*4		Har 100.000 km yoki 4 yilda almashtirish													
Yoqilg'i baki		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	
Yoqilg'i bakidagi filtr (EURO VI) *2		I	I	I	I	R	I	I	I	I	R	I	I	I	

XIZMATLARARO
--

I - Tekshirish, ko'zdan kechirish, sozlash. Zarur hollarda ta'mirlash (tozalash yoki almashtirish).

R - Almashtirish.

Foydalanishning murakkab sharoitlarida avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish reglamenti

Avtomobildan murakkab sharoitlarda foydalanishda quyida ko'rsatilgan qism va elementlarga tez-tez xizmat ko'rsatish zarur.

Texnik xizmat ko'rsatish intervallari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Nomi	Amaliyot	Xizmat ko'rsatish oralig'i	Foydalanish shartlari
Dvigatel moyi va moy filtri	R	Har 5000 km yoki 6 oyda almashtirish	A, B, C, D, E, F, G, H, I, K, L
Havo filtri	R	Holatga qarab almashtirish	C, E
O't oldirish shamlari	R	Holatga qarab almashtirish	A, B, H, I
Rul boshqaruvi - rul reykasi, dastaklar va uchliklar	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, E, F, G
Old podveskaning sharsimon tayanchlari, saylentblokklar	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, E, F, G
Kuzov va shassidagi bolt va gaykalarni tortish momentlari	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, E, F, G
Tormoz tizimi (disklar, kolodkalar, gupchaklar va yo'naltirgichlar)	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, E, F, G
To'xtash tormozi	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, G, H
Uzatma vallar, changdonlar va SHRUSlar	I	Holatga qarab tekshirish	C, D, E, F, G, H, I
MUO'Q transmissiya suyuqligi (agar mavjud bo'lsa)	R	Har 15 000 km yoki 12 oyda tekshirish. Zarur hollarda suyuqlikni almashtirish.	C, D, E, F, G, H, I, K, L
AUO'Q transmissiya suyuqligi (agar mavjud bo'lsa)	R	Har 60 000 km	A, C, F, G, I
Qo'sh ulanishli AUO'Q transmissiya suyuqligi (agar mavjud bo'lsa)	R	Har 40 000 km	C, D, F, G, H, I, K
Iqlimni boshqarish tizimining havo filtri (mavjud bo'lsa)	R	Holatga qarab almashtirish	C, E

Murakkab foydalanish sharoitlari:

- A: Qisqa masofaga bir necha marta (takroriy) safar qilish: normal haroratda 8 km dan kam yoki past haroratda 16 km dan kam;
- B: Dvigatelning neytral aylanishlarda uzoq vaqt ishlashi yoki katta masofalarga past tezlikda harakatlanish;
- C: Avtomobildan notekis, chang, loy, tuproq, shag'al yo'llarda yoki tarkibida tuz miqdori ko'p bo'lgan yo'llarda foydalanish;
- D: Avtomobildan tarkibida tuz va/yoki boshqa korrozion materiallar ko'p bo'lgan yo'llarda (yoki tumanlarda) foydalanish. Past haroratlarda foydalanish;
- E: Avtomobildan yuqori changli sharoitda foydalanish;
- F: Avtomobildan tig'iz oqimda, tirbandliklarda va tiqilinchlarda foydalanish;
- G: Tog' yo'llarida, uzoq davom etadigan ko'tarilish va qiyaliklarda avtomobildan bir necha marta (takroriy) foydalanish;
- H: Tirkamalarni shatakka olish, kemperni tashish yoki tomdagi yukxonadan foydalanish;
- I: Avtomobildan patrul mashinasi, taksi, tijorat avtomobili yoki transport vositasini shatakka olish vositasi sifatida foydalanish;
- J: 140 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanish;
- K: 170 km/soatdan yuqori tezlikda harakatlanish;
- L: Avtomobilni start-stop holatida tez-tez ishga tushirish.